

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS**  
**TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HARBIY TA’LIM**  
**FAKULTETI USLUBIY TAYYORGARLIK SIKLI**  
**«CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIKNI**  
**TASHKIL ETISH VA UNI O‘QITISH METODIKASI» FANI BO‘YICHA**

**MA`RUZA MATNLARI**

(muallifi sikl boshlig`i-katta o`qituvchi podpolkovnik Xasanov M.)

|                    |           |                             |
|--------------------|-----------|-----------------------------|
| Bilim sohasi:      | 100000 –  | Gumanitar                   |
| Ta'lim sohasi:     | 110000 –  | Pedagogika                  |
| Ta`lim yo`nalishi: | 5111500 – | Chaqiriqqacha harbiy ta`lim |

Toshkent sh.

## **FANNING MA'RUZA MATNLARI MAZMUNI**

### **MAVZU № 1: CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK - O'RQK XIZMATIGA TAYYORLASH TIZIMINING TARKIBIY QISMI.**

#### **REJA:**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1.CHQBT fanining maqsadi, vazifalari va o'quv dasturining qisqacha mazmunini talabalarga tushuntirish.

2.CHQBTni tashkil etish bo'yicha boshqaruv xujjatlarining talablarini talabalarga tushuntirish.

3.Harbiy rahbar va CHQBT o'qituvchisi ega bo'lishi lozim bo'lgan asosiy sifatlarni talabalarga tushuntirish.

4.Talabalarda harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishlarni yanada oshirish.

O'quv savollari:

1.CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsadi, vazifalari va o'quv dasturining qisqacha mazmuni.

2.CHQBTni tashkil etish bo'yicha boshqaruv xujjatlari.

3. CHQBT o'qituvchisining ega bo'lishi lozim bo'lgan asosiy sifatlari.

Vaqt: 2 soat.

Joyi: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza

Tayanch so'z va iboralar: O'RQK - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari;

CHQBT - chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik; "Vatanparvar tashkiloti" - mudofaaga ko'maklashuvchi jamiyat.

#### **1 – o'quv savoli.CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsadi, vazifalari va o'quv dasturining qisqacha mazmuni.**

O'zbek xalqining asriy orzusi ushlanib, mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri- mustaqil O'zbekistonning mudofaasini mustaxkamlash va milliy havfsizligini ta'minlashga qaratildi.

Bugungi kunda fanning eng yaxshi ixtirolari harbiy sohada tez qo'llanilishi va taraqqiyotning yuksak darajada rivojlanganligi sharoitida, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash ishlarining ahamiyati o'z-o'zidan oshib bormoqda. Xalqaro terrorizmning, separatçilik harakatlarining ko'p davlatlarda avj olishi, global urush xavfi bartaraf bo'lib lokal urushlarni paydo bo'lishi askarning ruhiy, jismoniy va maxsus tayyorgarligiga yangi talablarni qo'ymoqda. Undan turli xolatlarda o'zini munosib tuta olishni va tezlik bilan vaziyatni to'g'ri baholay olishni, hamda eng to'g'ri qarorni qabul qila olishni, o'z harakatlarini bo'linma harakatlari bilan moslashtira olishni talab qilmoqda. YAngi texnika vositalari jangovar harakatlar olib borish hususiyati va uslublarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu hozirgi sharoitda jangovar mashinalarda, tanklarda, samolyot shturvallarida, zenit-raketa komplekslarda harbiy va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan harbiy xizmatchilar bo'lishi kerak deganidir.

YOshlarning chaqiriqqacha tayyorgarligiga umumiy rahbarlik va nazorat O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga va Mudofaa Vazirining harbiy ta'lim boshqarmasiga yuklatilgan. CHaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikning nazorati O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining Birlashgan shtabi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi,

«Vatanparvar» tashkilotining Markaziy kengashi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning rejalari asosida olib boriladi.

Armiya davlat mexanizmlaridan biri bo'lib, ko'p tomonlama davlatning taqdirini, ichki barqarorligini, hozirgi zamondagi o'rni va rolini belgilaydi. Qurolli Kuchlar davlat hududiy yaxlitligini va uning fuqorolarini tinch hayotini ta'minlaydi.

Harbiy sohadagi islohatlar shart-sharoitlarida Qurolli Kuchlar yangi sifat kasb etmoqda. Armiyamizda tuzilmaviy o'zgarishlar o'tkazilib, harbiy doktrina mudofaa yo'nalishiga va uning rivojlanishi sifat va aqliy ustuvorliklar asosida shakllantirishga qaratilgan.

SHu munosabat bilan bugun har bir Vatanimiz jangchisidan aniq ish, yuksak vatanparvarlik tuyg'usi, o'zining jangchilik burchini vijdonan bajarishini, va shaxsiy ma'suliyat talab etiladi. Jangovar shaylikni yuqori darajada ushlab turish, jangchilik mahoratni takomillashtirish, tartib va intizomni mustahkamlash har bir askarning mamlakat mudofaa qudratini ta'minlashdagi ulushi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oldidagi yuksak va ma'suliyatli vazifalarni sog'lom, jismonan baquvvat va chidamli, aqlan shakllangan, yuksak ma'naviy-jangovar sifatlarga ega, Vatan himoyasi yo'lida vatanparvarlik va fuqaroviy burchini bajarishga tayyor kishigina uddalay oladi. Armiya sharoitida askarning jismoniy, aqliy va ma'naviy sifatlarini harbiy xizmat jarayonida samarali qo'llay olishida ko'p jihatdan chaqiruvga qadar va chaqiriq yoshidagi o'smirlarni tayyorgarligining samaradorligiga bog'liq.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «YOsh avlodni el-yurtga, vatanga sadoqatli, iymon-e'tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim o'chog'larining aloxida o'rni bor».

CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlari o'sib kelayotgan avlodni jismoniy, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik va davlat mudofaasi hamda mehnatiga shay holda turish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

CHaqiruvga qadar yoshlarni tayyorlashning **asosiy vazifalari** boshlang'ich harbiy bilimlar, jismoniy tayyorgarlik, o'z Vatanining harbiy tarixini, ramzlarini o'rganish, jangchi va vatanparvar fuqaroni shakllantirishni qamrab oladi.

«YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi» kursining **vazifasi** yoshlarga ta'lim jarayonida quyidagilarni o'rgatishdan iborat:

- O'zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilish;

- O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo'shinlarning vazifalarini;

- O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa haqida» «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to'g'risida»gi qarorini, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi asosiy qoidalarini;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o'rganishni va anglashni;

- harbiy qismning qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning turmush tarzi va joylashuvi bilan tanishishni;

- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, shuningdek jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma'nan mustahkam bo'lishni;

- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o'zlashtirishni;

YOCHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o'tashda o'zining konstitutsiyaviy burchini a'lo darajada bajarilishini va o'ziga topshirilgan zamonaviy jangovar qurol va harbiy texnikani qisqa muddatda o'zlashtirib olishini ta'minlashdan iborat.

YOshlarga harbiy ta'lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o'quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi qo'shinlarning jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi. CHaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi o'smirlar bilan ishlash ko'p qirrali va o'ziga hos jarayondir. CHunki ularning barchasida ham hayotga o'z qarashlari, xarakteri va an'analari barqarorlashmagan. YOshlarimiz kuch-quvvatga, g'ayrat shijoatga to'la va ularda o'zini namoyon etish hissi juda kuchlidir, biroq buni jamiyat yoki jamoa foydasiga yo'naltirishni hamma yoshlar ham uddalay olavermaydi. SHuning uchun bunday yoshlarning yonida doimo ularning qalblariga ezgu an'analarni, axloqiy tamoyillarni, vatanparvarlik va insoniylik tuyg'ularini singdirib boradigan sadoqatli va vafodor do'sti, yaqin maslahatchisi, mohir ustози bo'lgani ma'qul deb hisoblanadi. Vataniga muhabbatsiz, yurt himoyachisi bo'lishdek kasbga faxr tuyg'usiz, o'z tarixi va ajdodlar an'alarini hurmatlamaydigan tarbiya bilan kuchli armiya va barqaror davlat qurib bo'lmaydi. CHaqiriqqacha va chaqiruv yoshidagi yoshlarni ta'lim-tarbiyasi bo'yicha vazifalarni to'laqonli bajarilishi, chinakam vatanparvarlar, o'z ishining malakali mutaxassislaridan iborat professional armiya vakillarini etishtirish imkonini beradi. Bunday jiddiy, o'ta ma'suliyatli va sharaflil vazifani uddalashda ta'lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi a'lohida ahamiyatga ega. Umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasalarida «YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani uchun o'g'il bolalarga - 140 soat; qiz bolalarga - 70 soat (36 soat «Fuqaro muhofazasi»ga va 34 soat «Tibbiy bilim asoslari»ga) ajratilgan.

Mashg'ulotlar umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining oxirgi ikki yilida haftasiga ikki (yoki oyiga besh, olti) soatdan o'qitiladi.

Ta'lim muassasalarida «YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani o'tilmagan yoki mazkur fan bo'yicha sinovdan o'tmagan yoxud yakuniy bahosi "qoniqarsiz" deb topilgan chaqiriq yoshidagi o'spirinlar bilan shahar yoki tuman hokimligining qarori bilan tashkil qilingan mudofaa sport-sog'lomlashtirish lagerlari (MSSL)da 160 soatlik dastur asosida ushbu fan o'tiladi.

Ta'lim muassasalarida «YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» fani nazariy, amaliy, nazorat va dala-o'quv mashg'ulotlari (yig'inlari) shaklida o'tkazilib, kirish mavzusi va quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi:

- Harbiy ish asoslari;
- Otish tayyorgarligi;
- Harbiy xizmat asoslari;
- Amaliy jismoniy tayyorgarlik;
- Fuqaro muhofazasi;
- Tibbiy bilim asoslari.

Bitiruvchi kurs talabalari bilan o'qitishning yakuniy bosqichda CHQBTdan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va yuqorida dastur bo'limlarida ko'rsatilgani bo'yicha nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish uchun, YOCHQBTga ajratilgan vaqt hisobidan uch kunlik dala o'quv mashg'ulot (yig'in)lari o'tkaziladi. Bu mashg'ulot (yig'in)lar quyidagi tartibda o'tkaziladi:

– umumta'lim maktablarida va akademik litseylarda 11-sinf (3-kurs) talabalari bilan mart va may oylarida,

– kasb-hunar kollejlarida 3-kurs talabalari bilan o'qitishning so'ngi pallasida o'tkaziladi;

– tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o'quv punktlaridagi talaba o'g'il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

## **2 – o'quv savoli. CHQBTni tashkil etish bo'yicha boshqaruv xujjatlari.**

CHaqiruvga qadar tayyorgarlik uchun zarur xujjatlarning hisobini yuritishda qulayliklar yaratish va ulardan foydalanish uchun ularni quyidagi guruhlarga birlashtirish ma'qul:

1. Boshqaruv hujjatlari;
2. YOCHQBTni rejalashtirish va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha xujjatlar;
3. Ta'lim muassasasi buyruqlari;
4. Hisob yuritish va hisobot hujjatlari.

#### *I. BOSHQARUV XUJJATLARI:*

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasini.
4. O'zbekiston Respublikasining YOshlarni chaqiruvga qadar tayyorlash nizomi. 1994 y.
5. O'zbekiston Respublikasining «YOshlarni chaqiruvga qadar tayyorlash» konsepsiyasi. 1992 y.
6. Ta'lim muassasalarida «Qurol-aslaha, kichik kalibrli miltiq va ular uchun o'q-dorilarni olish, hisobini yuritish va saqlashni tashkil etish» bo'yicha yo'riq-noma.
7. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari, direktivalari, ko'rsatmalari.
8. Ta'lim muassasalarida «CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv-moddiy bazasini jihozlash va takomillashtirish» bo'yicha tavsiyalar.
9. Ta'lim muassasasining buyruqlari.

#### *II. YOCHQBTni REJALASHTIRISH VA HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI BO'YICHA HUJJATLAR:*

1. YOCHQBT ni o'tkazish bo'yicha xaftalik reja.
2. Harbiy xonaning oylik ish rejasi (darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar rejasi).
3. Mashg'ulot o'tkazish rejasi (reja-konspekt).
4. CHaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisi (CHQBT O'ning o'quv yiliga mo'ljallangan siyosiy, harbiy, pedagogik bilimlarni oshirish, uslubiy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha shaxsiy rejasi.
5. Ta'lim muassasasida YOCHQBT bo'yicha o'quv-moddiy bazani tiklash va takomillashtirishning o'quv yiliga mo'ljallangan istiqbolli rejasi.
6. Ta'lim muassasasi va homiy harbiy qism bilan talabalarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha hamkorlikda o'tkaziladigan o'quv yiliga mo'ljallangan tadbirlar rejasi.
7. CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari bo'yicha o'quv-uslubiy komissiyasining ish rejalarini.
8. Bitiruvchi sinflar (oxirgi kurslar)dagi o'smirlar bilan dala o'quv mashg'ulot (yig'in) lariga (DO'M (y) ) tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish rejasi.
9. Ta'lim muassasasida harbiy-sport bayramini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish rejasi.
10. Harbiy ish asoslari, harbiy-amaliy sport turlari bo'yicha to'garaklar va seksiyalarning ish rejasi.
11. Harbiy o'quv muassasalariga nomzodlarni saralash bo'yicha bajariladigan ishlar rejasi.

#### *III. TA'LIM MUASSASASI BUYRUQLARI:*

1. O'quv yilida YOCHQBT mashg'ulotini tashkil etish haqida.
2. Guruh, seksiyalarni tashkil etish va komandirlarni tayinlash to'g'risida.
3. Kichik kalibrli miltiqdan otishni o'tkazish to'g'risida.
4. Talabalar bilan dala-o'quv mashg'ulot (yig'in)larini o'tkazish to'g'risida.

5. Talabalarga YOCHQBT dasturi bo'yicha o'qitilishni yakunlanishi to'g'risida.

#### *IV. HISOB YURITISH VA HISOBOT XUJJATLARI:*

1. CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning yillik yakuniy hisoboti.
2. CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni to'liq kursini tugatgan o'smirlar ro'yhati.
3. YOCHQBT mashg'ulot davomati bo'yicha ta'lim muassasasi direktori daftari.
4. Qorovulxona signalizatsiyasining ahvolini kundalik tekshiruv va qurol saqlash xonasini qorovulga topshirish daftarini yuritish.
5. Qurol va kichik kalibrli miltiq saqlash huquqini beradigan shahar (tuman) ichki ishlari bo'limning ruxsatnomasi.
6. O'quv qurol-aslahalar, kichik kalibrli miltiq va unga o'q-dori va tabeldagi o'quv buyumlarini qayd etish va hisobini yuritish daftari.
7. O'quv qurol-aslahalar, kichik kalibrli miltiq va unga o'q-dori va tabelli o'quv qurollarini oldi-berdisini qayd etish kitobi.
8. O'quv qurol-aslahalar, kichik kalibrli miltiq va unga o'q-dorilarni saqlash va nazorat qilinishini qayd etish jurnali.
9. Adabiyot va o'quv qo'lanmalarini qayd etish kitobi.
10. Sinf jurnali.
11. Harbiy ish asoslari va amaliy sport turlari va to'garak seksiyalarining ishlari bo'yicha hisobotlarni qayd etish jurnali.
12. O'q otish mashqlarini o'tkazishda talabalarga havfsizlik chora-tadbirlari bo'yicha yo'l-yo'riq berish jurnali.
13. Tuman (shahar) mudofa ishlari bo'limi va MK«Vatanparvar» tashkiloti omborlaridan qurol qabul qilish hujjatlari (nakladnoy).
14. Xonanig qurol saqlash uchun yaroqliligi to'g'risida dalolatnoma.
15. Kichik kalibrli miltiqning o'q-dorilarini ro'yxatdan o'chirish aktlari.
16. O'q otish mashqlarida talabalarga kichik kolibrli o'q-dorilarni tarqatish qaydnomasi.
17. YOCHQBT va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha talabalarga tadbirlar o'tkazish natijalarinig jadvali, bayonnomalari va qaydnomalari.

#### *Bayonnomali hujjatlarga quyidagilar kiradi:*

- Nazorat mashg'ulotlari va talabalar tomonidan YOCHQBT bo'yicha nazorat me'yorlarini bajarilishi va tekshiruv bayonnomasi;
- Ta'lim muassasasida birinchilik uchun harbiy - sport musobaqalari bayonnomasi;
- Talabalar tomonidan bajariladigan mashqlar va jismoniy sog'lomlashtirish majmuasi talablarining bayonnomalari.
- Ta'lim muassasasi jamoasining tuman (shahar) va boshqa harbiy-sport musobaqasidagi ishtiroki to'g'risidagi bayonnomadan ko'chirma;
- Rekordlar va talabalarining ta'lim muassasasida YOCHQBT bo'yicha yuksak yutuqlari jadvali.

#### **3 – o'quv savoli. CHQBT o'qituvchisi ega bo'lishi lozim bo'lgan asosiy sifatlar.**

O'tkazilgan tadbirlar bayonnomalarini to'g'ri rasmiylashtirish CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi (CHQBT O') ning faqat so'zda emas, balki amalda ham to'g'ri ish yurita olishini tasdiqlaydi. Ta'lim muassasasi talabalarining yarim yillik natijalari va bayonnomalarga qarab, YOCHQBT dasturini o'zlashtirish darajasiga, musobaqa, mashg'ulot va boshqa tadbirlarga baho berish mumkin. Har bir YOCHQBT o'qituvchisi yoshlarni chaqiruvga

qadar boshlang'ich tayyorgarligining barcha boblari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni uslubiy to'g'ri o'tkazishga majbur. O'qituvchining uslubiy mahorati zahirida uning pedagogik va harbiy bilimi, yuksak amaliy tayyorgarligi va tamoyillarni qo'llash, talabaga ta'lim-tarbiya berishda uslub va uslubiy usullarini ijodiy qo'llash qobiliyati yotadi. *Nazariy* mashg'ulotlarda talabalar O'R QK nizomlarining asosiy qoida va talablarini, harbiy ish asoslari bo'yicha boshqaruv va yo'l-yo'riqlarni, shuningdek xaqiqiy harbiy xizmatni o'tashda egallagan bilim va malakalarni qanday foydalanish kerakligi yuzasidan maslahat va tavsiyalarni o'zlashtirishadi. Ma'lumki, harbiy rahbar, CHQBTO'lari odatda, nazariy mashg'ulotlarni didaktik materiallar va ta'lim texnik vositalari yordamida hikoya shaklida bayon etadi.

**Amaliy** mashg'ulotlarda talabalar mashq bajarish, me'yorlar va harakat usullarini bajarilish texnikasini o'rganishlari va mustahkamlashlari, shuningdek, qurilmalar, jihozlangan maydonchalar, mashg'ulotlar joyi va qurol, asboblari, muhandislik qurol vositalari, shaxsiy himoya vositalari, sport snaryadlari va anjomlaridan foydalangan holda o'q otish va boshqa masalalarni hal qilishni o'rganishlari lozim.

Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish va o'tkazishda rahbarning darsga munosabati va shug'ullanayotganlarga ta'sir o'tkaza olishi, shaxsiy namunasi muhim ahamiyatga ega. Ijodiy shaxsiy namuna, harbiy rahbar, CHQBTO' ning yuksak amaliy tayyorgarligida, mashg'ulotni yaxshi olib bora bilishida, ta'lim olayotganlarga mashq usullarini aniq va chiroyli ko'rsata bilishida, qisqa va lo'nda tushuntira olish bilan birga ularni qiziqitira olishida ifodalanadi. Mashg'ulot rahbari dars vaqtidan tejamkorlik bilan foydalanib, uning optimal zichligiga amal qilishni, har bir mashg'ulot uchun zarur mashq, usul va harakatlarni to'g'ri tanlay bilishni, ularning intensiv bajarilishini ya'ni dars jarayonida yuklamani to'g'ri taqsimlay olib bilishni uddalashi lozim.


SHu maqsadda mashg'ulot rahbari talabada zaruriy sifatlarni shakllantirishga aytarli xizmat qilmaydigan, o'rganishda esa uzoq vaqtni talab qiladigan, mashq, usul, harakatlarni qo'llashdan qochishi kerak. Tajribali mashg'ulot rahbari ta'limni murakkab bo'lmagan mashqlarni o'qitish elementlari bo'yicha emas, balki butunligicha olib boradi va imkon bo'lishi bilan (bundan mashqlarni keyinchalik bajarilish texnikasining takomillashuvi haqida unutmaganda) barcha hollarda batafsil tushuntirishlar va takroriy ko'rsatib berishlarga ortiqcha bir daqiqani sarflamasdan ta'limni kuch-g'ayrat bilan, tezlik bilan olib borishga darhol o'tadi.

Amaliy mashg'ulot o'tkazishda mashg'ulot rahbari talabalar qurol, jangovar texnika, o'q-dori bilan ishlaganida havfsizlik chora tadbirlariga rioya etishga, ularga yordam berishga va ehtiyot choralarini amalga oshirishga, jarohat va baxtsiz hodisalarning oldini olish tadbirlarini ko'rishga majbur. Mashg'ulot rahbari ongini, vijdonan darsiga yondoshmog'i kerak. Aniq va ishonchli buyruqlar, ta'lim olayotganlarga do'stona va tengqurdek munosabatda bo'lish darsning qiziqarli o'tishiga yordam beradi. Mashg'ulot rahbariga ta'lim oluvchilarga nisbatan qattiq qo'llik, jahldorlik, qo'pol muomalada bo'lish, ularni doimiy tanqid qilish tavsiya etilmaydi. Mashg'ulot rahbari nafaqat talabalarga ko'nikmalar shakllanishiga g'amxo'rlik qilishi, balki harbiy qasamyod va umumharbiy nizomlar talablari asosida ularni tarbiyalamog'i, yuksak intizomli va ma'suliyatli bo'lishlariga erishmog'i lozim. Mashg'ulot davomida mashg'ulot rahbari saf nizomlari talablarini buzilishiga zarracha ham yo'l qo'ymasligi, shu qatorda alohida e'tiborni amaliy xarakatlarni to'g'ri bajarilishida mashq va me'yorlarni bor kuchni sarflamasdan bajarish kabi turli holatlarni bartaraf etishga qaratishi kerak. Darsda yuqori tashkilotchilikni saqlab turishga mashg'ulot rahbarining o'zini tutishi katta ahamiyatga ega. Uning saranjom-sarishtali tashqi qiyofasi, qaddining rostligi, ixchamliligi, talabalarga nisbatan o'ta talabchanligi ko'p hollarda mashg'ulotni muvaffaqiyatli o'tilishiga zamin yaratadi. Intizomni mustahkamlash va ta'lim oluvchilarni o'quv mashg'ulotiga qiziqitirish maqsadida mashg'ulot rahbarining intiluvchan, harakatchan va har tomonlama rivojlangan talabalarni boshqalarga namuna qilish orqali rag'batlantirishi, yomon o'qiydiganlarga esa ta'zir berishi va ularda o'z harbiy va jismoniy jihatdan tayyorgarliklariga ma'suliyat hissini oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Darxaqiqat amaliy mashg'ulotlarni o'tishda harbiy rahbar uchun uning asosiy tamoyil va qoidalarni bilish va ularga rioya qilish etarli emas, bundan tashqari ularni amaliyotda mohirona qo'llashi, har bir mashg'ulotda me'yor, usul va harakatlar bajarilishini o'rganish va mashq qilishning yanada katta naf beradigan shart-sharoitlarini yaratib olishi mumkin bo'ladi.

Bu barcha turli talablarni bir vaqtning o'zida mohirona biriktirish harbiy rahbarning uslubiy mahorati bo'lib hisoblanadi. Bu mahorat har bir mashg'ulotni o'tkazish uchun oqilona yondashuv muhitini yaratib, harbiy rahbarning oz fursatda etarli tajriba to'plash, tashkiliy va uslubiy ko'nikmalarga va asosiy sifatlarga ega bo'lish va tajriba to'plash imkonini beradi.


## Ilova № 1

**Fanning maqsadi, vazifasi uni tuzilmaviy - mantiqiy chizmasi.**



## Ilova № 2

**Fanning boshqa harbiy fanlar bilan uzviy bog'liqligi**



**2-MAVZU: TA'LIM MUASSASASI DIREKTORI VA HARBIY RAHBAR -  
YOSHLARNI O'RQK XIZMATIGA TAYYORLASH BO'YICHA O'QUV-  
TARBIYAVIY JARAYONINING ASOSIY TASHKILOTCHILARI.**

**Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. Talabalarga ta'lim muassasasi direktori, harbiy rahbar, (CHQBT o'qituvchisi), maxsus maktab-internat va harbiy litseylardagi guruh tarbiyachi sardorlari, ma'naviyat va ma'rifat shlari bo'yicha direktor o'rinbosari, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, guruh rahbari va ta'lim muassasasi boshqa o'qituvchilarining majburiyatlarini tushuntirish.

2. Talabalarga ta'lim muassasasi va mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlarida o'smirlarni CHQBT bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazishga bo'lgan asosiy talablarini tushuntirish.

3. Talabalarga CHQBT bo'yicha guruhdan tashqari ishlarni tushuntirish.

4. Talabalarda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish.

O'quv savollari:

1. Ta'lim muassasasi direktori va harbiy rahbarning, (CHQBT o'qituvchisi) majburiyatlari.

2. Ta'lim muassasasi va mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlarida o'smirlarni CHQBT bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazishga bo'lgan asosiy talablar.

3. CHQBT bo'yicha guruhdan tashqari ishlar.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza

Tayanch so'z va iboralar: muqobil xizmat - harbiy xizmat turlaridan biri; CHQBT o' - chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi; CHXT - chaqiriqqacha harbiy ta'lim; vzvod - harbiy bo'linma.

**1 – o'quv savoli. Ta'lim muassasasi direktori va harbiy rahbarning, (CHQBT o'qituvchisi) majburiyatlari.**

Davlatimizning mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va qurolli kuchlar qudratini oshirish haqida doimiy g'amxo'rlik ko'rsatib, xalqimizni avvalom bor yoshlarni o'z Vatanini himoya qilishga tayyorlash uchun barcha kerakli chora-tadbirlarni ko'rayotganligini hozirda barchamiz yaxshi bilamiz. Konstitutsiyamizda Vatan himoyasi davlatning eng muhim vazifalaridan deb belgilangan, va bu maqsadda qurolli kuchlar tashkil etilib, umumiy harbiy majburiyat o'rnatilgan. Unda O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majbur ekanliklari to'grisida gapirilgan. SHu talablardan kelib chiqib, bosh vazifalardan biriga yosh avlodni Vatanni himoya qilishga tayyorgarligini tarbiyalash kiradi. Bu maqsad uchun yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlagi yo'lga qo'yilgan. YOCHQBT sifati uning tarbiyaviy ahamiyati harbiy rahbar, CHQBT o'ning pedagogik malakasi va harbiy tayyorgarlik darajasi, uning g'oyaviy-siyosiy yotukligi, uslubiy mahorati hamda ta'lim muassasasi direktori va butun pedagogik jamoa bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Ma'lumki, YOCHQBT ni tashkil qilish va o'tkazishda harbiy rahbar va CHQBT o' markaziy figura hisoblanadi. U bevosita ta'lim muassasasi direktoriga bo'ysunadi, uning majburiyatlari esa muvofiqlashtiruvchi xujjatlar bilan belgilanadi. Talabalarni Vatan himoyasiga

tayyorlashdagi rahbarlik to'g'ridan to'g'ri ta'lim muassasasi direktoriga tegishli. U YOCHQBT va vatanparvarlik tarbiyasini tashkil qilish va yuqori darajasini ta'minlashga javob beradi. Bu vazifani bajarish uchun u me'yoriy va boshqaruv xujjatlarini, mashg'ulotlarning uslubiy xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Harbiy rahbar CHQBTO'lar nomzodlarini tanlash ham direktor majburiyatlari doirasiga kiradi. Nizomga ko'ra bu lavozimga nomzodlarni tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari tavsiya etadi. Lekin bu ta'lim muassasasi direktori bunday odam qachon kelishini kutib o'tirishi kerak degani emas. Xususan tajribalar shuni ko'rsatdiki, yaxshi harbiy rahbar, CHQBTO'lar bo'lib kerakli harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan, shuningdek harbiy rahbar, CHQBTO'larda bo'lishi lozim bo'lgan sifatarga ega bo'lgan ta'lim muassasalari o'qituvchilari ham faoliyat ko'rsatsa bo'ladi. Pedagogik faoliyatga moyilligi bor va O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlaridagi xaqiqiy harbiy xizmatini o'tagandan keyin YOCHQBT fanidan dars berishga hohish, istagi bo'lgan mazkur ta'lim muassasasi talabalari hisobidan harbiy rahbarlikka nomzodlarni oldindan tayyorlash amaliyoti bu borada tahsinga sazovordir. Mudofaa ishlar bo'limi bilan kelishilgan holda bu nomzod haqiqiy harbiy xizmatni o'tagandan keyin pedagogika universitetlari qoshida 5141200-«CHHT» ta'lim yo'nalishidagi harbiy fakultetlarga yo'llanma olib, «CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi» mutaxassisligiga ega bo'lishi mumkin. Ta'lim muassasalarining direktorlari pedagogik yuklamalarni harbiy rahbar, CHQBTO'lari o'rtasida taqsimlaydi.

Direktor yuklamalarni taqsimlashda harbiy rahbar, CHQBTO'larning o'quv-moddiy bazani tiklash va takomillashtirish, shuningdek, saqlash bo'yicha ishlarini va vatanparvarlik hamda darsdan tashqari tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda bevosita ishtirok etish zarurligini hisobga olishlari mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Ta'lim muassasasi direktori harbiy rahbar, CHQBTO'ga tegishli bo'lmagan, talabalarining o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan bevosita bog'liq bo'lmagan va ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishdan chalg'itadigan ma'muriy xo'jalik topshiriqlarni yuklamasligi shart. YOCHQBTni murakkab vazifalarini va talabalarni vatanparvarlik tarbiyasini muvaffaqiyatli hal qilinish darajasi harbiy rahbar, CHQBTO'ning kasbiy va uslubiy mahoratiga bog'liq.

Demak, o'z g'oyaviy-nazariy va harbiy saviyasini pedagogik malakasini oshirish ustida muntazam ishlashi uchun sharoitlar yaratish, unga o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish ta'lim muassasasi direktorining muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. YOCHQBT o'quv dasturining barcha bo'limlari bilan mavzularni kompleks o'rganilishini boshqa fanlarning darslari bilan bog'lash lozim

#### ***Ta'lim muassasasining direktori o'z xizmat doirasida:***

- YOCHQBT bo'yicha ta'lim berishni boshlashni va yakunlashni (maktablarda har bir sinf, kollej, litseylarda har bir mutaxassislik guruhlari uchun);

- talabalarni avtomatdan jangovar o'qlarni otish bo'yicha boshlang'ich mashqlarni bajarish uchun tayyorgarlik va harbiy sport bayramini o'tkazish muddatini;

- YOCHQBT bo'yicha ta'lim berishni boshlash to'g'risidagi buyruq mazmunini;

- rejalashtiruvchi xujjatlarni ishlab chiqish haqida xarbiy rahbarga ko'rsatmalarni;

- Harbiy rahbar, CHQBTO'ni ish faoliyatiga qarab qo'shimcha tarzda moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni yo'l-yo'riqlarini aniqlaydi.

Harbiy rahbar, CHQBTO' direktor rahbarligida YOCHQBT bo'yicha haftalik rejani, ta'lim berishni boshlash, guruh va seksiyalar sardorlarini tayinlash haqida buyruqlar loyihasini va vatanparvarlik hamda darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish, shuningdek, o'quv-moddiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi. Haftalik reja har bir sinf guruh, kurs uchun alohida bir yilga tuziladi.

Bo'lim va mavzularni o'tish ketma-ketligining tartibi direktor, harbiy rahbar, va CHQBTO'larining ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlaridan, shuningdek o'quv-moddiy-bazaning holatidan kelib chiqib masalaga ijodiy yondashuv bilan qarashlariga bog'liq

bo'ladi. SHu bilan birga har bir oyga mashg'ulotlar jadvalini tuzish, unda mashg'ulotlar mazmuni, vaqti va ularni o'tkazish joyini, shuningdek, YOCHQBT bo'yicha darsdan tashqari tadbirlarni kengroq ko'rsatilishi tavsiya etiladi. Direktor buyrug'ida pedagogik jamoa, harbiy rahbar, CHQBT O'j, jismoniy tarbiya va tibbiy sanitariya tayyorgarligi o'qituvchilarining bo'lajak yurt himoyachilarini ta'limi-tarbiyasi borasidagi vazifalari bayon qilinadi, talabalarga tashkiliy ishlar, tartibga rioya qilish masalalarida bo'lgan talablar, YOCHQBT bo'yicha uslubiy komissiya tarkibi va ularning ish tartibi YOCHQBT bo'yicha darsdan tashqari ishlarning asosiy tadbirlari muddati va o'tkazish tartibi aniqlanadi. Vatanparvarlik va darsdan tashqari ishlarni tashkil qilishda, YOCHQBT bo'yicha o'quv moddiy bazani takomillashtirishda, ta'lim muassasasining yillik rejasi uchun takliflar belgilanayotgan pallada harbiy rahbar, CHQBT O' butun pedagogik jamoaning, «Vatanparvar» qo'mitasi hamda otaliq tashkilotlar va talabalarni ishtirok etishlarini unutmastliklari kerak. Guruh va seksiyalar sardorini tayinlash to'g'risidagi direktor buyrug'ida guruhlarining tartib raqami, guruh va seksiya sardorlarning ismi shariflari, harbiy rahbar, CHQBT O' tomonidan saf hisobi talablarini sanab o'tilishi va har bir ta'lim olayotgan uchun safdagi va harbiy xonadagi joylari, shuningdek har bir talabaga harbiy muomila qoidalarini va belgilangan kiyim-bosh shakliga rioya qilish qoidalarini bajarish majburiyatlari belgilanadi.

Bundan tashqari, intizomni saqlash, o'quv-modda bazani yaxshilanib borishini qo'llab-quvvatlash, shuningdek boshqa ishlar bo'yicha ham guruh va seksiyalar sardorlarining vazifalari aniqlanadi. Direktorning mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va sifatli o'tkazishni ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir. Ma'lumki, direktor dars rejasini (reja-konspekt) tasdiqlashi shart. Ta'kidlash joizki, direktorlar harbiy rahbarlarga har bir mashg'ulotni o'tkazishga tayorgarlik ko'rishida amaliy yordam ko'rsatadi. Biroq shunday direktorlar ham borki harbiy rahbarga yordam ko'rsatishdan chetda turishdan tashqari YOCHQBTning mazmun va mohiyati xaqida to'laroq tushunchaga ham ega emaslar.

Odatda direktor va harbiy rahbar, CHQBT O' mashg'ulot rejasida quyidagilar ko'rsatilishini yodda tutishi kerak:

1. Dasturning qaysi bo'limi bo'yicha qaysi sinf talabalari (kurs) bilan mashg'ulot olib borilishini.

2. Mavzuni nomi, mashg'ulotning tartib raqami va mazmuni.

3. Mashg'ulotning o'quv-tarbiyaviy maqsadi, unga ajratiladigan vaqti.

4. Uslubi va mashg'ulot joyi.

5. Moddiy ta'minoti.

6. Qo'llanma va ko'rsatmalar.

7. Harbiy rahbar CHQBT O'ning mashg'ulotlarni olib borishida beriladigan buyruqlar va ta'lim oluvchilarning harakati bayon etilishi (taktik tayyorgarlik bo'yicha-kirish va vaziyat). Uy vazifasi.

Ta'lim muassasasi direktoriga mashg'ulot rejasini oldindan ko'rib chiqish va harbiy rahbar, CHQBT O'ga amaliy yordam ko'rsatish uchun (mashg'ulotga 7 dan kam bo'lmagan vaqtda) birma-bir ko'rsatib chiqish tavsiya etiladi.

Direktor va harbiy rahbar, CHQBT O' alohida e'tiborni otish o'quv mashqlarini o'tkazishga qaratishi kerak. Kichik kalibrli miltiqdan tayyorlov mashqlarini bajarishga faqat harbiy rahbar, CHQBT O' baholashiga ko'ra quroldan otishga tayyor talabalarga ruxsat berish tavsiya etiladi. Qolgan talabalarning katta qismi, tajribalar ko'rsatishicha, tayyorgarlik darajasiga qarab otish o'quv mashqlarini o'qishdan tashqari vaqtlarda bajarishlari kerak. YOshlarni vatanparvarlik tarbiyasi bilan shug'ullanadigan har bir kishi bu borada chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning ahamiyatini chuqur anglab etmog'i lozim. E'tibor bilan qaralsa xaqiqatdan ham YOCHQBT fani bo'yicha ma'suliyatli, g'ayratli yaxshi mutaxassis o'qituvchisiga va mukammal O'MB ega bo'lgan ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va buning natijalari ta'lim muassasasida o'rnatilgan tartib intizomda, tuman, shahar, viloyat va respublika miqyosida o'tkazilayotgan tadbirlarda, ayniqsa muddatli harbiy xizmatni a'lo darajada o'tashida yaqqol

ko'zga tashlanib kelmoqda. Ayniqsa butun bir pedagogik jamoaning kuchi vatanparlik tarbiyasi ishlariga mohirona yo'naltirilishi, xar bir ma'sul xodimning ish jarayonida yangi - yangi taklif va g'oyalarni shakllanib borishiga sharoit yaratadi .Bu esa ta'lim – tarbiyani yanada yuksalishida, pedagogik jamoaning bir-birlari bilan yanada jipslashib har qanday masalaning echimini ijobiy hal qilishida juda katta ahamiyatga ega.

## **2 – o'quv savoli. Ta'lim muassasasi va mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlarida o'smirlarni CHQBT bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazishga bo'lgan asosiy talablar.**

CHQBT bo'yicha boshqaruv hujjatlarining talablariga muvofiq ta'lim muassasasi direktori mashg'ulotlarning o'tilishini va talabalar tomonidan o'tilgan mavzuni o'zlashtirish sifatini nazorat qiladi, hamda o'quv qurollarini, kichik kalibrli miltiq va uning o'q-dorilarini hisobini va texnik holatini nazorat qiladi.

Mashg'ulotlarni tekshirish harbiy rahbar, CHQBT o'ning to'g'ridan-to'g'ri yordami bilan nazorat vazifalarini mujassam qilishi kerak. Tekshiruvni shunday hisob bilan rejalashtirish kerakki, o'quv yili davomida ta'lim dasturining barcha bo'limlar bo'yicha, ayniqsa tashkiliy munosabatda eng muhim va murakkab mavzular hisoblanadigan (masalan: «Askarning jangdagi harakatlari», «Avtomatdan qo'zg'almas nishonga otish», «Avtomatning qism va mexanizmlarini vazifalarini o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar», «Vzvod bo'yicha pobonning majburiyatlari», «Harbiy harakatlar ishtirokchilarining axloq kodeksi», «Qurolsiz bajariladigan saf amallari va harakatlari») mashg'ulotlarga kirish imkonini bersin.

Tekshiruv vaqtida o'quv va tarbiyaviy maqsadlarining muvofiq kelishiga, dasturning usulubiy talablariga, mashg'ulotning g'oyaviy darajasi va tarbiyaviy ahamiyatiga, moddiy ta'minotiga, vaqt taqsimotiga va o'quv materialini bayon qilish tartibi va tushunarligiga, uning avval o'rganilgan materiallar bilan bog'liqligiga, usul va harakatlarni amaliy o'rganishni tashkil qilish qobiliyatiga va fanlararo aloqalar amalga oshirilishiga, o'zini tutish qoidalariga, shuningdek, nizom talablarini ta'lim oluvchilar tomonidan bajarilishiga e'tibor berish kerak.

Talabalar tomonidan o'tilgan o'quv material qanchalik o'zlashtirilganini qanday qilib tekshirish mumkin? Direktor (yoki uning topshirig'i bo'yicha harbiy rahbar, CHQBT o') savollar beradi, amaliy harakatlarni bajarib berishini so'raydi. Agar mashg'ulotda bir qancha o'quv joylari masalan: otish tayyorgarligi mavzusi bo'yicha tashkil qilingan bo'lsa, direktor talabalarning bajaradigan vazifasini har biri ustida bajariladigan ishlari bo'yicha tekshirib chiqadi. Savolga javob yoki harakatni amaliy bajarilishi baholanadi.

Nazorat topshiriqning eng samarali va maqsadga yo'naltirilgan shakli — bu ta'lim muassasasi direktori o'tilgan mavzulardan birini darsdan tashqari vaqtda o'tkazishi mumkin, (o'quv choraklarini oxirida, otish tayyorgarligi bo'yicha kichik kalibrli miltiq va avtomatdan o'q otish tayyorlov mashqlarini bajarishdan oldin, taktik tayyorgarlik bo'yicha esa dala o'quv mashg'ulotlari (yigin)ga chiqishdan oldin) talabalar tomonidan o'zini tuta bilish odobini, muomila va belgilangan kiyim-boshni kiyib yurish qoidalarini bajarilishini, navbatchi (navbatchi yordamchisi) ning majburiyatlarini bajarilishini direktor tomonidan kundalik kuzatilishi juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

O'quv tarbiyaviy ishlarning natijalar hisoboti o'quv yili uchun may-iyun oylarida qilinadi. Pedagogik kengashning yig'ilishi oldidan doklad tayyorlanadi. Unda CHQBT va jismoniy tarbiyaning sifati, dastur materiallarini qay darajada o'zlashtirilganligi, «Alpomish va Barchinoy» kompleksi bo'yicha tayyorgarlik darajasi tahlil qilinadi.

Bundan tashqari o'quv-moddiy bazasining holati, talabalarning intizomi va tashkilotchilik darajasi, CHQBT va tibbiy-sanitariya tayyorgarligi bo'yicha uslubiy komissiya ishi samaradorligi albatta baholaniladi. Vatanparvarlik tarbiyasi mashg'ulotlari qanday amalga oshirilgani darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan vatanparvarlik tadbirlarining yo'nalishi, samaradorligi qayd qilinadi.

Ma'ruzani sinfdan tashqari ishlar tashkilotchisi, harbiy rahbar, CHQBTO', jismoniy tarbiya, tibbiy bilim asoslari fani o'qituvchilari tayyorlaydi. Pedagogik kengash materiallari CHQBT bo'yicha ta'limni yakunlash haqidagi direktor buyrug'ini asosini tashkil qiladi. Bunda dastur bajarilishiga baho beriladi, xulosalar qilinadi, pedagogik jamoa va talabalarga yangi o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha aniq vazifalar qo'yiladi.

Bir yilga CHQBT va xarbiy bilimlarni targ'ibot qilish xulosasini chiqarilishining muhim shakli – talabalar Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga o'z amaliy va jismoniy tayyorgarligini namoyish qilishi mumkin bo'lgan harbiy-sport bayramini tayyorlash va o'tkazish bo'yicha buyruqni ta'lim muassasasi direktori (o'tkazishga 2-3 oy qolganda) chiqaradi. Direktor (bir oy qolganda) bayram rejasini ham tasdiqlaydi.

O'quv yili tugaganidan keyin ta'lim muassasasi direktori tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga CHQBT va talabalar bilan olib borilgan vatanparvarlik ishlarining holati haqida hisobot beradi. Hisobotda albatta dastur bajarilishi haqida ma'lumotlar (agar nimadir bajarilmagan bo'lsa, buning sababi?) nazorat natijalari, direktorning xulosasi, o'quv - moddiy baza va qurol-aslaha mulk va asboblardan ta'minlanganlik holati, vatanparvarlik ishlarining aniq tadbirlari haqida ma'lumotlar, CHQBT holatining umumiy bahosi ko'rsatiladi. Maxsus maktab-internatlari va harbiy litseylarini guruh tarbiyachi sardorlarining majburiyatlariga kelsak, o'zining amaliy ishida u asosan harbiy rahbar majburiyatlariga amal qiladi, lekin maxsus maktab-internat va harbiy litseylarning ishlari o'ziga xosligidan kelib chiqqan ma'lum bir xususiyatlarga ega.

Gap shundaki, Respublika harbiy litseylari chaqiruvga qadar va chaqiriq yoshida bo'lgan, o'smirlarni oliy harbiy maxsus o'quv yurtlariga kirishga tayyorlash uchun mo'ljallangan. SHuning uchun mazkur ta'lim muassasasi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikka va jismoniy tarbiyaga asosiy e'tiborni beradi.

### **3 – o'quv savoli. CHQBT bo'yicha guruhdan tashqari ishlar.**

Harbiy rahbar, CHQBTO', jismoniy madaniyat, tibbiy bilim asoslari o'qituvchilari harbiy-amaliy sport turlaridan, joylarda mo'ljallab chopish, to'siqlar, suv to'siqlaridan o'tish, nishonga granata otish, kichik kalibrli miltiqdan o'q otish bilan umumiy to'siqlar yo'lagini zabt etish, «Havo trevogasi» signali bo'yicha harakatlar, qo'l granatasini uzoqlikka otish, sanitariya xizmatchilari o'rtasida musobaqalarni tashkil etadilar.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy faol shakllaridan biri *o'yin* hisoblanadi.

Ta'lim muassasasi direktori o'yinni tashkiliy pedagogik boshqaruvini amalga oshiradi, sinf rahbarlarini jalb etadi. Butun pedagogik jamoa o'yinda talabalarni faol qatnashishlari uchun o'yinni tashkiliy va moddiy ta'minotida maslahatchilar kengashi va yosh armiyachilar bataloni qo'mondonligiga ma'lum bir yordamni ko'rsatadi.

O'yinning uslubiy boshqaruvini maslahatchilar kengashini amalga oshiradi. Uning raisi darsdan tashqari ishlar tashkilotchisi, rais o'rinbosari - bosh maslahatchi - harbiy rahbar, CHQBTO', jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maslahatchi - jismoniy madaniyat o'qituvchisi, tibbiy tayyorgarlik bo'yicha maslahatchi, tibbiy sanitariya tayyorgarligi o'qituvchisi, maslahatchilar kengashi tarkibiga o'qituvchilar, sinf rahbarlari va ishlab chiqarish ta'limi ustalari, harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan bazaviy yoki otaliqdagi korxona vakillari kiradi. Maslahatchilar kengashi tarkibidan guruh maslahatchilari tayinlanadi.

Harbiy rahbarning sinfdan tashqari ishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Guruh, seksiyalar sardorlari bilan mashg'ulotlar o'tkazish;
2. CHQBT bo'yicha guruhlar tarkibi bilan va yakka konsultatsiyalar;
3. Pnevmatik miltiqdan o'q otish, protivogazni kiyib turish, qo'l granatalarini otish mashqlarini bajarib «Salomatlik» me'yorlarini topshirish;
4. «SHunqorlar» harbiy-sport o'yinida qatnashish uchun bolalarni tayyorlash;
5. Sportning harbiy-amaliy turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish;

6. Harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil qilish;
7. Ta'lim muassasasini bitirgan harbiy xizmatchilar, jangovar va siyosiy tayyorgarlik a'lochilari bilan uchrashuvlar;
8. Harbiy-vatanparvarlik mavzusida filmlar ko'rsatish;
9. Harbiy qism bilan otaliq ishlarini bajarish;
10. Harbiy kasbga yo'naltirish bo'yicha tadbirlar;
11. Mudofaa-ommaviy to'garak ishlarini tashkil qilish ;
12. Harbiy-sport bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish.

### **3-MAVZU: TA'LIM MUASSASALARIDA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORLASH FANI BO'YICHA O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISH.**

#### **Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. Talabalarga CHQBT o'quv dasturining talablari, CHQBTning ta'lim muassasalari va MSSLdagi hajmi va vazifalarini tushuntirish.
2. Talabalarga nazorat mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish. Talabalar dasturni o'zlashtirganlik darajasi bo'yicha yakka tartibdagi bahosini aniqlashni tushuntirish.
3. DO'M(y) ga umumiy baho. CHQBT bo'yicha talabalarning yillik va yakuniy bahosi. Harbiy rahbar va CHQBT O' tomonidan olib borilgan mashg'ulot sifatini baholash. Ta'lim muassasasida CHQBTning umumiy holatini baholashni talabalarga tushuntirish.
4. Talabalarda harbiy xizmatga bo'lgan sadoqatni yuksaltirish.

O'quv savollari:

1. CHQBT o'quv dasturining talablari, CHQBTning ta'lim muassasalari va MSSLdagi hajmi va vazifalari.
2. Nazorat mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish. Talabalarning dasturni o'zlashtirganlik darajasi bo'yicha yakka tartibdagi bahosini aniqlash.
3. DO'M(y) ga umumiy baho. CHQBT bo'yicha talabalarning yillik va yakuniy bahosi. Harbiy rahbar va CHQBT O' tomonidan olib borilgan mashg'ulot sifatini baholash. Ta'lim muassasasida CHQBTning umumiy holatini baholash.

Vaqt: 2 soat.

Joy: o'quv xonasi.

Uslubi: tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: ma'ruza.

Tayanch so'z va iboralar: MSSL - mudofaa sport sog'lomlashtirish markazi; DO'M - dala o'quv mashg'ulotlari.

#### **1 – o'quv savoli. CHQBT o'quv dasturining talablari, CHQBTning ta'lim muassasalari va MSSLdagi hajmi va vazifalari.**

YOshlarni harbiy xizmatga tayyorlash o'zbekiston respublikasi qonunlari asosida tashkil etiladi va olib boriladi.

CHQBT jarayonida quyidagilarni egallashlari kerak:

- O'zbekiston respublika konstitutsiyasi qoidalarini o'zlashtirib olish;
- Qurolli kuchlar vazifasi, ularning xususiyatlari va xarakterlarining harbiy xizmatdagi ahamiyati;
- O'zbekiston respublika fuqarosining muqaddas burchi, harbiy qasamyodning asosiy talablari, qurolli kuchlar nizomini tushunib olish;
- Harbiy qism qurollari va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning hayoti va joylashishi bilan tanishib olish;

- YOshlarni tayyorlash hajmida zarur harbiy bilim va amaliy mahoratlar ega bo'lish;  
- Fuqarolar himoyasi asosini o'zlashtirib olish va kelajakda qurolli kuchlar safiga chaqiriladigan o'smirlar qisqa vaqt ichida zamonaviy qurollanish, harbiy texnikani egallab olishlari uchun fuqaro himoyasi asoslarini o'zlashtirish va ommaviy qirg'in kuroldan himoyalaniish ko'nikmalarini egallash;

Yigitlar uchun CHQBT ga o'quv yurtlarida 140 o'quv soati ajratiladi.

Qizlarga fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilimlar asoslari uchun 70 soat ajratiladi.

Mashg'ulotlarni talabga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash uchun va nizom talablarini bajarish, talabalarga amaliy ko'nikmalarni singdirish maqsadida har bir sinf, o'quv guruhi guruh deb nomlangan va uch bo'limga bo'linadi. Talabalardan ta'lim muassasasi direktori buyrug'i bilan ta'lim muassasasi rahbari tomonidan guruh va bo'lim komandirlari tayinlanadi.

CHQBT bo'yicha mashg'ulotlar komandir tomonidan guruh saflash va mashg'ulotga tayyorgarligi haqida hisobot berish bilan boshlanadi. Talabalarni komandalarni to'g'ri bajarish, safda tartibni saqlash, saf tortishga o'rgatish odatda harbiy rahbar, instruktor ishtirokida amalga oshiriladi.

Hisobot shakli: «o'rtoq leytenant (harbiy rahbar) 2 - chi guruh 20 ta kursantlardan iborat bo'lib, taktik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarga saf tortdi. Guruh komandiri – talaba....».

Hisobot bergandan so'ng guruh komandiri qo'lini bosh kiyimidan tushurmay (agarda u bosh kiyimida bo'lsa), chap (o'ng bilan) oyog'i bilan chetga bir qadam qo'yib bir vaqtning o'zida o'ngga (chapga) qayriladi va mashg'ulot rahbarining oldinga o'tkazib yuborib, uning orqasidan bir-ikki qadam orqaga va safning tashqi tomonidan boradi.

Hisobot qabul qilib, mashg'ulot rahbari safning o'rtasiga boradi, ulardan uch-to'rt qadam narida to'xtab, safga qarab yuzi bilan turadi va talabalar bilan salomlashadi «salom (kursant) askarlar, talabalar». Talabalar salomga baland ovoz bilan, aniq va birgalikda javob beradilar «salom o'rtoq leytenant».

Mashg'ulotlarda har doim tartib va intizom saqlanishi kerak. Harbiy rahbar talaba bilan munosabatda bo'lganida u darhol o'rnidan turadi va «rostlan» holatini bajaradi, o'zini tanishtiradi: «falonchi talaba». Agar mashg'ulot rahbari talabaga familiyasini aytib murojaat qilsa, u «men» deb javob qaytaradi. O'tirishga ruxsat olib, talaba «xo'p bo'ladi» deydi va tez shovqinsiz o'z joyiga o'tiradi. Talaba harbiy rahbarga murojaat etishida qo'lni ko'taradi va ruxsat olganidan keyin o'rnidan turadi «rostlan» holatini qabul qiladi, o'zini tanishtiradi va savol beradi.

O'quv joylarida instruktor talabaga murojaat qilganda yoki aksi talaba o'zini tanishtiradi: «xizmatga tayyorgarlik ko'ruvchi axmedov» yoki «xizmatga chaqiriluvchi axmedov».

Mashg'ulotlar (dars) tugagandan so'ng guruh komandiri mashg'ulot rahbari ruxsati bilan «rostlan» yoki «turilsin, rostlan» komandalari beriladi. Mashg'ulot rahbari «xayr talabalar» deydi. Talabalar birgalikda «salomat bo'ling, o'rtoq leytenant» (harbiy rahbar) deb javob qiladilar va «erkin» komandasi berilganidan so'ng harbiy kabinetdan oldin harbiy rahbarni o'tkazib yuborib chiqadilar, tunda ta'lim muassasasi chiqish yoki kirish joyiga kelib, «erkin, tarqal» komandasi beriladi.

Talabalar mashg'ulotlarga tayyorlanib va ta'lim muassasasida ko'rsatilganicha kiyingan bo'lib kelishlari kerak, ta'lim muassasasida kiyinish tartibi safida tekis va kalta soch bilan yurish tavsiya etiladi.

Yil fasliga qarab kiyinish formalari turlicha bo'lishi mumkin, masalan: №1-harbiy xona (sinfda) mashg'ulotlar uchun - bir tusdagi shim, kostyum, ko'ylak, galstuk, tufli (past poshnali) yoki maktab formasi; №2-safda mashg'ulotlar o'tkazish - shu kabi, ya'ni №1 variantdagi va bundan tashqari bosh kiyimi; №3 - safda, dala sharoiti va mashg'ulot o'tkaziladigan maydonda - ish kiyimi formasi (kurtka, shim), bosh kiyimi; №4 - sport zalida zamonaviy tarbiya mashg'ulotlari - sport oyoq kiyimi va shu kabi.

Harbiy kiyimda yurish - harbiy rahbar, zaxiradagi ofitserlar uchun mashg'ulotlar o'tkazish paytlarida majburiy hisoblanadi. amaliy mashg'ulotlar boshlanishi oldidan tartib qoidalari va o'rganilayotgan savollar bo'yicha harakatlarda xavfsizlik choralari qisqacha bayon etiladi.

Mashg'ulotlarga tayyorlanishda (darsga) mashg'ulotlar rahbariga quyidagilar tavsiya etiladi:

- mavzu va o'quv savollarini aniqlab olish;
- o'quv va tarbiyaviy maqsadlari, o'quv savollarini ishlab chiqish, ilgari o'rganilgan materiallarni o'zlashtirish darajasini tekshirish, o'tkazish bo'yicha mashg'ulot va savollarni ma'naviy ta'minlash;
- mashg'ulotga muvofiq nizom boblari, ko'rsatmalar, o'quv va boshqa amaliyotlarni o'rganib chiqish;
- usul (xarakatlar)ni bajarishda mashq qilib olish;
- uy vazifasini belgilab olish.

Mashg'ulot o'tkazish joyi va moddiy ta'minlanishi oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak.

Amaliy taktik saf tortish, tematik mashg'ulotlarga tayyorlanishda mashg'ulot rahbari yordamchilari bilan instruktaaj o'tkazadi (texnik sharoitni mashq qilish), talabalar bilan uslub va harakatlarni qay tartibda o'rganishni ko'rsatadi, ularga bu uslub va harakatlarni to'g'ri bajarishga o'rgatadi.

Mashg'ulotga tayyorlanish (dars) mashg'ulot reja-konspektini tuzish bilan yakunlanadi. Mashg'ulot (dars) kirish, bir-biri bilan bog'liq asosiy va yakuniy qismlardan tashkil topadi. Kirish qismida guruh saf tortadi, mashg'ulot rahbariga axborot beriladi, talabalar tashqi ko'rinishi ko'zdan o'tkaziladi va ular bilan ilgari o'rganilgan material o'zlashtirish darajasi tekshiriladi. Har bir saf tortishda guruh rahbari safning to'g'ri va tekisligiga e'tiborni qaratadi, safda intizom saqlanish, safda turish nizomi talabalariga muvofiq safda turish va saf tortishda talabalar vazifalarini bajarishlari va kamchiliklarni bartaraf etishga erishishi kerak. bundan tashqari muloqotlarning bu qismida ular bilan bo'sh o'zlashtirib olingan safdagi uslublar va komandalar bajarilishi mashq qilinadi. Buning uchun 5 daqiqa ajratiladi. Ilgari o'tilgan materiallarni tekshirish talaba-larga savol berish va uslub va harakatlarni bajarishlarini tekshirish, javoblariga baho berishdan iborat bo'ladi (amaliy usul, harakat).

Mashg'ulotlar asosiy qismi mashg'ulot mavzusi va maqsadlari ma'lum qilingandan so'ng o'quv savollari mazmuniga qarab, yangi material bilan tanishtiriladi va mustahkamlanadi yoki usul, harakatlarga o'qitiladi yoki baravar ikkalasi o'tiladi.

yangi materialni mustahkamlash savol-javob o'tkazish va usul harakatlarini bajarish orqali butun materialni yoki bir qancha asosiy savollarni bayon etishdan so'ng o'tiladi. usul va harakatlarga, o'qitish, odatda, belgilangan tartibda olib boriladi.

Mashg'ulot rahbari usul va harakatlarni umumiy namuna qilib ko'rsatib beradi, shundan so'ng talabalarni uning belgilari bo'yicha o'rganib olish tartibi bilan tanishtiradi, 1-belgisi bajarilishini tushuntirib ko'rsatadi va o'qishga kirishadi, uslubni (harakatni) o'rganib olish sekinlashtirilgan suratda boshlanadi, bunda asosiy e'tibor uni to'g'ri bajarilishiga qaratiladi, keyinchalik mashq surati oshirilib boriladi, usullarni (harakatlarni) belgilarga bo'lib o'rganib olinganidan so'ng rahbar usulni umuman bajarishni o'rgatishga o'tadi.

Mashg'ulotlar yakuniy qismida ularning natijalari mujassamlashtirilib, talabalar mashg'ulotda bajargan ishlariga baho beriladi, javob va harakatlaridagi kamchiliklari ko'rsatiladi, yaxshi javob berib mashqni to'g'ri bajargan talabalar ko'rsatilib o'tiladi, zarur bo'lsa uyga topshiriq beriladi hamda navbatdagi mashg'ulot mavzusi va kiyinish formasi ma'lum qilinadi.

CHQBT bo'yicha o'rta maxsus o'quv yurtlarida mashg'ulotlarning tashkil etilishi va o'tkazilishi umumta'lim maktablaridan farqi harbiy rahbar ishning o'ziga xosligidadir. bu farq talabalar individual va yoshi xususiyatlarining hisobga olinishida ifodalanadi.

O'rta maxsus ta'lim muassasasi qiz va yigitlari bir-birlaridan rivojlanishi, nazariy tayyorlanganligi, umumiy tarbiyaviyligi, xayotiy tajribasi, qiziqishlari va b. bilan farq qiladi. pedagogik jamoa bunga alohida e'tibor berishi kerak.

Ayniqsa, 15-16 yoshli talabalar imkon boricha yanada ko'proq turli ma'lumot va bilimlar olishga intilishi, balki ta'lim muassasasi ijtimoiy hayotida ishtirok etish istagida ifodalanadigan yuqori ijtimoiy faollik ko'rsatadi.

Mashg'ulotlarning o'ziga xosligi shundaki, harbiy rahbar mashg'ulotlarni ko'p sonli guruhlar bilan tashkil qilishi va o'tkazishi kerak, bu ba'zida ortiqcha og'irlikka olib keladi. shunda mazkur ta'lim muassasasi zahiradagi zobit yoki bu vazifani uddalay oladigan boshqa fan o'qituvchilarini chetdan soat haq to'lashga ko'ra CHQBT o'qituvchisi lavozimiga ishga taklif qilishga haqli.

CHQBT bo'yicha harbiy-vatanparvarlik tarbiya va o'quv jarayonini tashkil qilishda qishloq xo'jaligi hamda qurolli kuchlar safida xizmat qilish uchun mazkur ta'lim muassasasida mutaxasislarni tayyorlash yo'nalishi nazarda tutilishi kerak, ya'ni faoliyat turiga ko'ra (aviatsiya sanoati, radio sohasi bo'yicha mutaxasislarni tayyorlash) ish yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ilgari aytganimizdek o'qish vaqti bir yildan uch yilgacha bo'lganligi uchun o'rganiladigan mavzular hajmi ham shunga mos o'rganiladi. bir yillik dastur bo'yicha 70 soat, 2 yillik va undan ko'proq dastur uchun CHQBT to'la hajmi o'tkaziladi. Harbiy vatanparvarlikda tarbiyalash va CHQBT bo'yicha o'quv jarayonida ushbu ta'lim muassasasida mutaxasislar tayyorlash sohasi hisobga olinishi kerak. birinchi mashg'ulot savolini yakunlashda rahbarga har bir mashg'ulot talabalarda ma'naviy-siyosiy sifatlarini tarbiyalash, vatanni himoya etish bo'yicha o'z burchini bajarishga tayyorlash, ularda o'quv mavzulari hajmida qurolli kuchlar nizom talablariga muvofiq axloq va harakatlar ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerakligini talabalarga tushuntirish tavsiya etiladi.

## **2 – o'quv savoli. Nazorat mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish. Talabalarning dasturni o'zlashtirganlik darajasi bo'yicha yakka tartibdagi bahosini aniqlash.**

Ta'lim muassasalarida bitiruvchi kurs talabalari bilan o'qitishining yakuniy bosqichida CHQBTdan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va yuqorida dastur bo'limlarida ko'rsatilgani bo'yicha nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish uchun, CHQBT ga ajratilgan vaqt hisobidan ***uch kunlik dala o'quv mashg'ulot (yig'in)lari o'tkaziladi.*** Bu mashg'ulot (yig'in)lar quyidagicha o'tkaziladi:

- umumta'lim maktablarida 11-sinf o'quv bilan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 3-kurs talabalari bilan mart va may oylarida;
- kasb-hunar kollejlarida 3-kurs talabalari bilan o'qitishning oxirgi davrida o'tkaziladi;
- tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o'quv punktlaridagi talaba o'g'il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

*Uch kunlik dala o'quv mashg'uloti (yig'ini) - (DO'M) quyidagi tartibda olib boriladi:*

- bir vaqtning o'zida barcha yoki bir nechta ta'lim muassasalari tuman (shahar) o'quv punktlarining talaba bolalarini mudofaa sport sog'lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqda bo'lgan harbiy qismlarga yig'ish yo'li bilan;
- bitta ta'lim muassasasining (TM) talaba bolalarini MSSL bazasidagi o'quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig'ish yo'li bilan;
- har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg'ulot maydonlariga, otish, joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig'ish yo'li bilan;

DO'M(Y) o'tkazish vaqti va tartibini Mudofaa ishlari bo'limlari tuman (shahar) xalq ta'limi organlari, viloyat (shahar) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari bilan

birgalikda garnizon boshlig'i bilan kelishilgan holda belgilanadi va CHQBT ni rejalashtirishga qadar ta'lim muassasalari rahbarlariga ma'lum qilinadi.

*DO'M(y) ga umumiy baho. CHQBT bo'yicha talabalarning yillik va yakuniy bahosi. Harbiy rahbar va CHQBTO' tomonidan olib borilgan mashg'ulot sifatini baholash.*

**DO'M(Y) uchun umumiy baho quyidagicha qo'yiladi:**

**"a'lo"** - agarda dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi» bo'limlari bo'yicha olingan baho – «a'lo» «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo'limidan esa «yaxshi» bahodan past bo'lmasa, shuningdek "namunali", "yaxshi" odob-axloqqa ega bo'lsa;

**"yaxshi"** - agarda dasturning «Harbiy ish asoslari», «Otish tayyorgarligi», bo'limlari bo'yicha olingan baho «yaxshi» bahodan kam bo'lmasa, «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo'limidan esa "qoniqarli"dan kam bo'lmasa, shuningdek "namunali", «yaxshi» yoki «qoniqarli» odob-axloqqa ega bo'lsa;

**"qoniqarli"** - agarda «Harbiy ish asoslari»dan tashqari biron bir boshqa bo'limdan bitta «yaxshi» bahosi yoki «qoniqarli» odob-axloqqa ega bo'lsa;

**"qoniqarsiz"** - agarda ikki va ortiq bo'limlar bo'yicha olingan baho «qoniqarsiz», odob-axloqi esa "namunali", «yaxshi» yoki «qoniqarli» bo'lsa yoki "qoniqarli" baho, ammo "qoniqarsiz" odob-axloqqa ega bo'lsa.

DO'M(Y) nazorat mashg'ulotlarida nazorat me'yorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) ushbu dasturdagi 2-ilova shartlari bo'yicha bajariladi.

**"Harbiy ish asoslari" bo'limi bo'yicha:**

- nishonni ilg'ash, ularning joy atrofidagi narsalarga hamda belgilarga nisbatan joylashgan o'rnini aniqlash va kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish;
- o't ochish joyini tanlash, yotib otish uchun xandaq (okop) tayyorlash;
- jang maydonida avtomatdan o't ochgan holda ildam qadam va qisqa yugurib, emaklab harakatlanish (yaxlit bajarish);

**"Otish tayyorgarligi" bo'limi bo'yicha (4-mavzu, 13 – 14 - mashg'ulotlarda o'tkaziladi): - avtomatni qismlarga ajratish, tozalash va stvol ichini moylash (KA);**

- avtomatdan otish bo'yicha dastlabki mashqni bajarish (kichik kalibrli miltiqdan otish mashqini bajarish);
- o'qdonga xonaki o'qlarni joylash;
- portlovchi qo'l granatalarini (tankka qarshi) uloqtirish bo'yicha 1(2)-mashqlarni bajarish.

**"Amaliy jismoniy tayyorgarlik" bo'limi bo'yicha:**

- turnikda tortilish;
- 1000 yoki 3000 metrga yugurish;
- to'siqli yo'lakdan oshib o'tish, umumnazorat mashqini bajarish;
- qo'l kurashi (jangi) amallarini bajarish.

DO'M(Y) nazorat mashg'ulotlarini tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tuzilgan kommissiya tarkibi o'tkazadi. Talaba bolalarga nazorat mashg'ulotlarida qo'yilgan baholar qaydnomasi kommissiya tarkibining imzosi va hokimiyat muhri bilan tasdiqlanib ta'lim muassasasi direktoriga jo'natiladi. DO'M(Y) ga qo'yilgan umumiy baho sinf jurnaliga DO'M(Y) belgisi bilan yozib qo'yiladi. Viloyat (tuman, shahar) xokimligi tomonidan tashkil etilgan **o'quv punktlarida** CHQBT dan o'tgan chaqiriq yoshidagi bolalar dasturidagi barcha bo'limlar bo'yicha MSSLning yakuniy bosqichiga o'tkaziladi, ularning nazorat mashg'ulotlarida olgan yakka tartibdagi baholari yakuniy baho hisoblanadi. **MSSL nazorat** me'yorlarini qabul qilish uchun tuman (shahar) hokimligi qarori bilan tarkibida MIB, FV bo'yicha boshqarma, jismoniy tarbiya

va sport qo‘mitasi, MK «Vatanparvar» tashkiloti vakillari bo‘lgan komissiya tuziladi. CHQBT bo‘yicha **yillik (kurs) baho** talabalarning chorak (semestr) baholariga asoslanib qo‘yiladi.

**CHQBT bo‘yicha yakuniy baho** DO‘M(Y) umumiy bahosiga va yillik (kurs) bahoga asoslanib qo‘yiladi va quyidagicha aniqlanadi:

«**a‘lo**» - agarda DO‘M(Y) uchun «a‘lo» baho, shuningdek CHQBT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «yaxshi» bahodan past bo‘lmasa;

«**yaxshi**» - agarda DO‘M(Y) uchun «yaxshi» baho bo‘lsa, shuningdek CHQBT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «qoniqarli» bahodan past bo‘lmasa;

«**qoniqarli**» - agarda DO‘M(Y) uchun «qoniqarli» baho bo‘lsa, shuningdek BCHT bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «qoniqarli» bahodan past bo‘lmasa;

«**qoniqarsiz**» - agarda DO‘M(Y) uchun yoki yillik (kurs) bahosidan birontasi «qoniqarsiz» bo‘lsa.

CHQBTning yakuni bo‘yicha ta‘lim muassasasi direktorining buyrug‘i tuziladi (tayyorlanadi). Bu buyruqqa DO‘M(Y) jarayonida talabalar ko‘rsatgan natijalar tahliliga asoslanib, shuningdek joriy o‘quv yili CHQBT dasturining qay tartibda bajarilganligiga qarab CHQBTning yakuniga baho beriladi.

*Harbiy rahbar va CHQBT O‘ tomonidan olib borilgan mashg‘ulot sifatini nazorat qilish rejadagi mashg‘ulotlar davomida amlga oshiriladi.* Mashg‘ulotni o‘rnini o‘zgartirish taqiqlanadi. Agar nazorat qilish kuni haftalik rejaga muvofiq bir nechta sinf (guruh)lar bilan turli mavzularda mashg‘ulot o‘tish kerak bo‘lsa, bunday holda nazorat qiluvchi tomonidan mashg‘ulotlarning qaysi biri tekshirilishi belgilanadi. Mashg‘ulot (dars)ning tahlili darhol o‘tkazilmaydi bunda dastlab so‘z mashg‘ulot rahbariga, undan keyin so‘z ta‘lim muassasasi direktoriga beriladi. Bulardan keyin nazorat qiluvchi (tekshiruvchi) o‘tilgan mashg‘ulot (dars)ni tahlil qilib yakuniy xulosalarni chiqaradi. Mashg‘ulot (dars)ga baho berishda:

O‘quv va tarbiyaviy maqsadlarni, shuningdek mashg‘ulotni olib borish uslublarini dastur talablariga muvofiqligi;

Mashg‘ulotni g‘oyaviy darajasi, tarbiyaviy ahamiyati, hamda moddiy ta‘minotning to‘loqonligi va ulardan mashg‘ulotda foydalanishni;

Mashg‘ulotni strukturasini saqlashni va vaqtni taqsimlashlanishi, o‘quv materialini ketma-ketlik tartibi, tushunarli qilib etkazilishi, to‘laqonligi va o‘quv savollariga ishlov berilishi;

Hayotiylik va avval o‘rganilgan materiallar bilan bog‘langanligi;

Usul va harakatlarni amaliy ko‘rsata bilishni tashkilashni, mavzuni asosiy tushunchalarini ifodalanishi, xulosa va tushunchalarni lo‘nda ta‘riflanishi;

Fanlararo aloqalarni amalga oshirilishi;

Barcha mashg‘ulotlar jarayonida o‘qitishni individuallashtirilishi;

Talabalarni anglash faoliyatlarini faollshtirish usullari;

Mashg‘ulotdagi intizom va talabalar tomonidan nizom talablarini bajarilishi;

YAngi materiallarni mustahkamlash uslublari;

Mashg‘ulotda yangi pedagogik, innovatsion texnologiyalarni qo‘llanishi va zamonaviy ta‘lim texnika vositalaridan samarali foydalana bilishi alohida inobatga olinadi.

**3- o‘quv savoli. DO‘M(y) ga umumiy baho. CHQBT bo‘yicha talabalarning yillik va yakuniy bahosi. Harbiy rahbar va CHQBT O‘ tomonidan olib borilgan mashg‘ulot sifatini baholash. Ta‘lim muassasasida CHQBTning umumiy holatini baholash.**

*Nazorat mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish.*

**Nazorat mashg‘ulotlari** dasturning «Harbiy ish asoslari» «O‘tish tayyorgarligi» va «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo‘limlari bo‘yicha faqat o‘g‘il bolalar uchun dala o‘quv

mashg'ulotlari (yig'ini) yakunida, «Harbiy xizmat asoslari» va «Fuqaro muhofazasi» bo'limlari bo'yicha esa mazkur bo'limlar o'qitilishi yakunlangandan keyin o'qituvchilar tomonidan ta'lim muassasalarida o'tkaziladi.

Ta'lim muassasalarida "Harbiy xizmat asoslari" bo'limi bo'yicha o'g'il bolalar bilan, «Fuqaro muhofazasi» bo'limi bo'yicha esa o'g'il va qiz bolalar bilan birga nazorat mashg'ulotlari o'tkaziladi. Talabalarni o'quv materiallarini o'zlashtirishini tekshirish va baholash, mahorat va ko'nikmalarni egallashdagi o'quv jarayonining majburiy elementlaridan hisoblanadi.

Muntazam nazorat – birinchi navbatda, talabalarining turli bosqichlarda bilim va mahoratlarini shakllanishini boshqaradi, nazorat katta umumta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bilim, mahorat va amaliy ko'nikmalarni nazorat qilish va muntazam baholash to'g'ri va chuqur ob'ektiv olib borilishi, talabalar shaxsining yaxshi sifatlarini yuzaga keltirishga yordam beradigan bo'lishi kerak. Ta'lim amaliyotida **joriy va yakuniy** nazoratlar keng qo'llaniladi.

Harbiy xizmatga vatanparvar kishini tayyorlash bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarni doimiy tekshirish har bir darsdagi ajratilgan vaqtda, so'rov shaklida, tushuntirish jarayonida, materialni takrorlash, mustahkamlash hamda uy vazifasini tekshirishda bajariladi.

**Joriy nazoratning** turli shakllarini birlashtirib foydalanish talabalarining o'zlashtirish faoliyatini faollashtiradi. Joriy nazorat, barcha o'tilgan mavzularning o'lashtirilishini nazorat qilish maqsadida ham olib boriladi.

Harbiy rahbar, CHQBTO' mavzuning asosiy mazmunini bilmasdan turib, javob berib bo'lmaydigan savol berishi mumkin. Bunday tekshirishlar talabalarni mantiqiy fikrlab, materialda asosiy ma'noni topishga o'rgatadi. o'qish vaqtini tejash maqsadida turli o'qitish va nazorat qilish texnologik (innovatsion texnologiya) vositalarini keng qo'llash mumkin:

**Yakuniy nazorat** har bir chorak yoki o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Uning maqsadi – Vatan himoyachisi loyiq vatanparvar kishini tayyorlash bo'yicha o'qish jarayonida erishilgan natijalarni ob'ektiv baholash.

Joriy va yakuniy nazoratning keng tarqalgan shakli talabalarni **individual va umumiy** so'rov qilishdir.

**Individual** so'rovda talaba yozuv taxtasi oldida javob berib, zarur bo'lsa, kerakli javoblarni yozib, chizib ko'rsatadi. Talaba javobini butun sinf eshitadi, javoblardan so'ng talabalar bergan javoblar to'ldiradi, yo'l qo'yilgan xatolar tuzatadi.

**Umumiy** so'rovda, odatda, hamma talabalar nazoratdan o'tkaziladi. U yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. O'tilgan materiallarni to'liq qamrab oladigan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturining to'liq yoki bir qismini o'rganib bo'lgandan so'ng yakuniy baholarni qo'yish uchun talabalarining bilim va ko'nikmalari darajasini aniqlash maqsadida nazorat mashg'ulotlari o'tkaziladi.

O'quv materiallarini barchasini qamrab oladigan turli savollarni qo'yish tartibini puxta o'ylab chiqilishi juda muhim ahamiyatga ega. Bu mashg'ulotlarda har bir talaba harbiy rahbar, CHQBTO'ning topshirig'i bo'yicha amaliy harakat (usul, me'yor) larni bajarib, ta'lim dasturi bo'yicha nazariy savolarga javob beradi.

Nazorat mashg'ulotlari talabalar bilan usul va harakatlarning bajarilishini ta'minlaydigan, oldindan tayyorlangan va jihozlangan o'quv joylari, maydoncha va shaharlarchada olib boriladi.

Joriy nazorat, dastur bo'limlari bo'yicha qo'yilgan ma'lum bir savolga og'zaki javob berish tartibi quyidagicha bo'lishi kerak: **nazariy materiallarni** bayon etish yoki yozuv taxtasida masalani echish, qurol texnika va pribrlarning tuzilishini ko'rsatish orqali gapirib berish.

Dastlab butun guruh oldiga nazorat savoli qo'yish, keyin esa talabalarni javob berishlari uchun yozuv taxtasini oldiga chiqarish tavsiya etiladi. Og'zaki javob berishda talabaning javobini to'g'riligi, to'liq va ketma-ketligi, nizom va maxsus atamalarni ishlatishi, mustaqil fikr yuritishi, olingan bilimlarni amalda qo'llash ahamiyatini tushuntira olishi hisobga olinadi.

Usul va harakatlarni amaliy bajarilishi talabalarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishda asosiy usul va baho qo'yishning mezonini hisoblanadi. Usul va harakatlarni bajarish uchun topshiriq berishda harbiy rahbar, CHQBTO, talabaga nimani bajarish kerakligini tushunib olishi va harakatlarni bajarishga tayyorlanish uchun vaqt beradi. Talaba tayyor bo'lganidan keyin harbiy rahbar, CHQBTO talabaga harakat(uslul, me'yor)larni bajarishi uchun buyruq beradi. Harakatlar bajarilgandan keyin talabaga baho qo'yiladi.

Bunda usul (harakatlar)ning to'g'ri bajarilganligi, bajarish tartibiga rioya qilinishi hamda nazariy bilimlardan amalda foydalanish mahorati inobatga olinadi. O'quv jarayonini tashkil etishda nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgalik bo'yicha mas'uliyatli davr hisoblanadi.

Nazorat mashg'ulotlarida talabalar dasturda ko'rsatilgan me'yorlarni (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) bajarishadi. **Talabalarning yakka tartibdagi bahosi** dasturdagi bo'limlar bo'yicha nazorat mashg'ulotlarida uning har bir me'yori bajarilganligi uchun olgan baholari yig'indisidan kelib chiqib quyidagicha aniqlanadi:

«a'lo» – agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning (mashq usul, amaliy harakat, vazifalar) 50 % dan ortig'i «a'lo» bahoga, qolganlari esa «yaxshi» bahoga bajarilgan bo'lsa;

«yaxshi» - agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning 50 % dan ortig'i «a'lo» va «yaxshi» baholarga bajarilsa, qolganlari esa qoniqarlidan pastga baholanmagan bo'lsa;

«qoniqarli» - agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning bajarilishiga qo'yilgan «qoniqarsiz» baho bittadan ko'p bo'lmasa;

«qoniqarsiz» - me'yorlar bo'yicha ikkita va undan ko'p qoniqarsiz baho bo'lsa;

**Ta'lim muassasalarida** "Harbiy xizmat asoslari" bo'limi bo'yicha o'g'il bolalar bilan, «Fuqaro muhofazasi» bo'limlari bo'yicha esa o'g'il va qiz bolalar bilan birga nazorat mashg'ulotlari o'tkaziladi.

**Saf tayyorgarligi** - talabalar quyidagi saf usullari bo'yicha tekshiruvdan o'tadilar va baholanadilar:

- roslanish ;
- joyida turganda burilishlar ;
- harakat chog'idagi burilishlar
- shaxdam qadam;
- bosh kiyimsiz va bosh kiyim bilan joyida turganda va harakat chog'ida harbiycha salomlashish;

— safdan chiqish, boshliq oldiga borish, safga qaytish;

Tekshirishni talabaning tashqi qiyofasini ko'zdan kechirish bilan boshlash kerak. Qad rostlashni rahbar buyrug'idan eyin talabaning safdan chiqishiga qarab baholanadi.

Har bir safda xarakatlanish usullari bir-ikki marotiba takrorlanadi. **Usul (mashq va harakat)larni bajarish texnikasi quyidagicha baholadi:** **5 (a'lo)**, agarda usul saf nizomi talablariga binoan to'g'ri bajarilgan holda, **4 (yaxshi)**, agarda uslul saf nizomi talablariga binoan to'g'ri bajarilib, ammo bir marta bo'lsa ham xatoga yo'l qo'yilsa, **3 (qoniqarli)**, agarda uslul saf nizomi talablariga binoan to'g'ri bajarilib, ikkita xatoga yo'l qo'yilsa, **2 (qoniqarsiz)**, agarda uslul no to'g'ri bajarilsa yoki uch va undan ortiq xato qilinsa. Harakatlarni bajarishda odatiy xatolardan: **Rostlanishda** — oyoq uchlari yoyiq bo'lib, front chig'ida emas va kengligi tovon izi kengligida emas, ko'krak ko'tarilib qorin tortilmagan, qo'l panjalari kaft bilan orqa tomonga qaratilgan, gavda old tomonga og'ishmagan. **Joyida turib burilishlarda** — burilishda qo'llar gavdadan uziladi, burilish butun gavda bilan bajarilmaydi, burilgandan ortdagi oyoq ixchamlik bilan joyiga qo'yilmaydi, burilgandan keyin oyoq uchlari juda keng

yoyilgan, bir chiziqda emas, qad rostlanmaydi, bosh oldinga og'ishgan. **Harakat chog'idagi burilishlarda** — ortga burilish paytida o'ng oyoq chap tomonga chiqarilmaydi va juda keng qadam qo'yilib, burilish paytida gavda muvozanati yo'qoladi, burilish 90° yoki 180° (gradus) bajarilmagan, oyoq va qo'l harakatlarida bog'liqlik yo'q, bosh pastga egilgan. **SHaxdam qadam tashlashda** — gavda oldinga og'ishmagan, oyoq tizzalari egiladi, oyoqni erdan ko'tarilishi 15 sm dan past, qadam uzunligi va surati saqlanmaydi, qo'l harakatlari, belgilangan balandlikka ko'tarilmaydi, qo'lning aks harakati oxirigacha etmaydi, qo'l va oyoq harakatlarida bog'liqlik yo'q. **Harakat chog'ida xarbiycha salomlashishda** — salomlashish 3-4 qadamda emas. Oyoqni erga qo'yish bilan boshliqqa yuzlanish bir vaqtda emas, qo'lni bosh kiyimga qo'yish bilan chap qo'l harakatini to'xtalishi bir vaqtda emas, o'ng qo'lning o'rta barmog'i bosh kiyimning pastki qismiga tegib turmaydi, qo'llar old tomonga harakatlanganda tirsaklar elka chizig'iga paralel emas.

**Safdan chiqish, boshliq oldiga borish, safga qaytishda** — qo'lni bosh kiyimning pastki qismiga qo'yish bilan oyoq qo'yish bir vaqtda emas, boshliq oldiga borishda 2-3 qadamdan ko'proq yoki kamroq qadam qo'yilgan, o'rta barmoq bosh kiyim pastki qismiga tegib turmaydi, safga qaytishda qo'lning tushirilishi chap oyoqni qo'yishi bilan bir vaqtda bajarilmasligi va qadam vaqtdan avvalroq tashlanishi qo'yiladigan bahoni pasaytirilishiga sabab bo'ladi. Talabalarning safda yurishlari ularning oltita saf usulini bajarishlarining har biri uchun olgan baholaridan kelib chiqib, individual baho qo'yiladi va CHQBT mashg'ulotlarida kiyiladigan kiyim-bosh talabini bajarilishi hisobga olinadi:

«5» (**a'lo**)- agarda bajarilgan usullar 50% «a'lo» bahoga bajarilsa, qolganlari esa «yaxshi» bahoga bajarilsa, «4» (**yaxshi**)- agarda 50% dan kam bo'lmagan usullar «a'lo» va «yaxshi» bajarilib qolganlari esa «qoniqarlidan» past bo'lmasa, «3» (**qoniqarli**)- agarda biror usuldan «qoniqarsiz» baho olingan bo'lsa, «2» (**qoniqarsiz**)- ikki va undan ortiq qoniqarsiz baho olgan bo'lsa.

Agarda talabaning kiyim-boshi CHQBT mashg'ulotlari uchun direktor buyrug'i bo'yicha belgilangan kiyimga mos kelmasa yoki talaba mashg'ulotga dazmollanmagan, tartibsiz kiyimda kelsa, bu holda baho bir balga pasaytiriladi.

**Fuqaro mudofaasi bo'yicha** - nafas olish yo'llari va tanani himoya qilish, individual himoya vositalarini kiyish bo'yicha me'yorlar, zararlangan havoda nosoz protivogazdan foydalanish.

Nazorat savollariga javob berishda – javobning to'g'riligi, to'la va ketma-ketligi, nizom va maxsus atamalarni talaffuz qilinishining to'g'riligi, mustaqil fikrlash va xulosa, olgan bilimlarini amaliy qo'llash hisobga olinadi. Javob qisqa, aniq va tushunarli bo'lishi kerak va quyidagicha baholanishi mumkin: «5» (**a'lo**) - agarda talaba to'g'ri va to'liq javob bergan bo'lsa (asosiy va qo'shimcha savollarga), nizom talablarini (tushunchalarini) aniq ifoda etib bersa, ularni qurolli kuchlar tarkibidagi harbiy ximatchilar va ta'lim muassasalarining xayotidan misollar keltirib tasdiqlab bersa, zarur bo'lganida javobini mashqlar bilan bajarib va vazifani hal qilib, ko'rgazmali qurollardan foydalangan bo'lsa, qurol-yaroq, priborlar, harbiy mulklarni tuzilishini gapirib berishda ketma-ketlikka rioya qilib va havfsizlik choralariga to'liq amal qilgan bo'lsa. «4» (**yaxshi**) - agarda talaba to'g'ri va to'liq javob bergan bo'lsa, biroq nizom talablarini (tushunchalarini) ifoda etishda bir oz noaniqlikka yo'l qo'yilsa, ularni qurolli kuchlar tarkibidagi harbiy ximatchilar va ta'lim muassasalarining xayotidan misollar keltirishda qiyinchiliklar bilan tasdiqlab bersa, bundan tashqari javobni mashqlar bilan bajarishda va vazifani hal qilishda, ko'rgazmali qurollardan foydalanishda, qurol-yaroq, priborlar, harbiy buyumlarni tuzilishini gapirib berishda ketma-ketlik bir oz noaniqlik bo'lsa.

«3» (**qoniqarli**) - agarda talaba savolga to'g'ri javob berib, javobning to'laligiga qo'shimcha savollar yordamida erishilsa, amaliy misollarni tasdiqlab berishda ishonchsizlik bilan javob bersa, qurol priborlar, harbiy buyumlarni tuzilishini gapirib berishda ketma-ketlikni buzgan bo'lsa.

«2» (**qoniqarsiz**) - agarda talaba qo'yilgan savolga noto'g'ri javob berib yoki nizom talablarini, xatto yordamchi savollar yordamida ham ifoda etib berolmasa, qurol-aslah va harbiy buyumlarni tuzilishini tushuntirib berolmasa, shuningdek hafsizlik qoidalarini buzsa.

#### **4-MAVZU: «TA'LIM MUASSASALARIDA CHAQIRIQQA QADAR TAYYORGARLIKNI REJALASHTIRISH»**

##### **Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1.Talabalarga rejalashtirishning maqsadi va vazifalarini tushuntirish.

2.Talabalarga o'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha harbiy rahbar va CHQBT O' tomonidan ishlab chiqiladigan asosiy hujjatlar. Ularning vazifasi va mazmunini tushuntirish.

3.Boshqaruv xujjatlari CHQBTTE va UM ni rejalashtirish va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha hujjatlar. Ta'lim muassasasining buyruqlarini talabalarga tushuntirish. 4.Talabalarda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish.

**O'quv savollari:**

1.Rejalashtirishning maqsadi va vazifalari.

2.O'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha harbiy rahbar va CHQBT O' tomonidan ishlab chiqiladigan asosiy hujjatlar. Ularning vazifasi va mazmuni.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza

Tayanch so'z va iboralar: MIB -mudofaa ishlari bo'limi; MO'S, MO'G - motoo'qchi seksiya, guruh.

##### **1 – o'quv savoli. Rejalashtirishning maqsadi va vazifalari.**

«YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» chaqiriq yoshigacha va chaqiriq yoshida bo'lgan yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun majburiy o'quv fani hisoblanadi.

YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi - o'sib kelayotgan va shakllanib borayotgan yosh avlod tarbiyasining tarkibiy qismidir. U talabada yuqori g'oyaviy-siyosiy va axloqiy xislatlarni shakllantirish, o'zini tutish, Qurolli Kuchlar safida xizmatni benuqson o'tashga, yurt himoyasi yo'lida kerakli jismoniy va amaliy tayyorgarlik me'yorlarni bajarish olishga, Vatan va boshqa davlatlar hamdo'stligini himoya qilish muqaddas burchini bajarish maqsadida ong, iroda, ruhiy va jismoniy rivojlanishga pedagogik ta'sir ko'rsatishni, tashkiliy maqsadga yo'naltirilgan va uzluksiz jarayonni o'zida mujassam etadi.

Vatanni himoya qilishga yoshlarni har taraflama tayyorlashni faqat chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bilan cheklab bo'lmaydi. Bu davlat ishi hisoblanib ta'lim muassasasining butun pedagogik jamoasining mas'uliyatli vazifasidir.

Talabalarni Vatanni himoya qilishga g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-ruhiy hamda jismoniy tayyorlash ta'lim muassasasining butun o'quv-tarbiyaviy ishi tizimi va avvalam bor o'quv jarayonida amalga oshiriladi.

SHuning uchun har bir o'qituvchi o'rganiladigan material bilan uzviy aloqada xalqaro va davlat ichki siyosati, qurolli kuchlar jangovar qudrati va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalarini mohirona va tushunarli qilib tushuntirishi, ularning tarixiy ahamiyatini ko'rsatishi, armiyaga, harbiy ish va harbiy kasbga muhabbat uyg'otishi, bo'lajak Vatan himoyachisiga kerakli ma'naviy-ruhiy va jangovar sifatlarini shakllantirishi, kerak

bo'lgan joyda harbiy bilimlar elementlarini aytib o'tishi kerak.

Umumta'lim fanlari bo'yicha darslar tizimi darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy ishlari bilan uzviy bog'liqlikda talabalarda dunyo qarashini shakllantiradi, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish va baholashda klassik yondashishni uyg'unlashtiradi, o'z Vataniga chuqur va ongli muhabbatni, mustahkam poydevorni, uni tajavuzkor kuchlardan ishonchli himoya qilishga doimiy tayyorgarlikni o'rnatadi. *Harbiy tayyorgarlikni ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi nimada?*

Avvalom bor bu talabalarda bo'lajak Vatan himoyachisi uchun muhim bo'lgan ma'naviy - siyosiy xislatlarni shakllantirish asosi bo'lgan ta'lim muassasasining butun tarbiya tizimi bilan bo'lgan bog'liqlikdir. Bu erda hal qiluvchi vazifa talabalarni jamiyatning rivojlanish qonunlari bilimi bilan qurollantiradigan, Vatanimiz dushmanlariga nafratni tarbiyalaydigan tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot darslarining zimmasida bo'ladi. O'smirlarni harbiy xizmatga tayyorlashdagi asosiy vazifani jismoniy madaniyat darslari bajaradi.

Talabalarni me'yorlarni topshirishga tayyorlash uchun bir qator ta'lim muassasalarida harbiy rahbar va jismoniy madaniyat o'qituvchilaridan tashkil topgan umumiy uslubiy komissiyalar tuzilgan. Maqsadga muvofiq bunday tadbirlar tufayli yuqori kurs (sinf) talabalari harbiy-amaliy sport turlari bo'yicha yuqori natijalarga erishmoqdalar. YUqori kurs (sinf) talabalarining vatanparvarlik tarbiyasi uchun ayniqsa YOCHQBT bo'yicha bilimlar katta imkoniyatlarga ega.

YOCHQBT mashg'ulotlarida talabalarda boshlang'ich harbiy bilimlar bo'yicha dunyoqarashni, armiya va oson kechmaydigan harbiy xizmatga chuqur hurmat bilan qarashni tarbiyalashni, zamonaviy qurol va texnikani egallash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan amaliy ko'nikma va malakalarni amalga oshiriladi.

O'quv dasturdagi mavzularning ko'p qismlari talabalarga Vatanni dushmanlardan qurolli himoya qilishda O'zbekiston xalqining qaxramonlik va fidokorlik manbalarini tushuntirib berish, ularda katta avlodlar jasoratiga faxr-iftixor va ularni qo'llab-quvvatlashga, ularga o'xshashlikka intilish xislatlarini tarbiyalashga harbiy rahbar va CHQBT o'ga imkon beradi.

Fanlararo bog'liqlik - vatanparvarlik tarbiyasi va boshlang'ich harbiy tayyorgarlikni takomillashtirish uchun zamin yaratadi. Bu ko'pgina ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari tajribasi bilan tasdiqlangan.

Talabalarda Vatanni himoya qilishga shay bo'lishi, intilishi nafaqat o'quv jarayonida, balki sinfdan tashqari ishlarning turli shakllarida davom etishi juda muhim. Bunda talabalarining vatanparvarlik tarbiyasi mazmuniga, shakl va uslublarini takomillashtirishga doimiy e'tibor berish zarur. Vatanga va uning qurolli Kuchlariga cheksiz sadoqat va muhabbat ruhida, harbiy burchni benuqson bajarishga shay bo'lishiga, Ulug' Vatanni himoya qilishdek sharaflı burchni ado etishdagi shaxsiy mas'uliyatini, shuningdek, ularda vatanparvarlikni tarbiyalash - har bir ta'lim muassasasi o'qituvchisining o'ta muhim majburiyatlaridandir.

Dasturning ba'zi bir mavzulari bo'yicha 2-3 soatlik mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Bu hollarda ta'lim muassasasi direktori taqsimoti bo'yicha boshqa fanlar hisobiga, keyinchalik ularni to'ldirish sharti bilan 1-2 qo'shimcha soatlardan foydalaniladi.

Barcha darslar g'oyaviylik bilan singdirilgan va yuqori ma'naviy-siyosiy sifatlarni tarbiyalashga, ularni Vatanni himoya qilish burchini ado etishga tayyorlash, ularda Qurolli Kuchlar nizomlari talablari va o'quv mavzulari hajmiga ko'ra o'zini tutish va harakatlar ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Zamonaviy sharoitda yoshlarni O'R QK xizmatiga tayyorgarlik sifatiga oshib borayotgan talablar, ta'lim muassasasida o'quv-tarbiyaviy jarayonni uzluksiz takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'quv jarayoning mazmuni, shakli va uslublarini asosli ravishda ilgari surish uchun, birinchidan, harbiy fan va texnika, taktik san'at yo'nalishlarini rivojlanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish zarur. Ikkinchidan, ijtimoiy-psixologik va pedagogik fanlar yutug'iga erishish uchun, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy tashkil qilish kerak.

Zamonaviy davrning o'ziga xos xususiyati shundaki ilmiy ma'lumotlarning harbiy ishlardagi taraqqiyotidir. O'quv jarayonining mazmuni va shakli o'rtasidagi ziddiyatlar. Katta sustlikka ega bo'lgan ta'lim shakl va uslublari har doim ham mazmun o'zgarishiga amal qilmaydi. Masalan, kerakli bilim, malaka va ko'nikmalar hajmi belgilangan muddatlarda ularni o'zlashtirish imkoniyati va o'quv fanlarning ilmiy mazmuni va ta'lim vositalari majmuasi - darsliklar, qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar, trenajerlar, TTV va boshqalar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. SHuningdek amaliyotda talabalar o'quv ishining jamoa va individual shakllari birikmasida, O'MB jixozlanishida uning ma'naviy va jismoniy ishdan chiqishi natijasida ziddiyatlar kuzatiladi.

CHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o'tashda o'zining konstitutsiyaviy burchini a'lo darajada bajarilishini va o'ziga topshirilgan zamonaviy jangovar qurol va harbiy texnikani qisqa muddatda o'zlashtirib olishini ta'minlashdan iborat.

YOshlarga harbiy ta'lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o'quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagi qo'shinlarning jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun xalq ta'limi bo'limlari, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasalari CHQBT ni tashkil qilinishini va o'tkazilishini yuqori saviyada bo'lishini ta'minlashi shart.

CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni sifati, tarbiyaviy ahamiyati, harbiy rahbar harbiy va CHQBT O'ning kasbiy jihatdan tayyorgarlik darajasiga, pedagogik malakasiga, uslubiy mahoratiga, shuningdek, g'oyaviy-siyosiy etuqligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Bunday vazifalarni bajarish faqat mukammal tayyorgarlik tizimi va uslubiyoti, ta'limning samarali vositalari, ilmiy asosda yaxshi tashkil qilingan rahbarlik va yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi ta'minlanganda amalga oshadi.

CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha o'quv jarayoni CHQBT dasturi va Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi, Mudofaa vazirliklari buyruqlari, me'yoriy hujjatlari va o'quv-uslubiy tavsiyalariga ko'ra harbiy rahbar va CHQBT O' tomonidan rejalashtiriladi va tashkil qilinadi.

## **2 – o'quv savoli. O'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha harbiy rahbar va CHQBT O' tomonidan ishlab chiqiladigan asosiy hujjatlar. Ularning vazifasi va mazmuni.**

Har bir ta'lim muassasasida yarim yil yoki bir butun o'quv yil uchun CHQBT ning haftalik va tematik reja tuziladi. Joriy yilga tematik rejani chaqiruvga qadar tayyorgarlik fani o'qituvchisi O'zbekiston Respublikasi CHQBT dasturi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangan haftalik reja asosida ishlab chiqiladi.

Tematik reja (1-ilova) o'quv yiliga to'liq tuzilib, uch kunlik dala-o'quv mashg'ulotlari (yig'ini)ni o'z ichiga oladi. Tematik reja har yili Mudofaa vazirligi va boshqaruvchi hujjatlarning talablari asosida va CHXT fakultetlari (kafedralari), oliy ta'lim muassasalari hamda qo'shinlarning ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda har yili yangilanib turiladi.

Tematik rejada quyidagilar aniqlanadi: mashg'ulotlar bo'yicha o'quv vaqtlarini taqsimoti, mashg'ulotlarni o'rganish ketma-ketligi, mashg'ulotning o'quv va tarbiyaviy maqsadlari, talabalarga mustaqil tayyorgarliklari uchun topshiriqlar, adabiyotlar nomlari, shuningdek uslubiy ko'rsatmalar va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

*(Tematik reja sxemasining chizmasining rejasini tushintirasiz)*

Tematik rejalar harbiy rahbar, CHQBT O' tomonidan CHQBT dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tuziladi.

CHQBT dasturining bosh vazifasi talabalar ta'lim vaqtida egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, ma'naviy-siyosiy va kasbiy-jangovar sifatlarni optimal hajmini aniqlashdir.

CHQBT bo'yicha o'quv -tarbiyaviy jarayonni rejalashtirishga bo'lgan umumiy talablar umumta'lim fanlarining barchasiga bo'lgan talablardek, ular didaktikaning (grekcha so'zdan «didasko» ta'lim beraman degan) asosiy tamoyillari bilan aniqlanadi. Ma'kuramizga ko'ra, didaktika talabalar ta'limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardir:

Umumta'lim (talabalarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish);

Tarbiyaviy (bo'lajak Vatan himoyachisiga kerak bo'lgan shaxs xislatlari va harbiy jamoa xislatlarini talabalarda shakllantirish);

Rivojlantiruvchi (yuzaga keladigan masalalarni echishda talabalarda ijodiy yondashuv malakalarini shakllantirish);

Psixologik tayyorgarlik (zamonaviy janglarda muvaffaqiyatli harakatlarga talabalarni psixologik tayyorgarligini shakllantirish).

Bu vazifalarni amalga oshirishda, ulardagi cheklov birlik talabalarni tayyorlashga har tomonlama yondashish uchun muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik ma'noda o'qitish deb nomlangan ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarga (talabalar), dars berish nomini olgan ta'lim beruvchining (harbiy rahbar, CHQBTO') maqsadli, o'zaro bog'langan faoliyatidan tarkib topgan. Bu jarayondagi asosiy o'rin ta'lim beruvchi (harbiy rahbar, CHQBTO') ga tegishli.

*Uning asosiy pedagogik vazifalari quyidagilar:*

- Ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik qilish ;
- Tizimlangan turda o'quv materialini bayon etishda va qurol va texnika bilan ishlashning maqsadga muvofiq usullarini ko'rsatish;
- Talabalarda ta'limga va ta'limning boshqa ijobiy tomonlariga qiziqishni rivojlantirish;
- Ta'lim oluvchilarda mustaqil ravishda bilim, ko'nikma, qobiliyatlarni egallash qobiliyatini shakllantirish va o'z mahoratini takomillashtirish;
- Talabalar tayyorgarligini tekshirish, bilim, ko'nikma, qobiliyatlari va kasbiy sifatlarini baholash.

SHu bilan birga CHQBT bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirishni tashkil qilish o'z xususiyatlariga ega. Bu avvalom bor CHQBT kursi o'z ichiga sakkizta mustaqil fanlarni oladi:

- Kirish mavzusi;
- Harbiy ish asoslari;
- Otish tayyorgarligi;
- Harbiy xizmat asoslari;
- Amaliy jismoniy tayyorgarlik;
- Fuqaro muhofazasi;
- Tibbiy bilim asoslari;
- Nazorat mashg'ulotlari.

Bularning har biri ta'lim muassasasi tizimida va hamkorligida, mantiqiy va uslubiy tartibda puxta o'ylab rejalashtirishni talab qiladi..

Bundan tashqari, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi va fuqarolar himoyasi bo'yicha mashg'ulotlar o'smir yigit-qizlar bilan birgalikda, tibbiy bilim asoslari esa alohida rejalashtiriladi va o'tkazilishini nazarda tutish zarur. O'rta maxsus va kasb-xunar ta'lim muassasalarining o'quv guruhlarini tarkibi sakkiz nafar qizlar (o'smirlar) dan kam bo'lsa, to'liq tarkibda o'smir yigit (qiz) lar uchun o'quv dastur bo'yicha shug'ullanadilar.

Darslardan tashqari vaqtda har hafta harbiy-sport mashg'ulotlarini o'tkazish, bir marta harbiy-o'quv va vatanparvarlik xaqida filmlarni ko'rsatish , hamda to'garaklar va fakultativ kurslar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish rejalashtiriladi. SHunday qilib, CHQBT rejalashtirish dasturni to'la va sifatli bajarilishi, barcha bo'limlarni har tomonlama o'rganilishi, shuningdek, boshqa ta'lim fanlari bilan CHQBT dasturi bo'yicha muvofiq keladigan mavzularni bog'lab o'rgatilishini ta'minlashi kerak

O'quv rejasini tuzishda ta'lim muassasasining ishi mahalliy sharoitlari hamda o'quv - moddiy bazasiga e'tibor berish kerak. Mahalliy MIB roziligiga ko'ra ba'zi bir hollarda ta'lim muassasasi direktoriga mahalliy sharoitlarga bog'liq holda dasturning ba'zi bir mavzularini

o'rganish tartibiga o'zgartirishlar kiritishga ruxsat beriladi. Biroq bunda ularga ajratilgan mashg'ulot mazmuni va vaqtni qisqartirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ta'lim muassasasi direktori o'quv jarayonini tashkil qilish jarayonida quydagi masalalarga oydinlik kiritadi:

-ta'lim muassasalarida har bir mutaxassislik bo'yicha guruh (sinf) lar uchun ta'lim boshlanishi va yakunlanishiga;

-avtomatdan jangovar o'q otish bo'yicha boshlang'ich mashqlarni bajarishga talabalarni tayyorgarlik ko'rish muddatiga;

- harbiy-sport bayramlarini o'tkazilishiga;

- CHQBTni o'qitilishini boshlashga bag'ishlangan buyruq mazmuniga;

- harbiy rahbar, CHQBT O'larga rejalashtirish hujjatlari bo'yicha beradigan ko'rsatmalar mazmuniga.

Direktor rahbarligida harbiy rahbar, CHQBT O' CHQBT bo'yicha haftalik reja, o'qitilishni boshlanishi, guruh va seksiyalar sardorlarini tayinlash to'g'risidagi buyruq va loyihalarni hamda CHQBT bo'yicha vatanparvarlik va sinfdan tashqari ish va o'quv - moddiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi. CHQBT dasturi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish haftalik rejasi butun o'quv yiliga ishlab chiqiladi. 2-3 bosqich talaba-talabalari uchun har biriga alohida ishlab chiqiladi.

SHu bilan birga har bir oyga mashg'ulotlar jadvalini tuzish tavsiya etilib, bunda mashg'ulotlar mazmuni, vaqti va ularni o'tkazish joyi, shuningdek, CHQBT bo'yicha sinfdan tashqari ishlar bo'yicha tadbirlar ko'rsatib o'tilishi kerak O'quv jarayonini tashkil qilish uchun o'quv rejasidan tashqari harbiy rahbar va CHQBT O' asosiy hujjatlardan quyidagilarini ishlab chiqadi:

- «Ta'lim muassasasida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni boshlash to'g'risida» ta'lim muassasasi bo'yicha buyruq.

«Ta'lim muassasasida CHQBT, jismoniy madaniyat va tibbiy bilim asoslari bo'yicha uslubiy komissiya tuzish va komissiya ishini tashkil qilish to'g'risida» ta'lim muassasasi bo'yicha buyruq.

Buyruqda harbiy rahbar, CHQBT O' jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari o'qituvchisi pedagogik jamoasining bo'lajak vatan himoyachilarini ta'lim-tarbiyasi borasidagi vazifalari bayon etiladi, tashkilotchilik va tartibga rioya qilish masalalarida talabalarga qo'yilgan talablar, CHQBT bo'yicha uslubiy komissiya tarkibi va ularning ishlash tartibi, CHQBT bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning asosiy tadbirlarini o'tkazish muddati va tartibi aniqlanadi.

-«Guruh va seksiyalar komandirlarini tayinlash to'g'risida»gi ta'lim muassasasi bo'yicha buyruq.

Guruh va seksiyalar komandirlarini saylash to'g'risidagi direktor buyrug'ida guruhlarining tartib raqami aniqlanadi, komandirlar tayinlanadi, har bir tahsil oluvchining safdagi va harbiy xonadagi joyi uchun harbiy rahbar, CHQBT O' bilan saf hisobini olib borishga talablar ko'rsatib o'tiladi, talabalar tomonidan harbiy muomila qoidalari bajarilishi va belgilangan kiyim formasiga rioya qilinishi majburiy ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, intizomni qo'llab-quvvatlab turish, O'MB takomillashtirish bo'yicha guruh va seksiyalar komandirlarining vazifalariga aniqlik kiritiladi.

-O'quv yili uchun CHQBT, jismoniy madaniyat, tibbiy bilim asoslari bo'yicha uslubiy komissiyaning ishi rejasi.

- O'quv yiliga mo'ljallangan ta'lim muassasasi harbiy rahbari, CHQBT O'ning shaxsiy ishi rejasi.

-Ta'lim muassasasining yillik rejasidagi bo'limga CHQBT va vatanparvarlik tarbiyasi, ommaviy mudofaa ishlari va o'quv - moddiy bazani takomillashtirish yuzasidan harbiy rahbar CHQBT O'lar tomonidan kiritilgan takliflar.

Vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish, CHQBT o'quv moddiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ta'lim muassasasining yillik rejasi uchun takliflar belgilanganda harbiy rahbar, CHQBT O' bu ishlarning barchasida butun pedagogik jamoa,

otaliqda bulgan tashkilot, shuningdek talabalar bevosita ishtirok etishlarini unutmazligi kerak.

«SHunqorlar» harbiy-sport o'yinida qatnashuvchi jamoa bilan yo'riqli mashg'ulotlarini o'tkazish rejasi .

«TOZ-8 sonli kichik kalibrli miltiqdan o'q otishni o'tkazish to'g'risida»gi ta'lim muassasasi bo'yicha buyruq .

Kichik kalibrli miltiqdan otish tayyorlov mashqlarini bajarish borasida direktor, harbiy rahbar va CHQBT O'lari a'loxida e'tiborga molik ishlarni olib borishi kerak, Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlariga otish qoidalarini mukammal o'rgangan, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladigan, otish tartibini biladigan talabalargina qo'yiladi. Ushbu qoidalarni bilmagan talabalar avtomatdan jangavor o'q bilan otish mashqlariga qo'yilmaydi.

Qolgan talabalar ushbu talablarga javob bera oladigan darajaga etgandan so'ng va harbiy rahbar va CHQBT O'larning sinovidan o'tganlaridan keyin darsdan tashqari tadbirlarda otish mashqlarini bajaradilar

«Uchinchi kurs (11-sinf) talabalari bilan dala mashg'ulotlarini o'tkazish to'g'risida»gi ta'lim muassasasi bo'yichabuyruq.

DO'M(y) boshlanishigacha bir oydan kam bo'lmagan vaqtda chiqarish tavsiya etiladigan buyruqda mashg'ulotlarni o'tkazish, talabalarni tantanali saflash, jo'natish vaqti, talabalarni, vzvod, guruh komandirlari, ularning yordamchilarini ism-sharifi, mashg'ulotlarni o'tkazish va talabalarni olib ketish tartibi, xavfsizlik choralarini ko'rsatib o'tish kerak.

Mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlari bazasida uchinchi kurs (11-sinf) talabalarini yig'ish orqali DO'M(y) tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish tadbirlari rejasi. DO'M(y) katta e'tibor va g'amxo'rlikni talab etadi.

Ularni tumanlarda tashkil qilingan MSSLda yoki ta'lim muassasalarida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tuman, shahar xokimliklarining qaroriga asosan xalq ta'limi bo'limlari akademik litsey va o'rta maxsus, kasb-xunar kollejlari boshqarmalarida ta'lim muassasasi direktorii tomonidan tasdiqlanadigan DO'M(y) o'tkazishga tayyorgarlik bo'yicha tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

Agar DO'M(y) harbiy qism bazasida o'tkazilsa, reja harbiy qism komandiri bilan kelishiladi. Reja ta'lim muassasasi direktori, o'rinbosarlari, sinf rahbarlari, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, harbiy rahbar, CHQBT O', jismoniy madaniyat (jismoniy tarbiya) o'qituvchilari va boshqa shaxslar bilan bajariladigan aniq tadbirlarni o'z ichiga oladi, bajarish muddatini aniqlaydi.

Harbiy qismlardan harbiy xizmatchilarni jalb etish, mashg'ulotlar rahbarlarini zaxiradagi zobitlar hisobidan belgilash va ular bilan uslubiy mashg'ulotlarni o'tkazish kabi masalalarni hal etish MIB bilan birgalikda amalga oshiriladi.

- CHQBT bo'yicha o'quv yili natijalari to'g'risidagi ta'lim muassasasi bo'yicha buyruq. Buyruq asosini CHQBTni yakunlash to'g'risidagi pedagogik kengash materiallari tashkil qiladi. Bunda dasturni bajarilishiga baho berilib, xulosalar qilinadi, pedagogik jamoa va talabalarga yangi o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha aniq vazifalar qo'yiladi.

- CHQBT bo'yicha o'quv yili yakuniga bag'ishlangan harbiy-sport bayramini tayyorlash va o'tkazish to'g'risidagi ta'lim muassasasi bo'yicha buyruq . Harbiy-sport bayramini o'tkazishga 2-3 oy vaqt qolganda ishlab chiqiladi.

CHQBT bo'yicha o'quv yili yakuniga bag'ishlangan harbiy-sport bayramini o'tkazish rejasi. Bayramni o'tkazishgacha 1 oy vaqt oldin ta'lim muassasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

- CHQBT va vatanparvarlik ishlarining holati to'g'risida o'quv yili uchun hisobot.

Har bir mashg'ulotni o'tkazish uchun ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadigan dars rejasi tuziladi.

Dars (mashg'ulot) rejasida mavzu, mashg'ulot, o'quv-tarbiyaviy maqsadlar, o'quv savollari, vaqti, shakli, uslubi, qo'llanma va adabiyotlar, umumta'lim fanlar bilan o'rganiladigan masalalar bog'liqligi, moddiy ta'minot va mashg'ulotning borishi ko'rsatiladi. Zaruriyat bo'lsa, unda o'quv materiali, o'rganiladigan o'quv savollari qisqacha mazmuni bayon etiladi.

Mashg'ulot rejasini (mashg'ulotlarni o'tkazishdan etti kun avval) birma-bir o'rganish va harbiy rahbar, CHQBT O'ga amaliy yordam ko'rsatish uchun direktorga berish tavsiya etiladi.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlikni ta'minlash va o'tkazishda direktorning o'rni katta. Aytib o'tish joizki, ko'pchilik direktorlar har bir mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda harbiy rahbarlar, CHQBT O'larga amaliy yordam ko'rsatadi. Biroq, afsuski, harbiy rahbar, CHQBT O'larga uslubiy yordam ko'rsatishdan umuman chetda turadigan direktorlar ham bor. CHQBT va vatanparvarlik tarbiyasida muhim omillardan sanalgan mashg'ulotlarga bunday yondashilishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

SHunday qilib, CHQBT ni rejalashtirish boshqaruv hujjatlarining talablariga muvofiq, tuman, shahar, viloyat, respublika ta'lim muassasalarining etakchi tajribalari va tavsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak, shuningdek, u dastur bo'yicha mavzularni ta'limning boshqa fanlari bilan muvofiq keladiganlari bilan bog'lab to'la va sifatli o'rganilishini ta'minlashi kerak.

### **5-MAVZU: "Ta'lim muassasalarining yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash bo'yicha o'quv-moddiy bazasi va moddiy texnik ta'minoti"**

#### **Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. CHQBT bo'yicha o'quv - moddiy bazasi va ularga qo'yiladigan talablarni talabalarga tushuntirish.
  2. Talabalarga CHHT mashg'ulotlarida qo'llaniladigan TTV (texnik ta'minoti vositalari)ni talabalarga tushuntirish.
  3. Ta'lim muassasalarining o'quv qurollari, pribor va tabel buyumlari bilan ta'minlash tartibini talabalarga tushuntirish.
  4. Talabalarda harbiy xizmatga bo'lgan sadoqatni yuksaltirish.
- O'quv savollari:
1. CHQBT bo'yicha o'quv - moddiy bazasi va ularga qo'yiladigan talablar.
  2. CHHT mashg'ulotlarida qo'llaniladigan TTV (texnik ta'minoti vositalari)
  3. Ta'lim muassasalarining o'quv qurollari, pribor va tabel buyumlari bilan ta'minlash tartibi.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

Tayanch so'z va iboralar: HIA - harbiy ish asoslari; FH - fuqaro himoyasi.

#### **1 – o'quv savoli. CHQBT bo'yicha o'quv - moddiy bazasi va ularga qo'yiladigan talablar.**

YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fani O'zbekiston Respublikasi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunga muvofiq kiritilgan bo'lib harbiy ta'limni o'qitilishini majburiy davlat shakli hisoblanadi va yoshlarni O'R QK safidagi xizmatiga tayyorlash tizimining muhim qismini tashkil etadi. CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik samaradorligi ko'p hollarda o'quv tarbiyaviy jarayonni qanday tashkil qilinganligiga va amalga oshirilganligiga bog'liq Uning asosiy tarkibiy qismlari: ilmiy asoslangan o'quv dasturlar, mashg'ulotlarning optimal uslublari va kerakli moddiy bazalar

hisoblanadi. Dastlabki ikki tarkibiy qismlarni ahamiyatini zarracha ham inkor etmagan holda mubolag'asiz aytish mumkinki, harbiy ta'limda hal

qiluvchi o'rinni O'MB egallaydi. Bu birinchi navbatda CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik kursining hususiyatlari, uning ko'p qirraliligi va amaliy yo'naltirilganligi bilan tushuntiriladi. Masalan, qurolning o'quv namunasiga ega bo'lmasdan uni o'rganishning iloji yo'k. YOCHQBT dasturiga ko'ra har bir ta'lim muassasalarida O'MBning quyidagi umumiy kompleks (majmua) elementlariga ega bo'lishi tavsiya etiladi:

- 1.YOCHQBT o'quv xonasi (laborantlar xonasi bilan).
- 2.Qurol-aslaha va o'q-dorilarni saqlash xonasi.
- 3.Otish joyi (Strelkovyy tir)
- 4.Qurollarini tozalash va moylash o'rgatish uchun joy.
- 5.Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon.
- 6.Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi.
- 7.HIA va FH bo'limidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish joyi.
- 8.Jangovar va mehnat shon-shuhrati muzeyi (burchagi).
9. Gimnastik shaharcha.
- 10.To'siqlar qatori majmuasi.
- 11.Jangovar va mehnat shon-shuhrati xonasi (muzeyi, burchagi).
- 12.Ko'chma (yig'ma) jihozlar.
- 13.Vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot vositalari.

**YOCHQBT o'quv xonasi (laborantlar xonasi bilan).**

Ta'lim muassasasining YOCHQBT xonasi quyidagi maqsadda jixozlanadi:

-CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturining barcha bo'limlarini (ko'proq nazariy) o'rganish uchun kerakli o'quv-moddiy bazani yaratish;

- Talabalarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi fani bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish;

-Talabalarning vatanparvarlik tarbiyasi va ularni harbiy kasblarga yo'naltirish maqsadida harbiy bilimlar va ommaviy-mudofaa tadbirlarni o'tkazishni targ'ibot ishlari;

Harbiy xona asosiy talablardan quyidagilariga javob berishi kerak:

-Mashg'ulot uchun qulay, sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan priborlar, o'quv ko'rgazmali qo'llanma va buyumlarini saqlash uchun mo'ljallangan laboratoriyali xonaga tutashgan; har doim darslarni va darsdan tashqari ishlarni olib borishga tayyor bo'lish; dars jarayonida nafaqat o'quv, balki tarbiyaviy masalalarni echishga yordam berish;

-Ta'limda maksimal ravishda ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash va bir vaqtning o'zida talabalar tomonidan mustaqil vazifalarni bajarilishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

-Texnik ta'lim vositalarini keng ko'lamda tatbiq qilishga imkoniyat yaratish;

- CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik faniga taluqli ro'yxat bo'yicha o'quv adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar va buyumlarga ega bo'lish;

-Eksport qilinadigan materiallarni ko'rinishi va mazmuniyligini badiiy bezalgan interer bilan birga qo'shish.

YOCHQBT xonasi keng va yorug' (54-80m<sup>2</sup>) bo'lishi kerak. (1-rasm )YOCHQBT xonasi o'z ichiga sinf mebeli, o'quv-uslubiy jixozlar va laboratoriya xonasi (agar joy etarli bo'lsa), o'quv qo'llanmalar va texnik ta'lim vositalarini oladi.


Sinf mebeli quyidagilardan iborat: gorizontal yuzali o'quv stollar va o'rindiqlar, harbiy rahbar stoli, namoyish etish stoli, kinoapparat va dioproektlar uchun moslamalar, sinf yozuv taxtasi, ko'rsatgich. CHetki stollar qatori devordan 50-60 sm masofada bo'lishi kerak.

YOCHQBT xonasi o'quv-uslubiy jixozlarining asosini ta'lim dasturidagi har bir bo'limiga tegishli stendlar (turniklar, aylanma barabanlar) hisoblanadi. Ular quyidagi tartibda joylanadi:

1. Kirish mavzusi
2. Harbiy ish asoslari
3. Otish tayyorgarligi
4. Harbiy xizmat asoslari

5. Amaliy jismoniy tayyorgarlik
6. Fuqaro muhofazasi
7. Tibbiy bilim asoslari
8. Nazorat mashg'ulotlari

YOCHQYOT xonasida doskaning tepasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Oliy Bosh k.umondoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining portreti, undan pastda esa O'zbekiston Konstitutsiyasining 52-moddasi - «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - har bir O'zbekiston fuqarosining burchidir» - degan matn yozilgan bo'lishi kerak.



rasm. YOCHQBT xonasini sxemasi (variant). a – YOCHQBT xonasi, b - laborant xonasi;

1 - talabalar stollari, 2 - o'qituvchining stoli, 3 - sinf doskasi, 4 - ilib qo'yiladigan stendlar, 5 - vitrinalar, 6 - proektor uchun joy, 7 - apparaturani distansion boshkarish pulti, 8 - ekran, 9 - ish stoli, 10 - kitob javoni, 11 - kurolni tozalash va moylash uchun stol, 12 - apparatura uchun shkaf, 13 - stellajlar.

Sinf yozuv taxtasining o'ng tomonida harbiy kasamyodning ruscha matni, chap tomonida esa o'zbekcha matni yoziladi. O'zbekcha va ruscha qasamyodlar matnining yuqorisiga O'zbekiston Respublikasining bayrog'i va gerbi joylashadi.

YOCHQBT xonasida stendlar, joylar maketi, o'qitishning texnik vositalari, ko'rgazmali qurollar uchun joy, harbiy nizomlar, ko'rsatkich (ukazka), rangli mellar bo'lishi kerak. Talabalar stollarini uch kator qilib joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Devor bilan stol chetining oralig'i kamida 60 sm. bo'lishi kerak. Bu oraliq talaba o'rnidan turib «Kad rost»lashi uchun imkon bo'lishi kerak. YOCHQBT darslarida talabalar stollarga seksiya-seksiya bo'lib o'tirishadi. YOCHQBT xonasida talabalar bilan olib boriladigan taktik mashg'ulot joyining maketi yoki o'quv haritasidan olingan joy maketi o'rnatilgan quti bo'ladi. Bu joy maketida guruh tayanch punktining barcha elementlari va «guruh (seksiya) xujumda» taktik vaziyati ko'rsatiladi. **YOCHQBT xonasi dasturning bo'limlarini o'z ichiga olgan ctendlar bilan jixozlanadi.** SHulardan «Harbiy xizmat asoslari» bo'limidagi saf tayyorgarligi mashg'ulotlari bo'yicha stendlarni talabalar mashg'ulotlar boshlanishi arafasida saflanadigan joyi, ya'ni yo'lakka joylashtirilishi mumkin. YOCHQBT xonasining eshigi yaqinidagi yo'lakda mashg'ulotlar boshlanishi arafasida guruhni ikki qator qilib safga tortish uchun joy ajratiladi. Laboratoriya xonasida, agarda laboratoriya xonasi bo'lmasa harbiy xonada o'quv priborlari, simli aloqa vositalar, texnik va fuqaro himoyasi buyumlari ko'rgazmali qurollarni saqlash uchun stellaj va vitrinalar jixozlanadi. Bundan tashqari YOCHQBT xonasi oynalardagi pardalarni avtomatik yoki yarim avtomatik ochib yopadigan moslama va ekran bilan ham jixozlanadi.

#### **Qurol-aslaha va o'q-dorilarni saqlash xonasi.**

Qurol-aslaha va o'q-dorilarni saqlash xonasi o'quv quroli, kichik kalibrli miltqlar va ularning o'q dorilarini olish, saqlash va hisobini yuritishni tashkil qilish Yo'riqnomasiga muvofiq jihozlanadi. U ta'lim muassasasiga berilgan o'quv quroli, kichik kalibrli miltiq va ularning o'q dorilari hamda o'quv qurol-aslahalarning but saqlanishi va ehtiyot qilinishini ta'minlash uchun mo'ljallangan. YOCHQBT uchun mo'ljallangan individual himoya vositalari,

radiostansiyalar radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari va boshqa o'quv buyumlari laborant yoki harbiy xonalarda (alohida) saqlanishi kerak.

Agar qurolni saqlash xonasi quroldan tashqari qurol aslahalar va boshqa ro'y xatdagi buyumlarni joylashtira olsa, unda u ichki devor (temirli panjara) hamda eshik bilan ajratilishi kerak. Xonaning yaqin qismida individual himoya vositalarini, radiostansiya, radiatsion va kimyoviy razvedka asboblari va boshqa ro'yxatdagi buyumlarni saqlash mumkin. Ichki devor orqasida (panjara) o'quv quroli o'quv qurol-aslahala, kichik kalibrli miltiqlar va ularning o'q-dorilarini, pnevmatik qurollar va ularning o'qlari saqlanadi.

Xona quyidagi talablarga javob berish kerak:

- boshqa qo'shimcha xizmat xonalaridan mustahkam devorlar bilan ajratilgan pishiq va mustahkam pol, devor, tom, shiftga ega bo'lishi;

- ikki tomonidan 1,4-1,6 mm qalinlikdagi ruhlangan (otsenkovannym) tunuka bilan qoplangan 40 mm qalinlikda bo'lgan taxtali tashqi va diametri 15 mm dan kam bo'lmagan alohida armaturadan bo'lgan ichki panjarali mustahkam va ishonchli eshiklar bo'lishi;


- Deraza oynalarida diametri 15 mm bo'lgan stal tayogchalardan temir (stal) panjaralar bo'lishi. Birinchi qavatda joylashgan qurol saqlash xonalarida panjaralardan tashqari metali yoki ikki tomondan ruhlangan (otsenkovannym) tunuka bilan qoplangan taxtali ichki to'siqlar bo'lishi, derazaning ichki to'siq va eshiklari qulflanadigan, suriladigan tirgagichlar bo'lishi, ular muxrlanadigan yoki plombalanadigan bo'lishi;

- ichki ishlar organilarining markazlashtirilgan kuzatuv pultiga chiqadigan qo'riqlash signaliga ulanishi yoki yaqindagi qo'riqlash postiga ulanishi, ta'lim muassasasi binosining tashqi tomonida o'rnatilgan baland ovozli bong yoki sirenali mustaqil (avtonom) signal bilan jixozlangan bo'lishi;

- yong'inni o'chirish vositalariga (ognetushitel) ega bo'lish. Xonada o'quv otish quroli yoki kichik kalibrli miltiqlar javoni (piramida) yoki seyf, kichik kalibrli o'q-dorilarni saqlash qutisi, radiostansiya uchun stellaj (tokchalar) o'rnatiladi.

#### **Otish joyi (Strelkovyy tir)**

Otish joylari (strelkovyy tir)- bu kichik kalibrli miltiqlardan nishonlarga qarata otishga mo'ljallangan maxsus jixozlangan qurilma yoki joy qismidir. Otish joylari (strelkovyy tir) orqa tomondan otish chizigi, oldindan o'qni tutib qoluvchi qatlam va val bilan, yon tomonlardan esa o'qning tashqariga uchib chiqib ketishini to'sib turuvchi devorlar bilan to'silgan bo'ladi. Otish joylari (strelkovyy tir) lar ochiq, yarim yopiq va yopiq bo'lishi mumkin. SHuningdek, soddalashtirilgan temir (stal) beton yoki metall trubalardan 25 m. yoki 50 m.li tirlar bo'lishi mumkin. Otish joylari (strelkovyy tir) shunday qurilishi kerakki, atrofdagilar uchun to'la xavfsizlik ta'minlangan bo'lishi, odamlar va hayvonlarning otish zonasiga quqqisdan kirib qolishining oldi olingan bo'lishi kerak. Ushbu shartlarning bajarilishiga maxsus tarx, himoya devorlari, ayvoncha, o'q tutkichlar o'rnatish orqali erishiladi. Otish joylari (strelkovyy tir) otish zonasi va otuvchilarni tayyorlash uchun xonalardan iborat bo'ladi. Otish zonasida dastlabki holat va o't ochish marralari yaqqol ko'rinib turadigan chiziqlar va yozuvlar yozilgan ko'rsatkichlar bilan belgilab ko'yiladi. O't ochish marrasida otuvchilar uchun tayanib otish uchun tayanchlar (qum yoki qirindi to'lg'azilgan qopchalar mavjud bo'lishi kerak. Otuvchilar uchun xonada o'zlarining bilimlarini va amalmi ko'nikmalarini takomillashtirishlari uchun o'quv joylarini tashkil qilinadi. Buning uchun otish vaktida xavfsizlik choralari; kichik kalibrli miltikdan otish uchun tayyorgarlik mashqini hamda Kalashnikov avtomatidan boshlang'ich mashqni bajarish sharti haqida ko'rsatmalar qo'yilgan shitlar joylashtirilishi lozim.



2-rasm. Otish joyining yarim yopiq sxemasi. 1-otish paviloni; 2- ustki qismdagi o'q tutqichlari; 3- otish zonasi; 4-otish o'nalishidagi o'q tutqich; 5-mishenlar.(-ramda faqat otish joyining boshqa turlariga nisbatan ko'proq foydalanilayotgan yarim yopiq turining sxemasi ko'rsatilgan, kengroq materiallarni «YOCHQBT bo'yicha O'MB jihozlash bo'yicha o'quv qo'llanma»ga qaraladi).

Barcha o'q otishni mashq qilish joylari (strelkovyy tir) o'q otish paviloni va o't ochish zonasidan tashkil topgan. Otish pavilonini kattaligiga ko'ra turli vazifani bajaruvchi bino kompleksi (kutish, qurol tozalash xonasi, otuvchilarni tayyorlash sinfi, xojat xona va yuvinish xonasi) bo'lishi mumkin. Bu binolarning soni va o'lchamlari, otish joyini turiga, kattaligiga va uni loyihalashtirish va qurish shart-sharoitlariga bog'liq.

### **O't ochish chegarasi.**

O't ochish **chegarasi** – bu o't ochish liniyasi bilan o'q tutqich orasidagi joylashgan nishonga o'q bilan uradigan bo'shliqdir. U ustki va yon tomondan o'q o'tkazmaydigan to'siqlar bilan to'liq yoki qisman yopilgan bo'lishi mumkin. O'q otishni mashq qilish joylari 25 m va 50 m bo'lishi mumkin. Ularda o'q otish kursining quyidagi eslatmalari ilib qo'yiladi:


-avtomatdan boshlang'ich mashqlarni bajarish shart-sharoitlari va xususiyatlari;

- o'q otishda havfsizlik choralari.

Bundan tashqari, o'q otishni mashq qilish joyida mahalliy sharoitni hisobga olgan holda xavfsizlik choralari haqidagi ishlab chiqilgan yo'riqnoma, o'q otish rahbarining majburiyatlari va kichik kalibrli miltiqdan o'q otish mashqini bajarish shart-sharoitlari ko'rsatilgan stendlar ilib qo'yiladi. O'q otishni dastlabki vaziyatini va o'q ochish marrasi yaxshi ko'rinadigan chiziq yoki kerakli yozuvli taxtachalar bilan belgilanadi.

### **Qurollarni tozalash va moylashni o'rgatish uchun joy.**

Qurolni tozalash va moylashga o'rgatish uchun joy (strelkovyy tir) ning o'qchilarni tayyorlash xonasida jixozlanadi. Undan otish tayyorgarligi bo'limi bo'yicha mavzularni o'rganishda foydalanish mumkin. Agar ta'lim muassasalarida otish joyi bo'lmasa, uni YOCHQBT xonasi bilan tutash bo'lgan laborant xonasida yoki qurol saqlash xonasi yonida jixozlash mumkin. Qurolni tozalash va moylashga o'rgatish uchun joy (**3-rasm**) quyidagilarni o'z ichiga oladi: qurolni yoyish, tozalash, moylash va yig'ish uchun maxsus stol; qurolni tozalash va moylash tartibi bayon kilingan shit (shitda tozalashda va moylashda ishlatiladigan anjomlar va materiallar namunalari joylashtiriladi); qurolni asrab-avaylash va ko'rikdan o'tkazish buyicha eslatma bayon kilingan shit, qurol moyi to'lgazilgan idish; toza latta (mato) va qiyqimlar solingan metall kuti. Qurolni tozalash va moylashga o'rgatish bevosita Harbiy rahbar (CHQBTO') ning nazorati ostida o'tkaziladi.



***Rasm.** Qurolni tozalash va moylash uchun joy. 1-stolning qopkog'i; 2-stol; 3-vetosh; 4-moy idishni solish uchun quticha.*

### **Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon.**

Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon YOCHQBT bo'yicha o'quv-moddiy bazalarning ichida eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Talabalar bilan saf tayyorgarligi buyicha barcha mashg'ulotlar maxsus jixozlangan maydonda o'tkaziladi. Bu ta'lim muassasasi xududida jixozlanadi va asfalt yoki beton bilan koplangan, tekis bo'lishi shart. Maydonchaga oq buyok bilan 4-rasmda ko'rsatilganidek belgi va shakllar chiziladi.

Maydonchani perimetri buyicha xar 80sm.dao'tkazilganchiziqlar shaxdam qadam bilan yurishni mashq qilishga mo'ljallangan va u qadamning kengligiga mos keladi. Maydonchani perimetri buyicha chizilgan aylanalar kad rost xolatida tug'ri turishni va joyda turib burilishlarni mashq qilish uchun mo'ljallangan. Aylanalarni to'rt qismga bo'lish,mashg'ulot rahbariga talabalar joyda turib burish mashqlarini bajarayotganlarida oyoqni to'g'ri qo'yishlarini nazorat qilishga imkon beradi.4x4 m. o'lchamdagi katta kvadratlar xarakat chog'ida burilishni mashq qilishga mo'ljallangan.Saf tayyorgarligi buyicha mashg'ulot maydonining perimetrini 48 m. yoki 60 qadam bo'lishi mashg'ulot rahbariga talabalarda shaxdam qadam bilan yurish tezligini tenglashtirish imkonini beradi (saf nizomiga muvofiq qadam tezligi minutiga 110-120 qadam). Maydon perimetri buylab qurol bilan va qurolsiz qad rostlab turish, joyda turib va xarakatda burilish, shaxdam qadam bilan yurish, joyda turib va xarakat vaqtida harbiycha salom berish kabi tasvirlar tushirilgan 70x150 sm.li shitlar o'rnatiladi. Maydon bitta sinf bilan mashg'ulot o'tkazishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

### **Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi.**

Maydon YOCHQBT xonasiga kirishda yoki xonaga yaqin bo'lgan qulayrok joyda jixozlanadi.Jihozlangan joyda navbatchi xujjatlarining taxtasi, tumbochka, tumbochkaning ichida navbatchilikni topshirish va qabul qilish kitobi, qurol va o'q-dorilarni oldi-berdi qilish kitobi, kasallarni qayd qilish kitobi, kismdan tashqariga ruxsat berilgan muddatli harbiy xizmatni o'tayotga harbiy xizmatchilarni qayd kilish kitoblarining maketlari; telefon apparatining maketi; o't o'chirish vositasi; 30x10 sm.li navbatchini boshqalardan ajratib turuvchi yozuvli beyjik yoki qo'l bog'ich (bog'ichda «vzvod buyicha navbatchi» degan yozuv bo'ladi), posbon uchun nayza -pichoqning maketi bo'lishi kerak **(5-rasm)**.Ushbu joyda vzvod buyicha posbonning vzvodga to'g'ridan-to'g'ri boshliqlar kelganidagi, trevoga yoki yong'in sodir bo'lgandagi, telefon orqali doklad qilish, vzvodning buyumlari va qurollarni saqlash kabi va vzvodga boshqa vzvoddagi harbiy xizmatchilar kirib kelgandagi amaliy harakatlar mashq qilinadi.




Рис. 32. Место для практического изучения обязанностей дежурного: 1 — сигнализация; 2 — телефонный аппарат; 3 — повязка дежурного по роте; 4 — тумбочка; 5 — место дежурного; 6 — доска с документацией дежурного.


Rasm. Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi. 1-o't o'chirish vositasi; 2-telefon apparati; 3-30x10 sm.li navbatchini boshqalardan ajratib turuvchi yozuvli beyjik yoki qo'l bog'ich (bog'ichda «vzvod buyicha navbatchi» degan yozuv bo'ladi); 4-tuchbochka; 5-posboning joyi; 6-navbatchi xujjatlarining taxtasi.

Dasturning harbiy ish asoslari va fuqarolar himoyasi bo'limlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish joyi (o'quv shaharcha).

O'quv shaharcha ta'lim muassasalarida YOCHQBT o'quv dasturiga muvofiq talabalarni harbiy ish asoslari va fuqarolar himoyasi bo'limlarida ko'rsatilgan amaliy mashg'ulotlarni mashq qilish uchun mo'ljallangan. O'quv shaharchada o'quv joyi tashkil etiladi. O'quv shaharcha 10-60 m dan kichik bo'lmagan joyda joylashtirish kerak va u quyidagi elementlardan iborat bo'ladi.

### Gimnastik shaharcha

Gimnastik shaharchalari sanitariya talablari va ta'lim muassasasiga qulay va yaqinligini hisobga olgan xolda quriladi. Shaharchaning asosini gimnastik snaryadlar va boshqa sport qurilmalari tashkil etadi. Gimnastik shaharchasini qurayotgan vaqtda unda o'rganish mashqlarini va bir vaqtning o'zida ko'p mikkordagi o'rganuvchilarni o'tkaza olishini ta'minlash maqsadida gimnastik snaryadlar, qurilma, moslamalar va turli konstruksiyalarni ratsional joylashtirishga e'tibor qaratish zarur. Gimnastik shaharchalarida sport inshootlarini chizikli joylashtirish eng ratsional joylashtirish x.isoblanadi. 50x30 m. o'lchamdagi gimnastik shaharchasining varianti 7-rasmda kursatilgan. Shaharcha perimetri buyicha eni 2 m. bo'lgan yugurish yulakchasi bilan chegaralangan. Agar er uchastkasi gimnastik shaharchasini qurishga torlik qiladigan bo'lsa, snaryadlar, konstruksilar va moslamalarni joylashtirishga ijodiy yondoshish va ushbu tavsiyalarda bayon qilingan ko'rsatmalarga zarur qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish lozim.




Rasm. Gimnastik shaharchasi (variant).

Gimnastika shaharchalari tegishli vazirlik va boshqarmalarning xujjatlarida ko'rsatilgan, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishga va «salomatlik» me'yorlarini

topshirishda zarur bo'ladigan sport anjomlari va jixozlari to'raligicha ta'minlansa yaxshi natijalarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

### **To'siqlar qatori majmuasi.**

To'siqlar qatorini oshib o'tish buyicha mashg'ulotlarda talabalar turli ko'rinishdagi to'siqlarni engishni, granata uloqtirishni, murakkab, tez o'zgaradigan sharoitda xarakat qilishni o'rganadilar. Ularda chidamlilik, chaqqonlik, epchillik sifatleri rivojlanadi, shuningdek, jasurlik, kat'iylik, topqirlik, o'z kuchiga ishonish kabi xislatlar tarbiyalanadi. **(8 –rasm )**



Rasm. To'siqlar qatori.

Eslatma: To'siqlar qatorini oshib o'tish tartibi o'quv dasturning 2-ilovasida ko'rsatilgan.

Ko'chma (yig'ma) jihozlar.

O'quv qurollari va texnikalari (4-ilovaga muvofiq).

Kimyoviy himoya vositalari (4 va 5-ilovalarga muvofiq).

Sport snaryadlari va anjomlari (8-ilovaga muvofiq)

Qo'l bola yasama qo'l granatalari (8-ilovaga muvofiq)

Kiyiladigan, osib va taqib olinadigan anjomlar (8-ilovaga muvofiq)

Otish tayyorgarligini amaliy mashg'ulotlari uchun moslamalar(8-ilovaga muvofiq)

Mashg'ulotlar va musobaqalar o'tkazish uchun ko'rsatkichlar va buyumlar (8-ilovaga muvofiq)

O'lchov asboblari va buyumlar (8-ilovaga muvofiq)

"Tibbiy bilim asoslari" bo'limi bo'yicha anjomlar va o'quv materiallari (6-ilovaga muvofiq)

O'quv –ko'rgazmali qo'llanmalar (8-ilovaga muvofiq)

Tasvir tushirish uskunalari dona (8-ilovaga muvofiq)

Eslatma:Ko'rsatilgan ilovalar YOchqbt o'quv dasturidagi ilovalarni nazarda tutadi.

**Vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot vositalari.**

**Stendlar:**

- «O'zbekiston Respublika Qurolli kuchlarining Qaxromonona yo'li»;

- «Ular Vatan uchun jang qildilar» (ta'lim muassasasining o'qituvchilarini va shuerda o'qishni tamomlab ketgan sobiq talabalarni jangovor yo'llari) ;

- «Ota-onalarimizning olgan harbiy mukofotlari hikoya qiladi»;

- «Ofitserlik kasbi»;

- «Bizning bitiruvchilarimiz – harbiy o'quv yurtlarining kursantlari»;

-«Ular Vatan oldidagi burchlarini a'lo darajada ado etmoqdalar»;

Bulardan tashqari, viloyat, shahar, tuman, qishloq xududlarida O'R QK va xalqining ingqilobiy va jangovor shon-sharaf yodgorliklarini xaritalarini, sxemalarini;

- Buyuk sanalarning taqvimini;

- «Vatanparvar» gazetasini vitrinasini tashkil etish tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qahramoni nomi bilan ataladigan ta'lim muassasalarida Qahramonning portreti va uning hayoti, ko'rsatgan jasoratini yoritadigan stend bo'lishi lozim.

**Jangovar va mehnat shon-shuhrati xonasi (muzeyi, burchagi).**

Madaniyat va sport vazirligining qarori bilan tasdiqlangan ta'lim muassasalarinig jangovar va mehnat shon - shuhrati muzeyi ( xona burchak)ni tashkil qilish jihozlash va uning faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risidagi nizomga muvofiq tashkil qilinadi va jixozlanadi.

**Ta'lim muassasasi O'MB ning xolati quyidagicha baholanadi:**

«a'lo» - agar jixozlangan joylardan 1) Harbiy hona; 2) O'quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlarni saqlash xonasi; 3) Otish qoidalari va usullarini amaliy o'rgatish uchun joy (strelkovyy tir); (ta'lim muassasasida otish joyining mavjudligi, shuningdek bir nechta ta'lim muassasalari katta bo'lgan umumiy otish joyiga ega bo'lishi, uning joylashuvi esa o'quv reja va mashg'ulotlar jadvalida ko'zda tutilgan otish to'garagi ishlarini o'z vaqtida boshlash imkonini bera olishi ham inobatga olinadi, agar ta'lim muassasasining joylashuv shart- sharoitlari otish joyiga ega bo'lishning imkonini bermasa hokimlik qarori bilan bu ta'lim muassasasi, talabalarga otish qoidalari va usullarini amaliy o'rgatish uchun boshqa bir otish qoidalari va usullarini amaliy o'rgatish uchun joy (strelkovyy tir)ga ega bo'lgan ta'lim muassasasiga (tashkilotga) biriktirib qo'yiladi. 4) Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon; 5) Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi; 6) Qurollarni, tabelli o'quv-qurol va texnikalarni tozalash va moylashni o'rgatadigan joy. Ta'lim muassasasida qurol, tabelli o'quv-qurollarni va texnikalarni mavjud emasligi qo'yiladigan bahoga ta'sir etmaydi, agar MIB tomonidan berilmagan yoki IBB tomonidan olib qo'yilgan bo'lsa, o'quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlarni saqlash xonasi esa qo'yilgan talablarga javob bersa, harbiy ish asoslari va otish tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulot o'tkazish uchun ko'chma jihozlar majmuasi va ko'chma jihozlar anjomlariga kiradigan anjomlar: nishonlar majmuasi, joylardagi buyumlar va mo'ljal olish uchun maketlar, ko'rsatuvchi belgilar, qo'l granatasining balvankalari, guruh bayroqchalari, tayanch majmuasi, choyshab, bir xil mo'ljalga olish uchun ekranlar, seksiyaga anjomlar majmuasi, granata va magazin(o'qdonlar)lar uchun sumka (remen), piyodachilarning kichik lopatasi uchun niqob(chexol)chalar. Ta'lim muassasasi dastur xajmidagi, harbiy ish asoslari va otish tayyorgarligi bo'yicha amaliy faoliyatlarni mashq qilishni ta'minlaydigan, o'quv punktlarida uchun esa bundan tashqari jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulot o'tish o'tish uchun joyga ega bo'lsa;

«yaxshi» - agar «a'lo» baho qo'yilishi uchun bo'lishi kerak bo'lgan O'MB barcha elementlari mavjud bo'lsa, biroq vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish va qurollarni, tabelli o'quv-qurol va texnikalarni tozalash va moylashni o'rgatadigan joy to'liq jihozlanmagan, shuningdek, ko'chma jihozlardan ayrimlari etmasa;

«qoniqarli» - agar harbiy hona, o'quv qurollari va kichik kalibrli miltiqlarni saqlash xonasi, Otish qoidalari va usullarini amaliy o'rgatish uchun joy (strelkovyy tir), saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydon, tabelli o'quv-qurol va texnikalar bo'lsa, va ulrning hisobini yuritish, saqlash, talabga muvofiq tashkillanmagan;

«qoniqarsiz» - agar «uch» baho qo'yilishi uchun bo'lishi kerak bo'lgan O'MB elementlaridan birontasi bo'lsa ham mavjud bo'lmasa yoki tabelli o'quv-qurol va texnikalarni hisobini yuritishga, saqlashga, qo'yilgan talablariga muvofiq tashkillanmagan bo'lsa (IIB buyrug'i bilan tasdiqlangan qurol olish, tashib keltirish, saqlash, o'qotar qurollarni, ularning o'q-dorilarini hisobini yuritish va to'g'risidagi yo'riqnoma).

Bunda harbiy ish asoslari va fuqaro himoyasi mashg'ulotlari uchun ta'lim muassasasida o'quv shaharchasini jixozlash uchun joy ajratilishini imkoni yo'qligi tufayli ko'chma (yig'ma) jixozlardan foydalanilgani qo'yiladigan bahoni pasaytirish uchun asos bo'la olmaydi.

Maxalliy xalq ta'limi bo'limlari, o'rta maxsus, kasb - xunar ta'limi boshqarmalarining buyrug'lari bilan belgilangan mashg'ulotlar o'tkazish joyi aniqlanaladi va shaharchadan foydalanish o'zaro kelishilgan dalolatnomalar (jadvallar) mavjud.

Ta'lim muassasasi o'quv - moddiy bazasi rivojlanish va takomillashtirilishi perspektiv (besh yillik) va yillik rejalar asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi o'quv - moddiy bazasi rivojlanishi va takomillashtirilishi perspektiv (besh yillik) rejasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- O'MB rivojlanish va takomillashtirilish bo'yicha asosiy tadbirlar;
- kerakli moddiy vositalar va mablag'lar;
- bajarilish muddati va ish kim tomonidan bajarilishi.

Reja ta'lim muassasasi direktori va harbiy rahbar (CHQBTO') bilan imzolanadi.

Reja ta'lim muassasasi bo'ysunadigan xalq ta'limi organlari va o'rta maxsus, kasb xunar ta'limi boshqarmalarining tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ta'lim muassasasining O'MBni rivojlantirish va takomillashtirish yillik rejasi ta'lim muassasasida belgilangan kalendar yili rejasi shakli bo'yicha ishlab chiqiladi, harbiy rahbar (CHQBTO') imzolaydi va ta'lim muassasasi direktori tasdiqlaydi.

## **2 – o'quv savoli. CHHT mashg'ulotlarida qo'llaniladigan TTV (texnik ta'minoti vositalari)**

Ta'lim texnik vositalari ta'lim muassasasi o'quv - moddiy bazasining elementlaridan biri hisoblanadi va o'quv jarayonida tatbiq qilinadigan texnik qurilmalarni o'zida mujassam etadi.

YOCHQBT xonasi quyidagi texnik vositalar bilan jihozlanishi lozim :

- Kompter majmuasi (so'ngi rusumli);
- Kinoproektor;
- DVD ROM, yoki vidiomagnitafon;
- CHizmachilik va maxsus plyonkalar (kodoskop) va ular uchun asbob-anjomlar va priborlar to'plamiga ega bo'lgan grafoprektor;
- diaproektor (DM-3, «Svet», UP-2 «LETI-60» LSI) yoki kadriproekt («Vitaz», «Kadr», «Krugozor»);
- 8 mm li kinoproekt («Kvant», «Rus», «Mayak», «Luch-2m»);
- magnitafon (etidoskop).

«Ta'lim texnik vositasi» atamasi ikki tushunchani o'z ichiga oladi:

1.Hususi texnik qurilma (kompyuter texnologiyalari, vidioproektor, dioproektor, kinoproektor, televizor, magnitafon va h);

2.Ta'lim vositasining o'zi (darslarning multimediyalari, mashg'ulotning elektron variantlari,slaydlar, kinofilmlar, magnitogrammalar va h).

Bu erda, shubhasiz, ta'lim vositasi eng muhimi hisoblanadi.

U o'quv ma'lumotini tarqatuvchisi, ta'lim oluvchilar bilish faoliyatini tezlashtiruvchi vosita hamdir.

TTV tavsiflanadigan bir qancha belgilar mavjud tuzilishiga oid, tashkiliy, sezish organlariga ta'sir qilishiga ko'ra va h.

Harbiy pedagogikada ta'lim jarayonida hal qilinadigan masalalarning xususiyatiga ko'ra tavsiflanishi keng tarqalgan.

1.Ta'lim berishning texnik vositalari (MBTV).

Ularga kompyuter va boshqa texnik vositalar yordamida multimediyalar, mashg'ulotning elektron variantlari, slaydlar orqali o'rganiladigan ma'lumotni berishga imkon beradigan kinofilmlar, rasmlar, tiniq plyonkali sxemalar, fonogrammalarni televizion aks etish, magnit yozib olish va h. audivizual qurilmalar kiradi. Bu erda shuningdek blankalar, jadvallar va sxemalar ko'rinishidagi bosma tarqatma materialni ham kiritish mumkin. Bu guruh eng keng tarqalgan va ilgari vaqtlardan buyon ishlatilib kelinadi. Ularga dioproektor, kadrproektor, kinoqurilma, kadoskop va h. kiradi.Hozirgi vaqtda ta'lim berishda ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan zamonaviy texnik vositalari keng tarqalib respublikamizning barcha xududlariga keng tarqaldi.

SHuning uchun davlatimiz bu ishlarni o'z vaqtida kechiktirmasdan olib borilishi uchun kadrlar masalasiga diqqat e'tiborni qaratmoqda.

2.Joriy va yakuniy bilimlarni nazorat qilish (imtihon, sinov ) uchun bilimlarni nazorat qilish texnik vositalari (BNTV).

Nazorat mashinalarini tatbiq qilish, nazorat nazorat natijalarini ortiqcha vaqt sarflamasdan olish mumkin, savollar soni etarli bo'lganida (test savollari) esa boho qo'yilgan natija bilan bo'ladi. savollari soni va baho bilan nazorat natijalarini olishga imkon beradi («P-4 kompyuter majmuasi»«Kion-5», «Ekzamentor-men», «Signal-!», «Ankord», «Lira»).

3.Amaliy ko'nikmalarini singdirish texnik vositalari (trenajyorlar).

Jangovar texnika, qurol-yarog' va boshqalarda ishlashda ta'lim oluvchilar amaliyko'nikmalarini singdirish va takomillashtirish uchun xizmatqiladi.

4. Mustaqil ta'lim olish texnik vositalari.

Ma'lum bir dastur bo'yicha o'quv ma'lumotlarini berilishini ta'minlaydi va kompyuter yoki EHM bazasi yordamida o'zini nazorat qilishni amalga oshirishga imkon beradi (so'ngi rusumli kompter, «Repetitor-MEN», avtomatlashtirilgan ta'lim sistemasi ATS). Ko'rgazmali qurollar - pedagogikaning muhim didaktik prinsipi, bunga ko'ra darsda qabul qilinadigan aniq namunalar talabalar bilan o'rganiladigan materialni yaxshi o'zlashtirib olishga yordam beradi. Darslarda ko'rgazmali qurollar va taktik vositalarni tatbiq qilinishi talabalar e'tiborini eshitib qabul qilishlaridan ko'rib qabul qilishlariga qaratilib va bir vaqtning o'zida navbatdagi o'quv materialini eshitish orqali ongli qabul qilishga va bilish faoliyatini faollashtirishga tayyorlaydi. Ko'rgazmali qurollar yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi ishida alohida ahamiyatga ega bo'lib jang maydonida askarning ishonch bilan harakatlanishlari uchun zarur bo'lgan usul va ko'nikmalarni shakllantirishda bosh vazifalaridan biri hisoblanadi.

U yoki bu ko'rgazmali qurol yoki ta'lim texnik vositalarining tatbiq qilinishining pedagogik samaradorligi talaba qanchalik faol va qunt bilan ishlaganiga qarab oshib boradi. O'qish va bilim orttirish borasida talabalarni o'zlari yasay oladigan maket, model va ko'rgazmali o'quv qo'llanmalarini tayyorlashga jalb etish foydadan holi emas. Ma'lum bir ko'rgazmali qurol va ta'lim texnik vositalarini qo'llanishining maqsadga muvofiqlik mezonini o'quv vaqti tejalishi va darsni foydali koeffitsientining ta'sir etishini ko'payishidir. Agar ko'rgazmali vositalarni tatbiq etish o'quv vaqtining tejalishiga olib kelmasa, unda ular noo'rin tanlangan, darslardan oqilona foydalanilmagan yoki mazkur mashg'ulotda ularning umuman keragi yo'q deb topiladi. Darsga ko'rgazmali qurollarni tayyorlashda nafaqat kerakli vositalar, sxemalar, plakatlar, maketlar, o'quv quroli va hakoazolarni tanlash (tayyorlash), TTV moslama va qurilmalar havfsizligini tekshirish, balki ko'rgazmali vositalarni tatbiq qilish uslubiyotini ishlab chiqilishini ham o'z ichiga oladi

-Tatbiq qilishni maqsadini aniqlash;

-Ular bilan ishlash uchun ajratilgan vaqtni aniqlash;

- Mashg'ulot (dars)ning pedagogik mazmunida qo'llanmaning o'rni.

Aytaylik, harbiy rahbar (CHQBTO') mashg'ulotda YOCHQBT xonasida ko'rgazmali vositani tatbiq qilmoqchi (nazariy mashg'ulotda«Harbiy ish asoslari» bo'yicha o'quv filmlari). Butun filmning namoyishi 25-35 daqiqa egallashini nazarda tutgan holda har bir juftlik darsda film parchasini 18-20 daqiqadan ko'rsatish lozim.Filmni talabalarga darsdan tashqari soatlarda mazkur mashg'ulotda olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida to'laligicha namoyish etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Darsni o'quv filmini ko'rsatish bilan o'tkazish mumkin emas, sababi filmni o'zi mashg'ulot oldiga qo'yilgan maqsadini to'laqonli amalga oshira olmaydi. SHu bilan birga talabalar ko'p holda ko'rsatiladigan material syujeti, tashqi chiroyi, ta'rifiy tomonlari bilan chalg'ib ketadi, o'rganilayotgan savollar bilan bog'liqlikni yo'qotadi. SHuning uchun ko'rgazmali qurollar va TTV ni tanlashda ularning o'rganiladigan materialni nazariy qoidalari bilan bog'liqlik darajasini e'tiborga olishi lozim.

Ta'lim muassasasilari uchun o'quv qurol-aslahalar, kichik kalibrli miltiq o'quv texnikasi va buyumlarini O'R Mudofaa vazirligi tomonidan belgilangan me'yorlar (ro'yxat) ga ko'ra bepul (ro'yxatning 4-ilovasi, YOCHQBT dasturi - 2005 y, 59 b. qarang) beriladi.

Ta'lim muassasasiga beriladigan o'quv quroli quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- Stvolning o'q solinadigan (kazennoy chasti) qismida pastda AKM-48 mm bo'lgan kenglik va uzunlikdagi stvoli yo'li boshida hosil bo'lgan ikki tomoni ochiq tirqishli segment kesik; *(na kazennoy chasti stvola snizu segmentnyy vyrez s obrazovaniem v nachale kanala stvola skvoznoy prorez shirinoi i dlinoy u AKM-48 mm);*

- Arralangan zarbalrvchi nayza; (spilenny boek);

- Stvolning old qismining yuqorisida va stvol qutichasi pastida ikki tomoni ochiq uzun yoriqlar, qurolning taxta va plastmassa qismlari qora rangga bo'yalgan bo'lishi kerak. O'quv quroli, kichik kalibrli miltiqlar, o'quv texnika va buyumlar MIB orqali okrug qo'mondoni bilan belgilangan tartibda harbiy okruglar naryadlari bo'yicha beriladi. O'quv quroli, kichik kalibrli miltiqlar ta'lim muassasasi va o'quv punktlariga faqat ichki ishlar organlari ruxsatnomasi bilan ta'lim muassasasi va korxona direktorining ishonchnomasiga asoslanib beriladi.

### **3 – o'quv savoli. Ta'lim muassasalarining o'quv qurollari, pribor va tabel buyumlari bilan ta'minlash tartibi.**

YOCHQBT uchun mo'ljallangan o'quv quroli va kichik kalibrli miltiqlar ta'lim muassasasi rahbariga qurolni olish haqida xabar berilgan kundan boshlab ta'lim muassasasi tomonidan 10 kun ichida MIBdan olinishi kerak.

Ta'lim muassasalari va korxonalar tomonidan belgilangan muddat ichida olinmagan o'quv qurol - aslahalar va kichik kalibrli miltiqlar ta'minlovchi organlarga qaytarib beriladi. Kichik kalibrli patronlar MK«Vatanparvar» tashkiloti orqali ta'lim muassasalariga beriladi. Ta'lim muassasalarini va o'quv punktlarini kichik kalibrli patronlar (o'qlar) ta'minlash uchun ta'lim muassasasining direktori tuman MK «Vatanparvar» tashkilotiga buyurtma taqdim etadi. MK «Vatanparvar» tashkiloti o'ziga qarashli tumanining barcha ta'lim muassasalari va o'quv punktlari bo'yicha bu patronlarga bo'lgan miqdoriy ehtiyojni aniqlaydi va tushgan buyurtmalarni viloyat MK «Vatanparvar» tashkilotiga yo'llaydi Ta'lim muassasalariga va o'quv punktlariga olingan qurolni besh kun ichida ichki ishlar organiga ro'yxatga qo'yishlari va uni saqlash huquqini olishlari kerak.

Qurolni saqlash huquqi ruxsatnomasini uch yil muddatga ta'lim muassasasi direktori ning nomiga beriladi.

Ta'lim muassasasi direktorii hamda ta'lim muassasasi yoki korxonaning nomi, manzili o'zgarsa ruxsatnoma ichki ishlar organiga besh kun ichida qayta rasmiylashtirish uchun beriladi. Ta'lim muassasalari va o'quv punktlariga o'quv qurolini MIB va MK « Vatanparvar» tashkilotiga tashib keltirilishi ta'lim muassasalarining kuch va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Olib kelishda qurol-aslahalar va kichik kalibrli miltiqlar albatta g'iloqlangan, o'q-dorilar esa sandiqlarga solinib muhrlangan bo'lishi shart.

Olib kelinadigan qurol-aslahalar, kichik kalibrli miltiqlar va o'q-dorilarni yo'l davomida qo'riqlash va kuzatib borish uchun ikki kishidan kam bo'lmagan qo'riqchi ajratiladi.

YOCHQBT bo'yicha adabiyotlar va ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlanishi ta'lim muassasasi tassarufida bo'lgan vazirliklar, qo'mitalar, idoralar va tashkilotlar hisobidan ta'minlanadi (ro'yxat, 7-ilova YOCHQBT dasturi 2005 y. 64-betga qarang).

Fuqaro mudofaasi bo'yicha talabalarni tayyorlash uchun o'quv materiallari bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi ko'rsatmasiga asosan fuqaro muhofazasining tegishli bo'limlari tomonidan ta'minlanadi.(5-ilova, YOCHQBT dasturi 2005 y. 62-b. qarang). Tibbiy bilim asoslari bo'yicha mashg'ulotlar uchun buyumlar ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi mablag'i hisobiga sog'liqni

saqlash muassasalari tomonidan ta'minlanadi. (6-ilova, YOCHQBT dasturi 2005 y. 63-betga qarang) YOCHQBT bo'yicha darsliklar, o'quv ko'rgazmali qurollar va pnevmatik miltiq va ularning o'qlari ta'lim muassasasi mablag'i hisobidan ham buyurtma asosida sotib olinishi mumkin.

Oldindagi har qanday masalani hal qilishda eng avvalo hoxish va istakning bo'lishi, qolaversa har bir harbiy rahbar(CHQBTO')ning o'z xuquq va majburiyatlarini yaxshi bilishi va uni ijrosiga bo'lgan iltinishi juda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha O'MB juda ko'p elementlarni o'z ichiga oladi. Ular tashqi muhitda ham va o'quv binolarining ichida ham joylashgan bo'lib doimiy ravishda nazorat qilishni talab etadi.

(variant)

Toshkent shahar YAshnobod tumani  
Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'iga

Buyurtma

Sizdan, yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha o'quv jarayonni ta'minlash maqsadida Toshkent shahar Aviasozlar kasb-xunar ko'leji quyida ko'rsatilgan o'quv qurol-aslahalar, va 2005 yilgi YOCHQBT o'quv dasturining 4-ilovasidagi ro'yxatga muvofiq quyida ko'rsatilgan buyumlar bilan ta'minlashingizni so'rayman:

I. 74-Kalashnikov avtomati – 1 ta.

II. O'quv mashg'uloti uchun 5.45 mm o'q – dorilar – 30 ta.

III. Priborlar va boshqa buyumlar:

1. Kattalar uchun protivogazlar – 50 dona


2. R-2 respiratorlari dona - 25 dona

3. Filtrlovchi himoya kiyimi to'plam – 1 komplekt

4. L-1 rusumli engil himoya kostyumi to'plam -1 komplekt va hokazolar.

Toshkent shahar Aviasozlar kasb-xunar kolleji  
direktori Q. Oxunov

CHQBT dasturiga ko'ra xar bir o'quv yurtida quyidagi O'MB umumiy kompleksi belgilarga ega bo'lishi tavsiya etiladi:



## **6-MAVZU: «TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV QUROLLARI VA RO'YXATDAGI MULKLARNI OLISH, QAYD ETISH VA SAQLASH TARTIBI».**

### **Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1.Mashg'ulotlar uchun o'quv quroli va KKM, PMlar ularga o'q-dorilarni olish, qayd etish, tashib keltirish, ro'yhatga qo'yishni talabalarga tushuntirish.

2.KKM, PM va o'quv qurollarini avaylashni va saqlashni tashkil etishni talabalarga tushuntirish.

3.Talabalarga qurollarning ta'mirlanishini tashkil etishni tushuntirish.

4.Talabalarda vatanprvarlik sifatlarni shakllantirish.

O'quv savollari:

1.Mashg'ulotlar uchun o'quv quroli va KKM, PMlar va ularga o'q-dorilarni olish, qayd etish, tashib keltirish, ro'yhatga qo'yish.

2.KKM, PM va o'quv qurollarini avaylashni va saqlashni tashkil etish.

3.Qurollarning ta'mirlanishini tashkil etish.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza

Tayanch so'z va iboralar: KKM - kichik kalibrli miltiq; PM - pnevmatik miltiq.

### **1 – o'quv savoli. Mashg'ulotlar uchun o'quv quroli va KKM, PMlar va ularga o'q-dorilarni olish, qayd etish, tashib keltirish, ro'yhatga qo'yish.**

Harbiy xizmatga tayyorgarlik ishlarini olib borish uchun O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Vazirligi ta'lim muassasalarini va o'quv punktlarini o'quv qurollari, kichik kalibrli miltiqlar, ular uchun patronlar, o'quv texnikasi, individual himoya vositalari, radiatsion va kimyoviy razvedka priborlarini ta'minot ro'yxati bo'yicha bepul ta'minlaydi. Ta'lim muassasalariga, o'quv punktlariga va MK «Vatanparvar» tashkilotiga o'quv kurol – aslahalar, o'q dorilar harbiy okruglar ta'minot organlari tomonidan MIB naryadi bo'yicha beriladi, kichik kalibrli patronlar esa - mudofaa ishlari bo'yicha tuman bo'limlarining taqsimoti bo'yicha MK «Vatanparvar» tashkilotlari orqali tarqatiladi.

O'quv qurol-aslahalarni va kichik kalibrli miltiqlarni, ularning o'q-dorilarini tashib keltirilishi ta'lim muassasalarining kuch va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Olib kelishda qurol-aslahalar va kichik kalibrli miltiqlar albatta g'iloqlangan, o'q-dorilar esa qutilarga solinib va muhrlanishi shart.

Tashib keltiriladigan qurol-aslahalar, kichik kalibrli miltqlar va o'q-dorilarni yo'l davomida qo'riqlash va kuzatib borish uchun ikki kishidan kam bo'lmagan qo'riqchi ajratiladi.

O'quv qurollari va o'q dorilar, kichik kalibrli miltiq va ularga patronlarni olish uchun ruxsatnoma olish, qabul qilib olish, hisob yuritish va ta'lim muassasasida saqlash, «YOshlarni harbiy xizmatga tayyorlash haqidagi Nizom»ning ettinchi bobida belgilab ko'rsatilgan. Ta'lim muassasalari o'quv qurollari va o'q dorilarini, kichik kalibrli miltqlarni tuman (shahar) IIB tomonidan ularni saqlash uchun maxsus jihozlangan xona va ichki ishlar bo'limining o'quv quroli va o'q dorilar olishga ruxsati asosida olinadi va maxsus qurol saqlash uchun jihozlangan xonaning talabga javob berishi haqidagi dalolatnomasiga binoan uch oy muhlat bilan beriladi. Foydalanilmagan ruxsatnomalar ichki ishlar bo'limlariga, kichik kalibrli patronlar esa MK «Vatanparvar» tashkilotiga qaytariladi. Ta'lim muassasalariga o'quv qurollari, ular uchun o'q dorilar, kichik kalibrli miltiq va patronlarni berilishi foydalanishga, saqlashga va hisob-kitobini yuritishga bevosita javobgar shaxsni shaxsini tasdiqlovchi xujjati, ishonch bildirilgan noma va ichki ishlar bo'limlari ruxsatnomasi kabi hujjatlarini taqdim qilganida amalga oshiriladi. Tuman (shahar) MIB o'quv qurollari va o'q dorilarni olayotgan va tarqatayotgan shaxslar ularning texnik ko'rsatmalari maqsadga mos ekanligiga ishonch hosil qilishlari shart. O'quv quroli va kichik kalibrli miltqlar bir oy muddat ichida ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazilib va ularni saqlash uchun ruxsatnoma olinishi kerak, bu ruxsatnoma ta'lim muassasasi direktori nomiga uch yil muddat bilan rasmiylashtiriladi. Ta'lim muassasasi o'quv qurollarini saqlashga uchun ruxsatnomaga ega bo'lganidan keyin ta'lim muassasasiga kichik kalibrli patronalar olish (sotib olish)ga ruxsat beriladi. Qurol saqlash xonasi jihozlangandan keyin ichki ishlar organlari markaziy qo'riqlash pultiga ulanadigan tovush signalining iloji bo'lmasa yoki bu borada qiyinchilik tug'lsa, binoning tashqi tomoniga yoki eng yaqin bo'lgan postga chiqarilgan yoki mahalliy sharoitga qarab ta'lim muassasasining ikki kishidan kam bo'lmagan xodimlari (xizmatchilari) ga o'rnatilgan baland ovozli (sirena) avtomatik tovush signali bo'lsa o'q otar qurollarni saqlash 1-2 yillik muddatga ruxsat beriladi. Ta'lim muassasasi direktori o'zgargan taqdirda va ta'lim muassasasining nomi va manzili o'zgartilsa qurol saqlash ruxsatnomasi o'n kun muddat ichida qayta rasmiylashtirilishi kerak.

## **2 – o'quv savoli. KKM, PM va o'quv qurollarini avaylashni va saqlashni tashkil etish.**

*O'quv qurollarni va o'q dorilarni, kichik kalibrli miltiq va ularning patronlarini mashg'ulotlar o'tkazish uchun tarqatish va qabul qilishni hisobini yuritish.*

Ta'lim muassasalarida ro'yxatdagi (tabel) o'quv qurollarni va o'q dorilarni, kichik kalibrli miltqlarni va ular uchun patronlarni, shuningdek sotib olingan kichik kalibrli miltqlarni va ularning patronlarini «O'quv qurollar, o'q dorilar, kichik kalibrli miltiq va ular uchun patronlar va o'quv buyumlarini ro'yxatga olish va foydalanish kitobi» bo'yicha hisobga olinadi.

*Bu kitob raqamlanishi va varoqlari ip bilan bog'lanib, ichki ishlar organlari muhri bilan muhrlanishi kerak.*

O'quv qurollari va o'q dorilarni kichik kalibrli miltiq va ularning patronlarini qabul qilib olish uchun yuk hujjatlari asos bo'ladi. Sotib olingan kichik kalibrli miltiq va patronlari uchun esa - sotuvchi tashkilotning hisob varaqasi asos bo'ladi. O'quv qurollarini va o'q dorilarni ta'lim muassasasidan olib chiqish va tarqatish, dala mashg'ulotlarida va ta'lim muassasasiga qarashli otish joylari (strelkovyy tir)da mashg'ulotlar o'tkazish uchun ta'lim muassasasining ruxsati bilan olib boriladi. Agarda dala mashg'ulotlari yig'in usulida olib borilsa, unda ularni o'tkazish joylarida qurollarni saqlash uchun xona ajratilib uni qo'riqlashni tashkil etiladi. MIB ruxsati bilan o'quv quroli va kichik kalibrli miltqlar YOCHQBT bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uchun boshqa ta'lim muassasasiga berilishi mumkin, bunday hollarda ularni qabul qilib olish ta'lim muassasasi direktori tomonidan amalga

oshtiriladi, direktor ularni yo‘qotib yoki o‘g‘irlanib ketish hollarini oldini olish maqsadida mustahkam va ishonchli saqlanishini tashkillaydi va olingan o‘quv qurollari va o‘q dorilar (mashg‘ulot o‘tkazilganidan keyin) berilgan kuni qaytarilishi kerak.

O‘quv qurollari va o‘q doirlarni, kichik kalibrli miltiq va ularga patronlarni mashg‘ulotlarga va o‘q otishga berilganidan va olib chiqilganidan so‘ng ularni o‘q dori, kichik kalibrli miltiq, ro‘yxatdagi (tabel) buyumlarni oldi-berdi kitobiga kerakli yozuvlar qayd etiladi.

### **3 – o‘quv savoli. Qurollarning ta‘mirlanishini tashkil etish.**

Kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlarga patronlar - alohida temir (stal) yashikda (seyf) qulf osilib va muhrlangan holda saqlanadi. YAshik (seyf)ni devor yoki polga mahkamlaganda uni patroni bilan olib ketilishini oldi olinishi kerak. temir (stal) yashikni (seyfni) qurol saqlash shkafiga joylashtirish mumkin. SHu bilan birga u shkafga mahkam biriktirilib, payvandlanishi, qulflanishi va surgut bilan muhrlanishi kerak. O‘quv o‘q-dorilari jihozlangan tokchalarda, o‘quv patronlari esa bundan tashqari taxta tuyachalarida (tik holatda) saqlanadi. O‘q-dorilarning har bir turi tagiga nomi yozilib, yopishtirib chiqiladi. Qayd etish kitobi raqamlanib, varaqlaridan ip o‘tkazib bog‘lab ta‘lim muassasasining muhri bilan muhrlanadi. Kichik kalibrli miltiq va pnevmatik qurollarning patronlarini hisobdan o‘chirish direktori tomonidan otish mashg‘ulotlari uchun patronlarni tarqatish ro‘yxati (vedomosti) bilan dalolatnoma (akt) asosida amalga oshiriladi.

Kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlarga patronlar - alohida temir yashikda (seyfda) qulf osilib va muhrlangan holda saqlanadi. YAshik (seyf)ni devor yoki polga mahkamlaganda uni patroni bilan olib ketilishini oldi olinishi kerak. temir yashikni (seyfni) qurol saqlash shkafiga joylashtirish mumkin. SHu bilan birga u shkafga mahkam biriktirilib, payvandlanishi, qulflanishi va surgut bilan muhrlanishi kerak. O‘quv o‘q-dorilari jihozlangan tokchalarda, o‘quv patronlari esa bundan tashqari taxta t uyachalarida (tik holatda) saqlanadi. O‘q-dorilarning har bir turi tagiga nomi yozilib, yopishtirib chiqiladi. Qayd etish kitobi raqamlanib, varaqlaridan ip o‘tkazib bog‘lab ta‘lim muassasasining muhri bilan muhrlanadi. Kichik kalibrli miltiq va pnevmatik qurollarning patronlarini hisobdan o‘chirish direktori tomonidan otish mashg‘ulotlari uchun patronlarni tarqatish ro‘yxati (vedomosti) bilan dalolatnoma (akt) asosida amalga oshiriladi.

## **7-MAVZU: YOSHLARNI CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIGI FANI BO‘YICHA MASHG‘ULOTLARNI ASOSIY SHAKL VA USLUBLARI.**

### **Reja**

O‘quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1.CHHT bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazilishida qo‘llaniladigan shakl va uslublarini talabalarga tushuntirish.

2.Talabalarga Nazariy mashg‘ulotlar (ma‘ruza, suxbatlar), amaliy, ko‘rgazmali va nazorat mashg‘ulotlarini tushuntirish.

3.CHQBTda qo‘llaniladigan o‘qitish uslublari; hikoya; tushuntirish; ma‘ruza; suhbat; mashq (trenirovka); amaliy ish; o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganishni talabalarga tushuntirish.

4.Talabalarda harbiy xizmatga bo‘lgan sadoqatni yuksaltirish.

O‘quv savollari:

1.CHQBT fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazilishida qo‘llaniladigan shakl va uslublar.

2. Nazariy mashg'ulotlar (ma'ruza, suxbatlar), amaliy, ko'rgazmali va nazorat mashg'ulotlari.

3. CHQBTda qo'llaniladigan o'qitish uslublari: hikoya; tushuntirish; ma'ruza; suhbat; mashq (trenirovka); amaliy ish; o'quv materiallarini mustaqil o'rganish.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza

Tayanch so'z va iboralar: Didaktika - ta'lim va ma'lumot nazariyasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog'i.

### **1 – o'quv savoli. CHQBT fani bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazilishida qo'llaniladigan shakl va uslublar.**

O'quv yurtlarida o'quv savol, harbiy pedagogik fani yutuqlari va uning tarkibiy qismi-didaktika asosida tuziladi. Didaktika (grekcha o'rgatuvchi) bu ta'lim va ma'lumot nazariyasini ishlab chiqadigan pedagogika tarmog'i. *Harbiy didaktika* – bu harbiy ta'lim va ma'lumot nazariyasini ishlab chiqadigan harbiy pedagogika tarmog'i. U ta'lim jarayoni qonuniyatlarini o'rgatadi, prinsiplarini shakllantiradi, uslublarini aniklaydi va kuzatadi. Ta'limning tarbiyaviy axamiyatini o'rganadi, undan foydalanishning yanada samarali yo'li ma'lumot bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni, jarayoni, natijasi va vositalarini aniqlaydi. Ma'lumot jarayoni va natijasi bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni o'zlashtirish. Ma'lumot olishning asosiy yo'li ta'lim hisoblanadi.

Ta'lim – bilim, qobiliyat, ko'nikmalar va bilish faoliyatini berish va o'zlashtirish jarayoni, bu ikki taraflama jarayon: bir tarafdin unda ta'lim beruvchi (o'qitish), boshqa tarafdin esa ta'lim oluvchi (o'qish) o'qitish va o'qish chambarchas o'zaro bog'liq va o'qitishning yutug'i bir xilda ikki taraf harakati va faoliyatiga bog'liq. O'qishga istagi bo'lmaganni o'qitib bo'lmaydi. Demak, o'quv jarayoni talabalarida istak uyg'ota oladigan darajada ko'rilishi kerak.

Ta'lim jarayoni asosiy mazmuni bilim berish va o'zlashtirishdir. Agar bilimlar amaliy faoliyat asosini tashkil etsa, qobiliyat va ko'nikmalarni aniqlaydi. Demak, ta'lim jarayonining mazmuni ikkinchi belgisi moxiyatiga ko'ra bilimlarni amalda tadbiq qiladigan qobiliyat va ko'nikmalarni berish va o'zlashtirish hisoblanadi. CHuqur nazariy tayyorgarlik yuqori amaliy malaka bilan mustahkamlanishi kerak.

O'quv ishini tashkil etish asosiy shakli talabalar nazariy bilim oladigan dars hisoblanadi. Darsni yaxshi tashkil etish, uni qiziq va ko'rgazmali, yuqori g'oyaviy va ilmiy ko'rgazmada o'tkazish har bir o'qituvchi uchun majburiy talablar hisoblanadi.

Harbiy rahbar guruh bilan nazariy materialni o'tadigan darslardan tashqari harbiy xona va joylardagi amaliy malg'ulotlar, o'q otish, taktik, saf mashg'ulotlari, harbiy sport o'yinlari ekskursiyalar (harbiy qism va muzeylariga), o'zbek xalqi inqilob, jangovor va mexnat shuxrati joylariga yurishlar, tashkil qilingan o'quv kinofilmlar teatr tomosholarini ko'rsatishlar keng tadbiq etiladi.

Sinf (nazariy) mashg'ulotlarini hal qilinadigan va shu bilan birga ba'zi bir aqliy va sensor ko'nikmalar shakllanishi mumkin bo'ladigan dars turidagi mashg'ulotdir. Har bir bunday mashg'ulot asosiy talablari deb yuqori g'oyaviylik, hayot va talabalar amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liqlikni hisoblash lozim.

Sinf mashg'ulotlari qism qoidalari, o'q otish nazariyasi, qurol va texnika qismlari, ommaviy yakson etish quroli asosiy ma'lumotlari va bir qancha maxsus va harbiy-texnik tayyorgarlik savollarini o'rganish maqsadida olib boriladi.

CHaqiriqqacha tayyorgarlik darslarining quyidagi asosiy turlari mavjud:

1. Nazariy ma'lumotlar beriladigan yangi bilimlarni berish darsi.

2. Bilim va qobiliyatlarini mustaxkamlash darsi amaliy mashg'ulot shaklida, joy, safda yurish maydonchasi, harbiy xonada o'tkaziladi.

3. Bilim va qobiliyatlarni tekshirish darsi. U og'zaki savol-javob, nazariy (yozma) ishlar yoki amaliy mashg'ulotlar (safardagi ko'rik, qurol bilan usullarni bajarish va xokazo), nazorat ishlari va mashqlarni o'z ichiga oladi.

4. Qo'shma dars harbiy ta'lim tizimida eng keng tarqalgan dars turi, u boshda dars turlariga oid belgilarning barcha yoki katta qismini tashkil etadi: yangi bilimlarni berish, tekshirish, mustaxkamlash va boshqalar.

O'smirlar chaqiriqqacha tayyorgarligi dasturida nazariy, amaliy, namunaviy, taktik, taktik-saf nazorat mashqlari joy olgan.

## **2 – o'quv savoli. Nazariy mashg'ulotlar (ma'ruza, suxbatlar), amaliy, ko'rgazmali va nazorat mashg'ulotlari.**

Nazariy mashg'ulotlar (ma'ruza, suxbat) - og'zaki bayon uslubi bilan o'tkaziladi, ular o'rganiladigan bo'lim bo'yicha ilmiy bilimlar asosini berishi, dialektik o'zaro bog'liklikda o'quv materialini murakkab savollarini ochib berishi, talabalar ijodiy fikrlashining rivojlanishini va ulardan to'g'ri dunyoqarishni shakllantirishga yordam berishi, nazariya va amaliyot dolzarb masalalari, fanning zamonaviy yutuklarini aks etishi va mashg'ulotlarning boshqa to'rlari va talabalar mustaqil ishini tashkil etish va o'tkazish uchun asos bo'lishi kerak. Namunaviy mashg'ulotlar ularni o'tkazish namunaviy tashkiliy uslubiyoti, kurollanishi, xarbiy texnika muxandislik kurilmalardan foydalanishning eng uslublari hamda talabalarni harbiy qism shaxsiy tarkibi joylashuvi va xayoti, kurollanishi va jangovor texnika bilan tanishtirishni namoyish etish maqsadida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar qurollanish, asboblari va jangovor texnikani amaliy uzlashtirish, ularni tadbiq qilish, ishlatish va saqlash uslublari egallash, ma'lum bir ko'nikmalarni ishlab chiqish va turli xil usul va harakatlarni bajarish, normativ va ta'lim dasturiga muvofiq boshqa savollarni ko'rib chiqish maqsadida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar bilan olingan bilim va ko'nikmalar takomillashtiriladi. O'quv joydagi har bir talabaning amaliy ishi uning bosh mazmunini tashkil etadi. Amaliy ta'limning yakuniy bosqichi amaliy mashg'ulot hisoblanadi. Ular, odatda joylarda o'tkaziladi. Taktik mashg'ulotlarda talabalarga askar, kuzatuvchining jangovor muhitidagi amaliy majburiyatlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va qobiliyatlar singdiriladi, o'quv savollar o'ylab qo'yilgan reja va taktik sharoitga ko'ra tartib bilan ishlab chiqiladi.

Nazorat mashg'ulotlari yakuniy baxolarni chiqargan xolda talabalarning bilimi va amaliy ko'nikmalarni darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

YOzma ish – nazorat shakllaridan biri, u nafaqat o'tilgan materialning o'zlashtirilganini, balki talabalarning o'z-fikrlarini to'g'ri bayon etish, aniq vazifani batartib bajarish qobiliyatini tekshiradi. Darsda yozma ishlar sifatida savollarga yozma javoblar talab qiladigan yoki dasturlashtirilgan nazorat vositalari javoblar yordamida echiladigan masalalardan foydalanishi mumkin.

Boshqa mashg'ulot kabi o'smirlarni chaqiriqqacha tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulot (dars) ham uch qismdan iborat: kirish, asosiy va yakuniy.

Kirish qismi – fan xususaiyatlari va mashg'ulotni (dars) o'tkazish uslubiyoti bilan aniqlanadigan belgilar, miqdor va mazmundan tuzilgan chaqiriqqacha tayyorgarlikning har bir darsi majburiy belgisi vzvod sardori boshqaruvida vzvodni safga tortish va mashg'ulotga tayyorlik haqidagi uning harbiy rahbarga bergan hisoboti hisoblanadi. Bunda buyruqlarni berish va ularni bajarish harbiy nizomga to'g'ri kelishi shart. Harbiy rahbar talabalarga faqat "Siz" deb murojaat qilishi kerak.

Eng kam vaqtni egallaydigan kirish qismi katta tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lishi; talabalar faoliyatiga to'g'ri yo'nalish berishi kerak. Bunga maqsad va vazifalar shakllarini, qiziqarli misollarni to'g'ri tanlash orqali erishiladi.

Ilgari o'rganilgan material o'zlashtirishini tekshirish takrorlash va nazorat hamda talabalarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlashni maqsad qilib qo'yadi, harbiy rahbar uy vazifasini hamma bajarganini tekshiradi, odatiy holatlarga e'tibor beradi, talabalarning individual tayyorgarligini baholaydi.

Asosiy qismda - harbiy rahbar mavzu, o'quv maqsadlarini va ularni tadbiq qilish yo'llarini e'lon qiladi, talabalar qiziqishi shakllanishi uchun maqsad va vazifalarni to'g'ri qo'yish katta ahamiyatga ega. Xarbiy rahbar so'zlarida talabalar oldigan bilim va amaliy ko'nikmalarning muhimligi va kerakligini xis etishi kerak. Harbiy rahbar talabalarda bor bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga tayangan holda tushunarli, ishonchli shaklda yangi materialni bayon etish kerak, materialni u usul, xarakatlarning belgilari bo'yicha yoki butunligiga aniq, tartibli ko'rsatish orqali tushuntiradi. Harbiy rahbar tomonidan safdagi usul, joyda xarakatlar yoki avtomatni qismlarga ajratish va yig'ish tartibini namunali ko'rsatish ta'limning eng samarali usuli sifatida o'zini oqladi.

Amaliy harakatlarni o'rganishda odatda quyidagi tartiblilik qo'llaniladi:

1) Ta'lim oluvchi bilan erishishi kerak bo'lgan tezlikda, bajarish qoida va tartibini tushuntirgan holda harbiy rahbar tomonidan o'rganilayotgan xarakatni ko'rsatish;

2) Ishlab chiqarilayotgan xarakatni belgilarga bo'lib, ularni sekinlashtirilgan tezlikda ko'rsatish;

3) Ta'lim oluvchilar bilan ko'rsatilayotgan belgilarni, avval sekin, so'ng normal tezlikda anglash, sinab ko'rish va o'rganish.

4) Alohida belgilarni umumiy xarakatga sekin-asta qo'shish va uni ko'nikma ishlab chiqarish maqsadida ko'p marta takrorlash va berilgan normativgacha etkazishni esda tutish kerakki, agar ta'lim boshida ko'nikma haqida to'g'ri tassavur yaratilmasa, to'g'ri ko'nikma ishlab chiqarib bo'lmaydi. Harbiy rahbar bilan ko'rsatish-bu talaba intilishi kerak bo'lgan namuna.

Bayon etishni talabaga yanada tanish aniq va yanada aniq bo'lgan materialardan, asta – sekin uni murakkablashtirib, mavhum tushunchalarga o'tgan holda boshlash kerak.

Tushuntirishni soddadan murakkabga, xususiydan umumiyga (individual uslub) yoki aksincha, avval hodisa tushunchasini berib, so'ng esa uni asoslab, sabab-natija borliqdagini ochib tushuntirish kerak. Amaliyotda ikki usulni bir darsda, ya'ni o'quv materialini qismlarga bo'lib, birinchi induksiya usulidan foydalangan holda muvaffaqiyatli olib borish, boshqasini esa deduktiv uslubni qo'llangan holda tatdiq qilish mumkin.

O'quv materialini qismlar bo'yicha bayon etganda, avval bayon etilgan material bilan aytilayotgan qoidalar bog'lanishi va ichki fan va fanlararo bog'likliklarni hisobga olgan holda keyingi material qismi uchun asos bo'lib xizmat qilishi uchun uning tuzilishi mantiqiylikiga qarash lozim.

Bayon etilgan material talabalar bilan to'la o'zlashtirilishi uchun ba'zi bir qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Umumiy va ortiqcha fikrlashlardan qochish fikrni aniq va lo'nda ifoda etish;

2. Kirish so'zi, uzun gaplarni, ehtiyojsiz ergashgan qo'shma gaplar va sifatdoshlarni ishlatmaslik;

3. Imkon boricha murakkab atamani soddaga tushuncha bilan chet tili so'zini esa ona-tili so'zi bilan almashtirish; talabalar uchun yangi bo'lgan so'zlar va tushunchalarni sinf yozma taxtasiga yozib chiqish lozim;

4. Materialni tartib bilan bayon etganda, uni alohida belgilarga (dalillar) bo'lish maqsadga muvofiq.

Darslarda talabalarning diqqat-e'tibori va faoliyatiga erishish oxiri qoidani esda tutgan holda rioya qilish sust bo'lsa, xech qanday pedagogik ta'sir etish vositalari chuqur va mustaxkam bilimlar bilan ta'minlay olmaydi.

Darsdagi mustaxkam e'tiborga talabalarda o'quv materialiga qiziqish uyg'onishi va muntazam ushlab turishi bilan erishadi. Ma'lumki, qiziqishni butun dars mobaynida ushlab turishdan ko'ra uyg'otish engilroq, talabalarni qiziqtirish, ongli faoliyatini faollashtirish, butun dars mobaynida mavzuga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish vazifasi turlicha hal qilinadi. Bu harbiy rahbar individual xususiyatlari, uning tayyorlanganligi pedagogik tajribasi va xokazo ga bog'liq. Darsda o'quv materialini bayon etishda talabalarga savol berish tavsiya etiladi.

Talabalar harbiy rahbar savol berib qolishi ehtimolida uni diqqat bilan eshitadilar. Talabalar javobi o'quv materiali o'zlashtirilgani darajasi haqida xulosa qilishga imkon beradi.

O'quv materialini og'zaki bayon etishda nafaqat nutq madaniyati tilning sofligi, extiyojsiz ishlatiladigan ortiqcha so'zlarning yo'qligi (aytiladi, shunga o'xshash va xokazo) balki buyruq berish tiliga xos bo'lgan aniqlik, to'g'rilik, ifodalilik muxim. Buning xammasiga mashq qilish orqali erishiladi va harbiy rahbar doimiy mustaqil ishi natijasi hisoblanadi.

Darsni qiziq olib borish qobiliyati tez o'zlashtirilib olinmaydi faqat o'quv materialini bilish bu uchun kamdir. Bir xilda darsda talabalarning chalg'ish, tushuntirishlar quruq til bilan bir xil ohangda, zerikarli olib borilgani uchun bu tushuntirishlari eshitmay o'tirishlari kuzatiladi. Odatda bunday qivituvchi talabalarining o'zlashtirishi yuqori emas. Bunga yo'l quymaslik uchun harbiy rahbar og'zaki bayon etish uslubiyo'tni yaxshi bilishi va muntazam ravishda nutq madaniyatini takomillashtirishi kerak. CHaqiriqqacha tayyorgarlik darslari samaradorligi uchun tashqi ko'rinish, turish, gapirish shakli kabi harbiy rahbarning individual xislatlari katta ahamiyatga ega. Keyingi ozodalik, saramjonliligi, harbiy qiyim O'zR Qurolli Kuchlari nizomi bilan aniqlagan harbiy xusumatchilariga bo'lgan majburiy talab.

YAkuniy qismi - bu natijalarni jamlashdir. Darsning bu qismi talabalarga o'rganilgan material bosh savollari, nazariy bilim va amaliy qo'niqmalar borligini eslatishni maqsad qilib qo'yadi. Harbiy rahbar bu qisqa vaqt ichida darsning asosiy mazmunini qayta aytib o'tadi, ijobiy tomonlar va nuqsonlarni ko'rsatadi.

Mustaqil tayyorlanish uchun vazifa berganda harbiy rahbar mavzuning vazifa qaysi bo'limlarini qanday qilib mustaqil o'rganish mumkin, o'z ishini yaxshi tashkil qilish mumkinligini tushuntirib o'tadi. Mustaqil ishga ko'rsatmalar aniq, lo'nda va tartib bilan berilishi kerak. YAkuniy qismga bir soatlik mashg'ulotning 5/7 qismi ajratiladi, harbiy rahbar yuqori shahsiy tashqililigi va o'ziga muntazam ravishda talabchanligi sharti bilan mashg'ulotlarni yaxshi tashkil qilish mumkin.

a) Dala mashg'ulotlarini o'tkazishda avtomatdan o'q otishni tashkil qilish va taktik tayyorgarlik savollarini ishlab chiqish borasidagi savollarga harbiy rahbarning katta e'tibor bernishi talab etiladi.

U xavfsizlik choralari qisqa vaqtli harakatning bir martalik jarayoni emasligini bilishi kerak, odatda ular mashg'ulotni tayyorlash va o'tkazishning barcha bosqichlarida muntazam o'tkaziladi.

Mashg'ulotni tayyorlash va o'tkazish paytida xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan muhim talablar quyidagilar: sanitariya ahvoli noma'lum bo'lgan joyda mashg'ulot o'tkazish man etiladi; Mashg'ulotlar uchun mo'zrlarga yaqin joy erlardan, oqar suv tushadigan joylardan foydalanish qatiyan man etiladi;

taktik mashg'ulot va harbiylashtirilgan o'yinlarda jangovor va kichik kalibrli o'qlarni ishlatish, o'quv qurolidan turli o'qlar bilan o'q otishlar, topilgan portlamay qolgan granata, snaryad, mina va boshqa portlaydigan narsalarni tegish qatiyan man etiladi. (ta'lim oluvchilarda topilgan o'q va portlaydigan narsalarni darhol olib qo'yish kerak);

o'qsiz patronlarni ishlatish, paketlar va signal potronlarini portlatish faqat mashqda qatnashayotgan harbiy xizmatchilar, harbiy rahbarga xavfsizlik choralariga rioya qilgan ruxsat beriladi;

o'qsiz patronlarni faqat jangovor quroldan otishga ruxsat beriladi;

o'quv granatalarini mashg'ulot qatnashchilaridan 70-100 m bo'lgan masofadan otishga ruxsat beriladi;

taktika yoki harbiy topografiya bo'yicha mashg'ulotlarda transport yuradigan yo'llarni o'tayotganda, er joyi chegaralarida qizil bayroq bilan belgi beruvchilarni joylashtirish lozim, saf tortib yo'llar va aholi shahobchalaridan yo'l cheti bo'ylab o'tishi kerak. Kolonna oldi va orqasida hali qizil bayrokli belgi beruvchilar yurishi kerak (tungi paytda yoritgichlar bilan).

b) o'q otish tayyorgarligi bo'yicha taktik mashg'ulotlarni o'tkazishda o'q otish tayyorgarligini mashg'ulotlaridagi xavfsizlik, avvalam bor, ularning yaxshi tashkil qilinganligi, choralari ta'lim oluvchilar mashg'ulotlarga jalb kilingan butun shaxsiy tarkibi yuqori intizomi, mustahkam bilim va xavfsizlik qoida va choralariga aniq, rioya qilish bilan ta'minlanadi.

harbiy xona, o'quv joylarida mashg'ulotlar paytida tanaffusda man etiladi;

sardor ruxsatsiz qurolni olish;

o'smirlarni chaqiriqqacha tayyorgarligi dasturini bajarish bilan bog'lik, bo'lmagan maqsadlar uchun o'quv quroli, kichik kalibri, pnevmatik miltiklar va ular patronlarini ishlatish;

odam, hayvon va havoga qurol, shu bilan birga o'quv qurolini yo'nalishtirish;

qarovsiz qurolni tashlab ketish;

miltik patronlari, qo'l granatalari piltasi, qurol juvalangan va mustahkamlangan kismalarini ajratish;

olib o'tishda o'quv quroli va kichik kalibri, pnevmatik miltiklar o'qdan chiqarilgan va jildangan bo'lishi shart. Qurolni o'quv binolari va dala, o't otish moslamasi xonasida faqat "kamarga" yoki "elkaga" holatida olib yurish lozim;

har bir mashg'ulot oldidan sinfdan, harbiy xonada rahbar barcha qurol va jangovor aslahalar o'quv qurollarini tekshirib chiqishi kerak.

Ayniqsa mashg'ulotlarda jangovor namunalarni ishlatish imkoniyatiga yo'l qo'ymaslik uchun patron, granata, granata piltalarini yaxshilab ko'rib chiqish kerak.

Harbiy rahbar o'quv avtomatdagi barcha yog'och va plastmassa qismlar qora rangga bo'yalishini bilishi kerak. Stvol kutichasi, qabul qilg'ich qopqog'i, stvol, qo'ndiq lukidon va boshqa qismlarga "o'quv" tamg'asi bosiladi. Har bir o'quv avtomati, shuningdek ta'mirlash organi boshchisi va o'quv varianti tamg'asi ishlangan zavodning nazorat belgisiga ega bo'lishi kerak. Belgi avtomatik ishlab chiqaruvchi zavod belgisi bilan, tamg'a esa zavod tamg'asi bilan yonma-yon qo'yiladi.

"O'quv avtomati stvoli og'zi qismidan yuqorida va o'qdon tomonidan pastda ikki taraflama ochiq uzun o'yiqqa (50x3mm) ega bo'lishi kerak. Stvol kutichasiga pastdan stvoldagi o'yiqni qisman yopadigan plastinka payvandlanadi, Stvol kutichasi qopqog'i qopqoq oldi devoridan 100mm narida ikki taraflama ochiq uchun yorivva ega bo'lishi kerak. Tepki o'tmaslashtiriladi. (O'tkir qirralari zarba kelmasligi uchun ishlab chiqiladi. Uchining butun kattaligi o'tmaslashtiriladi).

O'q talib yasalgan o'quv granatalari O'QG-N (RGD-5 granatasi qobig'i unga qobiq bo'lib xizmat qiladi) va O'QGning (qobig' bo'lib unga f-1 granata qobig'i xizmat qiladi) jangovorlaridan farqlanishi maqsadida qora rangga va O'QG-N (O'QG) belgisi, O'QGga esa bundan tashqari uzunasiga va eniga qilib oq chiziqlar qo'yiladi.

**3 – o'quv savoli. YOCHQBT da qo'llaniladigan o'qitish uslublari; hikoya; tushuntirish ma'ruza; suhbat; mashq (trenirovka) amaliy ish; o'quv materiallarini**

## **mustaqil o'rganish.**

YOCHQBT mashg'ulotlarida ta'limning ilg'or uslublarini tatbiq qilish, ta'lim uslublari, bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi birgalikdagi, ya'ni oxirgilarning bilimiga, o'rganishga etaklaydigan ish usullari, ta'limuslublarining ko'p turi mavjud. Ulardan asosiylari: o'quv materialini og'zaki bayon etish (hikoya qilish, tushuntirish, ma'rza), suhbat, mantiq qilish, amaliy ish, materialni mustaqil o'rganish, ko'rsatib berish.

Hikoya qilish – bu asosiy materialni tashkil qiladigan hodisalarni qisqa, obrazli, emotsional bayon qilib berish. Hikoya qilish bayonning hikoya shakli hikoya qilish bilan bir katorda unda muhokama, tasvir belgisi ham bor. Hikoya qilishda hikoya (tartibli, mantiqiy bog'langan bayon), tasvirlash (qurollanish va jangovor texnika tashqi ko'rinishi va qurilishi, ma'lumotlar), so'z bilan berish, muhokama (fikrlarni mantiqiy tartib bilan kabi usullar ishlatiladi. Hikoyaga 20 –30 dakika ajratiladi. Odatda hikoya tushuntirish, turli ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan olib boriladi.

Tushuntirish – bu murakkab savol qoida, tamoyil, qonunlar namoyish etish bilan birikkan qurol, asboblarning qismlari, sxema, harakat usullari tartibini mantiqiy bayon etish.

Tushuntirish – bu harakatlar jarayoni bilan hodisalar ma'nosini ochib berish va shuning uchun muhokama, isbot kilib berish unda markaziy o'rinni egallaydi. Materialni tushuntirishda harbiy rahbar lo'nda xulosa va ta'riflarni aniq, ifoda kilib, gapiradi, talabalar fikrini faollashtirish va to'g'ri tushunganini tekshirish uchun Harbiy rahbar ta'lim oluvchilarga savollar beradi va javobini talab etadi.

Ma'ruza – bayon etiladigan material yoyilgan nazariy xabari, ilmiy tahlili. Ma'ruzaning bosh maqsadi ta'lim oluvchiga ularning kelgusi mustaqil ishida yordam berish. Ma'ruzada mavzuning eng murakkab asosiy qoidalari bayon etiladi. Harbiy manbalar tahlil qilinadi va mazkur muammo ustida kelgusida qanday ishlash kerakligi haqida maslahatlar beriladi. Ma'ruzada hikoya qilish va tasvirlash, dalil va misollar tahlili, tushuntirish va isbotlar, umumlashtirish va xulosalar belgilari birgalikda mujassam etadi.

O'quv materiallarni og'zaki bayon etishga asosiy talablar quyidagilar: bayonning asosiyli, o'zlashtirilishning engilligi, ko'rgazmalilik, eslab qolish mustahkamligi.

Suhbat – talabalarni yangi bilimlar bilan sodda va tushunarli kilib boyitish ma'qul imkoniyatlaridan biri. Bu erda suhbat o'quv materialini muhokama qilish shakllaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari suhbat ta'lim oluvchilarda ilgari olingan bilimlarni aniqlash, ularni chuqurlashtirish va tartibga solishga yordam beradi. Maksudga ko'ra suhbat xabar beruvchi ( yangi bilimlarni xabar qilish ), yoyilgan (olingan bilimlarni tartibga solish, chuqurlashtirish va mustahkamlash), nazariy – tekshiruvchi (o'quv materialini o'zlashtirish darajasini tashirish) bo'lishi mumkin.

Suhbat oldindan tayyorlangan, maqsad, vazifa, mazmuni va talabalar bilimi darajasi e'tiborga olingan holdagina ijobiy natijalar berish mumkin.

Mashq qilish – talabalarda ko'nikma, qobiliyatlarni ishlab chiqish va ularni takomillashtirish maqsadida ma'lum bir usul va harakatlarni ko'p marta engil murakkablashtirilib boradigan takrorlashdir.

Mashq borishida talabalar qurol va jangovor texnikadan foydalanishning va xizmat ko'rsatishning amaliy usullari, taktik, o'q otish va texnik masalalarni hal etish usullari, piyoda safdagi, avtomobil va jangovor mashinalardagi harakatlarni bajarish.

Talabalar tomonidan mashqlarni bajarish maqsadi, mazmuni va qat'iy tartibini tushunish katta ahamiyatga ega. Murakkab mashq va harakatlarni ularning tarkibiy qismlariga bo'lish mumkin. Mashq, paytida avval to'g'ri harakatlarga erishadilar, keyin esa tezlikni ortiradilar.

Amaliy ish – qurollanish va jangovor texnika xizmati, saqlanishi, tejalishi, qurolni qismlarga ajratish va yig'ishni bajarish va Boshqa harakatlar o'quvchilar ta'limi nihoyasida muhim va amaliy uslub hisoblanadi. Ularning borishida talabalar ilgari olgan ko'nikma va

qobiliyatlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi. O'quv materialini mustaqil o'rganish maket, kesma namuna, amaliy sxema va Boshqa o'quv qo'llanmalardan foydalangan holda qurolni qismlarga ajratish va yig'ish yo'li orqali amalga oshiriladi. U odatda maslahat, ko'rsatma, qo'llanmalarni takrorlash, boshqa adabiyot va ma'lumotnomalardan foydalanish bilan olib boriladi. Mustaqil ish sifatini oshirishda asosiy o'rni uning tashkil qilinishi, vazifa hajmini aniqlash, harbiy tomonidan yordamni nazorat qilish egalaydi.

Ta'lim amaliyotida kompleks uslub eng keng tarqalgan. Bunda bir mashg'ulotda ta'lim – tarbiya bir qancha uslublari ishlatiladi.

O'quv – dala yig'inlarida yuqorida ko'rib chiqilgan mashg'ulot shakl va uslublariga qo'shimcha qilib quyidagilar ishlatiladi:

Taktik – saf mashg'ulotlari – 3 kunlik o'quv-dala yig'inlarida o'tkaziladi. Ularda taktik vaziyat sharoitida avval alohida har bir savol, harakat, keyin esa butunligicha o'yin belgilarini kiritgan holda barcha savollar ishlab chiqiladi. Bunda mashg'ulotni o'tkazish uchun joy tanlash va jihozlash va uning har taraflama moddiy ta'minlash katta ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar joyi ta'lim oluvchilarga vaziyat murakkab sharoitlarida harakat qilishga yordam beradigan jang dalasiga qaysidir darajada o'xshash kerak. Harakatlarni oldindan tayyorlangan ta'lim oluvchilar bilan belgilanishi mumkin. Mashg'ulotlarni o'tkazishda harbiy xizmatchilar ishtirokida nishon, yo'nalishlar maketa, o'q otish vositalari ishlatiladi. Taktik tayyorgarlik va fuqaro mudofasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarini o'quv shaharchasida o'tkazishda masofaga ko'ra kichraytirilgan nishon va maketlar ishlatiladi.

Taktik mashg'ulotlar – 3 kunlik o'quv dala yig'inlarida ta'lim oluvchilarga haqiqiy vaziyatga yaqinlashtirilgan taktik vaziyatdagi mashg'ulotning barcha o'quv savollari bo'yicha kompleksda harakatlanish ko'nikmalarini singdirish maqsadida o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlarda bitta vzvod hujumda, boshqasi mudofaada harakat qiladi. Bu mashg'ulotlarni o'tkazishda harbiy rahbarga yordam ko'rsatish uchun harbiy qism, harbiy o'quv yurtlari va fuqaro oliy o'quv yurtlari harbiy kafedralari harbiy xizmatchilari (imkon boricha) taklif qilinadi.

Amaliy, taktik – saf va taktik mashg'ulotlariga ta'lim oluvchilar avtomat, gazga qarshi moslama, piyoda belkraklari va kamardagi jildlarda bayroqchalar bilan chikadi. Bundan tashqari, har bir ta'lim oluvchida granatalar uchun xaltachalar va o'quv granatalari bo'lishi kerak. Barcha ta'lim oluvchilar joylarda amaliy usul va harakatlarni bajara olishi uchun kiyingan bo'lishi kerak. Bu mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun vzvod va bo'linmalar sardorlari ichidan yordamchilar tayyorgarligini larni o'tkazishdan oldin tashkil qilish maqsadga muvofiq, bunda- ularni quruqlikdagi qo'shinlar jangovor nizomi (3-qism) qoidalari bilan tanishtirish, harakatlarni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan savollarni hamda xavfsizlik choralarini o'rganib chiqish kerak.

CHaqiriqqacha tayyorgarlik tizimida eng yaxshi harbiy rahbarlar tajribasiga ko'ra dasturlashtirilgan ta'lim, muammoli, bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, tayanch konspektlari bo'yicha o'qitish, musobaqa va h. Uslublari kabi samarali uslublari keng tarqalgan.

Dasturlashtirilgan ta'lim usubi bu o'quv materialini qismlarga yanada foydali ajratish hamda mashg'ulot rahbari bilan joylardan ma'lumotlarni, ya'ni ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialining har bir qismi o'zlashtirilishi sifati haqida qaytarma aloqa atalmish yordamida (mashina yordam yoki mashinasiz) uzluksiz olish . Bu uslub o'quv materialini yanada maqsadga muvofiqli tartib va hajmda berishga yordam beradi. Bu uslubni muvofaqqiyatli tatbiq qilish uchun yaxshi uylab chiqilgan didaktik material talab qilinadi.

Muammoli olib borish-ta'lim oluvchilarga oxirida xulosalar berilmaydi, balki faqat haqiqatga erishish, to'g'ri qaror qabul qilish uchun borish kerak bo'lgan yo'l ko'rsatiladi, o'rganiladigan material muammoli xususiyatga ega bo'lishi uchun ta'lim oluvchilar bilan nafaqat muammo deb qabul qilinadigan, balki ularni qiziqtirgan, to'g'ri javobni qidirish xohish va zaruriyatini uyg'otadigan asosiy savolni topish juda muhim mashg'ulotd (darsda) muammoli vaziyatni yaratish ta'lim oluvchilarning o'rganilgan materialga qiziqishini oshiradi va shu bilan

ular fikrlash faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Tayanch konspektlari bo'yicha ta'lim uslubi (SHatalov uslubi atalmish) o'quv material ta'lim oluvchilarga yanada muhim qoidalar, ta'riflari, nomlari va ular bilan bog'liqligini aks etadigan tayanch konspektlari yordamida beradi. Tayanch konspektlari bo'yicha, o'qitishda o'tilgan materialni yanada mustahkam o'zlashtirish, mustaqil tayyorlanishda uni takrorlash va eslab qolishga vaqtni qisqartirishga erishiladi.

Musobaqali uslub kim tezroq va yaxshiroq, harakat, usul normativini bajarishdir. Ta'lim oluvchilarda tortishuvlik, yaxshilarga tenglashishga intilish, qoloqlarga yordam berish va ularni ilg'orlar darajasiga etkazish xislatlarini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan musobaqali uslub, taktik, o't otish, saf tyyorgarligi va boshqa fanlar bo'yicha usullarni ishlab chiqish vanormativlarni bajarishda ishlatiladi.

SHunday qilib, talabalar ta'limi asosiy uslublarining didaktik vazifasi, tuzilishi va muvaffaqiyatli tatbiq qilish shartlari tavsiflanadi. Bo'ladigan mashg'ulot uchun harbiy rahbar ta'lim uslublarini tanlashda o'quv-tarbiyaviy vazifa xususiyati, o'quv material mazmuni, talabalar tayyorlanganligi darajasi, moddiy baza holatidan keib chiqadi. Bunda ijod belgisi, zobitning o'z tajribasiga tanqidiy qarash, eskirib qolgan usullarni tashlab, ta'lim uslubiyotidagi yangilikni, ilg'orlikni ishlatishi katta o'rin tutadi. O'smirlarning chaqiriqqacha tayyorgarligi bo'yicha o'quv jarayoni asosiy shakli. Dastur va haftalik rejaga ko'ra 26 nazariy va 74 amaliy mashg'ulotlar ko'rinishida o'tiladigan daps hisoblanadi. Mazmuni va tuzilishiga ko'ra dars o'quv jarayoni yakunlangan qismini bidirishi, didaktik va tarbiyaviy maqsadlar hamda talabalar harbiy ta'limi talabalariga to'g'ri kelishi kerak. Xar bir harbiy rahbar barcha chaqiriqqacha tayyorgarlik bo'limlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni uslubiy olib borishni bilishga majbur.

Uslubiy mahorat asosida ularning pedagogik va harbiy bilimlari, yaxshi amaliy tayyorgarlik va talabalar ta'lim-tarbiya tamoyillari, uslublari va uslubiy yo'llarini ijodiy tatbiq qilishga qobiliyat etadi.

Nazariy mashg'ulotlarda talabalar mashqlar, usullar, harakatlar va normativlarni bajarish texnikasini o'rganish va mustahkamlash hamda jihozlangan maydonchalar va mashg'ulotlari joylari, asbob-uskunalari, shuningdek qurol, asbob, individual himoya, muhandislik qurollanish vositalari, sport-snaryad va jixozlaridan foydalanilgan hamda o'q otish va boshqa vazifalarni hal qilishga o'rganishlari kerak.

Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish va o'tkazish uchun harbiy rahbarning shaxsiy misoli, darsga munosabati va shug'ullanuvchilarga ta'siri katta ahamiyatga ega. Ijobiy shaxsiy misol rahbarning yuqori amaliy tayyorgarligi, mashg'ulot to'g'ri o'tkazish qobiliyati, mashqni chiroyli va to'g'ri ko'rsatish (usul, harakat), ularni qisqa va tushunarli qilib tushuntirish va shu bilan birga ta'lim oluvchilarni qiziqтира olish orqali ifodalanadi.

Rahbar dars vaqtini tejamli ishlatish, uning natijali zichligiga rioya qilish hamda har bir mashg'ulot kerakli mashq, usul va harakatlarni to'g'ri tanlay olishni bilish, ularning bajarilishi tezligini aniqlash, ya'ni boshqa so'zlar bilan aytganda, dars jarayonida dars hajmini to'g'ri qismlarga bo'lishni bila olishga majbur.

Tajribali rahbar ta'limni murakkab bo'lmagan mashqlar bilan belgilar bo'yicha emas, balki butunligicha olib boradi va imkon boricha mao'q qilishga darhol o'tadi. Barcha hollarda ta'limni batafsil tushuntirishlar va qayta ko'rsatib berishlarga ortikcha bir daqiqani ham ishlatmasdan g'ayrat bilan, yaxshi tezlikda olib borish muhim.

Amaliy mashg'ulotni aniq o'tkazish uchun rahbar talabalarni qurol, jangovar texnika, qurol-aslahalar bilan o'rganishida havfsizlik choralariga rioya qilishga majbur, yordam va xavfsizlikni amalga oshirishni bilishi, jaraohat va baxtsiz hollar oldini olish choralarini qabul qilish kerak.

Rahbar darsga ongli, vijdonan yondashishi kerak. Darsni qiziqarli olib borishga ishonchli va aniq buyruqlar, ta'lim oluvchilarga do'stona murojaat qilish yordam beradi. Ortiqcha hovliqmaslik, baqiroqlik va shug'ullanuvchilar bilan qo'pol munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Rahbar nafaqat eng muhim qobiliyat va ko'nikmalarini takomillashtirish haqida o'ylashi, balki ularni Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomar talablar ruhida tarbiyalashi, barcha imkoniyatlarni ishga solib, yuqori intizomiylik va ishchanlikni oshirishga erishishi lozim. O'quv mashg'ulotlarini o'tishda rahbar saf nizomi talablarini buzishga yo'l qo'ymasligi, bunda asosiy e'tiborni amaliy harakatlarni to'g'ri bajarishga qaratish, turli shartliliklar va mashqlarni butun kuch bilan bajarmaslikni bartaraf etish lozim.

Darsda yuqori tashkiliylikni ushlab turish uchun rahbarlarning o'zini tutishi katta ahamiyatga ega. Uning toza ko'rinishi, yaxshi qaddi rostligi, talabalarga yuqori talabchanligi mashg'ulotlarni yanada muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi. Intizomni mustahkamlash va o'quv mashg'ulotlariga talabalarni qiziktirish maqsadida rahbar eng harakatchan intizomli va epchil talabalarni rag'batlantirishi, beparvolarni esa qattiq talab qilib, ularda o'zlarining harbiy va jismoniy tayyorgarligi uchun mas'uliyat hissini uyg'otishga intilishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda harbiy rahbar uchun ularning asosiy tamyil va qoidalarini bilish etarli emas. Yana ularni amaliyotda mohirona tatbiq qilish, har bir mashg'ulotda mashq usul va harakatlarning mashq qilishi katta foyda beradigan sharoitlarni yaratishni bilish muhim.

SHunday qilib mashg'ulotlar rahbariga quyidagi turli talablar qo'yiladi:

Aslida, amaliy mashg'ulotlarni o'tuvchi harbiy rahbar mashg'ulotlarni bajarish yaxshi sifatiga erishishi lozim.

- muntazam vazifa murakkabligi va xajmini oshirish;

- bir vaqtda barcha talabalar bilan shug'ullanish va har biriga individual yondashish;

- mashg'ulotlar yuqori zichligi va shug'ullanuvchilar faolligiga intilish;

- talabalarda jasurlik va qat'iylikni tarbiyalash. Bu mohirlik har bir mashg'ulotni obdon o'ylab, o'tkazish orqali yaratiladi. Bunday munosabat etarli tajriba orttirish, kerakli tashkiliy va uslubiy ko'nikmalar ishlab chiqishga yordam beradi.

O'smirlarning chaqiriqqacha tayyorlash darsining sifati va samaradorligi harbiy rahbarni unga tayyorlanganligi sifatiga bog'liq.

Mashg'ulotga tayyorlanishda harbiy rahbarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- o'quv savollari bo'yicha o'quv material, mavzu mazmuni va hajmini, mashg'ulot o'quv maqsadlari va uning tarbiyaviy yo'nalishi, qurilishini aniqlash;

- O'CHT va boshqa fanlar bo'yicha o'tgan mashg'ulotlarda o'quvsilar qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganliklarni aniqlash;

- bo'ladigan mashg'ulotda bu bilim va ko'nikmalardan qanday foydalanish mumkinligini o'ylab chiqish;

- mashg'ulotlarni o'tkazish uslub va tartibini aniqlab olish;

- mashg'ulotda qanday texnik vositalar, o'quv quroli, harbiy mulk va qurollarini ishlatishni aniqlab chiqish;

- kerakli nizom va ko'rsatmalar darslik va uslubiy qo'llanmalar bo'limlari, mazkur mavzu bo'yicha Boshqa adabiyot bandlarini o'rganib chiqish mumkin bo'lgan adabiyotni tanlash;

- usul va harakatlarni bajarishni mashq qo'yish;

- unga mustaqil ish uchun vazifa aniqlab qo'yish.

Mashg'ulotga tayyorlanishda kerakli ko'rkazmali qurollarni tanlab qo'yish (plakat, sxema, maket, asbob, diagrammalar), ularni yo'qligida esa talabalar yordamida tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taktik, o't ochish, o'q otish tayyorgarligi harbiy tipografiya bshyicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish yuqori darajasini ta'minlash shartlari belgilangan joy, o'quv maydonchasini odindan o'rganish va tayyorlash, taktik tayyorgarlik bo'yicha esa bundan tashqari taktik vaziyat va dushman harakatlarini belgilash tartibini aniqlashdan iborat.

Mashg'ulotga tayyorlanish odatda mashg'ulot rejasini (reja konspekt) tuzish bilan yakunlanadi, reja shakli xohishga ko'ra bo'lishi mumkin – bu harbiy shaxsiy tayyorgarligi va

pedagogik tajribasiga bog'liq. Odatda rejada (reja-konspekt) mashg'ulot dasturining qaysi bo'limi bo'yicha va nechanchi sinf (kurs) talabalari bilan olib borilishi, kerakligi, o'quv-tarbiyaviy maqsadlar, mavzu nomi, mashg'ulot tartib raqami, mashg'ulotga ajratilgan vaqt, uslub, joy, moddiy ta'minot, qo'llanmalar, mashg'ulot borishi (shu bilan birga harbiy va ta'lim oluvchilar harakatlari), mashg'ulotda beriladigan buyruqlar, taktik tayyorgarlik bo'yicha esa bundan tashqari, har bir ishlab chiqiladigan savol bo'yicha taktik vaziyat mazmuni, uy vazifasi ko'rsatiladi. Mashg'ulot rejasini mashg'ulotgacha 6-7 kun o'quv yurti direktoriga ko'rib chiqishga berish tavsiya etiladi. Bu unga mazkur mavzu bo'yicha dastur talabalari, dars rejasi va o'tkazish uslubini birma-bir o'rganib chiqishga va mashg'ulotni o'tkazishda harbiy rahbarga amaliy yordam ko'rsatishga imkon beradi. Mashg'ulotlarga harbiy rahbarning tayyorlanishi muhim belgisi o'quv-moddiy bazani va ta'lim texnik vositalarini tayyorlash hisoblanadi.

Harbiy xona O'CHT o'quv-moddiy bazasi asosiy belgisi hisoblanadi. U muntazam ravishda ozoda va tartibli bo'lishi, ko'rgazmali qurollar o'z vaqtida yangilanishi va ularning mavzu va mazmuni o'smirlarning chaqiriqqacha tayyorgarligi dasturiga to'g'ri kelishi kerak. Imkoniyat boricha xona katta yorug' joyda joylashishi va ikki o'rinli stollar, har bir talaba uchun alohida stul, harbiy rahbar uchun stol va sinf yozuv taxtasi bilan jihozlangan bo'lishi kerak. O'CHT dasturi har bir bo'limi ularning asosiy mazmunini aks etadigan stendlar bilan bezatilishi kerak. Asbob, ko'rgazmali qurol va qurol-aslahatlardan tashqari boshqa o'quv mulkini saqlash uchun harbiy xona yonida o'quv asboblari, mulki va ko'rgazmali qurollar o'quv dasturi bo'lim va mavzulari bo'yicha tartibga solinadigan. Har bir turiga ko'ra alohida to'lami bilan tekcha, shkaf va vitrinlarda joylashadigan laborantlik xonasi kuzga tutilishi kerak.

Xonani joylashtirishda kinoapparat va kinoekranni joylashtirish masalasi o'ylab chiqilishi lozim.

Xona kengligi yo'l qo'ysa, unda rota navbatchisi majburiyatlarini amaliy o'rganish uchun joyni jihozlash mumkin.

O'CHT bo'yicha o'quv jarayonidagi kshrgzmali vositalar quyidagi turda bo'lishi mumkin:

- narsalar ko'rgazmasi – bu real qurol namunalari. FX asboblari, harbiy texnika va boshqalar;

- tasviriy ko'rgazma – bu sxema va plakat, rasm va modellar, diafilm va o'quv tipofilmlari, mashq qilish uchun moslamalar;

- so'z – obrazli ko'rgazma – bu voqealarni, turli jasoratlarni yorqin tasvirlab berish, o'xshatishlarni ishlatish.

Ko'rgazmali qurollar maksimal darajada qisqa yoki hodisa mohiyatini ifodalashi kerakli o'lchov va tushunarli bezakka ega bo'lishi va bunda rejalarni qabul qilish psixologiyasining ba'zi bir xususiyatlari etiborga olinishi kerak. Buning barchasini harbiy xonani jihozlash va darsni o'tkazishda e'tiborga olish lozim.

Darslarda ko'rgazmali qurollari ishlatishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilish shart:

- ko'p sonli ko'rgazmali qurollarga berilib ketmaslik;

- birdaniga barcha ko'rgazmali qurollarni ko'rsatmasdan, balki materialni bayon etishda ishlatish;

- ko'rgazmali qurollarni ko'rsatishda shu qurol mazmunini talabalar yaxshi anglashi uchun kerakli tushuntirishlarni berish;

- mashg'ulot berishda ko'rgazmali qurollarning turli shakllarini birga qo'shish;

- ko'rgazmali qurollarni ko'rsatib bo'lgandan va talabalari kuzatuvidan so'ng kerakli xulosalarni qilish kerak.


Ta'lim o'ta muhim ko'rgazmali qurolli diafilm va kinofilmlar hisoblanadi. Harbiy rahbar mashg'ulotdan oldin ularni ko'rib chiqishi, o'ylab ko'rib ko'rsatish rejasini tuzishi, ya'ni ko'rsatish paytida qachon va qanday izohlar berish kerak, bundan so'ng ko'rib chiqilgan o'quv filmlar bo'yicha talabalar bilan qisqa suhbat o'tkaziladi.

O'CHT bo'yicha mashg'ulotlarni sifatli o'tkazish uchun, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar uchun ba'zida harbiy rahbarga yordamchilar talab qilinadi.

Harbiy rahbarga yordamchilar yordam beradigan o'quv joylarga rejalar tuzishi kerak. Ularda ishlab chiqiladigan o'quv savol yoki harakatni maqsad, moddiy ta'minot va savolni (harakatni) ishlab chiqish tartibi, normativ ko'rsatkichlari va baholash tartibini ko'rsatish mumkin. Bunday rejalar o'quv joyi uchun ko'rsatmali yozuvlar deb ataladi. Ko'rsatmali yozuvlarni 15, 20 sm li vatmanda bajarish va ularni ushlagichli fanerda mustahkamlab qo'yish yaxshi bo'ladi. Odatda, bo'linmalar sardorlari yoki yaxshi tayyorlangan intizomli talabalarni yordamchilari qilib belgilashadi.

**Ilova**

### **Bayon etilgan material Talabalar bilan to'la o'zlashtirilishi uchun ba'zi bir qoidalarga rioya qilish kerak.**



### **8-MAVZU: CHAQIRIQOACHA TAYYORGARLIK O'QITUVCHISINING MASHG'ULOTLARNI OLIB BORISH UCHUN TAYYORGARLIGI.**

#### **Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. Talabalarga dasturni o'rganish, mavzu va mashg'ulotlarning o'quv va tarbiyaviy maqsadlarini aniqlash; har bir o'quv savoli yuzasidan adabiyotlarni o'rganish va namunalar tanlashni o'rgatish;

2. Harbiy xona (o'quv ob'ektlari)ni o'quv-texnik ta'minotini, ko'rgazmali va o'quv-texnika vositalarini tayyorlashni talabalarga o'rgatish.

3. Mashg'ulot rahbari yordamchisiga yo'riqnoma berishni talabalarga o'rgatish.

4. Talabalarda harbiy kasbga bo'lgan muxabbatni oshirish.

O'quv savollari:

1. Dasturni o'rganish, mavzu va mashg'ulotlarning o'quv va tarbiyaviy maqsadlarini aniqlash; har bir o'quv savoli yuzasidan adabiyotlarni o'rganish va namunalar tanlash.

2. Harbiy xona (o'quv ob'ektlari)ni o'quv-texnik ta'minotini, ko'rgazmali va o'quv-texnika vositalarini tayyorlash.

3. Mashg'ulot rahbari yordamchisiga yo'riqnoma berish.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

**1 – o'quv savoli. Dasturni o'rganish, mavzu va mashg'ulotlarning o'quv va tarbiyaviy maqsadlarini aniqlash. Har bir o'quv savoli yuzasidan adabiyotlarni o'rganish va namunalar tanlash.**

*Harbiy rahbar, chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisining mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi.*

YOshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha o'quv jarayonining asosiy shakli o'quv dastur va haftalik rejaga muvofiq nazariy va amaliy mashg'ulotlar ko'rinishida o'tiladigan «dars» xisoblanadi. Mazmuni va tuzilishiga ko'ra dars o'quv jarayonini yakunlangan qismini bildirishi, didaktik va tarbiyaviy maqsadlar xamda harbiy ta'lim talablariga to'g'ri kelishi lozim. Har bir harbiy rahbar, CHQBTO' barcha chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'limlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni uslubiy to'g'ri olib borishni bilishga majbur. Uslubiy maxorat asosida ularning pedagogik va harbiy bilimlari, yaxshi amaliy tayyorgarligi va ta'lim-tarbiya tamoyillarini, uslublarini va uslubiy yo'llarini ijodiy tatbiq qilish qobiliyati yotadi.

Nazariy mashg'ulotlarda talabalar nizom va harbiy ish bshqaruvini qoida va talablarini, shuningdek, egallagan bilimlarini xaqiqiy harbiy xizmatni o'tash vaqtida qanday foydalanishlari to'g'risida maslahat va tavsiyalarni o'rganadilar.

Harbiy rahbar (CHQBTO') odatga ko'ra nazariy mashg'ulotlarni ta'lim texnika vositalaridan va didaktik materiallardan foydalanib bayon etish va suhbat shaklida olib boradi. Talabalar amaliy mashg'ulotlarda mashqlar, usullar, harakatlar va me'yorlarni bajarish texnikasini o'rganishlari va mustaxkamlashlari xamda jixozlangan maydonchalardan va mashg'ulot joylaridan, shuningdek, priborlardan kuroldan, individual himoya vositalaridan, muxandislik qurilmalaridan, sport-snaryadlari va jixozlaridan foydalanib o't otish va boshqa vazifalarni echishni o'rganishlari kerak.

Amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish va o'tkazishda harbiy rahbar CHQBTO'ning shaxsiy namunasi va darsga munosabati shug'ullanuvchilar uchun ta'siri muhim ahamiyatga ega.

Ijobiy shaxsiy namuna rahbarning yuqori darajadagi amaliy tayyorgarligi mashg'ulotni to'g'ri o'tkazishining uddalay olishi, mashqni to'g'ri va chiroyli ko'rsatish (usul, harakat), ularni qisqa va tushunarli qilib tushuntirish va shu bilan birga ta'lim oluvchilarni qiziqitira olish bilan ifodalanadi.

Raxbar dars vaqtini tejimli ishlatishni, uning natijasini unumli bo'lishidagi shartlarga rioya qilishni xamda xar bir mashg'ulotga kerakli mashq, usul va harakatlarni to'g'ri tanlay olishni, ularning bajarilish tezligini aniqlashni, ya'ni boshqa so'zlar bilan aytganda, dars jarayonida dars xajmini to'g'ri qismlarga bo'lishni bilishi shart.

Tajribali rahbar ta'limni elementlarga bo'lib emas, balki, murakkab bo'lmagan mashqlar bilan to'laligicha olib boradi va imkon boricha tezroq mashq qilishga o'tadi. Ta'limni berishda batafsil tushuntirishlar va qayta ko'rsatib berishlarga bir daqiqani xam bekor ketgazmasdan g'ayrat va ildamlik bilan olib borish muximdir.

Amaliy mashg'ulotni to'liq o'tkazish uchun rahbar talabalarni kurol-yarog'larni, jangovor texnikani, kurol-aslaxalarni o'rganishlariida xavfsizlik choralariga rioya qilishlariga majbur qilishi shart, bundan tashqari rahbar yordam berishni va xavfsizlikni amalga oshirishni bilishi, jaroxat etishi va baxtsiz hodisalarni oldini olish choralarini ko'rishi kerak.

Rahbar darsga ongli, vijdonan yondashishi lozim. Ishonchli va aniq buyruqlar berish, ta'lim oluvchilarga do'stona munosabatda bo'lish darsni qiziqarli olib borishga yordam beradi. Xaddan ziyod xovliqish, baqiroqlik va shug'ullanuvchilar bilan ko'pol munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Raxbar nafaqat eng muxim malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish xaqida o'ylashi, balki ularni harbiy qasamyod va umumharbiy nizom talablari ruhida tarbiyalashi, barcha imkoniyatlarni ishga solib, yuqori intizomiylikni va ishchanlikni oshirishga erishishi lozim.

O'quv mashg'ulotlarini o'tishda rahbar saf nizomi talablarini buzishga yo'l qo'ymasligi, bunda asosiy e'tiborni amaliy harakatlarni to'g'ri bajarishga qaratish, turli shartlarni va mashqlarni bajarishda bor kuch bilan harakat qilinishini ta'minlashi kerak.

Darsda yuqori tashkiliylikni ushlab turish uchun rahbarning o'zini tutishi katta ahamiyatga ega. Uning toza va ixcham ko'rinishi, kaddining rostligi, talabalarga nisbatan yuqori talabchanligi mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi.

Intizomni mustaxkamlash va mashg'ulotlarga talabalarni qiziqtirish maqsadida rahbar eng harakatchan intizomli va epcil talabalarni rag'batlantirishi, beparvolarini esa qattiq talab qilib, ularda o'zlarining harbiy va jismoniy tayyorgarliklari uchun mas'uliyat hissini uyg'otishga intilishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda harbiy rahbar uchun ularning asosiy tamoyil va qoidalarini bilish etarli emas. Yana ularni amaliyotda moxirona tatbiq qilish, xar bir mashg'ulotda mashq, usul va harakatlarni mashq qilishi katta foyda beradigan shart-sharoitlarni yaratishni bilish muxim. SHunday qilib mashg'ulotlar rahbariga quyidagi turli talablar qo'yiladi:

- amaliy mashg'ulotlarni o'tkazuvchi harbiy rahbar (CHQBTO') mashg'ulotlarni yaxshi sifatli o'tkazilishini ta'minlashga majbur.

- muntazamlik bilan vazifa murakkabligini va xajmini oshirish;

- bir vaqtda barcha talabalar bilan shug'ullanish va har biriga.

- ndividual yondashish;

- mashg'ulotlar yuqori zichligiga va shug'ullanuvchilarni faolligiga intilish;

- talabalarda jasurlik va qat'iyliqni tarbiyalash.

Bunday moxirlikka xar bir mashg'ulotni mulohaza bilan o'ylab, o'tkazish orqali yaratiladi. Bunday munosabat etarli tajriba orttirish, kerakli tashkiliy va uslubiy ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi.

YOshlarning chaqiriruvga qadar tayyorgarlik darsining sifati va samaradorligi harbiy rahbarni unga tayyorgarlik darajasining sifatiga bog'liq. Mashg'ulotga tayyorlanishda harbiy rahbar, CHQBTO'ga quyidagilar tavsiya etiladi:

- o'quv savollari bo'yicha o'quv materialini, mavzu mazmuni va xajmini, mashg'ulotning tuzilishi, o'quv maqsadlari va tarbiyaviy yo'nalishini, aniqlash;

- YOCHQBT va boshqa fanlar bo'yicha o'tgan mashg'ulotlarda talabalarning qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganliklarini aniqlash;

- bo'ladigan mashg'ulotda bu bilim va ko'nikmalardan qanday foydalanish mumkinligini o'ylab chiqish;

- mashg'ulotlarni o'tkazish uslubi va tartibini aniqlab olish;

- mashg'ulotda qanday texnik vositalarni, o'quv kurollarini, harbiy buyum va qurol - yarog'larini ishlatishni aniqlab chiqish;

- kerakli nizom va ko'rsatmalar darslik va uslubiy qo'llanmalarni bo'limlarini, mazkur mavzu bo'yicha boshqa adabiyotlarning bandlarini o'rganib chiqish;

- mavzuni yanada chuqurroq o'rganib chiqish uchun talabalarga tavsiya qilish mumkin bo'lgan adabiyotlarini tanlash;

- usul va harakatlarni bajarishni mashq qilib qo'yish;

- talabalarga mustaqil ish uchun vazifa aniqlab qo'yish.

Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda muvofiq keladigan ko'rgazmali qurollarni (plakatlar, sxemalar, maketlar, priborlar diafilmlar) saralash maqsadga muvofiq bo'ladi, ular mavjud bo'lmasa talabalar yordamida tayyorlash tavsiya etiladi.

Taktik, o't ochish va otish tayyorgarligi va harbiy tapografiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish yuqori darajasini ta'minlash shartlari belgilangan joy, o'quv maydonchasini oldindan o'rganish va tayyorlash, taktik tayyorgarlik bo'yicha esa bundan tashqari taktik vaziyat va dushman harakatlarini belgilash tartibini aniqlashdan iborat.

Mashg'ulotga tayyorlanish odatda mashg'ulot rejasini (reja - konspekt) tuzish bilan yakunlanadi, bunda mashg'ulot rejasi shaklining elementlari bo'lishi talab etiladi, reja-konspektini yozilishi esa ixtiyoriy bo'lishi mumkin – bu harbiy rahbar (CHQBTO') ning shaxsiy tayyorgarligi va pedagogik tajribasiga bog'liq.

Odatda konspekt rejasida mashg'ulot dasturning qaysi bo'limi bo'yicha va nechanchi sinf (kurs) talabalari bilan olib borilishi kerakligi, o'quv-tarbiyaviy maqsadlar, mavzu nomi, mashg'ulot tartib raqami, mashg'ulotga ajratilgan vaqt, uslub, joy, moddiy ta'minot, qo'llanmalar, mashg'ulot borishi (shu bilan birga harbiy va ta'lim oluvchilar harakatlari), mashg'ulotda beriladigan buyruqlar, taktik tayyorgarlik bo'yicha esa bundan tashqari, xar bir ishlab chiqiladigan savol bo'yicha taktik vaziyat mazmuni, uy vazifasi ko'rsatiladi.

Mashg'ulot rejasini mashg'ulotgacha 6-7 kun oldin ta'lim muassasasi direktoriga ko'rib chiqishga berish tavsiya etiladi. Bu unga mazkur mavzu bo'yicha dastur talablari, dars rejasi va o'tkazish uslubini birma-bir o'rganib chiqishga va mashg'ulotni o'tkazishda harbiy rahbarga amaliy yordam ko'rsatishga imkon beradi.

## **2 – o'quv savoli. Harbiy xona (o'quv ob'ektlari)ni o'quv-texnik ta'minotini, ko'rgazmali va o'quv-texnika vositalarini tayyorlash.**

*«Darsga o'quv moddiy baza va ta'lim – texnika vositalarini tayyorlash»*

Mashg'ulotlarga tayyorlanishda harbiy rahbarning o'quv-moddiy baza va ta'lim texnik vositalarini tayyorlashi muxim omillardan xisoblanadi. Harbiy xona YOCHQBT o'quv-moddiy bazasining asosiy elementlaridan xisoblanadi. U muntazam ravishda ozoda va tartibli bo'lishi, ko'rgazmali kurollar o'z vaqtida yangilanishi va ularning mavzu va mazmuni yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi dasturiga to'g'ri kelishi kerak.

Xona katta, yorug' joyda joylashishi va ikki o'rinli stollar, xar bir talaba uchun alohida stul, harbiy rahbar uchun stol va sinf yozuv taxtasi bilan jixozlangan bo'lishi kerak. YOCHQBT dasturining xar bir bo'limini asosiy mazmunini aks etadigan stendlar bilan bezatilishi kerak. Priborlar, ko'rgazmali qurol va qurol-aslaxalardan tashqari boshqa o'quv bumlarini saqlash uchun harbiy xona yonida o'quv priborlari, buyumlari va ko'rgazmali qurollar o'quv dasturining bo'lim va mavzulari bo'yicha tartibga solinadigan, xar bir turiga muvofiq alohida to'plami bilan tokcha, shkaf va vitrinalarda joylashadigan laborantlik xonasi ko'zda tutilishi kerak. Xonani jixozlashda kinoapparat va kino ekranni joylashtirish masalasi o'ylab chiqilishi lozim. Xonaning kengligi unda guruh navbatchisi majburiyatlarini amaliy o'rganish uchun imkoniyat bersa o'quv joyini jixozlash mumkin bo'ladi.

O'quv jarayonidagi ko'rgazmali vositalar quyidagi turda bo'lishi mumkin:

- buyumlar ko'rgazmasi - bu real qurol namunalari, FM priborlari, harbiy texnika va boshqalar;

- tasviriy ko'rgazma - bu sxema va plakatlar, rasm va suratlar, ma ket va modellar, diafilm va o'quv kinofilmlari, mashq qilish uchun moslamalar;

- So'z - obrazli ko'rgazma - bu voqealarni, turli jasoratlarni yorqin tasvirlab berish, o'xshatish va taqqoslashlarni ishlatish.

Ko'rgazmali qurollar maksimal darajada qisqa va asosiy narsalarni yoki xodisa mohiyatini ifodalashi, kerakli o'lchov va tushunarli bezakka ega bo'lishi va bunda rejalarni qabul qilish psixologiyasining ba'zi bir xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak. Buning barchasini harbiy xonani jixozlash va darsni o'tkazishda e'tiborga olish lozim.

Darslarda ko'rgazmali qurollarni ishlatishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilish shart:

- ko'p sonli ko'rgazmali qurollarga berilib ketmaslik;
- birdaniga barcha ko'rgazmali qurollarni osib ko'rsatmasdan ularni materialni bayon etish vaqtida ko'rsatish;
- ko'rgazmali qurollarni ko'rsatishda ularning mazmunini talabalar yaxshi anglashlari uchun kerakli tushuntirishlarni berish;
- mashg'ulot o'tishda ko'rgazmali kurollarning turli shakllarini birga qo'shish;

- ko'rgazmali qurollarni ko'rsatilgandan va talabalar kuzatib bo'lishganlaridan keyin talabalar tomonidan xulosalar qilinadi.

Harbiy rahbar, CHQBTO' mashg'ulotdan oldin ularni ko'rib chiqishi, namoyish qilish rejasini tuzishi, ya'ni ko'rsatish paytida kachon va qanday izoxlar berish kerakligi xaqida fikrlashi kerak bo'ladi. Bundan so'ng namoyish etilgan o'quv filmlar bo'yicha talabalar bilan qisqacha suhbat o'tkaziladi.

Mashg'ulot rahbarini mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish jarayonida hozirgi kunda talabalarning texnika taraqqiyotidan yaxshigina xabardor ekanligini, ularning internet tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega ekanligini, ularda filmlar va boshqa manbalar orqali xar xil ma'lumotlarga ega bo'lib, o'z fikrlari va qarashlari shakllanganligini e'tiborga olib tegishli xulosalar chiqargan xolda mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi taqozo etiladi.

### **3 – o'quv savoli. Mashg'ulot rahbari yordamchisiga yo'riqnoma berish.**

*Mashg'ulot o'tkazish uchun o'quv joylariga yordamchilarni tayyorlash.*

YOCHQBT bo'yicha mashg'ulotlarni sifatli o'tkazishda, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun ba'zida harbiy rahbarga yordamchilar talab qilinadi.

Harbiy rahbar (CHQBTO') mashg'ulot o'tishda yordam beradigan yordamchilar uchun o'quv joylarga alohida rejalar tuzilib ularda mashq qilinadigan o'quv savollarni yoki usul va harakatlarni, mashg'ulotning maqsadini, moddiy ta'minotini va o'quv savolini, usul, harakatlarni mashq qilish tartibini, me'yor ko'rsatkichlarini va baholash tartibini ko'rsatishi mumkin.

O'quv joylari uchun, bunday rejalarini yo'riqli ko'rsatmalar deb ataladi. Yo'riqli ko'rsatmalar 15 - 20 sm li vatman qog'ozda bajarish va ularni tutqichli fanerga mustaxkamlab qo'yish yaxshi bo'ladi.

Odatda, seksiya sardorlari yoki yaxshi tayyorlangan intizomli talabalarni yordamchilar qilib tayinlanadi.

Harbiy rahbar CHQBTO' mashg'ulot boshlanishi arafasida yoki oldindan ishonch xosil qilish uchun yordamchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tazishi kerak.

Bunda u tayinlangan yordamchilarni materialni yaxshi o'zlashtirganliklarini pribor va boshqa o'quv buyumlaridan foydalanish qoidalarini o'rganganliklarini, me'yoriy ko'rsatkichlar va baholash tartibini bilish yoki bilmasliklarini tekshirib oladi. Faqat shundan so'ng yordamchilarga o'quv joylarida mashg'ulotlarni o'tkazishlariga ruxsat beradi.

YOCHQBT o'quv mashg'ulotlarini uslubiy jihatdan to'g'ri, yuqori pedagogik darajada va harbiy ishni yuqori saviyadagi bilim bilan olib borish uchun harbiy rahbar (CHQBTO') ning o'zi u yoki bu mashg'ulotga sifatli tayyorlanishi va o'quv-moddiy bazani va ta'lim texnik vositalarini, shuningdek, zaruriyat bo'lsa mashg'ulotlarni o'tkazish uchun yordamchilarni ham tayyorlab qo'yishi va bu ishlarni mukammal darajada bo'lishini ta'minlashi shart.

Harbiy rahbar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa xaqida»gi, «Harbiy xizmat umumiy harbiy majburiyati xaqida» gi qonunlari, harbiy xizmatga respublika fuqarolarini tayyorlash xaqidagi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va asosiy qoidalari bilan tanishtirishda talabalar ularning ma'no va mazmunini, Vatan himoyasi bo'yicha o'z vatanparvarlik burchini albatta ado etishga tayyor bo'lgan mustaqil davlat fuqarosi ma'naviy qiyofasini tasvirlaydigan buyuk ma'naviy qadriyatlar sifatida qabul qilishlariga erishish uchun harakat qiladi.

CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni asosiy yo'nalishlari o'sib kelayotgan avlod jismoniy va ma'naviy, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, CHaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi yoshlarni davlat mexnati va mudofaasiga tayyorlash.

YOCHQBT asosiy vazifalariga harbiy bilimlar kerakli xajmini o'zlashtirish, jismoniy tayyorgarlik, o'z vatani harbiy tarixini, ramzlarini va tamoyillarini o'rganish, vatanparvar fuqaro, sodiq jangchini shakllantirish kiradi.

«YOshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlash» jarayonida talabalar:

- o'zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini anglash, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasini, Vatan himoyasi haqida va uni qurolli tajovuzdan himoya qilish haqida bilishi;

- O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasining mudofaaga qaratilganligini;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa qo'shnlarning vazifalarini;

- O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa to'g'risida»gi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xizmatini tashkillash to'g'risida»gi qarorini, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga kiritish va chiqarish, harbiy jinoyat sodir etganligi uchun va harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun jinoiy hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi asosiy qoidalarini o'rganishi;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Nizomlari va harbiy qasamyodning asosiy talablarini o'rganish va anglashi;

- harbiy qismning qurol va harbiy texnikasi, shaxsiy tarkibning turmush tarzi va joylashuvi bilan tanishishi;

- harbiy ish asoslari, zaruriy harbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek jismoniy chiniqish va ruhan hamda ma'nan mustahkam bo'lishi;

- fuqarolar muhofazasi va tibbiy bilim asoslarini o'zlashtirishi kerak bo'ladi.

YOCHQBT jarayoni yoshlar harbiy xizmatni o'tashda o'zining konstitutsiyaviy burchini a'lo darajada bajarilishini va o'ziga topshirilgan zamonaviy jangovar qurol va harbiy texnikani qisqa muddatda o'zlashtirib olishini ta'minlashdan iborat.

YUqorida qayd etilganlarga erishish, erishganda ham muvafaqiyatli erishish har bir harbiy rahbar (CHQBTO') ning imkoniyatlari etarli bo'lavermaydi.


Biroq shunga qaramay o'quv dasturi talablarini bajarilishida harbiy rahbar (CHQBTO') ning faoliyati muhim omillardan bo'lib qolaveradi.

Tajribali harbiy rahbar (CHQBTO')lar mashg'ulot o'tkazish uchun, ayniqsa amaliy mashg'ulotlarda o'quv joylariga yordamchilarni tayyorlashni o'z vaqtida amalga oshiradilar.

Buning bilan ular mashg'ulot samaradorligini oshirib, o'zlariga qulaylik, talabalarga mustaqil faoliyat ko'rsatish imkoniyatini yaratadilar.

**Ilova**

O'zbekiston Respublikasi CHQBT dasturi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 23.07.1993 yil 179/227 sonli buyrui bilan amalga kiritilgan va quyidagi ta'lim bo'limlariga ega:



## **Mavzu № 9. KIRISH MAVZUSI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH USLUBI.**

### **Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlari:

1. Talabalarga mashg'ulotlarni tashkil etish va uning metodikasini tushuntirish.

2. O'R Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, uning umumxalq ishi ekanligini talabalarga tushuntirish.

3. O'R Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi xaqida. O'R Harbiy doktrinasini va uning mudofaaga qaratilganligini talabalarga tushuntirish.

4. Talabalarda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish.

O'quv savollari:

1. Mashg'ulotlarni tashkil etish va uning metodikasi.

2. O'R Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, uning umumxalq ishi ekanligi.

3. O'R Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi xaqida. O'R Harbiy doktrinasini va uning mudofaaga qaratilganligi.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza

Tayanch so'z va iboralar:

### **1-o'quv savolini ko'rib chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.**

O'qituvchi birinchi o'quv savolini videoproektor yordamida ekranda ko'rsatib e'lon qiladi. Ushbu o'quv savolini o'rganishda avval bor mashg'ulotlarni tashkil etish va uning metodikasini tushuntirib o'tish kerak. So'ngra mustaqillikning dastlabki yillarida Qurolli Kuchlar tarkibida CHHTTning faoliyati haqida gapirib o'tiladi. Mashg'ulotlarni tashkil etish va uning metodikasiga ta'rif beriladi va talabalar mashg'ulotlarni tashkil etish va uning metodikasi bo'yicha aniq tushunchalarga ega bo'lishlari kerak, shuningdek, talabalarga (tinglovchilarga) kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda mashg'ulotlarni tashkil etish va uning metodikasini tashkil qilish va harakatlarini videoproektordan foydalanib ko'rsatib beriladi. O'rganiladigan o'quv savoli bo'yicha talabalarga mashg'ulotlarni tashkil etish va uning metodikasini muammoli savollar sifatida qo'yish va o'qitishning muammoligiga erishish kerak. O'quv vaqtini savollarga qarab taqsimlash zarur.

O'quv materiallarining talabalar (tinglovchilar) tomonidan ko'proq o'zlashtirilishiga, ko'rgazmalilikka, kursantlar (tinglovchilar) ni o'qitishning amaliy yo'naltirilganligiga, boshqa "Harbiy nizomlar", "Harbiy qonunchilik", "Harbiy tarix" "Harbiy pedagogika va psixologiya"

fanlari bilan o'zaro bog'lashda mashg'ulotlarni tashkil etish va uning metodikasini inobatga olgan holda tashkil qilishni tushuntirib o'tish lozim. O'qitishning texnik vositalari va boshqalardan foydalanishning tartibi va usullarini sxema, slayddan birinchi o'quv savolini tushintirish davomida ko'rsatish, talabalar (tinglovchilar)ga o'quv savolining asosiy joylarini yozdirish maqsadga muvofiq.

Mazkur savol bo'yicha o'quv materiallarini mustahkamlash maqsadida diqqat bilan tinglab o'tirgan talabalardan so'rash lozim. Talabalarlar (tinglovchilar)

tomonidan o'quv materiallari juda ham sust o'zlashtirilgan bo'lsa ayrim savollarni chuqurroq tushuntirish lozim. Birinchi savolni bayon qilishni (o'rganishni) tugatish va bayon qilinayotgan materiallarning mantiqiy davomi sifatida tushintirilib keyingi o'quv savoliga o'tish.

### **1 – o'quv savolining mazmuni.**

CHaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash bo'yicha o'quv jarayoni Nizom, CHQBT dasturi, xalq ta'limi Vazirligi va Mudofaa Vazirligining buyruqlari, me'yoriy xujjatlari va o'quv uslubiy tavsiyalari asosida rejalashtiriladi va tashkil etiladi.

CHaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash bo'yicha o'quv – tarbiya jarayonini rejalashtirishga qo'yilgan talablar boshqa umumta'lim fanlariga qo'yilgan talabalar bilan bir xil, lekin chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish o'zining xususiyatlariga ega. Buni shu bilan izoxlash joiz, CHQBT kursi o'ziga oltita mustaqil qismni birlashtirgan. Bularning xar biri dasturda bo'limlar ko'rinishida berilgan. Bularning xar biri o'quv mashg'ulotlari tizimini ularning o'zaro bog'liqlikda, mantiqiy va uslubiy ketma – ketlikda rejalashtirishni talab etadi.

Kollejlarda chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlashga 140 o'quv soati ajratilgan.

CHaqiriqqacha yoshlarni tayyorlashning mazmuni dastur tomonidan aniqlab berilgan. CHaqiriqqacha yoshlarni tayyorlashning amal qilayotgan dasturi 1993 yilda ishlab chikilgan va unga 1999 yili qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. 1999 yili o'zbek tiliga o'girilgan.

CHQBT dasturi asosida kollejning CHQBT rahbari kollejlarda uchun alohida ushbu fanni o'qitishning haftalik rejasini tuzib chiqadi.

O'quv jarayonini rejalashtirish dasturini to'la va sifatli bajarilishini, uning barcha bo'limlarini kompleks tarzda o'rganishni shuningdek mavzularni mos ravishda boshqa umumta'lim fanlari bilan yaqin bog'liqlikda o'rganishni ta'minlab berishi kerak.

O'quv rejasini tuzishda maxalliy sharoitlarni va o'quv moddiy bazasini inobatga olishi zarur.

O'quv muassasasi rahbariga maxalliy sharoitlardan kelib chiqib tuman mudofaa ishlari bo'limi bilan kelishgan xolda dastur bo'limlarining ba'zi mavzularini ketma – ketligiga o'zgartirish kiritishga ruxsat beriladi, lekin mashg'ulotlar mazmuni va vaqtini o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

Tuman (shahar) xalq ta'lim bo'limlari tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limlari bilan birgalikda o'quv – dala mashg'ulotlarining vaqti, joyi va o'tkazish tartibini, shuningdek, yuqori guruh talabalarini askarlarning xayoti va turmushi, jongovor texnika bilan tanishtirish maqsadida harbiy qismlarga borish vaqtini aniqlab oladilar. Ushbu ma'lumotga ega bo'lguncha ularni CHQBT rahbari harbiy – vatanparvarlik ish rejasiga kiritadi.

CHQBT bo'yicha darslar haftasiga ikkita bir soatlik ko'rinishida umumiy dars jadvaliga kiritiladi. Darslarni o'quv yili davomida juft – juft qilib qo'yishlik pedagogik nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday yondashuv talabalarni dastur materiallarini o'zlashtirishi effektini pasaytiradi.

Dastur bo'limlarining har bir mavzusi bir necha o'zaro bog'langan mashg'ulotlar davomida o'rganiladi.

Ta'lim va tarbiya vazifalarini sifatli bajarish uchun CHQBT rahbari mavzusining alohida olingan bitta mashg'uloti (darsi) ga tayyorgarlik ko'rishi kerak emas, balki mavzu bo'yicha mashg'ulotlar (darslar) tizimini rejalashtirishi kerak, ya'ni tematik reja tuzishi kerak.

Tematik rejani tuzishda xar bir mashg'ulotning o'quv, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini, darslarning mantiqiy va uslubiy ketma – ketligini darslarning turi, mavzudagi mashg'ulotlarining o'zaro bog'liqligi, ularning moddiy ta'minoti, talabalarning bilim darajasini xisobini aks etirishga imkoniyat yaratiladi.

Mukammal tuzilgan tematik reja dasturning xar bir mavzusi bo'yicha mashg'ulotlar tizimini ajratilgan darslar ko'rinishida emas, balki bir butun tarzda ko'rib chiqishga sharoit yaratadi. Ish jarayonida tematik rejaga aniqlik kiritilishi va to'ldirish mumkin.

Tematik reja asosida CHQBT rahbari navbatdagi dars oldidan darsning reja bayonnomasini tuzadi. Reja – bayonnomada mashg'ulotning mavzusi, o'quv, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, mashg'ulotga ajratilgan vaqt, mashg'ulotni o'tkazish joyi, o'quv savollari va ularga ajratilgan va soatlar kursatilgan bo'lishligi, xar bir o'quv savolining mazmuni fanlararo bog'liqlikda ochib berilgan bo'lishligi, shuningdek o'rganilgan materialni mustaxkamlash uchun savollar tayyorlangan bo'lishi kerak xamda talabalarga mustaqil ishlari uchun vazifa ko'rsatilishi kerak. Reja – bayonnomaning xajmi CHQBT rahbarining tayyorgarlik darajasi va ish tajribasiga bog'liq bo'ladi.

CHaqiriqqacha yoshlarni tayorlash va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha sinfdan tashkari ishlarni o'z vaqtida va to'g'ri rejalashtirish muxim ahamiyatga egadir. Ushbu rejada harbiy texnik to'garak ishi, otaliq harbiy qisimlarga borish, «SHunkorlar», «Vatanparvar» kabi harbiy – sport musobaqalarida ishtiroq etish, Jangovor shuxrat muzeyini yaratish va materiallar bilan boyitish,

«Harbiy sport o'yinlari» normativlarni topshirish va boshqa harbiy vatanparvarlik va ommaviy mudofaa tadbirlari bayon etilishi mumkin.

## **2-o'quv savolini ko'rib chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar:**

Ikkinchi o'quv savolini ham videoproektor yordamida ekranda (sinf doskasiga yozgan xolda) O'R Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, uning umumxalq ishi ekanligi maqsad va vazifalari ko'rsatib e'lon qilinadi. Ushbu o'quv savolini o'rganishda avalom bor O'R Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, uning umumxalq ishi ekanligini tushintirib o'tish kerak. So'ngra har bir punktini videoproektordan foydalanib yoki doskada jadval tuzib ochib beriladi, shuningdek, talabalar (tinglovchilar) O'R Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, uning umumxalq ishi ekanligi bo'yicha aniq tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Talabalarga oliy o'quv yurtlarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishlarida nima maqsadda CHXT fani o'rgatilayotganligini tushuntirish kerak. O'rganiladigan o'quv savoli bo'yicha talabalarga O'R Mudofaasi – davlatning muhim vazifasi, uning umumxalq ishi ekanligini qanday rejalashtirish mumkinligini muammoli savollar sifatida qo'yish va o'qitishning muammoligiga erishish kerak. O'quv savolini bayon qilishni (o'rganishni) boshlash, o'quv vaqtini oqilona taqsimlash zarur.

Talabalar (tinglovchilar)ga o'quv savolining asosiy joylarini yozdirish maqsadga muvofiq, Mazkur savol bo'yicha o'quv materiallarini mustahkamlash maqsadida diqqat bilan tinglab o'tirgan talabalardan so'rash kerak, chunki qolgan talabalar ham diqqatini ushbu talabaga qaratgan xolda yana bir bor eshitib yodda saqlaydi. Talabalarlar (tinglovchilar) tomonidan o'quv materiallari juda ham sust o'zlashtirilgan holda ayrim savollarni chuqurroq tushuntirish lozim.

SHu bilan ikkinchi o'quv savoli tugatilganligini aytib o'tiladi va uchinchi savolga o'tiladi.

Harbiy rahbar, CHQBTO' dars materialini bayon qilishdan avval «Vatan» tushunchasini izohlab berishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hamma ham Vatan nima ekanini his eta oladimi? Birov uchun Vatan bu uy-joy, bola-chaqa. Boshqalarga esa to'kin-sochin yashash uchun qulay joy, undaylar uchun qaerda yashash oson bo'lsa, o'sha er Vatan. Butun Er yuzini Vatan deb biluvchi qimsalar ham bor, albatta. Ularni odatda kosmopolitlar deb ataydilar. Oddiy xalq iborasi bilan aytsak, ularni bevatanlar ham deyish mumkin.

Tarixiy Vatanni, ajdodlari hotirasini unutib yuborgan kimsalar, o'zlari hozirda yashab turgan mamlakatlariga ham sadoqatli fuqarolar bo'lolmaydilar. Chunki haqiqiy fuqaro bo'lish uchun avvalo chin inson bo'la olishi shart.

Vatanni nima uchun ona-vatan deymiz? Bizning kurrai zaminimiz butun er yuzida yashayotgan besh milliarddan ziyod xalqlar uchun vatan bo'lsa, xar bir xalq uchun takdiran va tarixan ato etilgan xamda chegaralangan xudud ona vatandir. Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi.

Vatan tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o'zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib kelgan. Masalan, muayyan qabila yashagan joy o'sha qabilaning Vatani xisoblangan. Jondosh va tildosh qabilalarning ittifoqidan elat paydo bo'lgan. Elat yashagan xudud el deyiladi. Muayyan xudud doirasida markaziy boshqaruvning paydo bo'lishi bilan Vatan tushunchasi elat yani xalq va davlat tushunchalarini o'ziga qamrab olgan. Davlat va Vatan bir ma'noni ifodalaydi. Biz O'zbekiston Respublikasi deganda ona-Vatanni tushunamiz. Vatan deganda O'zbekiston Respublikasini idrok qilamiz.

Insoniyat tarixida Vatan to'g'risidagi va uni tashqi dushmanlardan himoya qilish to'g'risidagi masala katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ona yurtimizga tashqi dushmanlarning tajovuzi ko'p martalab bo'lib turgan. SHiroq, Spitamen, Muqanna, J.Manguberdi kabi yurtdoshlarimiz jonlarini Vatan ozodligi uchun fido qilganlar. A.Temur, Z.M.Bobur singari buyuk sarkardalarimiz buyuk davlatga asos solganlar. Keyingi 770 yil ichida xalqimiz ikki marotaba tobelikka tushib qoldi. 1220 Yildan 1370 yilgacha CHingizxoniyalar xalqimiz ustidan xukmronlik qildilar. Bu tobelikdan xalqimiz Amir Temur bobomiz raxnamoligida ozod bo'lgan. Ikkilamchi tobelik davri o'tgan asrning o'rtalaridan to 1991 yilgacha davom etdi. Bu tobelikdan yurtboshimiz I. A. Karimov boshchiligida ozod bo'ldik. Ushbu ma'lumotlar talabalarga etkazilgandan keyin harbiy rahbar, CHQBTO' O'zbekiston Respublikasining Mudofaasi - davlatning muhim vazifasi, umumxalq ishi ekanligini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat Mudofaasi to'g'risidagi yozuvlarning mazmunini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini va uning mudofaaga qaratilganligini tushuntiradi va izohlaydi.

### **3-o'quv savolini ko'rib chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar:**

O'R Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi xaqida. O'R Harbiy doktrinasini va uning mudofaaga qaratilganligi deb uchinchi o'quv savolini ham videoproektor yordamida ekranda (sinf doskasiga yozgan xolda) ko'rsatib e'lon qilinadi. Ushbu o'quv savolini o'rganishda avalom bor O'R Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi xaqida. O'R Harbiy doktrinasini va uning mudofaaga qaratilganligini videoproektordan foydalanib aytib beriladi, shuningdek, talabalarga (tinglovchilarga) O'R Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi xaqida. O'R Harbiy doktrinasini va uning mudofaaga qaratilganligi ochib beriladi va ular aniq tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. O'rganiladigan o'quv savoli bo'yicha talabalarga O'R Konstitutsiyasi davlat Mudofaasi xaqida. O'R Harbiy doktrinasini va uning mudofaaga qaratilganligini muammoli savollar sifatida qo'yish va o'qitishning muammoligiga erishish kerak. O'quv savolini bayon qilishni (o'rganishni) boshlashda, o'quv vaqtini oqilona taqsimlash zarur.

O'quv materiallarining talabalar (tinglovchilar) tomonidan ko'proq o'zlashtirilishiga, ko'rgazmalilikka, kursantlar (tinglovchilar) ni o'qitishning amaliy yo'naltirilganligiga, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqlikka erishishning aniq usullari va yo'llarini, o'qitishning texnik vositalari va boshqalardan foydalanishning tartibi va usullarini sxema, slayddan foydalangan xolda uchinchi o'quv savolini tushuntirish lozim. Talabalar (tinglovchilar)ga o'quv savolining asosiy joylarini yozdirish maqsadga muvofiq.

Mazkur savol bo'yicha o'quv materiallarini mustahkamlash maqsadida bir – ikki talabalardan so'rash lozim, qolgan talabalar ham diqqatini jamlagan xolda yana bir bor eshitib yodda saqlaydi. Talabalarlar (tinglovchilar) tomonidan o'quv materiallari juda ham sust o'zlashtirilgan holda savolni chuqurroq tushuntirish lozim.

SHu bilan uchinchi o'quv savoli tugatilganligini aytib o'tiladi va mustaqil tayyorgarlik uchun vazifalarni internetlardan foydalanib ma'lumotlarni olishlari va CHHT kitoblaridan foydalanishlari aytib o'tiladi.

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi Sessiyasi o'n ikkinchi chaqirig'ida qabul qilingan.

**52-modda.** O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlar.

#### **XXVI BOB. Mudofaa va Xavfsizlik**

**125-modda.** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

**126-modda.** O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun etarli darajada qurolli kuchlariga ega.

2). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori.

2018 yil 17 – yanvarda O'R Prezidentning farmoni bilan yangi **O'zbekiston Respublikasining Harbiy Doktrinasi** qabul qilingan.

*O'zbekiston Respublikasining urushga munosabati Urushning va urush xavfining oldini olish - bosh strategik yo'nalish O'zbekiston Respublikasining urushga munosabati*

O'zbekiston Respublikasi xalqaro va davlatlararo muammolarni urush yo'li bilan hal etishga qat'iy qarshi chiqadi va jahon hamjamiyati davlatlari o'rtasida harbiy mojarolar chiqishini preventiv diplomatiya vositasida bartaraf qilishda faol ishtirok etishni, ziddiyatlarni keskinlashtiradigan sabablarga barham berishga yoki ularni engishga kuch-g'ayrat sarflashni o'z tashqi siyosatining asosiy vazifasi deb hisoblaydi. *Urushning va urush xavfining oldini olish - bosh strategik yo'nalish.*

Urushlar va harbiy mojarolarning oldini olishni, harbiy bloklarga kirmaslikni o'z tashqi siyosatining bosh strategik yo'nalishi deb e'lon qilib, O'zbekiston Respublikasi shuni qayd etadiki, u: o'z Qurolli Kuchlarini boshqa davlatga qarshi ishga solmaydi, O'zbekiston Respublikasiga yoki O'zbekiston bilan o'zaro harbiy yordam to'g'risidagi tegishli shartnomalar orqali bog'langan davlatlarga qarshi hujumni qaytarish hollari bundan mustasno; hech kimga taxdid solmaydi va jahondagi birorta ham davlatni o'zining dushmani deb hisoblamaydi, ulardan birortasiga na hududiy, na boshqa da'vosi bor va barcha mamlakatlar bilan xalqaro huquq, xavfsizlik manfaatlarini o'zaro hisobga olish asosida munosabatlar o'rnatishga tayyor; yadro qurolisiz yashash: yadro qurolini joylashtirmaslik, ishlab chiqarmaslik va sotib olmaslik prinsiplariga amal qiladi.

Urushning oldini olish borasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro faoliyatining bosh mezonlari quyidagilardan iborat: umumiy xavfsizlikni ta'minlashda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning rolini oshirish; davlatlar va xalqlar o'rtasida tinchlik, barqarorlik va hamkorlikni ta'minlashni bosh maqsad qilib olgan xalqaro hamda mintaqalararo tuzilmalarga faol qo'shilish; manfaatdor davlatlar va jahon hamjamiyatining faol ishtirokida Markaziy Osiyoning mintaqaviy xavfsizligi tizimini rivojlantirish; yadro qurollari sinovini yoppasiga taqiqlash va pirovard natijada YAdro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomadan uni butunlay yo'q qilish haqidagi shartnomani tuzishga o'tish uchun sharoit yaratish; Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli hudud deb e'lon qilish; kimyoviy, bakteriologik va boshqa turdagi yalpi qirg'in qurollarini hamma erda yo'q qilish,

O'zbekiston Respublikasining Kimyoviy qurollarni taqiqlash to'g'risidagi Konvensiyada va bakteriologik qurollarni taqiqlash muammolari yuzasidan muzokarlarda ishtirok etishi; odamning ruhiyatiga halokatli ta'sir etadigan vositalar, tektonik va boshqa turdagi qurollar yaratilishi, sinovdan o'tkazilishi va ishlab chiqarilishini taqiqlash; mintaqaga qurol-yarog' etkazib berish va u bilan savdo qilish ustidan samarali nazorat o'rnatishning, shu jumladan qonunsiz harbiy tuzilmalarni qurol bilan ta'minlashning oldini olish maqsadida samarali nazorat o'rnatishning kelishilgan chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Bu chora-tadbirlarga axborot almashishni, o'zaro tekshiruvlarni, muntazam maslahatlashuvlarni, nazorat qilishning milliy vositalaridan foydalanishni asos qilib olish; konversiyani faol amalga oshirishga qaratilgan harakatlarni beg'araz yordam va imtiyozli kreditlar berish tarzida moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali rag'batlantirish; barcha mamlakatlarda oddiy qurol-yarog'lar va qurolli kuchlarni qisqartirish, o'zaro ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash chora-tadbirlarini kengaytirish; harbiy qurilishning oshkoraligi va harbiy sohadagi aloqalarning kengaytirilishiga ko'maklashuvchi davlatlararo harbiy hamkorlikni rivojlantirish; xalqaro munosabatlarda milliy va diniy murosasizlikka yo'l qo'ymaslik; fundamentalizm, ekstremizm, terrorchilikning kuchayish tendensiyasiga yo'l qo'ymaslik; tinchlikni saqlash bo'yicha o'zaro majburiyatlarga, barcha davlatlarning harbiy kuch ishlatishdan yoki harbiy kuch ishlatish bilan taxdid qilishdan voz kechishiga asoslangan mustahkam davlatlararo munosabatlar tizimini yaratish; qo'shnlarni faqat milliy chegaralar doirasida joylashtirishni pirovard maqsad qilib olib, o'zgalar hududida ajnabiy harbiylarning turishini izchil qisqartirib borish; harbiy-siyosiy ittifoqlarning mintaqaviy miqyosda ham, jahon miqyosida ham siyosiy hamkorlik vositasiga aylantirilishiga erishish.

## **MAVZU № 10. UMUMQO'SHIN JANGINIG TAVSIFI, UNING MAQSADI.**

### **Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

- 1.Jang xaqida tushunchani talabalarga tushuntirish.
- 2.Talabalarga umumqo'shin janginig tavsifi, uning maqsadini tushuntirish.
- 3.Umumqo'shin jangining asosiy turlarini talabalarga tushuntirish.
- 4.Talabalarda harbiy xizmatga bo'lgan sadoqatni yuksaltirish.

O'quv savollari:

- 1.Jang xaqida tushuncha.
- 2.Umumqo'shin janginig tavsifi, uning maqsadi.
- 3.Umumqo'shin jangining asosiy turlari.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza

Tayanch so'z va iboralar: Harbiy strategiya, taktika - harbiy san'atning tarkibiy qismlari.

### **1 – o'quv savoli. Jang xaqida tushuncha.**

Jang — qisqa vaqt ichida chegaralangan rayonda dushmanni yo'q qilish (tor-mor etish) uning zarbalarini qaytarish va boshqa taktik vazifalarni bajarish, maqsad bo'yicha kelishilgan va rejalashtirilgan, qarama-qarshi jang olib boruvchi tomonlardagi qismlar va bo'linmalarning tashkillashtirilgan kurolli to'knashuvi.

Jang maqsadi — dushmanning jonli kuchini jangovar texnikasi va qurol-aslahalarini yo'q qilish va qo'lga kiritish asirga olish, hamda dushmanning qarshilik qilish qobiliyatini so'ndirishdir.

Bunga barcha turdagi qurollar bilan harbiy kism va bo'linmalarning qat'iy va faol harakati qo'rqmasdan o'tkazilgan manyovri bilan erishiladi.

Zamonaviy umumqo'shin janggi unda qatnashayotgan qo'shinlarning birlashgan kuchlari, tanklar, piyodaning jangovar mashinalari (bronetransportyorlar), artilleriya, havo hujumidan mudofaa vositalari, samolyotlar, vertolyotlar hamda boshqa texnika va kurol-aslahalarni qo'llash bilan olib boriladi.

Jang — bu g'alabaga erishish uchun birdan-bir vosita xisoblanadi.

Askarning jangdagi roli va joyi, uning shtatdagi lavozimi va bajarilayotgan jangovar vazifaning xarakteriga bog'liq.

Jangda joyning xarakteriga, vaziyat shart-sharoitlari va dushman olovining ta'siriga ko'ra, askar yayov harakatlanayotganda tez-tez qadam tashlab yoki yugurib (tik turgan yoki enkaygan holda) yugurib-to'xtab va o'rimalab (emaklab) harakatlanishi mumkin.

## **2 – o'quv savoli. Umumqo'shin janginig tavsifi, uning maqsadi.**

**Xarbiy sanat ilmiy nazariya sifatida uchta tarkibiy kismga bulinadi** - strategiyaga, tezkorlik (operativ) sanatega va taktikaga.

**Strategiya** - xarbiy sanatning tarkibiy kismi va yukori kulami bulib, mamlakat va kurolli Kuchlarni urushga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini, urush va strategiya tadbirlarini rejalashtirish va olib borishni uz ichiga oladi.

**Tezkorlik sanati** - xarbiy sanatning tarkibiy kismi bulib, kurolli kuchlar turlari birlashmalarining nazariy va amaliy tayyorgarligi kurinishlarini xamda ularning xamkorlikda va mustakil tarzda operatsiyalar (jangovar xarakatlar) olib borishini uz ichiga oladi.

**Taktika** - xarbiy sanatning tarkibiy kismi bulib, kurolli Kuchlarning turli kurinishlari, kushinlar turi (kuchlari) va maxsus kushinlar bulinmalari va birlashmalarining nazariy va amaliy tayyorgarligini va jang olib borishini uz ichiga oladi. U umumiy taktikaga va kurolli kuchlar turi, kushinlar va maxsus kushinlar turi taktikasiga bulinadi.

**Taktika nazariyasi** - jangning konun-koidalarini, xususiyatlarini va mazmunini urganadi, uni tayyorlash va olib borish usullarini ishlab chikadi, bulinma va birlashmalarining jangovar xususiyatlari va imkoniyatlarini xam aniklaydi.

**Taktika amaliyoti** - komandirlar, shtablar va kushinlarning jangga xozirlik kurish va uni olib borish mobaynidagi faoliyatini uz ichiga oladi.

### **Uning tarkibiga:**

- vaziyat xakida malumotlarni muntazam ravishda aniklash;
- karorlarni kabul kilish va buysunuvchilarga jangovar topshiriklarni yetkazish;
- jangovar xarakatlarni rejalashtirish, olib borish;
- bulinma va birlashmalar boshkariluv;
- jangovar xarakatlarning taminoti kiradi.

### **Ayni paytda taktika;**

- umumiy taktikaga,
- kurolli Kuchlar turi taktikasiga,
- kushinlar turi va maxsus kushinlar taktikasiga bulinadi. kuruklikdagi kushinlar taktikasi umumiy taktikaning asosini tashkil etadi.

Taktikaning vazifalari. Taktika umumkushin jangini xozirlash va olib borish usullarini urganadi va ishlab chikadi. U uz ichiga umumkushin birlashmalari va bulinmalari taktikasini, shuningdek, kurolli Kuchlar turlari va kurukdikdagi kushinlar tarkibiga kiruvchi kushinlar turi va maxsus kushinlar taktikasini oladi. U jangovar xarakatlar kurinishining mazmunini, ut ochuvchi va boshka turdagi talofat yetkazuvchi vositalar kullanilishining moxiyatini urganadi. kushinlar manyovri, yurishlar, jang oldi va jangdagi tartiblar shaklini ishlab chikadi, xarbiy kushin turi va maxsus kushinlar birlashma va bulinmalarining umumkushin jangidagi urni va bajaradigan rolini va ularning vazifasini, shuningdek, ularni birgalikda jangovar kullash xamda ular orasidagi uzaro xamkorlik xarakatlari usullarini belgilaydi.

**Zamonaviy umumqo'shin jangi** tushunchasining ma'nosi deganda o'tmishda bo'lib o'tgan qurolli hodisa va to'qnashuvlardan, avvalambor, o'tgan urushlardan farqi tushuniladi. Jang tushunchasining mazmuni deganda uning ichki ma'nosi to'plamlari, tarkibiy qismlari va elementlarining mujassamlangan bayoni yotadi. O'qotar qurol paydo bo'lgunga qadar qadim zamonlardan buyon jang tushunchasi sovuq qurol bilan qurollangan jangchilarning qo'l janggi bilan cheklanib kelingan edi.

O'qotar qurolning rivojlanishi, takomillashib borishi bilan jang qilayotgan tomonlarning bevosita to'qnashuvga kirmay (lekin bu holni to'la istisno qilmay) masofadan turib kurash olib borish imkonini yaratgan o't ochish jangning asosiy elementiga aylanib bormokda va shu bilan harbiy ishning sezilarli rivoji bo'lgan jangning harakat ko'lami kengaymokda.

Jang maydonidagi muvaffaqiyatga qo'shinlarning ommaviy ravinda artilleriya to'plari, pulemyotlar bilan ta'minlanishi, tanklar va aviatsiyaning qo'llanilishi, unda ishtirok etayotgan barcha qo'shinlar turi bo'linma va birlashmalarining kelishilgan harakatlari bilan erishilmokda. Jang umumqo'shin jangi shakli ko'rinishiga tobora o'xshab bormokda, harakat ko'lami esa yanada kengaymoqda.

**Zamonaviy jangning kuchlari va vositalari** - bu, avvalambor, shaxsiy tarkib bo'linma va birlashmalarining jang yuritish va uni ta'minlashga mo'ljallangan qurol -aslahasidir, chunki jang xususiyati va uni yuritish usullari asosan uning moddiy negiziga, ya'ni qurol-aslaha, jangovar texnika va odamlarga bog'likdir.

Jangovar harakatlarning usullariga, qurolli kurash olib borish vositalari ko'proq progressiv ta'sir ko'rsatadi, lekin jang vositalarining ulkan quvvati va imkoniyatiga qaramay, inson birlamchi omil bo'lib, uning ishtirokisiz har qanday texnika, har qanday talofat keltiruvchi vositalar befoyda bo'ladi, qurolli kurashni esa tasavvur etib bo'lmaydi.

**Zamonaviy umumqo'shin jangining o'ziga xos xususiyatlari** - bu jangga tegishli bo'lgan holatlar va xususiyatlarning umumlashgan belgilaridir. Jangning xususiyatlari (belgilari) uning material jihatdan ta'minlanishiga qarab o'zgaradi. Birinchi jahon urushi davrida kurash vositalarining nisbatan sekin rivojlanishi janglar qamrovining chegaralanganligi, sur'ati va jur'ati pastligini ko'rsatdi. Ikkinchi jahon urushi davrida esa aksincha, jang olib borish vositalari sifatining keskin ko'tarilishi, miqdor jihatdan ortishi, jangga yangi ma'no kashf etib, jangning yuqori manyovrchanligini va o'zgarib boruvchi shiddatligini yuzaga keltirdi. Qo'shnlarda zamonaviy qurollar va yangi texnika turlarining qo'llanishi va ta'minlanishi, jangovar faoliyat olib borishga katta o'zgarishlar kiritdi va jang olib borish tavsiflari va usullarini o'zgartirdi.

### **3 – o'quv savoli. Umumqo'shin jangining asosiy turlari.**

**Zamonaviy jang** o'zining yuqori sur'ati, manyovrchanligi, keskinligi, vaziyatni tez va keskin o'zgaruvchanligi bilan, xilma-xil jang usullarini qo'llanishi bilan, qo'shinlar harakatini bir vaqtning o'zida erdan va havodan faoliyat ko'rsatishi, keng frontda hamda yuqori sur'atlarda olib borilishi bilan tavsiflanadi.

**Xujum** - bu jangning muxim xududlarni (chegara, obyektlarni) egallash uchun va dushmanni butunlay yakson qilish maksadida olib boriladigan kurinishi.

Fakatgina tez suratlar bilan va katta ichkarilikda olib boriladigan katiy xujum dushmanni butunlay yakson qilishi mumkin.

Karshi kurashayotgan dushmanni yakson qilish va muxim rayonni egallab olish uchun barcha kirgin vositalarini moxirona kullash, yadro zarbalari, aviatsiya, artilleriya zarbalari natijasidan tez foydalanish, bulinmalarining katiyatlik bilan xarakat qilishi, dushman kushinlarining ichkari tomoniga karab jadal xujum olib borish lozimdir.


**Mudofaa** - jangning turi. Mudofaaning vazifasi - ustuvor dushman kuchlarining xujumini (zarbasini) kaytarish, dushmanga sezilarli talofat yetkazish, joyning muxim xududlari (chegara, obyektlari)ni ushlab kolish, shiddatli xujumga utish uchun kulay sharoit yaratish. Mudofaa mustaxkam va faol bulishi, dushmanning barcha turdagi kurollar bilan

kilgan xujumini kaytara olishi kerak. Mudofaaning mustaxkamligi va faolligiga erishish uchun quyidagilar lozim:

- ximoyalanayotgan kushinlarning matonati, irodasi;
  - ularning yuksak alokasi;
  - mudofaani tashkil etish va uk ochish tizimini, ayniksa, tankka karshi, tusikli mudofaani yaratish maxorati;
  - mudofaa ishonchli xavo xujumidan;
  - taxdid soluvchi yunalishlarda kuch, vosita, uk otish bilan uz vaktida manyovrlar utkazish;
  - egallagan joylarini saklagan xolda bulinmalarning sabotli faol xarkatlari;
  - kat'iy karshi xujum uyushtirish;
  - dushman tushirgan desant otryadini zudlik bilan tor-mor etish; joydan, uning muxandislik inshoatlaridan, puxta maskirovkadan unumli foydalanish;
  - bulinmalarni uzok, muddat davomida zararlangan Xududda jang olib borishga tayyorlash;
  - ularni yondiruvchi kuroidan ximoya kilish buyicha tadbirlar utkazish;
  - -uzviy xamkorlikda bulish;
  - jangni xar tomonlama taminlash, bulinmalarni katiy va uzluksiz boshkarish.
- karama-karshi jang - xujum kilish jangining yana bir ko'rinishi.

**Ilova № 1**

**Fannig maqsadi, vazifasi, uni tuzilmaviy mantiqiy chizmasi.**



## **10 - MAVZU 2-MASHG'ULOT. MOTOO'QCHI SEKSIYANING TARKIBI, QUROLLANISHI VA JANGOVAR IMKONIYATLARI.**

### **Reja**

O'quv, tarbiyaviy maqsad: Talabalarni motouqchi seksiyasining tarkibi va jangovor imkoniyatlari bilan tanishtirish. Motoo'qchi seksiyasining qurollari va jangovar texnikasiga bo'lgan ishonchni o'ttirish.

O'quv savollari:

1. Askarning jangdagi majburiyatlari. Askarning shaxsiy quroli va ekipirovkasi.
2. Motoo'qchi seksiyaning tarkibi, qurollanishi va jangovar texnikasi.
3. Motoo'qchi seksiyaning jangovar imkoniyatlari.

SHakl: ma'ruza.

Uslub: Tushuntirish, ko'rsatish.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi.

Tayanch so'z va iboralar: ekipirovka - askarning egnida va o'zi bilan olib yuradigan kiyimi va anjomlari to'plami.

**1 – o'quv savol. Askarning jangdagi majburiyatlari. Askarning shaxsiy quroli va ekipirovkasi.**

Mazkur o'quv savolni jangdagi o'rni tushuntirish bilan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Askarning jang paytidagi o'zining burchlarini puxta bilishi va chuqur anglashi uning jang maydonidagi xarakatlanishini ongli va uddaburonlik bilan bajarishiga yordam berishini mashg'ulot rahbari ta'kidlaydi. Mashg'ulot rahbari quriqlikdagi qo'shnlarning jangovar nizomidan askarning jangdagi majburiyatlarini o'qib eshittiradi. Undan keyin Talabalarga askar nafaqat o'z majburiyatlarini puxta bilishi, balki seksiya

komandirining majburiyatini xam bilishga majbur ekanligini aytib sabablarini tushuntiradi. Mashg'ulot rahbari Talabalarga savollar bilan murojat qilib ularning faolligini oshirishga xarakat qiladi.

Seksiyalarning tarkibi shtatlar va tabellar bilan aniqlanadi, shuningdek seksiyaning jangovar vazifasiga xam bog'liq bo'ladi. Askarning shaxsiy quroli va ekipirovkasi masalasida xam mashg'ulot rahbari alohida to'xtalib o'tadi. Askarning shaxsiy quroli masalasidagi majburiyatlarini izohlaydi va askarning ekipirovkasiga kiradigan ruyxatdagi buyumlarni iloji boricha namunasini ko'rsatishga xarakat qilishi tahsinga sazovor bo'ladi. O'quv savolini yakunida Talabalarining savollariga javob beradi.

#### **Har bir askar:**

- guruhning, o'z seksiyasining (tankining) va o'zining jangovar vazifalarini bilishga;
- dushman tanklarining, boshqa zirhlangan mashinalarning va tankka qarshi vositalarining jangovar imkoniyatlarini, ularning kuchli va zaif tomonlarini, ayniqsa eng zaif joyini bilishga;

- istehkom inshootlarini jihozlash hajmi va jihozlash tartibini;

- doimo kuzatuv olib borishga, dushmanni o'z vaqtida topib olishga va darhol bu haqda komandirga bildiruv berishga;

- hujumda qat'iyat va qo'rqmasdan xarakatlanishga, mudofaada bardam va tirishqoq bo'lishga, dushmanni barcha usul va vositalar bilan yo'q qilishga, jangda matonat, zukkolik ko'rsatishga, o'rtog'iga yordam berishga;

- joydan, individual himoya vositalaridan va mashinaning ximoya xususiyatlaridan mohirona foydalanishga;

- okop va pana joylarni tezda jixozlashni bilishga, niqoblanishni amalga oshirishga, to'siq — g'ovlardan va zaxarlangan joylardan o'ta olishga, tankka qarshi minalarni o'rnatishni va chiqarib olishni bilishga; maxsus ishlov berishni o'tkazishni bilishga;

- xavodagi dushmanni tanib olishga va uning samolyotlari, vertolyotlari va boshqa nishonlarga o'qotar qurollardan o't ochishni bilishga, ularning eng zaif qismlarini bilishga;

- jangda komandirini himoyalashga, agarda u jarohat olsa yoki o'lsa qo'rqmasdan bo'linma qo'mondonligini o'ziga olishga;

- jangda komandirning ruxsatisiz o'z joyini

- tashlab ketmaslikka, jarohatlanganda yoki radioaktiv zaharli moddalar, bakterial (biologik) vositalar, hamda yondiruvchi qurol bilan zararlanganda o'ziga va o'zaro yordam chora tadbirlarini ko'rishga hamda vazifani bajarishni davom etishga; agar tibbi punkta jo'natilishga buyurilgan bo'lsa o'zi bilan shaxsiy qurolini olishga; tibbi punktga borishga iloji bulmaganda quroli bilan pana joyga o'rmalab borib sanitarlarni kutishga;

- o'q —dorilar, BMP, BTR va tank yonilg'ilari sarfini kuzatib turishga, o'z vaqtida o'z komandiriga sarf bo'lgan 0,5 m., 0,75 m. ko'tarib (tashib) yuriluvchi o'q — dorilar va yonilg'ilar zahirasi bo'yicha bildiruv berishga;

- BMP (BTR), tank buzilganda ularni qayta

- tuzatish chora tadbirlarini olib borishga majburdir.

#### **Harbiy xizmatchi ekipirovkasi:**

- shaxsiy kurol komplekti;

- jangovar anjomlar kopchik, ichki kiyim, paytava, shaxsiy gigiena ashyolari, kiyim-kechakni butlash uchun xujalik paketi, IPP va DP, konvept, kogoz, 3 kunlik kuruk ovkat;

- magazinlar uchun sumkacha;

- granata uchun sumkacha;

- Kichik kurakcha;

- suv tuldirilgan flyajka;

- protivogaz;

- teri uchun maxsus ximoya vositasi;

- plash-epinchik;

- po'lat kaska.

## **2 - o'quv savol. Motoo'qchi seksiyaning tarkibi, qurollanishi va jangovor texnikasi.**

Mashg'ulot rahbari dastlab Talabalarga motoo'qchi bo'lim eng quyi taktik bulinma bo'lib motoo'qchi Guruhning tarkibiga kirishi tushuntiriladi. So'ngra darsga tayyorlab quyilgan sxemalardan yoki multimediyalardan foydalanib, motoo'qchi seksiyaning tarkibi, qurollanishi va jangovor texnikasi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. BMP dagi motoo'qchi seksiyaning BTRdagi motoo'qchi seksiyadan nafaqat tarkib jixatdan, balki kurollanishi bo'yicha xam farq qilishini aytish zarur, shuningdek BMP va BTRLarning vazifalari va jangovor imkoniyatlari tushuntiriladi. YAna shuni tushuntirish joizki, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida mavjud bo'lgan BMP va BTRLar boshqa davlatlarning armiyalaridagi xuddi shunday jangovor texnikalardan mutlaqo qolishmaydi.

### **Motoo'qchi guruhining tarkibi va qurollanishi.**

Quruqlikdagi qo'shinlar QKning eng ko'p sonli turi bo'lib, dushman zarbalarini qaytarish, turli harbiy xarakatlar maydonida dushman qo'shinlari guruhlarini yakson qilish, egallangan xudud, rayon, chegaralarni ushlab turish kabi maqsadlarga mo'ljallangan.

Motoo'qchi va tank qo'shinlari quruqlikdagi qo'shinlarning asosini tashkil etib, kuyidagi vazifalarni bajaradi: mudofaada – dushman zarbalarini qaytarish, uning xujum qo'shinlarini yakson qilish egallangan rayonlar, nuqtalar va chegaralarni saqlab turish; xujumda – dushman mudofaasini yorib o'tish va tor-mor etish, muxim rayon, chegara, ob'ektlarni ko'lga kiritish, chekinayotgan dushmanni ta'kid qilish, qarama-qarshi jang va ko'rashlar olib borish.

Motoo'qchi qo'shinlar yuqori jangovar mustaqillik va universallikka ega bo'lgani sababli berilgan vazifalarni turli xududiy sharoitlarda, istalgan ob - xavoda, bosh yoki ikkinchi darajali yunalishlarda, birinchi yoki ikkinchi eshelonda, zaxira, dengiz va xavo desanti tarkibida bajara oladi. Motoo'qchi bo'linma asosiy umumqo'shin taktik bo'linmasi xisoblanadi. Ular tank bo'linmalari, artilleriya va qo'shin turlarining bo'linmalari bilan xamkorlikda dushmanni yaqin jangda bevosita yakson qilish bo'yicha vazifalarni bajaradi.

Motoo'qchi guruh motoo'qchi vzvod tarkibiga kiradi. Kuyida BMP (BTR) dagi motoo'qchi guruh jangovar bo'linmalarining tashkiliy-shtat tarkibini va qurollanishini o'rganib chiqamiz.

Guruh boshqaruvi:

- komandir;
- snayper;
- katta o'qchi.

#### **Seksiyalar soni 2 ta bo'lib, ularning xar birida:**

- 1 tadan o'qchi;
- 1 tadan granatomyotchi;
- 1 tadan granatomyotchi yordamchisi;
- 1 tadan pulemyotchi;
- 1 tadan mexanik-xaydovchi;
- 1 tadan nishonga oluvchi operator;
- seksiya komandirlari mavjud.

Jami bo'lib motoo'qchi guruhda 17 kishi mavjud.

Motoo'qchi guruh – taktik bo'linma. Guruh o'z vazifalarini (razvedka, qo'riqlash va b.) asosan vzvod tarkibida bajaradi.

#### **Guruh shaxsiy tarkibining taksimlanishi:**

|                         |                              |
|-------------------------|------------------------------|
| Harbiy xizmatchilarning | Harbiy xizmatchilarning soni |
|-------------------------|------------------------------|

| toifalari  | jami | boshqarmada | MO'Seksiyalarda |
|------------|------|-------------|-----------------|
| Jami:      | 17   | 3           | 14              |
| Ofitserlar | 1    | 1           |                 |
| Serjantlar | 2    |             | 2               |
| Askarlar   | 14   | 2           | 12              |

*Guruhning qurollanishi:*

-BMP (BTR) – 2 ta; (BMPda pulemyot-pushka, BTRda KPVT va PKT mavjud).

-7,62 mm SVD – 1 ta;

-RPG-7 - 2 ta;

-5,45 mm RPK – 2 ta.

-AK-74 (AKM) – 13 ta.

Mudofaa dushmanning ortiq darajadagi kuchlari xujumini qaytarish, unga talofot etkazish, egallab turgan pozitsiyasini ushlab turish va kat'iy xujumga o'tish qulay sharoitlarini yaratish maqsadida qo'llaniladi.

Mudofaa engilmas va faol bo'lishi, barcha turdagi qurol zarbalari, dushman tank va piyodalari ommaviy xujumiga bardosh bera oladigan bo'lishi kerak.

Guruhning mudofaaga o'tishi vaziyatning turli sharoitlarida, ya'ni dushman bilan bevosita to'qnashganda yoki to'qnashmagan sharoitlarida, kunduzi yoki tunda, yozda yoki qishda, ommaviy qirg'in quroli yoki oddiy shikastlantirish vositalari qo'llanilgan sharoitda amalga oshiriladi.

Motoo'qchi guruh front buylab va front ichkarisiga 200 metrgacha bo'lgan masofada pozitsiya mudofaasini tashkil etadi, pozitsiyada barcha o't ochish vositalari uchun asosiy va zaxira pozitsiyalarini jixozlaydi.

Motoo'qchi guruh pozitsiyasida o'qchilar, pulemyotchilar, granatomyotchilar unga bo'lgan front oldi va flangdagi barcha yaqinlashishlar o't ochish ta'sirida bo'ladigan qilib joylashadi. SHunga ko'ra o't ochish tizimi quriladi.

BMP (BTR) lar guruh pozitsiyasi mudofaasining asosi bo'lib, kuchli qurollangan va zirxli ximoyaga ega. BMP va BTR lar seksiyalar pozitsiyalarining markazida, yon tomonida yoki 150 m gacha bo'lgan uzoqlikda pozitsiya orkasida joylashadi. Snayper va katta o'qchi guruh komandiriga yaqin oralikda joylashadilar. Guruhga mudofaani tashkil qilishda vzvod (batalon) komandiri tomonidan pulemyot (granatomyot) rasCHQBTi, 1-2 ta tank kuchaytirish vositasi sifatida biriktirilishi mumkin.

### **3 - O'quv savoli. Motoo'qchi seksiyaning jangovar imkoniyatlari.**

3 - o'quv savolini mashg'ulot rahbari Talabalarga seksiya mustaqil ravishda kuchli qurol-yaroqlarga ega bo'lib, dushmaning tanklari va boshqa o't ochish vositalari bilan muvaffaqiyatli tarzda jang qila olishini, uning jonli kuchi va past uchayotgan samolyot va vertolyotlarni yuq qila olishini tushuntirishdan boshlaydi. O'qituvchi seksiya xujumda va mudofada Guruh, tarkibida xarakat qilishni, lekin razvedkada va qo'riqlashda mustaqil ravishda xarakat qilishni aytadi. Seksiya jangovor vazifaga, dushmanning xarakati va joyning tuzilishiga qarab BMP (BTR)da, piyoda yoki tankda desant holidi xarakat qilish mumkin. Aytilganlarni multimediya, yoki slaydlar kuzatuvda olib borish tavsiya etiladi.

## **MAVZU № 11. ASKARNING JANGDAGI HARAKATLARI.**

### **Reja**

O'quv, tarbiyaviy maqsad:

Talabalarni kuzatuv olib borish va o't ochish yakka okop (xandak) va seksiya okoplarini tayyorlash uchun joy tanlay bilishni va ularni niqoblashni o'rgatish; jang maydonlarida predmetlarni ximoyalanish maqsadida foydalanish ko'nikmalarini tarbiyalash.

O'quv savollari:

1-o'quv savoli. Mudofaadagi o't ochish pozitsiyasi to'g'risida tushuncha.

2-o'quv savoli. Joylardagi predmetlarni mudofaalanishga moslashtirish.

3-o'quv savoli. O't ochish sektorini tozalash va okopni niqoblash (ko'zdan yashirish).

SHakl: Nazariy.

Uslub: Ma'ruza, Suhbat, hikoya.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi. (Taktik maydon).

O'MT: Mavzuga oid plakatlari, jangovor texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. Mudofaadagi o't ochish pozitsiyasini maketi, o'quv Kalashnikov avtomati yoki maketi, xar bir o'quvchiga dala anjomlarining majmuasi. Signal berish bayroqchalari. Taktik maydon.

### **1-o'quv savoli. Mudofaadagi o't ochish pozitsiyasi to'g'risida tushuncha.**

Mashg'ulot rahbari savolni yoritishni seksiyani pozitsiyasini (marrasini) muxandislik jihozlanishining ahamiyatini aytishdan boshlaydi. Tushuntirilayotgan o'quv materiallari slaydlar, dafilim, yoki rangli plakatlari kuzatuvida tushuntiriladi. Seksiya marrasining muxandislik jihozlanishi okoplar, panalar joylar, aloqa yo'llarini qurishni va portlaydigan - minalashtirilgan to'siqlarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Dushman bilan to'qnash kelilmaganida pozitsiyani jihozlash seksiya uchun okopni belgilash (trassirovka qilish) dan boshlanadi. Bunda er o'yuvchi mashinadan foydalanish mumkin. Dushman bilan to'qnash kelinganda esa pozitsiyani jihozlash o'zi uchun okop qazishdan boshlanadi. Mashg'ulot rahbari yakka okoplarining turlarini tushuntiradi. Okoplar o'qchilar, pulemyotchilar va granatomyotchilar uchun bo'linadi. Okoplarni qazishda ularning barchasi yotib otish uchun mo'ljallanadi. Agar 60 sm gacha qazilsa tizzalab otishga mo'ljallangan okopga, 110 sm gacha qazilsa tik gurib otishga mo'ljallangan okopga aylanadi. Qazishda chiqqan tuproq old va yon tomoilariga tashlanadi va 50-60 sm balandlikka ega bo'lgan brustver (do'mlik) hosil bo'ladi. Otish sektorida brustver 30 sm gacha pasaytiriladi va otish uchun joy qilinadi (oraliq) qilinadi. Okopning ichida o'q-dori uchun tokcha qilinadi. Bunday okopni qurish uchun sapyorlar lopatasi bilan 1,5 soat, kichik piyodalar lopatasi bilan 2,5 soat vaqt sarflanadi. Pulemyotdan otish uchun mo'ljallangan okop 2 ta yakka okoplardan va 100 x 100 sm li maydonchadan iborat bo'ladi. Otish sektoridagi brustver 20 sm qalinlikda bo'ladi. Bunday okopni qurish uchun sapyorlar lopatasi bilan 2,5 soat, kichik piyodalar lopatasi bilan 4 soat vaqt sarf bo'ladi. Granatomyotlar otish uchun mo'ljallangan okop o'qchi uchun mo'ljallangan okopdan yon tomonlarida va orqa tomonda brusveri bo'lmasligi bilan ajralib turadi. BMP (BTR) larning o't ochish pozitsiyasi o't ochish maydonchasi bo'lgan chuqurlik (kotlavan) va tushish va chiqishga mo'ljallangan narvonni vazifasini o'tovchi qurilma (apparel) hamda brusverdan iborat bo'ladi. BMP (BTR) uchun pozitsiya seksiyaning orqa tomonida 50 metr uzoqlikda qaziladi, Bu esa qanotlar tomonga o't ochishni ta'minlab beradi. Mashg'ulot rahbari o'quv savolini tushuntirishni yakunlagandan keyin o'quv materialini mustahkamlash uchun Talabalarga bir nechta savol beradi.

Mudofaa jangi quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- ilg'or dushman kuchlari hujumini bostirish;
- unga etarli darajada zarar etkazish;
- egallangan joylarni ushlab turish;
- shiddatli hujumga o'tish uchun kerakli sharoitlarni yaratish.

Mudofaa barcha qurol turlari, dushman tanklari va piyodasi ommaviy hujumi zarbalariga qarshi tura oladigan engilmas va faol bo'lishi kerak.

Motoo'qchi bo'linmalarning mudofaaga o'tishi vaziyatning turli sharoitlarida, ya'ni dushman bilan bevosita to'qnashganda yoki to'qnashmagan sharoitlarida, kunduzi yoki tunda, yozda yoki qishda, ommaviy qirg'in yoki oddiy shikastlantirish qurollari qo'llanilgan sharoitlarda amalga oshiriladi. Ko'p holda qismlar dushman bilan bevosita duch kelgan holatlarda mudofaaga o'tadi. Boshqa hollarda dushman etarli darajada uzoqlikda bo'lganda, mudofaaga o'tish oldindan, u bilan ta'sirda bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

SHundan kelib chiqib bo'linma komandirlari va shaxsiy tarkib tayanch punkti va o't ochish istexkomlarini (okoplar ham shu jumladan) tayyorlaydi. Motoo'qchi seksiya guruh tarkibida tayanch punktini jixozlashga kirishadi. Seksiyaning tayanch punktidagi jixozlashi lozim bo'lgan inshootlariga quyidagilar kiradi:

- har-bir askar uchun o't ochish istexkomlari (seksiya komandiri, granatomyotchi, uning yordamchisi, pulemyotchi va o'qchi uchun);
- BTR (BMP) uchun asosiy va zaxira o't ochish istexkomlari;
- okoplarni o'zaro bir-biri bilan birlashtiruvchi yo'llar (transheya);
- dushmanga qarshi minali-portlovchi va boshqa xil to'siqlar;
- shaxsiy tarkib yashirinishi uchun pana qilish joyi (blindaj).

**o't ochish istexkomi** – bu bostirib kelayotgan dushman o'tidan yashiringan xolda uning hujumini qaytarish maqsadida jixozlangan joy.

Motoo'qchi seksiya mudofaada front kengligi bo'ylab 80 metrgacha bo'lgan masofani mudofaa qiladi. Askarlarning o't ochish istexkomlari orasidagi masofa joylikning reliefi va dushman hujumining shiddatidan kelib chiqib 10-15 metrni tashkil etadi. Jangovar mashinalar esa seksiya tayanch punktidan 50 metrgacha ichkariroq o'rtada, seksiyaning chap yoki o'ng tomonida joylashtirilishi mumkin.

O't ochish istexkomlari shunday tanlanib, jixozlanib hamda niqoblanadiki, dushmanni ko'rish, uni o't ochib yakson qilish imkoni bo'lsin, shu bilan birga o'zi ko'rinmaydigan bo'lishi kerak.

Dushman bilan bevosita duch kelgan sharoitda mudofaaga o'tilganida askar joylikning tabiiy yashiruvchi xususiyatlaridan, ya'ni ariqlar, snaryad va granatalar portlashi natijasida hosil bo'lgan xandaklar, past-balandliklar va boshqalardan unumli foydalanishi kerak. Bunday joylar bo'lmagan xolda esa zudlik bilan mudofaaga o'tib o'zi uchun okop qazishi lozim bo'ladi.

Dushman bilan duch kelmagan sharoitda esa tayanch punkti va o't ochish istexkomlari shaxsan askarlar tomonidan va texnikalar yordamida tayyorlanadi va mukammal jixozlanadi. Tayyor bo'lgan tanyach punkti va istexkomlar tevarak-atrof muxitiga ko'ra niqoblanadi. Buning uchun chim, tuproq, qum, o't-o'lanlar, qishda esa qordan foydalaniladi.

Tayanch punktiga quyidagi talablar quyiladi:

- yashirin joylashish va niqoblanish imkoniyatlari bo'lsin;
- katta maydonni kuzatish va uzoq masofaga barcha qurollardan o't ochish imkoni bo'lsin;
- o'zaro xamkorlik qilish, front va yon qanotlar bo'ylab mujassamlashtirilgan o't ochish imkoni bo'lsin;
- lozim bo'lganida aylanma mudofaani tashkil qilishning imkoni bo'lsin.

Istexkomlarning bir liniyada qator joylashtirilishi mumkin emas, chunki bu qo'shirlarning bir xamladayoq yo'q qilinishiga, yon qanot va orqa tomonlardan hujum qilinib tez orada yakson qilinishiga olib keladi.

## **2-o'quv savoli. Joylardagi predmetlarni mudofaalanishga moslashtirish.**

Mazkur o'quv savol xam avvalgi o'quv savolini olib borish tartibi singari olib boriladi. Mashg'ulot rahbari Talabalarga o'quv savolini mazmunini tushuntirishni quydagilar bilan boshlaydi. Joylardagi premetlarni mudofaalanishga moslashtirish, o't ochish sektorini tozalash va okopni niqoblash (ko'zdan yashirish). Mashg'ulot rahbari seksiya uchun okop yakka okoplarni birlashtirishdan hosil bo'lishini aytib tushuntiradi. Natijada front bo'ylab manevr qilish uchun, askarlar o'zaro muloqotda bo'lishlari uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Bu esa jangni borishida askarlarning psixologik holatida ijobiy aksini topadi. Bundan keyin mashg'ulot rahbari seksiya uchun okopning elementlarini tushuntirishni boshlaydi: old va orqa brustveri bo'lgan chuqurlik (chuqurligi 110 sm); pulemyotlar va granatomyotlar uchun zaxira maydonchalari va o'qchilar (avtomatchilar) uchun yacheykalar; BMP (BTR)ga va ort tomonga aloqa yo'llari; o'q - dorilar uchun tokchalar. Keyin okopni o'rab turgan muhit rangiga mos tarzda maskirovka qilish zarurligi aytiladi. Okopni jihozlash paytida askarlar har daqiqada jang uchun tayyor turishlari kerakligi uqtiriladi. Seksiya uchun okoplardan transheya hosil qilinadi. Transheya egri chiziqli, siniq bo'lish kerak. Bu zarb to'lqini va oskolka parchasidan jangchilarni talofatini kamaytirish maqsadida qilinadi. Transheya chuqurligi 150 sm. O'quv savolini oxirida o'ralar (shel) haqida tushuncha beriladi. O'ra chuqurligi 150 sm, tubining eni 60 sm, uzunligi 3 metr kirish qismiga ega bo'lgan chuqurlikdir. O'ralar ochiq va yopiq bo'lishi mumkin, YOpiq o'ralar ommaviy qirg'in qurollaridan ham ximoya qila oladi. Mashg'ulot rahbari qoridagi keltirilgan materiallar bilan cheklanmaydi. U zamonaviy ta'lim texnika vositalaridan foydalanib multimediya namoyish etadi va mshg'ulotni yanada samaraliroq bo'lishi uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladi.

Mudofaaga o'tishda har bir askar avvalo o'zi uchun qulay joyda otish uchun joyni tanlaydi va uni jihozlaydi. Bu joy shunday hisob bilan tanlanishi lozimki, bunda o'zi dushmanni kuzata va unga o't ocha olishi mumkin bo'lsin, lekin, o'zi dushmanga ko'rinmaydigan va uning o'qidan himoyalangan bo'lsin.

Askar vazifani aniqlab olgach o'ziga ko'rsatilgan o't ochish marrasiga joylashadi. Agar o't ochish marrasi (otish uchun joy) komandir tomonidan ko'rsatilmasa, askar uni mustaqil ravishda tanlaydi. Otish uchun joyni tanlayotganda chuqurliklar, kanavalar, do'ngliklar, shuningdek, turli mahalliy predmetlar (daraxtlar, toshlar, to'nkalar)dan foydalanish zarur.

Agar tanlangan marraning old tomonida baland bo'yli maysa, ko'chat va boshqa halaqit beruvchi narsalar bo'lsa ularni yo'q qilish kerak yoki o't ochish marrasini boshqa joydan tanlash lozim bo'ladi. Dushman o'q yog'dirib turgan paytda o't ochish marrasini (otish uchun joyni) jihozlash yotib otish uchun okopni kovlashdan boshlanadi.

## **3-o'quv savoli. O't ochish sektorini tozalash va okopni niqoblash.**

Avtomatdan yotib otishga mo'ljallangan okop piyodalarning kichik kurakchasi bilan amalga oshiriladi. Otish uchun joyni egallagach avtomat o'ng tomonga bir qo'l uzoqligida qo'yiladi, chunki har bir daqiqada avtomatni dushmanga qarata o't ochish uchun mumkin bo'lsin.

CHap yon bilan yonboshlab kurakcha g'ilofidan olinadi. Kurakchaning sopidan ikkala qo'l bilan ushlab tuproqning yuqori qatlamini o'ziga qaratib tortib kesiladi va old hamda yon tomonlaridan chegaralar belgilanadi. So'ng kurakni qarshi yo'nalishda ushlab, o'zidan nari tomonga zarba berib chimlar ko'chiriladi, ularni old yoki yon tomonlarga tashlanadi. Bu tuproqlardan brustver hosil qilinadi. Brustverdagi tuproqlar askarni dushmanning o'qidan himoya qiladi. Bosh iloji boricha erga yaqin ushlanadi, lekin dushmanni kuzatish har bir soniyada davom ettiriladi. Old tomonga zarur bo'lgan chuqurlikka erishilgach ort tomonga surilinadi va chuqurni gavda va oyoqlarni berkitadigan uzunlikda kovlashda davom etiladi.

Kovlab tayyorlangan okop o'rab turgan joyning rangiga mos qilib niqoblanadi. Buning uchun chim, tuproq, maysalardan, qishda esa qordan foydalaniladi.

## **12 - MAVZU: MUXANDISLIK JIXOZLARI VA POZITSIYANI NIQOBLASH.**

### **Reja**

O'quv, tarbiyaviy maqsad:

Talabalarni dushman o'qi ostida (o't ochib turgan paytda) okop qazish va dushman ko'zidan niqoblash usullari bilan tanishtirish. Talabalardagi uddaburonlik va topqirlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'quv savollari:

1-o'quv savoli. Dushman o'qi ostida (o't ochib turgan paytda) okop qazish va dushman ko'zidan niqoblash..

2-o'quv savoli. Portlaydigan va portlamaydigan muxandislik to'siqlari.

3-o'quv savoli. BTR, pulemyotchilar, granatamyotchilar, avtomatchilar uchun jihozlangan okop namunalarini, shaxsiy tarkib uchun yopiq o'ralarni va qurilgan, jihozlangan transheyalarni xozirlash tartibi.

SHakl: Nazariy.

Uslub: Ma'ruza, tushuntirish.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi.

O'MT: Mavzuga oid plakatlar, jangovor texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. Taktik maydon maketi. O'quv Kalashnikov avtomati yoki maketi, xar bir o'quvchiga dala anjomlarining majmuasi. Mina maydonlarini ko'rsatuvchi belgilar (tablichkalar), signal berish uchun bayroqchalar. 6 va 10 raqamli nishonlar, yakka tartibdagi himoya vositalari. Adrianova kompas, (faqat mashg'ulot rahbari uchun) portlovchi paketlar, signal beruvchi patronlar. Taktik maydon. Sapyorlar kurakchasi.

**1-o'quv savoli. Dushman o'qi ostida (o't ochib turgan paytda) o't ochish pozitsiyasini egallash (okop qazish).**


O'quv savolni o'rganilishida mashg'ulot rahbari ta'lim muassasining o'quv-moddiy bazasini xolatini inobatga olib mashg'ulotni shakl va uslublarini belgilaydi. Mashg'ulotning o'quv moddiy ta'minotida ko'rsatilib o'tilgan o'quv vositalaridan samara beradiganlarini ajratib oladi. Mashg'ulot rahbari Talabalarga dushman o'qi ostida (o't ochib turgan paytda) o't ochish pozitsiyasini egallash (okop qazish) qachonki, xujum paytida olg'a yurishni iloji qolmaganda ya'ni dushman avvaldan egallangan o't ochish pozitsiyasidan juda xam kuchli va to'xtovsiz o't ochgan va kutilmaganda to'satdan xujum uyushtirgan paytda, shuningdek, ko'zda tutilgan jangavor vazifa bajariladi seksiya komandirining buyrug'iga ko'ra amalga oshirilishini aytadi. Keyin bunday vaziyatlarda seksiya komandirlari, yuqori turuvchi boshliqlarning qaroriga ko'ra «To'xta o't ochish pozitsiyasi egallansin» buyrug'ini beradi. Ushbu o'quv savolini o'rganish uchun vaqt chegaralanganligiga sababli avvoldan tayyorlab qo'yilgan okop namunasini (rangli plakatdan) ko'rsatib, uning o'lchamlarini, egallash va qazish tartibini tushuntiradi. SHu joyda mashg'ulot rahbari Talabalarga o't ochish pozitsiyasini egallash paytida qanday vazifa bajarilishidan qat'iy nazar askar dushmanni

ko'zdan qochirmaslikni va shaxsiy quroli xar doim o'zi bilan birga va qo'llashga shay xolatda bo'lish kerakligini aloxida uqtiradi.

Mudofaaga o'tishda har bir askar avvalo o'zi uchun qulay joyda otish uchun joyni tanlaydi va uni jihozlaydi. Bu joy shunday hisob bilan tanlanishi lozimki, bunda o'zi dushmanni kuzata va unga o't ocha olishi mumkin bo'lsin, lekin, o'zi dushmanga ko'rinmaydigan va uning o'qidan himoyalangan bo'lsin.

Askar vazifani aniqlab olgach o'ziga ko'rsatilgan o't ochish marrasiga joylashadi. Agar o't ochish marrasi (otish uchun joy) komandir tomonidan ko'rsatilmasa, askar uni mustaqil ravishda tanlaydi. Otish uchun joyni tanlayotganda chuqurliklar, kanavalar, do'ngliklar, shuningdek, turli mahalliy predmetlar (daraxtlar, toshlar, to'nkalar)dan foydalanish zarur.

Agar tanlangan marraning old tomonida baland bo'yli maysa, ko'chat va boshqa halaqit beruvchi narsalar bo'lsa ularni yo'q qilish kerak yoki o't ochish marrasini boshqa joydan tanlash lozim bo'ladi. Dushman o'q yog'dirib turgan paytda o't ochish marrasini (otish uchun joyni) jihozlash yotib otish uchun okopni kovlashdan boshlanadi.



Avtomatdan yotib otishga mo'ljallangan okop piyodalarning kichik kurakchasi bilan amalga oshiriladi. Otish uchun joyni egallagach avtomat o'ng tomonga bir qo'l uzoqligida qo'yiladi, chunki har bir daqiqada avtomatni dushmanga qarata o't ochish uchun mumkin bo'lsin.

CHap yon bilan yonboshlab kurakcha g'ilofidan olinadi. Kurakchani sopidan ikkala qo'l bilan ushlab tuproqning yuqori qatlamini o'ziga qaratib tortib kesiladi va old g'amda yon tomonlaridan chegaralar belgilanadi. So'ng kurakni qarshi yo'nalishda ushlab, o'zidan nari tomonga zarba berib chimlar ko'chiriladi, ularni old yoki yon tomonlarga tashlanadi. Bu tuproqlardan brustver hosil qilinadi. Brustverdagi tuproqlar askarni dushmanni o'qidan himoya qiladi. Bosh iloji boricha erga yaqin ushlanadi, lekin dushmanni kuzatish har bir soniyada davom ettiriladi. Old tomonga zarur bo'lgan chuqurlikka erishilgach ort tomonga surilinadi va chuqurni gavda va oyoqlarni berkitadigan uzunlikda kovlashda davom etiladi.

Kovlab tayyorlangan okop o'rab turgan joyning rangiga mos qilib niqoblanadi. Buning uchun chim, tuproq, maysalardan, qishda esa qordan foydalaniladi.


O't ochish pozitsiyasi joyga bog'liq xolda tanlab olinadi va u askar tomonidan shunday tanlab olinishi kerakki (yoki komandir ko'rsatishi), u yerdan oldinda turgan dushman kuzatuv

olib borishi mumkin bo'lgan joy yaxshi ko'rinsin. Joy o'qotar qurolning tasirli o'q uzish uzoqligida ko'rinib mrishi kerak. Agar oldinda ochiq joyda jangovar harakatlar olib borish turgan bo'lsa, askar unga ko'rsatilgan o't ochish pozitsiyasi joyini diqqat bilan o'rganib chiqishi kerak. O't ochish pozitsiyasi dushman olovi ostida egallanishi mumkin.

Dushman olovi ostida yotib otish uchun bir kishilik okop qazish quyidagicha bajariladi: tanlangan joyda askar quralini o'zidan o'ngraqqa cho'zilgan qo'l uzoqligida stvolni og'zini dushmanga qaraiib yerga qo'yadi; chap biqinga yonboshlab, piyodalar ko'ragini g'ilofdan chiqaradi; keyin ko'rakning dasiasidan ikki qo'llab ushlab, o'ziga qarab urib chimni kesadi. Simni olib bo'lib, uni yoniga qo'yadi, okopni qazib uni brustverni niqoblashga ishlarish mumkin bo'lishi uchun tuproq boshidan oldinga, keyin esa yon tomonga tashlanadi, u o'qlar, snaryad yoki parchalaridan saqlanishni taxminlaydi.


Ishlash paytida bosh imkon qadar, yerga yaqinroqda ushlanishi kerak dushmanni uzluksiz kuzatib turisli mumkin bo'lsin, okopning old qismini 20 sm.cha qazib, askar ozgina orqaga siljiydi va qolgan qismini qazishni davom ettiradi. Okop kengligi 60 sm. uzunligi esa 170 sm bo'lishi kerak. Ish oxirida brustver joyning muxiti rangiga moslab niqoblanadi.

Agar dushman faollik ko'rsatmasa, okopni jixozlash ishlari davom ettirilaveradi, u tizzalab otish uchun M60 sm.ga cbuqurlashtiriladi va chuqurlashtiriladi (37-rasm), keyin esa 110 sm.gacha turib otish uchun chuqurlashtiriladi.



Rasm. Avtomatdan yotib otishga mo'ljallangan yakka okop:  
1-otish sektori; 2-brustver

Askar mudofaada seksiya tarkibida harakat qiladi. U seksiya komandiridan jangovar topshiriqni olgach, quyidagilarni aniqlaydi: orientirlar; dushman to'g'risida ma'lumot; o'z guruhining, seksiyasi va o'zining vazifasi - o't ochish marrasi, kuzatish tartibi, erdagi va havodagi dushmanga o't ochish tartibi; o'z seksiyasining markazlashgan o't ochish joyi; aloqa signallari; mudofaaga tayyor bo'lish vaqti.



Rasm. Avtomatdan yotib otish uchun mo'ljallangan okopni kovlash ketma- ketligi

## **2-o'quv savoli. Portlaydigan va portlamaydigan muxandislik to'siqlari.**

Mazkur o'quv savol bo'yicha mashg'ulot rahbari taktik maydonda barpo etilgan muxandislik to'siqlari (tankka qarshi escarp, zovur, handaklar, suvli to'siqlar, tikon simli to'siqlar), shuningdek portlaydigan minali to'siqlar haqida so'zlaydi.

Mazkur muxandislik to'siqlari motoo'qchi qo'shinlarning shaxdam harakat qilishiga yo'l qo'ymasligi, minali to'siqlar esa dushmanning tirik kuchi va jangovar texnikasini yaroqsizlantirishi haqida gapirib, ularni jixozlash tartibini tushuntiradi.

Hujumda esa, dushman minalashtirgan maydonidan o'tish seksiya komandirining qa'tiyy ko'rsatmasiga ko'ra bajarilishi a'loxida ta'kidlanadi. Seksiya komandiri seksiya shaxsiy tarkibiga vazifa qo'yishda, xujum qilish yo'nalishini va xarakatlanish usullarini, shuningdek, to'siqlardan o'tish qoida va tartibini ko'rsatib tushuntiradi. O'ndan keyin avvaldan tayyorlangan taktik mashg'ulotni sharoitga ega joyda o'quv savoli mashqlar yordamida o'rganiladi.

Ushbu o'quv savolini yoritishda o'qituvchi multimediya materiallaridan, o'quv kinofilmlaridan ham atroflicha foydalanihi tavsiya etiladi.

## **3-o'quv savoli. BTR, pulemyotchilar, granatamyotchilar, avtomatchilar uchun jihozlangan okop namunalarini, shaxsiy tarkib uchun yopiq o'ralarni va qurilgan, jihozlangan transheyalarni xozirlash tartibi.**

Mazkur o'quv savolini yoritishda ham mashg'ulot rahbari taktik maydonda barpo etilgan muxandislik to'siqlari (tankka qarshi escarp, zovur, handaklar, suvli to'siqlar, tikon simli to'siqlar), shuningdek portlaydigan minali to'siqlar haqida so'zlaydi.

Mazkur muxandislik to'siqlari motoo'qchi qo'shinlarning shaxdam harakat qilishiga yo'l qo'ymasligi, minali to'siqlar esa dushmanning tirik kuchi va jangovar texnikasini yaroqsizlantirishi haqida gapirib, ularni jixozlash tartibini tushuntiradi.


Ushbu o'quv savolini yoritishda o'qituvchi multimediya materiallaridan, o'quv kinofilmlaridan ham atroflicha foydalanihi tavsiya etiladi.

Muxandislik jihatidan jihozlangan marra o't ochish va kuzatish uchun yaxshi sharoit yaratib beradi, shaxsiy tarkibni raqibning shikast etkazish vositalaridan himoya qiladi, jang davomida front bo'ylab tez va yashirin manyovr qilish imkoniyatini yaratadi.

Seksiya marrasining muxandislik jixozlanishi okoplar, o'ralar, aloqa yo'llarini qurishni o'z ichiga oladi.

Dushaman bilan bevosita to'qnashuv bo'lmay turgan vaqtda marrani jixozlash Seksiya uchun handaqni belgilashdan boshlanadi. Bunda er o'yuvchi mashinalardan foydalanish mumkin. Dushman bilan to'qnashuv bo'lib turganda marrani jihozlash o'ziga joy kovlashdan boshlanadi.

Okoplar o'qchilar, pulyomotchi va granatamyotchi uchun okoplarga (handoqlarga) bo'linadi. Ularning barchasini kovlanishi yotib otish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Agar u 60 sm gacha kovlansa tizzalab otish uchun mo'ljallangan okopga handaqqa, 110 sm gacha kovlansa tik turib otishga mo'ljallangan okop handaqqa aylanadi. Kovlashdan chiqqan tuproq old va yon tomonlarga tashlanadi va 50-60 sm balandlikka ega bo'lgan brustver hosil bo'ladi. Otish sektorida brustver 30sm gacha pasaytiriladi va otish uchun o'yiqla qilinadi. handaqning ichida o'q-dori uchun tokcha qilinadi.



Rasm. Seksiya uchun okop.

1-o't ochish uchun ochiq tuynuk; 2-qanotga o't ochish uchun yacheyka; 3-pulemyotlar uchun maydoncha; 4-o'qchi uchun yacheyka; 5-yopiq o'ra yoki blindaj; 6-granatamyot uchun chiqarilgan yacheyka; 7-yopiq tuynukli chiqarilgan yacheyka; 8-PJM uchun handaq; 9-apparel; 10-brustver; 11-cheklanib turish uchun joy; 12-mumkin bo'lgan aloqa yo'li; 13-PJM uchun zahira okopi.

Bunday handakni qurish uchun sapyorlar kuragi bilan 1,5 soat piyodalar kichik kuragi bilan 2,5 soat vaqt sarflanadi. Pulemyotdan otish uchun mo'ljallangan handaq 2ta yakka handaqlardan va 100x100sm li maydonchadan iborat bo'ladi. Otish sektoridagi brustver 20sm qalinlikda bo'ladi. Bunday handaqni qurish uchun sapyorlar kuragi bilan 2,5 soat, piyodalar kichik kuragi bilan 4 soat vaqt sarf bo'ladi. Granatamyotdan otish uchun mo'ljallangan handaq o'qchi uchun mo'ljallangan handaqdan yon tomonlarida va orqa tomonda brustver bo'lmisligi bilan ajralib turadi.

*PJM (BTR) larning o't ochish pozitsiyasi* o't ochish maydonchasi bo'lgan kotlavan va tushish va chiqishga mo'ljallangan apparel hamda brustverdan iborat bo'ladi. PJM (BTR) uchun pozitsiya Seksiyasining orqa tomonida 50 metr uzoqlikda kovlanadi. Bu esa qanotlar tomonga o't ochishni taaminlab beradi.

*Seksiya uchun okop* yakka okoplarni birlashtirishdan Hosil bo'ladi. Natijada front bo'ylab manyovr qilish uchun, askarlar o'zaro muloqotda bo'lishlari uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Bu esa jangni borishida askarlarni ruhiy holatida ijobiy aksini topadi.

Seksiya uchun okopning elementlari: old va orqa brustveri bo'lgan chuqurcha (chuqurligi 110sm); pulemyotlar va granatamyotlar uchun zahira maydonchalari va o'qchilar (avtomatchilar) uchun yacheykalar; PJM (BTR) ga va ort tomonga aloqa yo'llari; o'q-dorilar uchun tokchalar.Keyin okop (handaq)ni o'rab turgan muhit rangiga mos tarzda niqoblanadi. Handaqni jihozlash paytida askarlar har daqiqada jang uchun tayyor turishlari kerak.

*Seksiya uchun okoplardan transheya hosil qilinadi.* Transheya egri chiziqli, siniq bo'lishi kerak. Bu zarb to'liqini va zaryad parchasidan jangchilarni zararlanishini ozaytirish maqsadida qilinadi. Transheya chuqurligi 150sm.

*O'ra* chuqurligi 150sm tubining eni 60sm, uzunligi 3metr kirish qismiga ega bo'lgan chuqurlikdir. O'ralar ochiq va yopiq bo'lishi mumkin. YOpiq o'ralar ommaviy qirg'in qurollaridan ham himoya qila oladi.

### **MAVZU № 13. ZAMONAVIY OMMAVIY QIRG'IN QUROLLARIDAN HIMOYALANISH.**

O'quv, tarbiyaviy maqsad: Talabalarga YAdro qurolini shikastlovchi omillari; kimyoviy qirg'in qurollarining zararlash omillari va undan himoyalalanish; Bakteriologik (biologik) quroli va oddiy zamonaviy qirg'in qurollaridan himoyalalanish qoidalari talabalarga tushuntirish.

O'quv savollari:

- 1.YAdro qurolini shikastlovchi omillari
2. Kimyoviy qirg'inining zararlash omillari va undan himoyalalanish

3. Bakteriologik (biologik) quroli va oddiy zamonaviy qirg'in qurollari.

Uslub: Ma'ruza, tushuntirish, ko'rsatish.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi.

O'MT: Mavzuga oid plakatlar, jangovor texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. Taktik maydon maketi. Adrianova kompası.Binokl,periskop.

Tayanch so'z va iboralar: YAdro (kimyoviy, bakteriologik) quroli - ommaviy qirg'in qurollari;

### **1-o'quv savoli. 1. Yadro qurolini shikastlovchi omillari.**

YAdro qurolini shikastlovchi omillari quyidagilardan iborat:

- portlash to'liqini yoki zarba to'liqini;
- yorug'likning nurlanishi;
- yorib kiruvchi radiatsiya;
- joylarni zararlaydigan radioaktiv moddalar;
- elektromagnit impuls.

1. Zarba (portlash) to'liqini portlash markazidan hamma tomonga tovush tezligidan ham katta tezliqla tarqaladigan, juda katta bosimda siqilgan havo zonasidan iborat. Siqilgan havo zonasining oldingi chegarasi zarba to'liqini fronti deb ataladi. Siqilgan xavo zonasida hosil bo'lgan eng katta havo bosimi ( $R_f$ ) va atmosfera bosimi orasidagi ( $R_o$ ) bosimning farqi zarba to'liqini frontidagi yuqori bosim ( $\Delta R_f$ ) ni tashkil qiladi.

Zarba to'liqini o'tib ketgandan so'ng, bosim tezda pasaya boshlaydi va bir necha vaqtdan so'ng atmosfera bosimidan ham pasayib ketadi. Vaqt o'tishi bilan oldingi holatiga qaytadi, ya'ni atmosfera bosimi tiklanadi. Zarba to'liqini natijasida paydo bo'lgan bosim atmosfera bosimiga qaraganda uzoqroq tursa zichlanish fazasini, atmosfera bosimidan kamroq vaqt tursa siyraklangan fazani tashkil qiladi.

Zarba to'liqini oldingi 1000 metrni 2 sekundda, 2000 metrni 5 sekundda, 3000 metrni 8 sekundda o'tadi, shu vaqt orasida kishi osmonda yorug' shu'lani ko'rishi bilan yashirinishga ulguradi va zarba to'liqini shikastlashidan saqlanib qoladi. Zarba to'liqinining shikastlash kuchi zichlanish fazasida hosil bo'lgan bosimga bog'liq. Bunda siyraklashgan faza hech qanday ta'sirlash kuchiga ega emas, u faqat zichlanish fazasi ta'sirini kuchaytirish xususiyatiga ega xolos.

Zarba to'liqini yadro portlashi vaqtidagi asosiy shikastlovchi omil bo'lib hisoblanadi va jami portlash energiyasining taxminan 50% i shu omilga to'g'ri keladi.

Zarba to'liqini odamlarni, harbiy texnika vositalari, qurollarni, fortifikatsion inshootlar, mol-mulklarni shikastlaydi va ko'p vayronagarchiliklarni keltirib chiqaradi. Kishilar zarba to'liqinidan bevosita yoki bilvosita - imoratlardan tushgan narsalar, daraxtlarning sinib yoki ag'anab tushishi va boshqalardan zarar ko'rishi mumkin.

SHikastlanishning asosiy sababi zarba to'liqini ta'sirida atmosfera bosimining keskin oshib ketishidir. Buni odamlar zarba deb tasavvur qiladilar, bundan tashqari, odam tezlanish bosimini sezadi va shu tufayli yiqilishi yoki og'ib ketishi mumkin. Zarba to'liqini ta'sirida odamning turlicha mexanik jarohatlanishi: tomir va to'qimalari uzilishi, suyaklari sinishi, nog'ora pardasi yirtilishi va boshqalar kuzatiladi:

Jang maydonlarida zarba to'liqinidan saklanish uchun turli xil pana joylar, okoplar, xandaqlar, chuqurliklar va boshqa yashirin joylardan foydalaniladi (34-rasm). Pana joylar, xandaqlar va okoplar zarba tulqinini 3-10 barobar kamaytiradi.

YOrug'lik nurlanishi - yadro portlashidan hosil bo'lgan olovli shardan chiqadigan va nihoyat darajada ko'p kuydiruvchi issiqlik energiyasi tarqatadigan yorug'lik nuri oqimidan iborat. YAdro portlashi jami eneryaning taxminan 35% i yorug'lik nurlanishiga to'g'ri keladi. YOrug'lik nuri tarqalishi 8-15 sekund davom etadi, bu nur faqat to'g'ri yo'nalishda tarqaladi.

SHaffof bo'lmagan har qanday to'siq yorug'lik nurlanishi ta'siridan saqlab qoladi.

YOrug'lik nurlanishi katta masofalarga bir lahzada tarqalib, turli materiallarni eritish, yondirish, himoyalanmagan odamlar va hayvonlarni kuydirish yoki ularning himoyalanmagan terisini turli darajada kuydirish, ko'zni zararlash, o'rmonlarda va aholi yashaydigan punktlarda yong'in chiqarish xususiyatiga ega.

Moddalarning yorug'lik nurlanishidan zararlanishi ularning qay darajada qizdirilganiga bog'liq bo'ladi. Moddalarning qizishi esa o'z navbatida quyidagi omillarga: yorug'lik impulsining kuchiga, moddalarning xususiyatiga, moddalarning issiqlikni yutish koeffitsientiga, namligiga, yonuvchanligiga bog'liq. qora rang mato oq rangdagiga qaraganda yorug'lik nurini ko'p yutadi. Masalan, qora rangli mato 99% yorug'lik energiyasini yutadi, mosh rang mato 60%, oq rang mato esa 25% yorug'lik energiyasini yutadi.

YOrug'lik nurlanishi ko'zga tushganda (ayniqsa tunda, chunki ko'z qorachig'i kengaygan bo'ladi) ko'z qamashishi kuzatiladi. Ko'z qamashishi vaqtincha davom etadi. Bunga sabab ko'zdagi rodopsin pigmentining (to'q qizil rang) kamayishidir. Agar nur yaqin masofadan ko'zga ta'sir qilsa, ko'zning to'r pardasi qo'yadi va typg'un ko'rlik holati vujudga keladi. SHuning uchun osmonda birdan chaqnash yuz berganda unga qarash mumkin emes.

YOrug'lik nurlanishi faqat odamlarga ta'sir qilib qolmasdan balki harbiy qurollarga, texnika vositalari, rezina buyumlar, detallar, giloflar, harbiy vositalarga, bo'yoqli yuzalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida ularning yonib ketishi yoki bo'lmasa kuyib ko'mirga aylanishi kuzatiladi.

O'tuvchan radiatsiya - yadro portlashida chiqadigan ko'rinmac va sezilmas gamma-nurlar hamda neytronlar oqimidan iborat: Bunga yadro portlash energiyasining taxminan 5% i sarflanadi. YAdro portlashi sodir bo'lgandan 15-20 sekund o'tgach yadro va termoyadro reaksiyasi natijasida gamma-nurlar, neytronlar oqimi, alfa-va beta zarrachalarining juda kuchli oqimi tarqaladi. Lekin o'tuvchan radiatsiyaga faqat gamma-nurlar va neytron oqimi kiradi, alfa-va beta-zarrachalarining havoda bosib o'tgan yo'li kalta bo'lganligi uchun, ularda o'tuvchanlik xossasi kam.

Alfa zarrachalar geliy atomi yadrosidan iborat bo'lib, ikki proton va ikki neytrondan tashkil topgan.

Betta zarrachalar yo elektron yoki pozitronidir. Har bir beta-zarracha bir elementar elektr zaryadiga teng bo'lgan zaryadga ega. Uning tezligi energiyasiga bogg'liq bo'ladi Ust-bosh o'tuvchanlikni ancha kamaytiradi, avtomobil oynaklari yoki 1 mm qalinligi metall to'siqlar beta-zarrachalarni to'liq o'tkazmaydi.

Gammalarning energiyasining ayrim fotonlari oqimidan iborat bo'lib, to'g'ri chiziq, bo'ylab yorug'lik tezligida (300 000 km.sek) tarqaladi.

Gamma-nurlarining havoda bosib o'tgan yo'li yuzlab metrnlarni tashkil qiladi, shuning uchun o'tuvchanlik xossasi cheksiz bo'lib hisoblanadi. Uning o'tuvchalik xususiyati beta-zarrachalarnikiga qaraganda 50-100 barobar kuchli rivojlangan.

20- kilotonnali atom bombasi havoda portlatilganda uning o'tuvchan radiatsiyasi doirasi quyidagicha bo'ladi: 800 metrgacha - 100% o'lim sodir bo'ladi (10000 R dozaga yaqin); 1,2 km da-75% o'lim sodir bo'ladi (1000 R ga yaqin dozasi); 2 km - 1-11 darajali nur kasalligini (50 200 R dozasi) keltirib chiqaradi. Neytron bomba portlaganda o'tuvchi radiatsiya juda kuchli rivojlanadi. Agar bir ming trotil ekvivalentga teng bo'lgan neytron bomba portlatilsa, uning zarba to'liqini va yorug'lik nurlanishi faqat 130-150 m doiradagi masofani zararlardi. O'tuvchan radiatsiyadan saqlanish uchun pana joylar va inshootlardan foydalaniladi. Himoya qiluvchi vositalarning zichligi qancha yuqori bo'lsa, u gamma-nurlarini o'zida shuncha ko'p tutib qoladi. SHuning uchun himoya qiluvchi materiallar qalinligini topish uchun «yarim susaytiruvchi qavat» tushunchasi kiritilgan. Bunda ushbu materialning qalinligi o'tuvchan radiatsiya miqdorini 2 barobar kamaytirishi kerak. Materiallar qalinligini hisoblash asosan gamma-nurlar misolida o'tkaziladi.

### YArım susaytiruvchi qavat ( $K_{0,5}$ ), sm

| Zararlanish manbalari | Zichligi, g.sm <sup>3</sup> | YArım susaytiruvchi qavat, sm |                         |
|-----------------------|-----------------------------|-------------------------------|-------------------------|
|                       |                             | gamma-nurlaridan              | gamma - bo'linishlardan |
| Suv                   | 1,0                         | 14-20                         | 3-6                     |
| Daraxt                | 0,7                         | 15-30                         | 10-15                   |
| Tuproq, er            | 1,6                         | 10-14                         | 11-14                   |
| Beton                 | 2,3                         | 6-12                          | 9-12                    |
| Bron (zirx)           | 7,8                         | 2-3                           | 5-12                    |
| qo'rg'oshin           | 11,3                        | 1,4-2                         | 9-12                    |
| Po'lat                | 7,8                         | 2,8-3                         | 5-12                    |
| qor                   | 0,4                         | 50                            | -                       |

Jang maydonlarida zarba to'ldinidan saklanish uchun turli xil pana joylar, okoplar, xandaqlar, chuqurliklar va boshqa yashirin joylardan foydalaniladi.

Pana joylar, xandaqlar va okoplar zarba tulqinini 3-10 barobar kamaytiradi.

Dalada qurilgan pana joylarning himoyalash koeffitsienti (gamma-nurlar bo'yicha) 250-1000 ni tashkil qilishi kerak, ya'ni bu pana joylarning usti 112-140 sm qalinliqlagi tuproq bilan yopilgan bo'lishi kerak. O'tuvchi radiatsiyaning kirish xususiyati 35- rasmda ko'rsatilgan.

O'tuvchi radiatsiya tirik to'qimalar molekulalarini ionlashtirib, organizmning hayotiy faoliyatini buzadi va kishini turli darajadagi nur kasalligiga yo'liqtiradi, ba'zan esa halok qiladi. Odamga 50 rentgen radiatsiya qisqa vaqt davomida ta'sir etganda organizmda sezilarli o'zgarishlar yuz bermaydi. Hozirgi vaqtda nur kasalligi kechishiga ko'ra: engil, og'ir va o'ta og'ir turlarga bo'linadi. Nur kasalligi og'irligi va kechishiga ko'ra o'tkir va surunkali bo'ladi.

Joylarning radioaktiv moddalardan zararlanishi

yadro portlashi natijasida hosil bo'ladi, bunga yadro portlashi energiyasining taxminan 10% i sarflanadi.

YAdro portlashi natijasida hosil bo'lgan ko'p miqdordagi radioaktiv moddalar xavo oqimiga ergashib portlash markazidan o'nlab, yuzlab kilometr masofalarga tarqaladi. Havo turar joylar, suv manbalari, qishloq xo'jaligi maxsulotlari va boshqa narsalarni zararlaydi. Zararlangan joylardagi radioaktiv moddalar odamlarga va hayvonlarga sirtidan ta'sir ko'rsatadi. Mazkur moddalar ovqat, suv orqali organizmga tushib, ichdan ta'sir kvsatadi, oqibat natijada odam va hayvonlarda turli darajadagi nur kasalligi paydo bo'ladi.

Joylarning radioaktiv moddalardan zararlanishiga asosan quyidagilar: yadro portlashi natijasida hosil bo'lgan radioaktiv izotoplar yoki parchalanish «zarrachalari», ba'zi moddalarning radioaktiv holatga o'tishi va yadro reaksiyasi natijasida parchalanishga ulgurmay qolgan yadro zaryadlari sabab bo'ladi.

Uran va plutoniyning parchalanishidan hosil bo'lgan radioaktiv izotoplar yoki parchalanish «zarrachalari» eng xavfli zararlanish manbai hisoblanadi.

Parchalanish «zarrachalari» ichida eng ko'p uchraydigan izotoplar ittriy, tellur, molibden, yod, ksenon, bariy, lantan, stronsiy, seziy, sirkoniydir. 36-rasmda uran-235 yadrosining parchalanishi natijasida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan yod na ittriyning radioaktiv izotoplari ko'rsatilgan. Bu moddalar keyinchalik betaparchalanishi tufayli barqaror lantan va molibden yadrolariga aylanadi.

YAdro zaryadi portlashi ro'y berganda osmonga ko'tarilib chiqqan tuproq, chang portlash maxsulotlari bo'lmish izotoplar bilan aralashib ketadi. Buning natijasida qo'ziqorin shaklida hosil bo'lgan bulutning hammasi radioaktiv xususiyatga ega bo'ladi Radioaktiv

changlar ekinzorlarga tushishi natijasida zararlanish ro'y beradi. Bunday joylar va narsalar radioaktiv moddalar bilan zararlangan deb ataladi. Joylarga tushgan radioaktiv zarrachalarning yarim emirilish davri turlicha bo'ladi (15- jadval).

Portlashda hosil bo'lgan radioaktiv maxsulotlar- yarim emirilish davri nisbatan qisqa bo'lgan va yarim emiripish daarajasi tezda yo'qolib ketadigan radioizotoplar yuqori foizni tashkil etadi. Portlashdan so'nggi birinchi soatlarda radiatsiya darajasi tezda kamayib ketadi.

Radioaktiv moddalar bilan qo'shilgan bulut o'tgan joylarda cho'ziq ellipssimon radioaktiv «iz» qoladi. Radioaktiv bulut qoldirgan «iz» radioaktiv moddalar izi o'qidan qancha uzoqlashsa, radiatsiya darajasi shuncha kam bo'ladi va kishiga kam ta'sir ko'rsatadi.

Radioaktiv moddalarning erga tushish vaqti shamol tezligiga bog'liq bo'ladi va quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$t_0 = \frac{R}{V}$$

bu erda  $t_0$  - radioaktiv moddaning erga tushish vaqti, R - portlash markazidan uzoqlashgan masofa (km hisobida), V - shamolning tezligi (km.soatda).

Elektromagnit impuls – va ikkilamchi zaraharlovchi omillar. YAdro zaryadlarining portlashi natijasida havoning ionlashishi kuzatiladi, hosil bo'lgan elektronlarning yuqori tezliqla harakati tufayli elektromagnit maydoni paydo bo'ladi. Buning natijasida elektromagnit razryad va tok hosil bo'ladi. Atmosferada paydo bo'lgan elektromagnit impuls chaqmoq singari tarqalgan holda antennalarda, kabellarda, elektr uzatish tarmoqlarida va simlarda kuchli kuchlanishga ega bo'lgan tok hosil qiladi.

Er yuzida havoning past qismlarida yadro zaryadi portlatilganda elektoroimpulsning shikastlovchi ta'siri portlash markazidan bir necha kilometr uzoqliqla kuzatiladi. Er yuzidan ancha balandliqla va xavoda portlatilgan yadro zaryadi natijasida elektromagnit impuls, maydoni portlatilgan markazda va er yuzasidan 20-40 km balandliqla ham elektromagnit impuls maydoni hosil bo'lishi kuzatiladi. Kuchlanish maydoni xosil bo'lgan elektromagnit maydonining shikastlovchi omili bulib hisoblanadi. Kuchlanish maydonining kuchliligi portlatilgan yadro zaryadining quvvatiga, portlatish balandligiga, portlash markazidan uzoqligiga va atrof-muhitning xossasiga bog'lik bo'ladi.

#### **YAdro qurolidan himoyalanish vositalari.**

SHaxsiy himoya vositalari.

SHaxsiy himoya vositalari filtrlovchi va ajratuvchi protivagazlar (gazniqoblar), rkspiratorlar va terini himoyalovchi vositalar (himoyalovchi kompleks kiyimlar, kostyumlar, kombinzonlar va boshqalar)ga bo'linadi. Bularning barchasi nafas a'zolarini, ko'z va teri qavatlarini radiaktiv, zaxarlovchi moddalar va baktarialogik vositalar ta'siridan saqlaydi.

Ularning hammasi o'zining himoyalash xususiyatiga ko'ra filtrlovchi va ajratuvchilarga bo'linadi. Filtrlovchi vositalarning himoyalash xususiyati xavoni himoyalovchi materiallar orqali o'tkazishga asoslangan bo'lib, unda havo radiaktiv, zaharlovchi moddalar va bakterialogik vositalardan tozalanadi. Ajoatuvchi vositalarning himoyalash xususiyati odam organizmini tashqi muxitdan to'liq ajratishga qaratilgan bo'ladi. Nafas olish uchun kerak bo'lgan havo pnevmategon yoki pnevmatafor usulda ishlaydigan kislorod apparatlari yordamida olingan bo'ladi. Umumharbiy himoya vositalari bilan butun harbiy qismlarning harbiy xizmatchilari ta'minlanadi.

Maxsus himoya vositalari bilan tankli, aviatsion, kimyoviy qismlar, turli xil qo'shinlarning bo'linmalari maxsus vazifalarni bajaradigan vaqtlarida, hamda tibbiy xizmat (boshidan yaralanganlar uchun shlem SHR-1) bo'limlari yaradorlarga yodam ko'rsatishda ishlatish uchun ta'minlanadilar.

#### **Nafas a'zolarini himoyalovchi vositalar.**

Nafas a'zolarini himoyalovchi vositalarga filtrlovchi (umumharbiy, PMG, PMG-2, SHR, GP-5, DP-6, DP-6M), ajratuvchi (IP-4, IP-5) protivogazlar (gazniqoblar), respiratorlar (R-2, SHB-1) va qo'l ostida bo'lgan vositalar kiradi.

RSH-4 markali umumharbiy filtrlovchi protivogaz (gazniqob). Bu protivogazlar nafas a'zolari, ko'z va yuzni zaharlovchi, radiaktiv moddalar va bakterial vositalardan himoya qilishning asosiy vositasi bo'lib hisoblanadi. Bu protivogazlar bilan harbiy qo'shinlarning harbiy xizmatlari ta'minlanadi.

Protivogazlar (gazniqob) filtrlovchi-yutuvchi korobka, yuz qismi va xaltachadan iborat. Ajratuvchi protivogazlar.

Ajratuvchi protivogazlar nafas a'zolarini tashqi havodan tqliq izarizatsiya qiladi. Ajratuvchi protivogazlarning xususiyati zaharlovchi moddalarning turiga, radiaktiv va bakterial vositalarning havodagi konsentratsiyasiga bogliq emas. Bunday protivogazlar havo tarkibidagi har qanday zaharlovchi modda va ularning yuqori konsentratsiyasidan himoyalaydi va quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. havo tarkibida zaharlovchi va zararli moddalarning juda yuqori konsentratsiyasi paydo bo'lganda;
2. odatdagi filtrlovchi protivogazlar havo tarkibidagi ba'zi bir zaharlovchi va zararli moddalarni zararsizlantira olmagan vaqtda;
3. havo tarkibida kislorod qisman yoki to'liq bo'lmaganda;
4. suv to'siqlaridan o'tishda yoki suv ostida ish bajarishda.

Ajratuvchi protivogazlar kishi nafas a'zolarini tashqi muxitdan to'liq ajratishga asoslangan bo'ladi, nafas olish uchun kerak bo'lgan havo pnevmatogen yoki pnematofofor usulda ishlaydigan apparatlar yordamida olingan bo'ladi. Pnevmatofor ajratuvchi protivogazlarda, nafas uchun olingan kislorod balonlarida siqilgan bosimda bo'ladi, bunday apparatlarga KIP-5 kiradi.

Pnevmatogen ajratuvchi protivogazlarga xozirgi vaqtda IP-4, IP-5 lar kiradi, bunda kislorod kimyoviy yo'l bilan olinadi.

Ajratuvchi IP-4 protivogazi quruqliqla ishlash uchun mo'ljallangan. Bu apparat yuz qismidan, regenerativ patrondan, nafas xaltasi va ortiqcha bosimni chiqaruvchi klapandan iborat.

Ajratuvchi IP-5 provogazi yuz qismi, regenerativ patron, nafas xaltasi (qopi), ko'krak fartugi va ortiqcha bosimni chiqaruvchi klapandan iborat.

SHlem-niqob (SHIM-M) korpus, ko'zoynaklar uzeli, obtyurator, bog'lash moslamalari va shlem-niqobga mahkam qilib o'rnatilgan gofrlangan biriktiruvchi naychadan iborat. Biriktiruvchi naychanning ikkinchi uchida esa ko'chma gayka bo'lib, uning yordamida naycha nafas xaltasiga mahkam qilib ulanadi.

Regenerativ patron (RP-5) parallelepiped shaklida qilib tayyorlangan. Patronning yuqori qismida ikkita nippel uyasi bor, bular yordamida ular nafas xaltasiga ulanadi. Nippel uyasi o'rtasiga dastak shaklida tayyorlangan ishga soluvchi moslama o'rnatilgan, ishlatilmagan patronda ishga soluvchi moslama plonbalar qo'yilgan bo'ladi.

Ajratuvchi protivogazlardan foydalanish vaqti min.

| Jismioniy ish                                                                                                         | IP-4 | IP-5 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|------|
| Tinch holatda:                                                                                                        |      |      |
| quruqliqla                                                                                                            | 180  | 200  |
| suv tagida                                                                                                            | -    | 120  |
| Engil jismoniy ish bajarganda:                                                                                        |      |      |
| I. quruqliqla (asbob-uskunalarini tekshirayotganda)                                                                   | 180  | 200  |
| II. suv ostida (cho'kkan texnika ichida bo'lganda, lyuklarni ochayotganda, yuqoriga va qirg'oqqa suzib chiqayotganda) |      |      |
| o'rtacha jismoniy ish bajarganda:                                                                                     | -    |      |

|                                                                                                                                                   |        |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|----|
| 1.quruqliqla (yurish, engil detallarni yig'ish), mexanizmlarga xizmat ko'rsatish va ularni sozlashda.                                             | 75     | 90 |
| Og'ir jismoniy ish bajarganda:                                                                                                                    |        | 75 |
| 2. quruqliqla (yugurish, katta detallarni yig'ish, narvonda yuqoriga ko'tarilish, og'ir yuklarni ko'tarish, emaklab boshqa joyga o'tish vaqtida). | 30(40) | 45 |

### **Fuqaro muxofazasining himoya qurilmalari.**

Fuqaro mudofasi qurilmalari dushman tomonidan qirg'in qurollarini ishlatish havfi bo'lgan paytda yoki atom elektr stansiyasida ofat bo'lgan vaziyatda aholini zaxarlovchi radiaktiv moddalardan kimyoviy va bakteriali qurollardan mudofaalanishning ishonchli qo'rg'oni hisoblanadi. Mudofaalanish qurilmalari mudofaalanish usuliga qarab mudofaa joylari va radiatsiyadan panalanish o'rinlariga bo'linadi.

Mudofaa joylari – bu maxsus qurilma yadroviy portlashning zaralovchi faktorlaridan zaxarlovchi moddalardan bakterial qurollardan himoyalaniish vositasidir.

Mudofaa joylari mudofaalanish manzili va radiatsiya quroliga bo'linadi. Bu maxsus joylar zaxarlovchi faktorlardan, shuningdek yuqori issiqlik chiqaruvchi portlovchi bombalardan, gazlardan va o'tlardan insonlarni mudofaalanish uchun quriladi.

Panalanish joylari qoidaga muvofiq ikkidana kam bo'lmagan kirib chiqish eshiklari bilan ta'minlangan bo'ladi. Panalanish joyida bundan boshqacha ofat yuz bergan taqdirda chiqish uchun qo'shimcha eshik qo'yiladi. Keyinchalik o'sha erlarda narvon bilan tashqariga chiqish uchun mo'ljallangan eshikni quyish mumkin. Ko'p o'rinli (300 dan ortiq odam) qurilishlarda quriladigan eshiklarning bittasiga shilyuzli daxliz, zaxarloangan havodan mudofaa qilinadigan sirtqi va ichki shamol kirmaydigan eshiklar jihozlanadi. Bunday joylarning mudofaa qilish xususiyati bemalol kirib chiqishni ta'minlaydi. Havo tozalash sistemasi qoidaga muvofiq havoni janglardan tozalovchi va suzib almashtiruvchi ikki rejimda ishlaydi. U havoni to'liq tozalab, o'z holiga keltiradi. Mudofaalanish joylarida suv bilan ta'minlanuvchi kanalizatsiya, iltuvchi va yorig'lantiruvchi sistemalarning turli tarmoqlari bilan bog'lanishi ixchamlashtiriladi. Ular zararlangan taqdirda o'zidan qarshilik chiqaruvchi ko'chma matorlar bilan yorug'lantiriladi, suv saqlash idishlari, shuningdek iflosliklarni yig'ib solish uchun idishlar bilan ta'minlanadi. Bunda umuman ilqlik ta'minlash choralari ishlanadi. Ulardan tashqari, nazorat uchun komplekslar mudofa kiyimlari, yong'inni o'chiruvchi qurollar va asboblari yig'indisi tayyor xolda saqlanadi.

Radiatsiyadan mudofalanish joylari – bu asboblarni ionlashtirish nurlaridan, radiaktiv zaharlangan erlarda zaxarlanishdan saqlanishni ta'minlaydi. Ular bundan boshqa kuchli portlagichlarga ega nurlardan radiatsiyaning o'tishidan etarli miqdorda portlash to'liqlarining urilishdaridan zaharlovchi radiaktivli moddalarning va bakteriali qurolning ta'siridan saqlaydi. Ko'p qavatli joylarning erto'lalarida radiatsiyadan saqlansa bo'ladi. Bunday saqlanish joylarini kuzatishda ishlab chiqarishdagi temir, beton elementlari, g'isht, yog'och materiallari va toshlar hamda xodalardan foydalanish mumkin.

Radiatsiyadan saqlanish maqsadida barcha yaroqli ashyolardan erto'lalar, poliz maxsulotlari saqlanadigan omborlar, chuqur erlar, shuningdek devorlari panalanish xususiyatiga ega bo'lgan er ustidagi imoratlardan foydalaniladi. Uyning panalash xususiyatlarini ortirish uchun deraza va eshiklarning o'rnini tuproq bilan to'ldirib pana joy ishlanadi. Moboda zarurlik topilsa sirtqi devorning er ustidagi tomoni tekshirilib tuproq bilan ko'miladi.

Barcha eshiklar kigiz bilan yoki yumshoq gazlama bilan tig'iz qilib yopiladi. Panalaniladigan erga (300 odamgacha mo'ljallangan bo'lsa), tabiiy havo oqimi bilan shamollatgich qo'yiladi. Bunda so'ruvchi quti shamollatgichdan 1,5-2 m yuqori qo'yiladi.

Radiatsiyadan panalanish joylarining mudofaalanish xususiyati radiaktiv nurlarining o'jizlik koeffitsienti bilan baholanadi. 4-jadvalda bir qancha joylarning mudofaa xususiyatlari ko'rsatilgan.

| Imoratlarning turlari                                                                                                                                                             | Radiatsiyaning o'jizlik koeffitsienti |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------|
| Birinchi qavatlarining ichidagi xujralar:<br>ham ikki qavatli imoratlar<br>yog'ochdan qurilgan devorlar<br>g'ishtdan qurilgan devorlar                                            | 2<br>5-7<br>50                        |
| Ko'p qavatli joylarning yuqori qavatining ichki xujralari:<br>bir qavatli va ikki qavatli<br>imoratlarning erto'lalari<br>yog'ochdan ishlangan bo'lsa<br>toshdan ishlangan bo'lsa | 7-12<br>200-300                       |
| Ko'p qavatli imoratlarning erto'lalarining o'rtacha bo'limi                                                                                                                       | 500-1000                              |

Erto'lalar bilan uskunalangan imoratlarning ichidagi xujralarning mudofaa xususiyati bir necha metr ga ortadi. SHunday qilib, yog'ochdan tiklangan uylar koeffitsienti taxminan 100 gacha, toshdan ishlangan uylar 800 mingga bqladi. Uskunalangan pana qrni radiatsiyaning 7-12 m ga pasaytiradi. Uskunalangani esa 350-400 m ga kamaytiriladi. Oddiy tozalanish o'rinlariga usti yopilmagan va yorilgan erto'llar kiradi.

Er to'la erning ustidagi imoratlardan yuqori bo'lib, qor, yomg'ir suvlari ichiga oqib ketmaydigan bo'lishi kerak. Er to'la avval tepasi ochiq, bostirilmagan turda quriladi. Uzunasi 15 m dan kam bo'lmaydi. CHuqurligi 1,8-2 m, eni -1,1-1,2 m bo'ladi. Erto'laning uzunligi bir odamga 0,5-0,6 m hisobida belgilanadi. Erto'lada odamlarning o'rtacha joylashishi 10-15 odam, eng kattasida 50 odamgacha joylashadi.

## 2 o'quv savoli. Kimyoviy qurolning zararlash omillari va undan himoyalalanish

CHet el matbuoti ma'lumotlariga qaraganda, zaharlovchi moddalar mo'ljalga avvalo aviatsiya yordamida etkaziladi. Turli xildagi zaharlovchi moddalar bilan to'ldirilgan aviatsion bombalar portlatuvchi moslamalari bo'yicha: zarba ta'sirida portlaydigan va uzoqdan boshqariluvchi (distansion) moslamalar bilan portlaydiganlarga bo'linadi. Zarba ta'sirida portlaydigan kimyoviy aviatsion bombalar havo atmosferasini yoki ma'lum joylarni zaharlashga mo'ljallangan bo'lib, o'zidan fosgen, iprit yoki zoman turidagi zaharlovchi moddalarni tutishi mumkin. Zarba ta'sirida portlovchi aviatsion kimyoviy moddalarning og'irligi odatda 100 kg dan 1000 kg gacha bo'ladi. Bunda bombaning 50% og'irligini zaharlovchi moddalar tashkil qiladi. (1-rasm). Dushmanning tirik kuchini zaharlash uchun ishlatiladigan aviatsion kimyoviy bombalar er yuzasidan bir oz balandroq masofada portlatiladi (distansion portlatuvchi moslamalarga ega bo'ladi). Bu bombalar chidamli zaharlovchi moddalar (zoman, iprit) bilan to'ldirilgan bo'ladi. Bundan tashqarii, kichik vazndagi (3 kg va undan ortiq) kassetali aviatsion bombalar ham qo'llanilishi mumkin. Bu bir nechta kichkina bombalardan iborat bo'lib, ma'lum bir balandliqla kasseta ochilib bu kichik bombalar tarqalib ketadi va erga tushib portlaganda katta joylarni zararlaydi. Kassetali bombalar ta'sirlovchi kuchga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar (CS, CR) bilan to'ldirilgan bo'lib, dushmanning to'plangan kuchlariga ishlatilishi mumkin.

**To'kadigan aviatsion asbobl** (2-rasm) suyuq zaharlovchi moddalar bilan to'ldirilib, samolyot qanotlari yoki fyuzelaji (korpusi) tagiga osiladi va 300-500 metr yuqoridan istehkomlar ustiga sepiladi.

**Raketa vositalari.** Kimyoviy hujum o'tkazish zarurati paydo bo'lganda raketa vositalaridan keng foydalaniladi. A+SH armiyasi qurolli kuchlari kimyoviy qurolni kerakli joyga etkazish uchun boshqarilmaydigan «Onest Djon» va boshqariladigan «Serjant», «Lans» va boshqa raketa vositalariga ega.

Boshqarilmaydigan reaktiv snaryad «Onest Djon»ning uchish masofasi 40 km ni tashkil qiladi. Boshqariladigan reaktiv snaryadlar «Serjant»ning uzoqqa uchish masofasi 47-140 km ni, «Lans»ning uzoqqa uchish masofasi 5-140 km ni tashkil qiladi. Bu reaktiv snaryadlarning (raketa) jangovor qismi kassetadan iborat bo'lib, ular sharsimon shaklli bir qancha bombalardan tashkil topgan (har qaysi sharsimon bombaning og'irligi 0,6 kg bo'ladi) zaharlovchi moddalardan zarin, zoman va boshqalar bilan to'ldirilishi mumkin. Raketaning jangovor kimyoviy qismi 1,5-3 km yuqorida avtomatik ravishda ochiladi va sharsimon bombalar 1 km<sup>2</sup> ga tarqalib ketadi, erga tushib portlaydi va ma'lum bir joyni zirarlaydi.

**Reaktiv minomyotlar** (ko'p stvolli qo'rilmalar)dan otiladigan reaktiv snaryadlar yoki minalar zaharlovchi moddalardan zarin yoki V gazlari bilan to'ldirilgan bo'ladi, qo'llanilganda ko'plab maydonlar va kishilar zararlanadi. +urilmalarning otish uzoqligi 2,7-11 km ni tashkil qiladi.

**Artilleriya kimyoviy snaryadlari va minalari** – (3-rasm). NATO davlatlari armiyalarida hozirgi vaqtda 105, 155, 175, 203, 2 mm li zambaraklar va gaubitsalardan otish uchun ishlab chiqilgan kimyoviy snaryadlar bor. Bu tabeli snaryadlar V-gazlari, zarin, haydalgan iprit va CS (Cu-es) zaharlovchi moddalari bilan to'ldirilgan. Gaubitsalarning uzoqqa otish masofasi 16-18 km, zambaraklarning uzoqqa otish masofasi 32 km ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, 106,7 mm li minomyotlarga mo'ljallangan kimyoviy minalar ishlab chiqarilgan, minomyotlarning uzoqqa otish masofasi 5,5 km.

**Kimyoviy fugaslar** – (4-rasm) dushmanning tirik kuchini, maydonlarni, shuningdek to'siq hamda yo'llarni zararlash uchun qo'llaniladi. NATO davlatlari qo'shinlarida hozirgi vaqtda M-1, M-23, AVS-M23 markali fugaslar saqlanib kelinmoqda. Ushbu fugaslar V-gazlari, zarin va boshqa turdagi zaharlovchi moddalar bilan to'ldirilgan bo'ladi. Portlatilgan vaqtda yaqin 12,5 m<sup>2</sup> va undan ham ko'p maydonni zararlaydi. Bularni portlatish uchun detonatsiyalovchi shnur ishlatiladi.

**Aerazolli generatorlar** havoni zararlash uchun ishlatiladi. Aerazol sifatida asosan zaharlovchi moddalardan Cu-es, Cu-ar, Bi-zet, xloratsetofenon, adamsit va boshqalar qo'llaniladi. Aerazolli generatorlar mashinalarga o'rnatilgan bo'lib, yurgn vaqtida zaharlovchi moddani ikki yoniga va orqasiga sochib yuboradi.

**Kimyoviy qo'l granatalari va tutunli shashkalar** ta'sirlovchi kuchga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar bilan to'ldirilgan bo'ladi, bular asosan namoyish va miting qatnashchilarini tarqatib yuborish uchun qo'llaniladi.

## **ZAHARLOVCHI MODDALARNING ZARAR ETKAZISHIGA OB-HAVO VA JOYNING TA'SIRI**

Havodagi va erdagi zaharlovchi moddaning zarar etkazishiga ob-havo, tuproqning xili va erning past-balandligi katta ta'sir qiladi.

Havo va tuproqning harorati erda chidamli zaharlovchi moddalarning saqlanish muddatiga ta'sir etadi. Past haroratli (qishda) iprit juda sekin bug'lanib ko'klamgacha tuproqda saqlanishi mumkin. YOzda esa iprit bir necha o'n marotaba tezroq bug'lanadi va tuproqda faqat bir necha soat, O'rta Osiyo respublikalari sharoitida esa yanada kamroq saqlanadi.

Saratonda erdagi chidamli zaharlovchi modda tomchilari tez bug'lanadi. Issiqda zaharlovchi moddaning erga cho'kish vaqti kamayadi, havodagi konsentratsiyasi esa oshib ketadi. Havo bulut bo'lib, yomg'ir yog'maganda, sal-pal shamol esganda zaharlovchi moddalar uzoqroq saqlanadi.

Havo va tuproning tekis qizimasligi va sovishi zaharlovchi moda aralashgan havoning tez yoyilishiga sabab bo'ladi. Bu esa dushmanning muayyan joyda yuqori darajadagi zaharlovchi moda konsentratsiyasini vujudga keltirishini qiyinlashtiradi.

Havo ochilib, oftob charaqlab turgan kunlarda zaharlovchi moddalar erdan qazib yuqoriga ko'tariladi va tez yoyilib ketadi. Tunda havo aralashmaydi, bu esa dushmanning chidamsiz zaharlovchi moddasini ishlatishga kulay sharoit tug'diradi. Zaharlovchi moddalar havo kechasi juda sekin yurishib, soylarda, shamol tegmaydigan joylarda, xandaklarda, okoplarda uzok turib koladi.

**Kimyoviy zararlanish o'chog'i** deganda kimyoviy qurol ta'siriga uchragan barcha odamlar, hayvonlar, ob'ektlar, inshootlar, texnikalar, atmosfera, o'simliklar bo'lgan territoriya tushuniladi. Kimyoviy zararlanish o'chog'ining o'ziga xos xususiyati kaysi zaharlovchi moda qo'llanilganiga, shuningdek uni qo'llash usuliga, yil fasliga, ob-havo sharoitiga va ba'zi bir boshqa omillarga bog'lik.

Kimyoviy zararlanish o'chog'ining katakkichikligi, eng avvalo, dushman tarafidan zaharlovchi moddalarning kandy agregat holatda ko'llanihi, shuningdek, qilingan hujumning kuchi bilan belgilanadi. Zaharlovchi moddalarni mo'ljallangan joyga etkazish uchun katta kalibrdagi raketalar va aviabombalar qo'llanilgan takdirda, kimyoviy zararlanish o'choklari juda katta maydonlarda paydo bo'ladi.

Kimyoviy zararlanish o'chog'ining barkoroligi qo'llanilgan zaharlovchi moddalarning turi va uning qo'llash usuli bilan belgilanadi.

*Bekaror kimyoviy zararlanish o'chog'i* chidamsiz zaharlovchi moda – gaz, bug', tuman hoida qo'llanilganda hosil bo'ladi. Bekaror kimyoviy zararlanish o'chog'i zaharlash xususiyatini 3-6 soat mobaynida saklab turadi, shundan keyin o'chokda bo'lish xavfi juda kamayadi. Protivogazni (gaznikob) signal bilan yoki tegishli xabar berilgandan keyin echish mumkin.

*Barkaror kimyoviy zararlanish o'chog'i* dushman tomonidan chidamli zaharlovchi moddalarni suyuq-tomchi hoida yoki yopishkok suyuqlik hoida qo'llanilgan takdirda hosil bo'ladi. Yil fasliga, ob-havo sharoitiga va joyning relefiga karab zaharlovchi moddalar zaharlash xususiyatini bir necha soatdan bir necha xaftagacha va hatto oylargacha saklab turish mumkin.

### **Fizik va kimyoviy xossalari**

Kimyoviy toza zarin rangsiz suyuqlik bo'lib, hidsiz, ba'zi vaktlarda bilinar-bilinmas meva hidiga ega, qaynash harorati 147<sup>0</sup> (yuqori haroratda parchalanadi). Muzlash harorati 30-50<sup>0</sup>S. Texnik mahsuloti jigarrang bo'ladi. Uchuvchanligi 20<sup>0</sup>S da 13,2 mgg'l, uncha turg'un emas, yozda 10 soatgacha saklanishi mumkin. Solishtirma og'irligi 140,1, zichligi suvga nisbatan 1,094 (suvdan og'ir), havoga nisbatan bug'larining zichligi 4,86, ya'ni havodan og'ir. Zarin organik erituvchilar-vodorod, spirt, atseton, xloroform, uglerov tetroxlorid, benzol, efir, toluol va boshkalarda yaxshi eriydi. Suvda o'rtacha eriydi. YAxshi gidrolizlanadi va toksik vodorod ftorid kislotasini hosil qiladi. Bug' va aeroxol sifatida qo'llaniladi.

Zarin ishkoriy muhitda va uni kizdirganda tezda gidrolizlanadi. Ishkorlr va ammiak bilan parchalanadi va shu modda eritmaları bilan degazatsiya kilinadi. Degazatsiya qilish uchun 5% li ishkor eritmasi, 25% li ammiak eritmasi va boshqa eritmalar qo'llaniladi.

Z o m a n, metilfosfin kislotaning pinaklin efiri:

**V-gazlari**, fosfor, kislotaning birikmalari bo'lib hisoblanadi, tarkibida aminotiol guruhi bor.

V-gazlari rangsiz, hidsiz suyuq modda. qaynash harorati 300<sup>0</sup>S, havo bosimining 0,06 mm simob ustunida, 80<sup>0</sup>S da kaynaydi. Uchuvchanligi 20<sup>0</sup>S da 0,003 mgg'l ni tashkil qiladi, ya'ni kam uchuvchan. qo'llanilgan joylarida uzok vaktgacha saqlanib turishi mumkin, yoz kunlari -15<sup>0</sup>S da 3 sutkadan 21 sutkagacha: yomg'ir yokkan vaqtda , ozgina shamol esganda 1 soatdan 12 soatgacha, kish kunlari – 10<sup>0</sup>S da, korli joylarda 1 xaftadan 16 xaftagacha saqlanib turishi mumkin. Muzlash harorati-50<sup>0</sup>S. Havoga nisbatan bug'larning zichligi 1,0725. Suvda

juda kam eriydi (5% ni tashkil qiladi), lekin organik erituvchilarda, yonilg'ilarda, yog'lash uchun ishlatiladigan moylarda, lipidlarda va yog'larda yaxshi eriydi. Bo'yalgan sirtlarga, rezinalarga, g'ovak materiallarga yaxshi kirishadi. Suvda juda kam gidrolizlanadi. Tarkibida xlor moddasini tutuvchi moddalar bilan yaxshi degazatsiya kilinadi, iskorlar bilan degazatsiya kilinish xususiyati kam rivojlangan, V-gazlari aerosol va suyuq-tomchi ko'rinishida ishlatiladi.

**Organizmga tushish yo'llari.** Zarin, zoman va V-gazlari turli yo'llari bilan: nafas yo'llari, xazm yo'li, teri, shilliq pardalar hamda yaralangan yuzalar orqali tushadi. Bu moddalar organizmga tushganda kirish yo'llarida hech kanday morfologik o'zgarishlar ro'y bermaydi va kishiga sezilmaydi. Nafas yo'llari orqali zararlanish sodir bo'lgand bir necha daqiqadan so'ng o'lim yuz beradi. SHuning uchun jang maydonida himoya vositalarini o'z vaktida ishlatish katta ahamiyatga ega.

Bu moddalarning zaharlilik xususiyati 2-jadvalda ko'rsatilgan.

2-j a d v a l

### **Fosfororganik moddalarning zaharliligi (V.V.Myasnikov, S.N. Golikov bo'yicha)**

| Zaharlovchi moddaning nomi | Nafas yo'li orqali zararlanish, uning havodagi konsentratsiyasi mgg'l, daqiqalik ekspozitsiyasi |                               |                                       |                  | Tomchi holatida tushishi, LD 50 |                   |
|----------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|---------------------------------------|------------------|---------------------------------|-------------------|
|                            | mutlaqo o'ldiradigan (CL 100)                                                                   | o'rtacha o'ldiradigan (CL 50) | vaqtincha safdan chikaruvchi (1 C 50) | mioz chaqiruvchi | teriga mgg'kg                   | ust-boshga mgg'kg |
| Zarin                      | 0,1                                                                                             | 0,07                          | 0,055                                 | 0,002            | 5                               | 25                |
| Zoman                      | 0,075                                                                                           | 0,05                          | 0,25                                  | 0,0001           | 0,7                             | 5                 |
| V-gazlari                  | 0,007                                                                                           | 0,001                         |                                       |                  | 0,005-0,1                       | 4-5               |

**Birinchi tibbiy yordam.** O'ziga, o'zaro (bir-biriga), sanitarlar, sanitar instruktorlar tarafidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam:

1 Protivogaz kiyish, agar zaharlovchi modda yuzga tushsa yuzga ximiyaga qarshi individual paket (IPP-8, IPP-10) bilan ishlov berilgandan so'ng protivogaz kiygiziladi;

2 Kishi tanasining ichik joylariga vash u erga tegib turadigan ust-boshga individual paket (IPP-8, IPP-10) yordamida kisman sanitariya ishlovi beriladi;

3 Ziddi-zahar shprints-tyubik yordamida zudlik bilan (bir shprints-tyubik) mushaklar orasiga yuboriladi;

4 Zararlanganlarga sun'iy nafas oldiriladi (zararlangan joyda ko'l usuli bilan o'tkaziladi);

5 Zararlangan o'choqdan zudlik bilan olib chiqib ketiladi.

**SHifokorgacha bo'lgan yordam (batalon tibbiy punktida BTP).**

5 Afin, budaksim kayta mushaklar orasiga (bir shprints-tyubik) yuboriladi;

6 Zararlangan kishilarga ko'shimcha ximiyaga qarshi individual paket yordamida kisman sanitariya ishlovi o'tkaziladi;

7 Nafas olish buzilganda yoki to'xtab kolganda o'pka sun'iy ventilyasiya kilinadi.

### **Vaqtincha qilinmaydigan tadbirlar:**

1. Ko'zga 1% li atropin eritmasi yoki 0,5% li amizil eritmasi tomizilmaydi;

2. Zaharlanishning o'rtacha darajasida papaverin va belladonna preparatlari ichishga berilmaydi;

3. Og'ir hollarda antibiotiklar yuborilmaydi;

4. Engil zararlanganlarga va engil kasallarga to'lik sanitariya ishlovi o'tkazilmaydi;

5. Vitamin preparatlari yuborilmaydi;

6. Jigar va buyrak faoliyati buzilishining oldini oluvchi preparatlar va davolovchi preparatlar yuborilmaydi.

### **Terida yara paydo qilish ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar**

Terida yara paydo qilish ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalarga iprit, azotli iprit va lyuizit kiradi. Hozirgi vaqtda chet El armiya ko'shinlarida iprit tabeli qurol sifatida qabul qilingan va agar kimyoviy urush boshlansa uni qo'llash lari mumkin. Azotli iprit va lyuizit esa tabelga kiritilmagan zaharlovchi moddalar guruhiga kiradi.

Iprit ham huddi fosfororganik moddlalar kabi nafas yo'llari, me'da-ichak, teri, shilliq pardalar hamda yarali yuzalar orqali organizmga tushib og'ir zaharlanishlarga sabab bo'ladi. Ipritning terida yara paydo qilish ta'siriga ega bo'lgan zaharli moddalar guruhiga dahldor ekanligi uning terida pufaklar paydo qilib, teri qavatlarini shikastlanishiga bog'liq. Bundan tashqari, u organizmga umumiy ta'sir (rezorbtiv) ko'rsatish qobiliyatiga ega. SHuning uchun bu turdagi zaharlovchi moddalarni rezorbtiv ta'siriga ega bo'lgan moddalar deb atash to'g'riroq bo'ladi.

### **Fizik va kimyoviy xossalari**

**Iprit** – dixeloridetsulfid, oltingugurt tutuvchi modda bo'lib hisoblanadi.

Kimyoviy toza iprit moysimon rangsiz suyuqlik bo'lib, bilinar-bilinmas hidi bor, tozalanmagan texnik iprit esa qoramtir-ko'ng'ir rangli, sarimsoq yoki hantal hidli moysimon suyuqlikdir. Qaynash harorati-217<sup>0</sup>-219<sup>0</sup>S ni tashkil etadi, shuning uchun juda sekinlik bilan bug'lanadi va turg'un zaharlovchi moddalar qatoriga kiradi. Toza ipritning muzlash harorati 13,9-14,4<sup>0</sup>S, texnik ipritniki esa 4-12<sup>0</sup>S ni tashkil etadi. Havoga nisbatan bug'larining zichligi 5,5, uchuvchanligi 20<sup>0</sup>S da 0,9 mgg'm<sup>3</sup> ga to'g'ri keladi. Suvdan 1,3 barobar og'ir, eruvchanligi 10<sup>0</sup>S da 0,07% ni tashkil etadi. Organik erituvchilar-spirt, atseton, xloroform, benzol, efir, toluol va boshqalarda yaxshi eriydi. SHuningdek, ba'zi zaharli moddalarda eriydi va ularni eritish xususiyatiga ega.

**Azotli iprit** –(trixlortriethylamin) tuzilishi, organizmga ta'siri ipritga o'xshash zaharli moddadir. U ipritga karaganda turg'unroq o'izik va kimyoviy xossalari jihatidan kam fark qiladi, faol xlor saklovchi moddalar bilan degazatsiya kilinadi.

**Zaharli dozalari.** Iprit organizmga nafas yo'llari, hazm yo'li, teri shilliq pardalari hamda kuygan, jarohatlangan yuzalar orqali tushib zaharlanishga olib keladi. Kishi organizmiga kirganda hech qanday yomon his-tuyg'u tug'dirmaydi, zararlanish sekin-asta rivojlanadi, yashirin davrning davom etishi bir soatdan to bir necha sutkagacha cho'zilishi mumkin.

Iprit suyuq tomchi holida 0,1 mg/kg konsentratsiyadagi iprit o'limga sabab bo'ladi.

5-j a d v a l

### **Iprit bug'larining odamga ta'siri (Flyuri va Sernik bo'yicha)**

| Konsentratsiyasi<br>mgg'l | Ekspozitsiyasi | Ta'siri                                                 |
|---------------------------|----------------|---------------------------------------------------------|
| 0,0005                    | 10-25 daqiqa   | Ko'zga, teriga engil qichishtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. |
| 0,001                     | 1-2 soat       | Jiddiy o'zgarishlar bo'lmaydi                           |
| 0,001                     | 8-10 soat      | Safdan chiqarish mumkin                                 |
| 0,0065                    | 1 soat         | O'pkaning jiddiy shikastlanishi kuzatiladi              |
| 0,07                      | 30 daqiqa      | O'limga olib keladi                                     |

### **Ipritdan umumiy zaharlanganlarga davolash**

Ipritdan og'ir zararlanganda u organizmga umumiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda markaziy nerv sistemasida va boshqa a'zolar faoliyatida o'zgarishlar kelib chiqadi. Nafas markazining

faoliyati susayganda teri ostiga 1 ml kordiamin eritmasi yoki 0,5% li bimegridning 10 ml eritmasi venaga yuboriladi. Kordiamin teri ostiga yuborilganda nafas markazini qo'zg'atadi va shu bilan birga yurak-qon tomir sistemasi faoliyatini yaxshilaydi.

O'tkir yurak-tomir etishmovchiligida venaga 0,06% li korglikolnning 0,5-1 ml eritmasi 20 ml 20-40% li glyukoza eritmasi bilan birga yuboriladi. Keyinchalik venaga tomchilab (daqiqasiga 20-40 tomchi) 5 ml 1% li noradrenalin eritmasi 500 ml izotonik eritma bilan birga yoki shuncha mikdor 5% li glyukoza eritmasida yuboriladi. Agar dori yuborilayotganda arterial bosim ko'tarilmasa dori yuborish tezligini daqiqasiga 50-70 tomchigacha oshirish mumkin. Teri ostiga 1 ml 20% li kamforaning yog'li eritmasi yoki 1 ml 20% li kofein eritmasi yuboriladi, kislorod hidlashga beriladi.

**Birinchi tibbiy yordam** (o'ziga, o'zaro bir-biriga, sanitarlar, sanitar instruktorlar tarafidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam):

1 Protivogaz kiyish. Agar zaharlovchi modda yuzga tushgan bo'lsa zararlanganlarning yuz qismiga ximiyaga qarshi individual paket (IPP-8, IPP-10) bilan ishlov beriladi, ko'zga tushganda esa suvdondagi suv bilan yuviladi, so'ngra protivogaz kiyiladi;

2. Ximiyaga qarshi individual paketlar (IPP-8, IPP-10) yordamida qisman sanitariya ishlovi o'tkaziladi;

3 Og'iz orqali zaharlanganda zararlanmagan joylarda «zondsiz» usul bilan me'da yuviladi. Buning uchun zararlangan odamga 3-4 stakan suv ichirilib, barmoqlar bilan til ildizini ta'sirlantirib qayt qildiriladi.

### **Psixokimyoviy ta'sirga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar**

Psixokimyoviy zaharli moddalar kishi a'zolariga ta'sir etmasdan uning ruhiyatiga ta'sir qiladi. Bu moddalardan zaharlangan kishi ongini yo'qotadi, xotirasi pasayib ketadi, bu moddalardan kuchliroq zaharlanganda esa nerv markazlari qattiq zararlanadi. Xullas, bunday moddalarning har qanday dozasi odamning mehnat va jangovorlik qobiliyatini yo'qotishiga sabab bo'ladi.

CHet el harbiy mutaxassislarining fikricha, ushbu moddalar ishlatilganda harbiy shtablarning ish faoliyati vaqtincha buziladi, qurolli kuchlar ichida tartibsizlik ro'y beradi.

### **Bz (bi-zet) 1. Fizik va kimyoviy xossalari**

BI-ZET rangsiz ok kristallik modda, hidi yo'k. Toza preparatning suyuklanish harorati 190<sup>0</sup>S, qaynash harorati 412<sup>0</sup>S, zichligi 1,8 gg'sm<sup>3</sup>, suvda yomon eriydi. Jang maydonlarida, aerosol sifatida qo'llaniladi. Havodagi 0,11 g/m<sup>3</sup> konsenrratsiyasidan bir daqiqa davomida nafas olinsa, psixoz kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Organizmga ingalyasion yo'l bilan tushadi, ba'zan suv va ovqat bilan ham tushishi mumkin.

#### **Bz (bi-zet) ning ta'sir mexanizmi.**

Bu moddalar organizmga tushganda atropinga xos ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun markaziy ta'sir ko'rsatuvchi bo'lib hisoblanadi, periferik ta'siri kuchsiz namoyon bo'ladi.

Laboratoriya hayvonlariga tekshirish uchun yuborilgan radioaktiv izotoplar va BZ moddasining maksimal konsentratsiyasi 2,5 daki-adan so'ng miya strukturasida kuyidagicha: ola-bula jismda > katta yarim sharlarda> gippokampda > gipotalamusda> kichik miyada tarqalishi aniklangan.

Ma'lumki, organizm hayot faoliyatida, anikrog'i, ko'zg'alishlarning bir nerv xujayrasidan boshqasiga yoki nerv oxiridan ijrochi a'zo xujayrasiga o'tishida mediatorlarning ahamiyati katta. Atsetilxolin mediator nerv impulsini bir strukturadan ikkinchisiga o'tkazishda ishtirok etadi. BZ- zaharlovchi modda organizmga tushganda miyadagi muskarin sezuvchi xolinoretseptorlarni bog'lashi natijasida markaziy nerv sistemasi sinapslarida atsetilxolinning mediatorlik funksiyasi buziladi. Bunda markaziy nerv sistemasiga atrofdan keladigan xabarlarni qabul qilish jarayoni buziladi, bu esa organizmda psixik holat paydo

bulishiga olib keladi. Bundan tashqari, zaharlovchi moddalar fakat xolinoretseptorlarni blokada kilib kolmay, miyadagi xolinatsetilaza fermenti faolligini ham pasaytiradi. Natijada atsetilxolin sintezi markaziy nerv sistemasi sinapslarida kamayadi, parchalanishi ko'payib ketadi, buning natijasida miyada atsetilxolin mikdori keskin pasayib ketadi.

#### **Klinik manzarasi**

Bu moddalar organizmga tushganda atropinga xos ta'sir qiladi. Zaharlanishning dastlabki belgilari vegetativ, somatik va psixik buzilishlar hisoblanadi. Taxikardiya, og'iz qurishi, tashnalik, teri qizarishi, ko'z qorachig'ining kengayib ketishi kuzatidadi. Ataksiya ro'y beradi, atrofga befarq bo'lib qoladi va fikr chalkashligi ro'y beradi. Kasallik klinikasida vegetativ o'zgarishlar ko'proq bo'ladi. Zaharlanish darajasi, zaharlovchi moddaning havodagi konsentratsiyasiga bog'liq bo'lib, zaharlanish engil, o'rta va og'ir darajada o'tadi.

Enrill zaharlanishda qo'zg'alishlar yoki depressiya, mastlik belgilari, kayfiyatning ko'tarinki bo'lishi (eyforiya), xotiraning buzilishi va diqqatning susayishi, ko'z qorachig'ining kengayishi, shilliq pardalarning qurishi, ishonchsiz qadam tashlash, nutq buzilishi kabi holatlar kuzatiladi.

O'rta och og'irliklagi zaharlanishda klinik belgilar zaharlanishdan 2-4 soat keyin paydo bo'ladi va 12 kun davom etadi.

Og'ir darajadagi zaharlanishda klinik belgilar zaharlanishdan 15-20 daqiqa o'tgach paydo bo'ladi. 3-5 sutka davomida to'liq rivojlanadi.

#### **Davosi**

**Birinchi tibbiy yordam** (o'ziga, o'zaro, sanitarlar, sanitar, instruktorlar tarafidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam):

- protivogaz kiyish yoki kiydirish;
- ximiyaga qarshi individual paket (IPP-8, IPP-10) yordamida kisman sanitariya ishlovini o'tkazish;

- telik bilan zararlanish o'chog'idan chikish va olib chiqib ketish.

SHifokorgacha bo'lgan yordam (batalon tibbiy punktida (BTP):

- protivogaz kiyimsh yoki kiydirish;
- ximiyaga qarshi individual paket (IPP-8, IPP-10) yordamida kisman sanitariya ishlovi o'tkazish;

- tezlik bilan zararlangan o'chokdan olib chiqib ketish;
- psixomotor ko'zg'alishlar paydo bo'lganda 1-2 ml 0.2% li triftazin eritmasi mushaklar orasiga yuboriladi;

- yurak-qon tomir etishmovchiligi rivojlanganda yurak faoliyatini yaxshilovchi moddalar, analeptiklar (1 ml 0,05% li strofantin eritmasi yoki 1 ml 0,06% li korglikon eritmasi, 2 ml 10% li kofein eritmasi, 2 ml kordiamin eritmasi) mushaklar orasiga yuboriladi.

#### **Ta'sirlantirish kuchiga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar.**

Ta'sirlantirish kuchiga ega bo'lgan zaharlovchi moddalarga yuqori nafas yullari shilliq kavati, kon'yuktiva va ko'z muguz pardasining sezuvchi nerv oxirlariga tanlab ta'sir kiluvchi kimyoviy birikmalar kiradi. Bu moddalar ularning fiziologik ta'sir mexanizmiga ko'ra g'ayriixtiyoriy zaharlar deb ham ataladi, chunki bu moddalar sezuvchi nerv oxirlarini tez kitiklab nafas olish a'zolari, ovkat hazm qilish va yurak-tomir sistemasi tarafidan g'ayriixtiyoriy reaksiyalar kelib chikishiga sabab bo'ladi. Tez kechuvchi g'ayriixtiyoriy reaksiyalar organizm muvozanatining, o'zining ta'sirlanish vaqtiga qarab butunlay yoki ma'lum darajada buzilishiga olib keladi. Kishi organizmi tashqi kimyoviy qitiqlovchi moddalarga sezgirdir, a'zolarining ichida eng sezgiri nafas olish, ko'z shilliq pardasi va hazm a'zolaridir.

Ta'sirlantiruvchi moddalarning lipidlarda erishi nerv oxirlariga ayniqsa kuchli ta'sir qiladi, shuning uchun lipidga boy bo'lgan nerv oxirlarida zaharlovchi moddaning yuqori konsentratsiyasi hosil bo'ladi. Zaharlovchi moddalar organizmda keltirib chiqaradigan klinik

manzarasiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. YUqori nafas yo'llari va burun shilliq pardasiga ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar (sternitlar yoki aksirtiruvchilar).

2. Ko'z shilliq pardasiga ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar (ko'zdan yosh chikaruvchilar yoki lakrimatorlar).

**Adamsit** - difenilaminoklorarsin.

Kimyoviy toza adamsit sarik rangli kristall modda-yashil rangli texnik preparat. Solishtirma og'irligi 1,65, erish harorati 195°S, qaynash harorati 410°S. Suvda erimaydi, organik erituvchilarda yomon eriydi. Suv va ishqorlar ishtirokida sekin gidrolizlanadi, gidroliz natijasida hosil bo'lgan modda huddi adamsitga o'xshash kuchli zaharlovchidir. Metallar bilan reaksiyara kirishmaydi. Tarkibida mishyak borligi uchup unitiol ziddi-zahar bo'lib hisoblanadi. Boshida zaharli moddalarga qaraganda yuqori nafas yo'llariga uzoq muddat ichida rivojlanuvchi ta'sir ko'rsatadi. Ta'sirlash konsentratsiyasi 0,001-0,005 mg.

#### **Ta'sir mexanizmi**

Kam yoki o'rta konsentratsiyadagi kristalik arsin moddasi yuqori nafas yo'llari va burun shilliq pardalaridagi suyuqliklarda eriydi va to'planadi. U nervoxiridagi lipoidlar bilan birikib nafas yo'llarida yuqori konsentratsiyaga ega bo'lgan zaharli o'choqlarni hosil qiladi. Klinik belgilari ularning lipoid saqllovchi nerv oxirlari bilan birikishiga bog'liq bo'ladi, agar zaharlovchi modda lipoidlar bilan biriksa, tezda klinik belgilar paydo bo'ladi. Latent davrning uzoqligi zaharlovchi moddaning havodagi konsentratsiyasiga ham bog'lik bo'ladi. Agar zaharli moddaning havodagi konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, patent davr bo'lmasligi mumkin. Aksincha, kam mikdordagi zaharli modda ta'sir etganda latent davr 2-4 daqiqaga cho'zilishi mumkin. Latent davrning davomiyligi qo'llanilayotgan arsinlarning kimyoviy strukturasiga ham bog'likdir. Masalan, adamsit boshqa arsinlarga qaraganda sekinroq ta'sir qiladi, ta'sirlanish alomatlari 5-10 daqiqadan keyin paydo bo'ladi. Hatto zaharlanish o'chog'idan olib chiqib ketilganda ham 10-30 daqiqadan so'ng ta'sirlanish belgilari ko'rinadi.

#### **Davosi**

Arsinlardan zararlanganda nafas yo'llarini himoyalash uchun tuzilishida tutunga qarshi filtrlari bo'lgan protivogaz (gaznikob) ishlatiladi, bu kog'oz filtrlar zaharlovchi modda zarrachalarini o'zida ushlab qoladi. Zaharlovchi moddaning yuqori konsentratsiyasi, terini kam shikastlashi uchun maxsus himoya kiyimi va ko'lkoplardan foydalanish kerak. Arsinlardan zararlanganda tezda zararlanish o'chog'idan chiqib ketish yoki zararlangan kishilarni olib chiqib ketish zarur, iloji bo'lsa ustki kiyimlarni almashtirish kerak, chunki u zaharlovchi modda zarrachalarini adsorbsiya qilish xususiyatiga ega.

Zaharlangan atmosferada tezlikda fitsillin yoki tutunga qarshi aralashmaning ampuladagi eritmasi (40 g xloroform + 40 g etil spirti + 20 g oltingugurt efiri va 5 tomchi nashatir spirti) hidlatiladi. Buning uchun ampulaning uchi doka bilan eziladi va ampula protivogaz shlem-niqobi ichiga qo'yiladi. Agarda tutunga qarshi aralashma ishlatilgandan keyin ham klinik belgilar yo'qolmasa, 5-10 daqiqadan so'ng qaytadan ushbu aralashma ishlatiladi.

**Birinchi tibbiy yordam** (o'ziga, o'zaro va sanitarlar, sanitar instruktorlar tarafidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam):

*zararlanush o'chog'ida:*

Protivogaz kiyiladi;

- nafas yo'llari ta'sirlanganda protivogaz shlem niqob ichiga 1-2 ampula tutunga qarshi aralashma (40 g xloroform, 40 g etil spirti, 20 g oltingugurt efiri va 5 tomchi nashatir spirti) yoki 1 ml fitsilin qo'yiladi.

#### **Umumiy zaharlash ta'siriga ega bo'lgan va zaharlovchi moddalar**

Umumiy zaharlash ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalarga *suanud* kislota va *xlorsian* kiradi. Sianid kislotani shved olyami Karl Sheele birinchi bulib 1782 yilda sintez kilgan. Aytishlaricha, u 4 yildan so'ng shu zaharli modda bilan tajriba o'tkazayotgan vaqtda

zaharlanib halok bo'lgan. Sianid kislotaning zaharlash xususiyati kadim zamonlardan ma'lum. Masalan; YUnoniston koxinlar tabakasi shaftoli daraxti bargidan zaharli essensiya tayyorlab, aybdor kishilarni shu moddabilan o'ldirganlar.

Sianid kislota birinchi jahon urushi davrida fransuz ko'shinlari tomonidan Somme daryosi bo'yida nemis ko'shinlariga qarshi (7 iyul 1916 yilda) ishlatilgan. U kam natija berishiga karamasdan hozirgi vaqtda chet el harbiy kimyogarlari bu modda ustida katta tekshirish ishlari olib borishmokda. Bunga sabab zaharlanish klinikasi tez rivojlanib, jang maydonlarida bir necha daqiqa ichida o'lim ro'y berishidir. Ikkinchi jahon urushi davrida nemis fashistlari asirga tushgan ko'plab kishilarni o'ldirish uchun gaz kameralarida sian chumoli kislotasi efirlari, metilli «siklon A» va etilli «siklon B» ni ishlatganlar.

### **Fizik va kimyoviy xossalari**

#### **Sianid kislota (HCN).**

**Kimyoviy nomlari:** sianli vodopod; sianli vodorod kislotasi; sianid kislota.

Sianid kislota rangsiz, uchuvchan, achchik bodom hidiga ega bo'lgan suyuqlik. qaynash harorati  $+25,7^{\circ}\text{S}$ , shu sababli havoda tezda bug'lanadi. Muzlash harorati  $13,4^{\circ}\text{S}$ . Bug'ining zichligi havoga nisbatan 0,93 ni tashkil qiladi, ya'ni havodan engil. Bug'lari faollashgan ko'mir yordamida yomon shimiladi, g'ovakli materiallarga yaxshi shimiladi. Ishlatilgan joylarida yoz vaktida 20-30 daqiqagacha saqlanib qolishi mumkin, noturg'un zaharlovchi modda bo'lib hisoblanadi. Suvda, organik erituvchilarda, fogsenda, ipritda va boshqa zaharlovchi moddalarda yaxshi eriydi.

**Xlorsian. Kimyoviy nomlari:** sian kislotaning xlorangidridi; xlorsian; xlorli sian.

Brom sian ( $\text{BrCN}$ ) - rangsiz yoki sarik rangli kristall modda bo'lib, o'tkir hidga ega. qaynash harorati  $+1,3^{\circ}\text{S}$ , erish harorati  $+52^{\circ}\text{S}$ . Bug'i havodan 3,7 barobar og'ir. Birinchi jahon urushida (1916 yil) avstro-venger ko'shinlari 25% li brom sian, 25% li brom atseton va 50% li benzol aralashmasini ishlatganlar.

#### **Ta'sir mexanizmi va shikastlanish patogenezi.**

Sianid kislota bug'lari nafas yo'llari orqali o'pkaga tushadi va alveolalardan tezda surilib o'tib, zaharlanib qolishga sabab bo'ladi. Zaharlanish natijasida venoz qon tarkibida arterial qon tarkibiga qaraganda kislorod miqdori oshib ketadi va qirmizi ranga kiradi. Goppe-Zeyler, Gepner va Varburglarning tekshirishlaricha bunday hol to'qima oksidlovchi fermenti bo'lmish sitoxromoksidaza ( $\text{sitoxram a}_3$ ) fermentining sian guruhi bilan bog'lanishi tufayli yuzaga kelar ekan. Sitoxromoksidaza fermenti inaktivatsiyaga uchraydi va kislorodning qondan to'qimalarga o'tish xususiyati yo'qoladi, natijada to'qima gipoksiyasi rivojlanadi. qon tarkibida kislorod miqdori ko'p bo'lishiga karamay, to'qima larning nafas olishi keskin pasayib ketadi.

Sian guruhi sitoxromoksidaza ( $\text{sitoxrom a}_3$ ) tarkibidagi oksidlangan uch valentli temir bilan juda oson birikadi. Natijada kislorodning faollanishi yo'qoladi, to'qima larda nafas olish susayadi, to'qimalar gipoksiyasi paydo bo'ladi.

#### **Klinik manzarasi.**

Zaharlanish darajasi sianid kislota bug'lari konsentratsiyasi, ta'sir qilish vaqti, organizmning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lib, zaharlanish engil, o'rtacha va og'ir darajada o'tadi.

Engil darajadagi zaharlanish zaharlovchi moddaning havodagi kam konsentratsiyasi qisqa vaqt ekspozitsiya qilinganda sub'ektiv buzilishlar bilan ifodalanadi: og'izdan noxush, taxir, achchik bodom ta'mi keladi, tinka-mador qurib, bosh aylanadi. Bir necha vaqtdan so'ng shilliq qavatlarda uvishib qolishni his etish sezgisi, ko'p so'lak oqishi, ko'ngil aynishi paydo bo'ladi. Tomoq, traxeyada va to'sh ortida timdalanish hamda ko'krak qisilishi sezgisi kuzatiladi.

O'rtada darajadagi zaharlanishda to'qimalarning kislorodga tanqisligi simptomlari yaqqol ko'rinadi. YUqorida aytib o'tilgan klinik simptomlar zaharli havo bilan nafas olinganda tezda namoyon bo'ladi, zararlanganlarda qo'zg'alish paydo bo'ladi, odam o'lim

vahimasiga tushib qoladi. CHakka arteriyalarining urishi, quloq shang'illashi, bosh og'rishi paydo bo'ladi. To'sh orkasida, yurak sohasida og'riklar paydo bo'ladi, nutk buziladi, so'lak okishi kuchayib, mushaklarda zaiflik kuzatiladi. Ko'ngil ayniydi va kusish rivojlanadi.

Og'ir zaharlanish belgilari tezda rivojlanadi, talvasalar paydo bo'ladi, hatto o'lim kuzatilishi mumkin. Og'ir zaharlanish klinikasi sxema tarzida to'rt boskichga bo'linadi:

a) **boshlang'ich bosqich** - yashirin davrsiz yuzaga keladi, zaharlanganlar og'izda nohush, taxir, achchiq bodom ta'mini sezadi, tezda ko'krak qisilishi, quloq shang'illashi, bosh aylanishi, behollik, chakka arteriyalar pulsatsiyasi, ko'ngil aynishini sezadilar. Besaranjomlik paydo bo'ladi, yurak tez uradi. Bu tezda hansirash bosqichiga o'tadi;

b) **hansirash bosqichi** - kislorod tankslngi keskin rivojlanganligi bilan ifodalanadi (to'qima gipoksiyasi): azobli hansirash paydo bo'ladi, teri kavatlar va shillik kavatlar pushti rangga kiradi. Nafas olish teztez va chukurlashgan bo'ladi, yurak sohasida xurujsimon og'rik paydo bo'lib, puls sekinlashadi, taranglashganligi aniklanadi. Zararlangan odamda o'lim vahimasi paydo bo'ladi, ko'z korachiklari kattalashib ketadi. YUz mushaklari tortishib, ba'zi mushaklarning rigidligi paydo bo'ladi, es-hush xiralashadi, besaranjomlik paydo bo'ladi;

v) **talvasalar bosqichi** - zararlangan odamning ahvoli keskin yomonlashib ketadi. Ekzoftalm paydo bo'ladi, nafas olish sekinlashadi va aritmik tus oladi. Butun tanada tonik va klonik tortishishlar kuzatiladi. Ko'z korachig'i kengayib, korneal reflekslar yo'koladi, kishi hushidan ketadi. Og'izdan ko'p so'lak okadi. Teri kavatlar va shillik kavatlar och pushti rangga kiradi. Bexosdan siydik ajralishi hamda defekatsiya kuzatiladi. Talvasalar bosqichi bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Agar shu boskichda tibbiy yordam ko'rsatilmasa, tezda falajlanish bosqichiga o'tadi;

g) **falajlanish bosqichi** - bu boskichda mushaklar tortishishi yo'qoladi va ularning bo'shashishi kuzatiladi. Reflekslar yo'qolib ketishi tufayli adinamik holat yuzaga keladi. Nafas olish keskin pasayib ketadi, yuzaki bo'lib qoladi. Arterial bosim keskin tushib, puls ipsimon, tezlashgan bo'lib qoladi. Zararlanganlar og'ir komatoz holatga o'tadi, reflekslar qisman yoki to'liq yo'qoladi, o'z-o'zidan siydik ajralishi va defekatsiya kuzatiladi. SHundan so'ng nafas markazi falajlanishi tufayli nafas olish to'xtaydi. YUrak qisqarishi 3-5 daqiqa mobaynida kuzatilib turishi mumkin, keyin yurak urishi to'xtaydi. Agarda zaharlanganlarga shu vaqt ichida tez yordam ko'rsatilsa, ularning hayotini saqlab qolish mumkin.

### **Davosi**

Kimyoviy zararlanish o'chog'ida sianid kislota va uning 6irikmalaridan o'tkir zaharlanish ro'y bergan vaqtda zaharlangan kishiga zudlik bilan protivogaz kiygizilib ular shu zararlangan atmosferadan tezlik bilan olib chiqib ketilishi kerak. O'tkir zaharlanish simptomlari namoyon bo'lishiga karab kuyidagi oshig'ich tibbiy yordam tad6irlari o'tkaziladi:

- ziddi-zaharlarni qo'llash orqali organizmga tushgan zaharli moddani zararsiz holga keltirish;

- organizmdagi zaharni zudlik bilan tashqariga chiqarish;

- kerak bo'lgan vaqtda sun'iy nafas oldirish ishlari o'tkaziladi;

- organizmning asosiy hayotiy muhim a'zolarini quvvatlab turish uchun dori-darmonlar yuborib turiladi.

### **Bo'g'uvchi ta'sirga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar.**

Bo'g'uvchi ta'sirga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar birinchi marta birinchi jahon urushi davrida nemis ko'shinlari tarafidan kimyoviy qurol sifatida ingliz va fransuz ko'shinlariga qarshi 1915 yil 22 aprelda ishlatilgan. Bunda xlor moddasi qo'llanilgan edi, xlor gazining ta'siri kam bo'lganligi uchun 1915 yilning dekabr oyida nemis ko'shinlari fosgen, difosgen va xlor-pikrin moddasini ishlatganlar.

Keyinchalik yangi zaharlovchi kimyoviy moddalar sintez qilinganligi sababli, bo'g'uvchi ta'sirga ega bo'lgan zaharlovchi moddalarga chet el harbiy mutaxassislarining e'tibori ancha kamayib ketgan edi. Hozirgi vaqtda olingan ma'lumotlarga qaraganda, bu zaharlovchi moddalarga qiziqish yana ortib bormokda. Uning fizik va kimyoviy xususiyatlarini

yaxshilash ustida ko'p ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Kimyo sanoatida xlor ko'p miqdorda ishlab chiqariladi. Undan qishloq xo'jaligida, kasalliklardan, zararkunanda va begona o'tlardan asrash uchun (geksaxlorsiklogeksan, polixlorpinin, polixlorkampfen, geptaxlor, keltan, ditoks, milbeks va boshqalar) pestitsidlar sifatida ishlatib kelinmoqda. Kog'oz ishlab chiqarishda, qog'ozlarni oqartirish uchun toza xlor ishlatiladi. Tibbiyotda xlorli birikmalar keng miqdorda dezinfeksiya ishlarini o'tkazishda ishlatiladi. SHuning uchun xlor ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari harbiy maqsadda ishlatiladigan fosgen va difosgen ishlab chiqarish ga o'tishga ko'p mablag' talab qilmaydi.

Hozirgi vaqtda NATO davlatlari ko'shinlarida fosgen moddasi tabelli kimyoviy qurol sifatida qabul qilingan .

Xlorpikrin moddasi protivogazlarni tekshirish uchun o'kuv zaharlovchi moddasi sifatida qo'llaniladi.

### **Fizik va kimyoviy xossalari**

Fosgen - ko'mir kislotasining xlorangidridi.

**Kimyoviy nomlari:** karbonilxlorid; uglerodning xlorli oksidi Fosgen birinchi marta 1812 yilda ingliz olimi Devi tarafidan uglerod oksidi va xlorga kuyosh yorug'ligi ta'sir ettirib olingan, fosgen grekcha «yorug'liklan tug'ilgan» degan ma'noni bildiradi. Birinchi marta kimyoviy qurol sifatida 1915 yilning dekabrda ishlatilgan. Halok bo'lganlar 80% iga shu zaharlovchi modda ta'sir ztgan.

Fosgen 8,2 °S haroratda suyuqlik holatida bo'ladi, bundan yuqori haroratda tezda bug' holatiga o'tadi, rangsiz suyuqlik, kam konsentratsiyasi o'ziga xos chirigan olma yoki chirigan pichan hidiga ega. Bug' holatidagi fosgen havodan 2,48 barobar og'ir.

Suvda tez gidrolizlanadi, kizdirilganda gidroliz tezlashadi va zaharsiz modda hosil bo'ladi.

Ishkorli muhitda gidrolizlanish tezda o'tadi, bu reaksiyadan fosgenni aniqlashda foydalaniladi.

Fosgen ammiak bilan reaksiyaga kirishib, zaharsiz mahsulot hosil qiladi.

**Difosgen** ko'mir kislotasining uchxlorometil efiri.

**Kimyoviy nomlari:** xlorli chumoli kislotaning uchxlorometilli efiri; uchxlorometilxlorformiat; uchxlorometilxlorkarbonat; ko'mir kislotaning xlorangidrid uchxlorometilli efiri.

**SHartli nomlari va shifrlari:** difosgen; DP Difosgen birinchi marta 1847 yili O. Kaur (Fransiya) tomonidan olingan. Birinchi jahon urushida difosgen juda ham keng miqdorda toza holidagi, xlorpikrin moddasi aralashmasi va tutun hosil kiluvchi moddalar bilan birgalikla ishlatilgan va mo'ljalga zambarak snaryadlari va minalarda etkazilgan. Birinchi marta nemis ko'shinlari tomonidan fransuz ko'shinlariga qarshi (Verden shahri yaqinida) 1916 yilning iyun oyida qo'llanilgan.

Birinchi jahon urushi davrida keng ishlatilgan, fakat Germaniyaning o'zi urush yillari 16000 tonna difosgen ishlab chikargan.

Toza kimyoviy difosgen rangsiz suyuqlik bo'lib, qaynash harorati 127°S, muzlash harorati - 57°S, huddi fosgenga o'xshab chirigan olma yoki chirigan pichan hidiga ega.

Difosgenning texnik mahsuloti sarik yoki qo'ng'ir rangdagi suyuqlik, molekulyar og'irligi 198.

**Kimyoviy xossasi** fosgenga o'xshash. Difosgen ko'mir kislotasining metil efirini xlorlash bilan olinadi.

Bu guruhga fosgen va difosgendan tashqari trifosgen va fosgenoksim moddalari ham kiradi.

**Trifosgen** o'zining toksikligi va kimyoviy xossalari bilan fosgenga o'xshash. Fizik xossasi bo'yicha – bu qattiq modda bo'lib, erish harorati 79°S, qaynash harorati (bunda parchalanadi) 205-206 °S. Suvdan ikki barobar og'ir, yomon eriydi, organik eritmalarda yaxshi eriydi.

**Fosgenoksim** rangsiz qattiq kristallik modda, erish harorati 39-40 °S, qaynash harorati 129 °S, suvda va organik eritmalarda yaxshi eriydi. Suvda yaxshi gidrolizlanadi, xlorid kislotaning gidroksilaminini, xloridkislota va uglerod (11)- oksidni hosil qiladi:

**Xlor** (S1<sub>2</sub>) – sarik-zangori rangli, o‘tkir hidli gaz. Havodan 2,5 barobar og‘ir. Suvda va ba’zi organik eritmalarda yaxshi eriydi. Faollangan ko‘mir bilan yaxshi adsorblanadi. Kimyoviy jihatdan faol modda.

Gipoxlorit kislota parchalanganda kislorod ajralib chikadi, buning shu xossasidan dezinfeksiya va okartirish ishlarida foydalaniladi. Xlor gazi giposulfitning suvli eritmasi bilan neytrallanadi. Nam tekkan xlor juda o‘tkir hidli bo‘ladi.

#### **Ta’sir mexanizmi**

Organizmga bo‘g‘uvchi zaharlovchi moddalar ta’sir etganda o‘pkaning toksik shishi, patologik jarayon rivojlanishi mumkin. Bunda kon plazmasining kolloid-osmotik bosimi buzilishi kuzatiladi. kon tarkibidagi suyuqlik va proteinlar, o‘pkaning kapillyar va alveolyar devorlari o‘tkazuvchanligi oshib ketganligi sababli, alveolalarga suyuqlik o‘tishi kuchayadi va yig‘ila boshlaydi. Bu buzilishlar zaharlovchi modda organizmga ta’sir etgan vaqtdan boshlab rivojlana boshlaydi.

O‘pkadagi kapillyar va alveolyar devorlar o‘tkazuvchanligi birday emas, oldin kapillyar membranalarning o‘tkazuvchanligi paydo bo‘ladi va suyuqliklar o‘pkaning interstitsiyalarida to‘plana boshlaydi. Bu patologik jarayon acta-sekinlik bilan o‘tib ketadi. Interstitsialfazada limfaning okishi 10 marta oshadi, lekin bu kompensator mexanizm o‘z vazifasini etarli darajada bajara olmaganligi tufayli, interstitsiyalar haddan tashqari to‘lib ketadi va uning yorilishiga olib keladi, suyuqliklar alveolalarga to‘plana boshlaydi. YUqorida aytib o‘tilgan dinamik jarayonlar alveolyar faza boshlanganligidan dalolat beradi. Bu bosqichda bo‘ladigan o‘zgarishlar yaqqol namoyon bo‘ladi va tashxis kilishga imkon yaratadi. Bundan oldingi interstitsial boskich zaharlanganlar uchun bilinmasdan o‘tadi, buni fakat hayvonlarda tajriba o‘tkazish yo‘li bilan aniqlash mumkin.

#### **Klinik manzarasi.**

Bo‘g‘uvchi zaharlovchi moddalarning havodagi konsentratsiyasiga qapa6 zaharlanish klinikasi engil, o‘rta va og‘ir darajada namoyon 6o‘lishi mumkin.

Engil Darajadagi zaharlani shda yashirin davr 8 soatgacha davom etadi. SHundan keyin o‘pkada zararlanish 6elgilari paydo 6o‘ladi. Odatda o‘pka shishi rivojlanmaydi, traxeobronxit belgilari namoyon bo‘ladi. Ko‘krakda 6iroz nafas qisilishi, engil yo‘tal, bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, lohaslik, so‘lak oqishi, tumov, xiqildoq va xalqum shilliq pardalarida yaxshi rivojlanmagan giperemiya simptomlari paydo 6o‘ladi.

O‘rta darajadagi zaharlani shda yashirin davr 3-5 soatgacha davom etadi va quyidagi simptomlar yuzaga keladi. Ko‘krakla nafas qisilishi kuchayadi, shilliq pardalarning ko‘karishi paydo 6o‘ladi.

Og‘ir darajadagi zaharlani shda yashirin davr juda ham kam vaqtni, 1-3 soatni tashkil qiladi. Zararlanish klinikasida quyidagicha: reflektor o‘zgarishlar, yashirin davr shish rivojlanishi va regressiya (keyinga qaytadigan) bosqichlar tafovut qilinadi.

#### **3-o‘quv savoli. Bakteriologik (biologik) va oddiy zamonaviy qirg‘in qurollari**

Bakteriologik (biologik) qurolining qo‘llanilishi va undan himoyalani sh.

Bakteriyali qurollar – bu odamlarni, qishloq xo‘jaligi mollari va o‘simliklarini ommaviy zararlovchi quroldir. Uning negizi bakteriyalar, viruslar, rekke tist, kasal ko‘zg‘ovchi qora boshli qurtlar va kasal tarqatuvchilar hisoblanadi. Bu qurol raketa, aviabombalar yoki konteynerlar, aerezolli sachratuvchilar, artileriya snaryadlari orqali yuboriladi. Bu qurol og‘riq keltiruvchi mikroorganizmdan iborat. Ular keng turda yashirin kasalliklar tarqatish xususiyatiga ega. Havo bilan aralashib odamlarni va hayvonlarni har xil kasalliklarga yo‘liqtirishi mumkin. Bakteriyali qurol qo‘llanilganligi ko‘rikdan o‘tkazish yo‘li bilan aniqlanadi. Oddiy o‘q

snaryadlari yoki bombalarning ovozi eshitilsa, hamda ularning parchalari – konteynerlarga, xaltachalarga qurt qumursqalar, chivinlar to'plangan bo'lsa, tegishli xulosalar chiqarish, fuqaro mudofaasi tashkilotlariga, tibbiy mahkamalar yoki mahkamalarga yoki mahalliy hokimiyatlarga zudlik bilan yuborish kerak. Bakteriyali qurolni laboratoriyada tekshirish natijasida aniqlanadi.

Bu qurollardan himoyalaniş usullari. Bakteriyali qurol har xil yuqumli kasalliklar tarqatadi. Jumladan, vabo, sibir yazvasi, brutsellez, tulyarema, o'lat, sariq kasalligi va terlama, kuzda va bahorda qo'ziydigan vasvasaga tushish va so'zakning turli tuman xillari shunga misoldir. Bundan tashqari batullin, toksinlar qo'llaniladi. U odamlarning tanasini og'ir vaziyatga olib keladi. Hayvonlar sibir yazvasi, safa kasalligini paydo qiladi. SHuningdek, cho'chqa, qora mollarda va qushlarda, uy parrandalarida ham shunday.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini va donli ekinlarni zararlaydi. Kartoshkalarni fitoftroza va boshqa kasalliklar bilan kasallanishiga sabab bo'ladi.

Bakteriyali qurollardan saklanishda asosan vaksina preparatini qo'llash bilan birga antibiotiklar, sulfinomidlar va dorili moddalar ko'llanadi. YUqumli kasalliklarning darhol oldini olishda maxsus plashlar ishlatiladi. Kimyoviy moddalardan saqlanish uchun yakka mudofaa qurollari va uyushma holida mudofaalanish mudofaalanish usullari qo'llaniladi. Himoyalanişda protivogazlar, respiratorlar maskalar, og'izni yopish asboblari va terini saqlash qurollari kiyiladi. Birlashma, korxonalar va o'kuv muassalari rahbarlari o'z vaqtida ogohlantirilishi shart.

Bakteriyali zararlanish markazi deb bakteriyali qurolning ta'siriga giriftor bo'lgan joylar markazi, qishloq xo'jaligi ob'ektlariga aytiladi. Uning chegaralarini bakteriyali ma'lumotlar asosida shu oraliqda va betob odamlarda, hayvonlarda va o'simliklarda laboratoriya tekshirish yo'li bilan aniqlanadi.

Zararlanish markazining aylana tevaragiga qurolli qorovullar qo'yiladi va ruxsatsiz bu erga kirish va chiqish, shuningdek, biror narsa olib chiqish ham qat'ian ta'qiqlanadi. Xalq orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun kompleksli epidemiyaga qarshi sanitariya-ozodalik ishlari olib boriladi. Observatsiya, karantin va xalqni sanitariya ko'rigidan o'tkazish, zararlangan erlarni dezinfeksiyalash ishlarini olib borish katta ahamiyatga egadir. Zarur bo'lgan vaziyatlarda chivin-pashshalar, qurt-qumursqalar yo'q qilinadi.

Observatsiya va karantin. Bakteriyali zaharlanish markazidagi aholi uchun bir qancha ishlarni amalga oshiruvchi maxsus tibbiy ko'rik tashkil qilinadi. Uning vazifasi epidemik o'z vaqtida bildirishdir. SHuning bilan birga bo'lishi mumkin bo'lgan kasalliklarning oldini olish ishlari ko'riladi.

Oziq-ovqat va suv tozaligi aniqlangandan so'ng iste'mol qilinadi. Observatsiyaning davom etishi kishilardagi kasalliklarning yashirin vaqti va zaharlanish markazidan dezinfeksiyaning tamomlanishiga bog'liqdir. Agar vabo va shu kabi yuqumli kasalliklar paydo bo'lsa, karantin tig'iz o'rnatiladi. Karantin bu yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish va zararlanish markazini yo'q qilish uchun olib boriladigan choradir.

### **Oddiy zamonaviy qirg'in qurollari.**

Oddiy zamonaviy qirg'in qurollari tarkibiga oskolkali, fugasli va sharikli aviabombalar kiradi. Oskolkali aviabombalar insonlarni qirish maqsadida qo'llaniladi, u portlagan paytda bir necha bo'lakchalarga bo'linib, 300 m gacha tarqaladi. Bu bo'lakchalar yog'och va devorlarni teshib o'ta olmaydi.

Fugasli aviabombalar kurilishlarda ko'poruvchilik ishlari uchun mo'ljallangan. Uning kiruvchi kuchi yadroviy qurol kuchidan yuqori emas. Bunday bombalarning portlamay qolishi juda xavflidir. Ular tashlangandan keyin asta-sekin vaqt o'tishi bilan portlashi mumkin.

Piyodalarga qarshi ko'llanadigan sharikli aviabombalar salmog'i bir necha gramm bo'ladi. SHarikli bombalarning ko'rinishi tennis sharigiday yoki futbol to'piday bo'lib, metal

bo'laklarini yoki plastmassali diametri 5-6 mm bo'lgan shariklarni biriktirib ushlab turadi. Bombaning zararlovchi xarakatining radiusi 4,5-15 metrgacha etadi. SHarikli aviabombalar 96-640 gacha maxsus narsalar bilan o'ralib qo'llaniladi. Bu bombalar o'zaro ta'sir okibatida portlab, kassetalar urning ustini vayron qiladi. turli tomonga uchgan bo'lakchalari 160-250 ming kv.km maydonni egallaydi.

Kassetali oq dorilar samolyotda kasseta kabi tashlanadi. Kassetada uchta oq dori bo'ladi. Ular erga urilishi bilan uning ichidagi suyuqlik sachrab ketadi va diametri 15 m, qalinligi 2.5 m gazli bulut paydo qiladi. Bu bulut asta xarakat qiluvchi maxsus uskuna bilan buziladi. Kassetali oq dorilarning portlashidagi asosiy faktorlari ovozdan ham tez tarqaluvchi to'qlinlardir. Pana joylar va har xil pana o'rinlar kassetali bombalardan saqlanishni ta'minlaydi.

O't qo'yuvchi qurollar. YOndiruvchi qurollar aralashma va metal bilan ko'llangan termitli aralashma, shuningdek, fosforli bo'ladi.

Papalimli aralashma tez yonuvchi suyuqlik bo'lib, uning yonish tezligi sifatiga bog'liqdir. Ular 800 bilan 1200 darajagacha issiqliklagi markaz paydo qiladi. u o'zidan qora bulut chiqaradi va 5-10 minutgacha yonishi davom etadi. Uning yonish paytidagi issiqligi ko'tarilishi uchun tarkibiga uch tarzli magniy alyuminiy qo'shiladi.

Termitli aralashmalar. Bu mexanik temir bilan alyuminiy oksidining aralashmasidir. U maxsus tez yondiruvchi jam (pilta) bilan tenglashtiriladi. u yongan paytda katta bo'lmagan yolqin bilan havosiz yonib 3000 ming darajagacha issiqlik paydo qiladi. Termit yupqa temir va po'lat qatlamlarini oson kuydiradi.

Oq fosfor bu zaharli, havoda tez yonadigan modda. Ok fosfor 800-900 darajali issiqlikla achchik, kalin tutunga aylanadi. Zaharlash xususiyatiga ega.

YOng'in chiqaruvchi qurollar aviabomba sifatida qo'llaniladi. Bu bombalar inson uchun juda ham xavflidir. Tananing ochik joylariga tushsa kuydirib og'ir ahvolga soladi. Bu ok dorilar yonish paytida havoni cho'g'day kizdiradi, nafas olish a'zolarini kuydirib yuboradi. YOnayotgan aralashma yakka mudofaa qurollariga yoki sirtki kiyimlarga tushsa, o'sha narsalarni darhol echib tashlash kerak.

YOnayotgan aralashmani yalang'och qo'l bilan o'chirib bo'lmaydi. Sirtqi kiyimlarga aralashma sachragan yoki tekkan vaqtda silkinish, qoqinish yoki yugurish mumkin emas. Bu kabi xarakatlar yonish jarayonini yanada tezlatadi. SHunday hollarda yonayotgan kishi ustiga kurtka, brezent, kigiz yopilsa, yoki suv sepilsa, u erga yotib ishqalansa olov o'chadi.

YOng'inga qarshi tadbirlar. YOndiruvchi aralashmadan himoyalaniish maqsadida mudofaa uylarini va imoratlarini qurgan paytda nam loy, ohak va sement qorishmalari bilan suvaladi. Pana joylarga kiriladigan erlarga qurg'oq qum, tuproq bilan birga o't o'chirish qurollari, brezent va kigiz yopib qo'yiladi.

## **14 MAVZU. RAZVEDKA QILISH USULLARI.**

### **Reja**

O'quv, tarbiyaviy maqsad: Talabalarga razvedka qilish, jang maydonini kuzatish va joylarni o'rganish usullarini, askarning kuzatuvchi sifatida faoliyatini, kuzatuvchining vazifasini, belgilangan kuzatish maydonida dushmanni ilg'ash va kuzatishni, kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish yo'l-yo'riqlarini o'rgatish. Talabalarda ma'suliyat hisini oshirish.

O'quv savollari:

1-o'quv savol. Razvedka qilish usullari. Motoo'qchi seksiya razvedkada.

2-o'quv savol Kuzatuvchi va uning vazifasi, joylarni o'rganish usullari, belgilangan kuzatish maydonida dushmanni ilg'ash va kuzatish.

3-o'quv savol Kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish.

SHakl: Ma'ruza.

Uslub: Ahborot-ma'ruza.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: YOCHQBT xonasi.

O'MT: Mavzuga oid plakatlar, jangovor texnika va tank tasvirlari. Multimediya va slaydlar. Taktik maydon maketi. Adrianova kompani. Binokl, periskop.

### ***Mashg'ulotni o'tish tartibi va uslubiy tavsiyalar.***

Bu mashg'ulotda talabalarni keyingi navbatda bo'ladigan taktik-saf mashg'ulotiga tayyorlanadi. Ularga kuzatuv priborlari, masofani aniqlash, kuzatuv maydonini o'rganish, axborot berish tartibini va daftarga qayd etishni o'rgatiladi. Razvedka mavzusini o'rgatilishida mashg'ulot rahbari talabalarga razvedka ta'minotining asosiy turlarini tashkil etish va olib borish bo'yicha bilimlarni beradi. Birinchi o'quv savolini o'rganish multimediya, diafilm, stend va diafilmlardan keng foydalanib suhbat uslubi bilan olib boriladi. Talabalar bilan avval o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarda egallangan bilimlarni qo'llagan xolda o't ochish joyini (pozitsiyasini) tanlash, egallash usullarini o'rganish vaqtida kuzatish uchun joyni tanlash va jixozlashga, dushman xaqida razvedka ma'lumotlarini olish maqsadida joylarni ko'zdan kechirish va kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish tartibiga qo'yiladigan talablarni oydinlashtiriladi. Razvedkaga qo'yilgan vazifalarni bajarishda o'ta ma'suliyatli va ongliklikni talabalarda shakllantirish, ularni o'rganiladigan savollar bo'yicha belgilangan talablarga qat'iy amal qilish zarurligiga, shuningdek, razvedkada juda kichik intizomsizlik xam kechirib bo'lmaydigan xolatligiga iqrar qilish juda muhimdir.

### ***1-o'quv savoli. Razvedka qilish usullari. Motoo'qchi seksiya razvedkada.***

Harbiy razvedka oldiga qo'yilgan vazifalar xususiyatidan va olib boriladigan faoliyat hajmidan kelib chiqqan holda uchta asosiy qismga ajratiladi **strategik, tezkor va taktik** razvedka.

Strategik razvedka – strategik operatsiyalar tayyorlash va olib borishga, davlatni himoya qilish maqsadida hamda urush olib borishga tayyorgarlik ko'rish maqsadida amalga oshiriladi.

Tezkor razvedka – operatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish uchun kerakli razvedka ma'lumotlari yig'ish maqsadida o'tkaziladi.

Taktik razvedka – birlashmalar va bo'linmalarni jangga tayyorgarlik ko'rish va jang olib borishi davomida, dushman va joylar to'g'risidagi razvedka ma'lumotlari bilan ta'minlaydi.

Harbiy razvedkani barcha asosiy qismlari bir – biri bilan mustahkam bog'liq bo'ladi. Har biridan olingan ma'lumotlar bir – birini to'ldiradi va umumiy vazifani hal qilishga xizmat qiladi.

Razvedka – bu qo'shnlarni jangovar faoliyatidagi jangovar ta'minotining asosiy turi hisoblanadi.

Razvedka – har qanday sharoitlarda, vaziyatlarda ham dushman to'g'risida, jang bo'ladigan rayon xududlar va ob-xavo to'g'risidagi malumotlarni izlab topish va yig'ishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasidan iboratdir. Razvedka barcha toifadagi komandirlar va shtablar tomonidan jangga tayyorgarlik ko'rish va uni olib borish uchun, razvetka malumotlari to'plash maqsadida tashkil etiladi.

Jangovar harakatlarga tayyorgarlik ko'rish va uni olib borishda, razvedka o'tkazishdan maqsad –dushmanning tarkibi, holati, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, harakat qilish usullari to'g'risida malumotlar yig'ish va jang davomida razvedka malumotlaridan foydalanib, dushmanni qisqa muddatlarda yakson qilishdan, barcha o't ochish vositalaridan unumli foydalanishdan iborat.

Dushman to'g'risida har tomonlama bilish, ayniqsa, jang maydonida, razvedkani samarali o'tkazishga bog'liq. Qaerda razvedkaga katta e'tibor berilsa, o'sha erda qo'shinlar dushmandan tashabbusni olib qo'yishadi, uning harakatlarini oldindan kutib, dushmanni lol qoldiradi. Aksincha bo'lsa, ya'ni yaxshi tashkil etilmay o'tkazilgan razvedka jangdagi mag'lubiyat va omadsizliklarga, sabab bo'ladi. SHuning uchun ham razvedka jangovar ta'minotni muhim turi hisoblanadi .

**Razvedkaga qo'yilgan asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi:**

maqsadga intilish, uzluksizlik, faollik, tezkorlik, yashirinlik, razvedka qilinayotgan obekt (nishon) koordinatalarini aniq va ishonchli belgilash. Ayniqsa, dushmanni o't ochish vositalarini joylashgan o'rni to'g'risidagi malumotlar aniq bo'lishi kerak .

**Maqsadga intilish.** Bu talabdan razvedka manfaatlari yo'lida qo'shinlar tomonidan barcha tadbirlarni yagona maqsadda umumlashtirish kelib chiqadi. YAgona maqsadga intilish: obektlarni , rayonlarni va razvedka vazifasini to'g'ri belgilash, vaziyatni, sharoitni chuqur bilish va uni oldindan ko'ra bilish orqali erishiladi. Bo'linmalarga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda razvedka olib borish yagona reja asosida tashkil etiladi .

**Uzluksizlik.** Razvedka har qanday jangovar faoliyatda, har qanday vaziyat va sharoitlarda, kechayu-kunduz, har qanday ob-havoda o'tkazilishi kerak bo'ladi , bu esa uzluksiz razvedka olib borishning asosiy talabidir. Dushmanni muhim obektlari (nishon) aniqlanganda kuzatuv o'rnatiladi, butunlay yakson etiladi.

**Faollik.** Bu talabning mazmuni – bo'linmalar komandirlari va organlarining razvedkaga barcha kuch va vositalarni , usullarni jalb qilib , qanday qilib bo'lmasin kerakli razvedka malumotlarini o'rnatilgan muddatga topishga intilishlaridan iboratdir. YUqori faollik , razvedkaga jalb etilgan bo'linmalarining mardona va tashabbuskorona harakatlari, turli hil razvedka kuch va vositalarini mohirona qo'llash, qo'yilgan vazifalarni to'g'ri tushunib , yuzaga kelgan vaziyatdan unumli foydalanish va razvedkani samarali tashkil etish orqali erishiladi.

Razvedkani barcha shaxsiy tarkib olib boradi, shuning uchun har bir askar razvedka olib borilganda mardlik, izlanuvchanlik va tashabbuskorlik ko'rsatishi, razvedka malumotlarini o'z vaqtida, o'zining bevosita boshlig'iga etkazishi kerak .

Tezkorlik va o'z vaqtidalik. Bu talabning mazmuni, kerakli razvedka malumotlarini o'z vaqtida izlab topish, kerakli shtab va organlarga o'rnatilgan vaqtda etkazishdan iborat. Bu bilan bo'linmalar bo'lg'usi dushman, uning harakatlari to'g'risida malumotga ega bo'ladi, dushman harakatlari qo'shinlar uchun kutilmagan bo'lmaydi, dushman harakatlarini oldindan kutib turiladi va o'z vaqtida zarur chora-tadbirlar, maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilinadi.

**Razvedkaning yashirinligi** razvedkani tashkil etish va olib borishga qaratilgan barcha tadbirlarni yashirin olib borish hamda asosiy kuchlarni yo'nalishini dushmandan yashirish, maxfiy tutish bilan ifodalanadi. Razvedka qilinayotgan ob'ektlar koordinatalarini aniq va ishonchli belgilash turli xil razvedka ma'lumotlarini bir – biriga solishtirish, sinchliklab o'rganish, tekshirib qayta razvedka qilish, dushmanning xaqiqiy va qalbaki ob'ektlarini ajrata bilish orqali erishiladi. Koordinatalarni aniq belgilash, avvalo, bo'linma shaxsiy tarkibining zamonaviy razvedka qilish vositalari, usullarini qanchalik yaxshi bilishiga bog'liq bo'ladi.

SHunday qilib, jangovar harakatlar xarakterini o'zgartiruvchi, zamonaviy qurolli kurash vositalari, razvedkaga qo'yilgan talablarni orttiradi, razvedka olib borishni murakkablashtiradi va oldinda turgan vazifalarni hal qilishga ko'p miqdorda xilma – xil kuch va vositalarni jalb etishni talab qiladi. Taktik razvedka – harbiy razvedkani asosiy qismlaridan biri bo'lib, u kuch va vositalarining alohida xususiyatlarini hisobga olib faoliyat ko'rsatishga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Taktik razvedka – harbiy, harbiy – havo, radio - texnik, radiolokatsion, artilleriya, muhandislik, radiatsion va kimyoviy razvedka turlariga bo'linadi.

Qo'shinlar razvedkasi motoo'qchi, tankchi, parashyut desant bo'linmalari va qismlari manfaati yo'lida, shtatdagi yoki vaqtincha tuzilgan bo'linmalar tomonidan, jang maydonida razvedka ma'lumotlari topish uchun olib boriladi. Razvedka olib borish uchun kuch va vositalar, qo'yilgan vazifaga va vaziyatga qarab, komandirlar tomonidan belgilanadi.

### **Razvedka organlarining vazifasi:**

- dushman OQQ va aniq nuqtaga uradigan qurol vositalari qo'llaydigan koordinatalarni aniqlash;

-dushmanlarni va tevarak – atrof joylarni kuzatish, o'z bo'linmalari va qo'shinlarini ko'rsatilgan sektor va doiralardan kuzatish;

-dushman jangovar tartibidagi ochiq qanotlarni, bo'shliqlar hamda kuchsiz mudofaa qilinayotgan uchastkalarni aniqlash;

-dushman joylashgan rayonni, uning tarkibini kuch va vositalarni, harakatlari xususiyatini, maqsadini, jangovarligini, qism va bo'linmalarini tartib raqamlarini aniqlashdan;

-dushmanning boshqaruv punktlari, aloqa tarmoqlari, o't ochish vositalari, radiotexnik vositalari tanklar, artilleriya, minomyot, tankka qarshi vositalari va boshqa o't ochish nuqtalari o'rnini aniqlashdan;

-mudofaa inshootlari va muhandis va kimyoviy to'siqlarini razvedka qilishdan;

-tevarak – atrof joylarning relefini, uning xarakteri va himoyalash xususiyatlarini o'rganishdan, tabiiy to'siqlar, yo'llar, ko'priklar, suvli to'siqlar va jang bo'ladigan joylarning holatini hamda bo'linmalarga ta'sirini o'rganishdan;

-dushmanning yangi qurol – aslaha namunalarini ularni qo'llashdagi samaradorligi va jangovar sifatlarini o'rganish maqsadida qo'lga tushirishdan iborat bo'ladi. Dushmanni engish uchun har bir komandir doimo, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini, kuchini, tarkibi va boshqa xususiyatlarini bilishi hamda o'z vaqtida dushman niyatini payqab qolishi kerak bo'ladi. Bu ma'lumotlarsiz muvaffaqiyat qozonish qiyin bo'ladi, qo'shinlar qanday vaziyatda vazifa bajarishi va qaerda joylashganidan qat'iy nazar, ularning komandirlari bo'lg'usi dushman va faoliyat ko'rsatadigan hududlar to'g'risida maksimal to'liq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bunga maxsus razvedkachi va razvedkaga tayinlangan motoo'qchi bo'linmalarni har tomonlama puxta tashkil etilgan harakatlari orqali erishiladi.

### **Seksiya razvedkada. Seksiyaning razvedkadagi vazifalari va ularni bajarish usullari.**

Motoo'qchi seksiya dozor seksiya etib tayinlanishi, batalonning kuzatuv punkti tartibiga bir-ikkita harbiy xizmatchilar ajratishi mumkin. Maxsus tayyorlangan motoo'qchi seksiya radiatsion, kimyoviy va bakteriologik razvedka olib borish uchun ajratiladi. Bundan tashqari razvedka ma'lumotlari, bo'linmalarni jangovar harakatlari, asirlarni va qochoqlarni, mahalliy aholini so'rab surishtirish orqali, dushmanning qo'lga olingan hujjatlari, jangovar qurol – aslaha namunalarini o'rganish orqali olinadi. Razvedka olib borishga ajratilgan bo'linma nishonlarni, ob'ektlar koordinatalarini aniqlaydigan va kuzatuv olib borish moslamalar bilan hamda mina-portlovchi to'siqlarni, radiatsion va kimyoviy zararlanishni aniqlaydigan moslamalar bilan ta'minlanadi. Har qanday holatlarda ham bo'linma yashirin boshqaruv hujjatlari va ishonchli aloqa vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Razvedkaga tayinlangan motoo'qchi seksiya, sapyorlar va kimyo razvedkachilar bilan kuchaytirilishi mumkin. Razvedka olib borilayotganda yaradorlarni, halok bo'lganlarni, qurol va aslahalarni dushman hududlarida qoldirish, dushmanlar qoldirgan oziq – ovqat mahsulotlaridan foydalanish taqiqlanadi. Razvedka olib borishga ajratilgan askar, serjant, ofitser va bo'linmalar ko'yidagilarni amalga oshirishi kerak:

-oldiga qo'yilgan vazifaga asosan razvedka ma'lumotlari, ya'ni faol izlab topishi;

-vazifani bajarish uchun tashabbus ko'rsatish, dushmanni aldash, harbiy ayyorlikni turli usullarini keng qo'llashi;

-o'zlarining faoliyatlarida chidamlilik, ayyorlik, tezkorlik, mardlik sifatlarini birga qo'shib harakatlanishi. Razvedkachilar harakati lol qoldiradigan. to'satdan va shiddatli bo'lishi kerak, bu esa ulardan kuch, jismoniy va axloqiy matonatni, tayyorgarlikni talab qiladi. Har bir razvedkachi bo'linmasini va o'zining vazifasini to'liq bilishi, tushinib olishi kerak. Razvedkada harakatlanayotgan bo'linma komandirlari, razvedka natijalari to'g'risida o'z vaqtida bildiruv berishga majburlar. Razvedka natijalari radio orqali, yozma ma'lumotnoma va og'zaki ravishda bildiriladi. Bildirgi va ma'lumotlar qisqa, aniq va to'g'ri bo'lishi kerak. Ma'lumotda

ko'yidagilar ko'rsatiladi; qanday dushman, qaerda, qachon ko'rindi, uning harakatlari, razvedkalari qaerda turibdi, komandir kelgusida nima qilishga qaror qildi. Motoo'qchi seksiya uchun razvedka olib borishning asosiy usullari kuzatuv, eshitish va joylarni ko'zdan kechishlari xisoblanadi. Ba'zi hollarda dozor seksiya pistirma o'tqazishga jalb etilishi mumkin. Har bir seksiyada, har qanday jang turlarida ham kuzatib razvedka olib boriladi. Dushmanni kuzatish uzluksiz ravishda, shaxsan seksiya komandiri va mahsus tayinlangan kuzatuvchilar tomonidan olib boriladi. Tunda va ko'rinish cheklangan sharoitlarda kuzatuv olib borish eshitish bilan qo'shib olib boriladi. Tayyorgarligi bor kuzatuvchi hech bir sharpani e'tiborsiz qoldirmaydi. U eshitib turib, avtomashina harakatini, tank harakatidan ajratib, taxminan qaysi tomonga ketayotganini, qaerda joylashganini aytib berishi mumkin. Kuzatuvchining vazifasi va kuzatuv olib borish tartibi uchinchi bo'limda to'la bayon etilgan.

**Dozor seksiyaning razvedkadagi harakatlari.** Razvedka olib borayotgan yoki asosiy kuchlardan uzoqda jangovar vazifa bajarayotgan bo'linmalar tomonidan, dushmanlarni o'z vaqtida sezib qolish va joylarni razvedka qilish uchun oldinga dozor seksiya yuboriladi. Dozor seksiya harakatlarini kuzatib turadigan va o't ochib qo'llaydigan masofada harakatlanadi. Dozor seksiya qo'yilgan vazifani harakat davomida, qisqa muddatga shtab, mahalliy narsalarni va tevarak – atrof joylarni kuzatish orqali bajariladi. Seksiya piyodalar jangovar mashinasida yoki piyoda faoliyat ko'rsatadi. Aloqa, odatda, radio yoki signal vositalari orqali amalga oshiriladi. Dozorga tayinlangan seksiya komandiri vazifani olgach, chiqib borish kerak bo'lgan punktga harakatlanib borish yo'nalishini tanlaydi, faoliyat ko'rsatish tartibini belgilaydi, jangovar buyruq beradi va ruxsatnomani etkazadi.

Dozor seksiya komandiri jangovar buyrug'ida qo'yidagilarni ko'rsatadi:

- dushman to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- seksiyaning vazifasini;
- bo'ysunuvchilar vazifasini, dushmanga duch kelganda harakatlanish tartibini va biron narsani sezganda bildiruv berish tartibini;
- xabar berish, boshqaruv, hamkorlik signallari va ular bo'yicha harakatlanish tartibini;

-razvedkani boshlash vaqti va o'rindoshlarini. Dozordagi seksiya kuzatuv uchun qulay bo'lgan bir punktdan ikkinchisiga ko'chib o'tib, katta tezlikda, ularni jo'natgan bo'linmalarni to'xtatib qolishiga yo'l qo'ymasdan harakatlanadi. Harakatlanish davomida tevarak – atrof, mahalliy narsalar, ayniqsa, dushman yashirinishi mumkin bo'lgan pana joylar sinchiklab ko'rib chiqiladi. Agar biron bir ob'ektni piyodalar jangovar mashinasida razvedka qilish qiyin bo'lsa, seksiya komandiri, jangovar ikkilik tarkibidagi dozorni oldinga yuboradi, tank komandiri esa ekipaj a'zolaridan birini yuboradi. Piyodalar jangovar mashinasi bu vaqtda yashirin pozitsiyani egallab, dozorchilarni kuzatib turadi. **Aholi punktlarini razvedka qilish** jarayoni uning chekkasidan boshlanadi. Aholi punktiga yaqinlashganda seksiya komandiri mashinani pana joyga yashiradi va aholi punktini uzoqdan kuzatib, ko'zdan kechirib chiqadi. Bunday holatda seksiya komandiri yakka turgan binolarga, toshli – betonli binolarga, aholi punkti chetidagi ekinzor va bog'larga hamda dushman poyloqchilari, o't ochish vositalari bo'lishi mumkin bo'lgan barcha erlarni alohida e'tibor bilan ko'rib chiqadi. Agar dushmanlar borligiga shubha qolmasa, u holda aholi punkti chetiga kelinadi, mahalliy aholidan so'rab surishtiriladi, keyin darhol o't ochishga shay bo'lgan holda ko'chalarning biridan o'tib ketiladi. Yakka turgan binolarni dozordagilar avval tashqarisidan ko'rib chiqadilar. Bu vaqtda dozor katta bino eshiklari, derazalariga qarata o't ochishga shay holda yashirinib turadi. Ikkinchi dozorchisi esa qurolini tayyor qilib, avval binoni derazalaridan qarab aylanib chiqadi, keyin bino ichiga kirib tekshiradi. Ayniqsa, tom va erto'lga alohida ahamiyat beradi, dozor kattasi hamma vaqt o't ochib yordam berishga shay holda turadi.

**Suvli to'siqlarni razvedka qilganda** dozor seksiyadagilar har ikkala qirg'oqdagi dushmanni, uning tarkibini va harakat xususiyatlarini aniqlaydilar. Suvli to'siq ostonalarida bo'lgan dushmanlarni dozordagi seksiya aylanib o'tadi yoki dushman jangovar tartibi o'rtasidan

suvli to'siq tomonga o'tadi. Soy va daryoga yaqinlashganda har ikkala qirg'oqdagi butazorlar, qamishzorlar va boshqa pana joylar sinchiklab tekshiriladi. Soy, daryoni razvedka qilganda uning kengligi, chuqurligi, oqim tezligi, qirg'og'i, tubi va suv osti tuprog'i, qirg'oqlarini qiyaliklari (tushish va chiqish) kechib o'tishda suvga tushadigan joylarni, suzib o'tish vositalari mavjudligi va ularni holatini aniqlaydi, daryoning kengligi durbin (binokl) yordamida yoki ko'z bilan chamalab ko'riladi.

Daryo suvini oqim tezligi 0,5m.s gacha bo'lsa kuchsiz, 0,5m.s dan 1m.s gacha bo'lsa o'rtacha, 1m.s dan 2m.s gacha bo'lsa tez, 2m.s dan ortiq bo'lsa juda tez, deb hisoblanadi. Kechib o'tadigan joy borligi mashinalar izidan aniqlanadi. Kechib o'tadigan joyning chuqurligi bevosita kechib o'tib aniqlanadi, keyin suvdagi va qirg'oqlardagi to'siqlar ko'rib chiqiladi.

Dushman egallamagan uchastkalardan foydalanib, dozordagi seksiya narigi qirg'oqqa o'tadi va u erdagi dushman tayanch punktlari, o't ochish vositalari, to'siqlari mavjudligi, joylashuvi va xarakterini aniqlaydi. Agar narigi qirg'oqqa o'tishni umuman iloji bo'lmasa, u holda qirg'oqdan turib dushmanni kuzatib, malumotlar yig'iladi.

Dozordagi seksiya ko'prikn razvedka qilganda uning o'lchamlarini, yuk ko'tarish qobiliyatini, uzunligi va enini, dushman bor-yo'qligini aniqlaydi. Agar ko'prikn minalashtirilgan bo'lsa "Minalashgan" belgisini o'rnatib, aylanib o'tish yo'lini qidirishi kerak.

Yuqoridan ko'rinmaydigan chuqurlikni ko'rib chiqishda dozordagi askar pastga tushib, chuqurlikni tekshiradi, dozor kattasi yuqoridan kuzatib, zudlikda o't ochib, yordam berishga shay bo'lib boradi.

Tepalikni ko'rib chiqish uchun uni yonbag'ridan yuriladi yoki aylanib o'tiladi. Tepalik cho'qqisini ko'rib chiqish uchun dozorchilar yashirincha niqoblash qoidalariga qattiq rioya qilib harakatlanadilar. Tepalik cho'qqisida harakatlanish tavsiya etilmaydi.

Dozordagi seksiya bog'lar, uzumzor va daraxtzorlarni ko'rib chiqishdan avval, uning chetlarini ko'rib chiqadi. Agar dushmanlar yo'qligiga ishonch hosil qilinsa, u holda dozor seksiya harakatini davom ettiradi. Harakat davomida chuqurliklar qalin butalar, ko'chatzorlar va boshqa dushman yashirib pistirma qo'yishi mumkin bo'lgan joylar sinchiklab tekshiriladi, seksiya komandiri shubhali joylarni tekshirish uchun piyoda dozorchilarni oldinga yuboradi.

To'siq va g'ovlarni razvedka qilganda seksiya komandiri oldin u erlar dushman tomonidan o'qqa tutiladimi yoki yo'qmi aniqlab olish kerak. Agar o'qqa tutiladigan bo'lsa, dushman kuchlarini, uning mudofaa qilish xususiyatlarini o'rganadi va bu haqda ularni yuborgan komandirga bildiruv beradi. Dozordagi seksiya komandiri to'siqlarni (g'ovlarni) va uni poylayotgan dushmanlarni aylanib o'tishga, dushman bilan jangga kirmaslikka intilishi kerak. Agar to'siq (g'ov) dushmanlar tomonidan poylanayotgan bo'lsa seksiya aylanib (kesib) o'tish yo'llarini izlaydi yoki o'z kuchlari bilan to'siqdan (g'ov) o'tishni uyushtiradi, zararlangan uchastkalarni eng yuqori tezlikda, yakka himoya vositalaridan foydalanib o'tiladi. Zarur bo'lganda seksiya to'siqdan o'zlar o'tgan joyga belgi qo'yadi, o'tish joyini ko'rsatuvchi belgilar o'rnatadi. Kerak bo'lsa to'siq va g'ovlarni oldindan ko'rib chiqish uchun piyoda dozorchilar yuborilishi ham mumkin.

Har qanday holatlarda ham razvedka vaqtida dozor seksiya komandiri dushmanlarni ko'rishi bilan darhol komandirga bildiruv beradi va ko'rsatma olmaguncha dushmanlarni kuzatib turadi.

Agar dushmanlar seksiyani sezib qolsa va jang qilishdan boshqa iloji qolmasa seksiya shiddat bilan jangga kirishadi, dushmanga to'satdan ataka qilib, asir olishga harakat qiladi va tezda chekinadi.

Dushmanning yakka askarlari uchrab qolganda dozordagi seksiya uni qo'lga tushiradi, asirga olishni iloji bo'lmasa o't ochib yo'q qiladi.

**Tog'larda razvedka olib borganda** dozordagi seksiya, odatda, yo'llar, vodiylar, cho'qqilar yoqasidan borib, asosiy tepaliklarni kuzatib razvedka olib boradi. Harakat yo'nalishiga yaqin yo'llar, so'qmoqlar, daralar seksiya komandiri uchun qulay bo'lgan joydan turib kuzatiladi yoki piyoda dozorchilar yuborilib tekshiriladi. Bunda dushman pistirma qo'yishi

mumkin bo'lgan panalik va to'siqlarga alohida e'tibor beriladi. Borish qiyin bo'lgan uchastkalarga piyoda dozorchilar yuboriladi.

Tog'larda dozordagi seksiya tor daralar va yo'l burulishlariga pistirma o'rnatish usulidan keng foydalanadi.

**Mudofaadagi dushman tayanch punkitini razvedka qilganda** seksiya (tank), avvalo, o't ochish vositalari joylashuvini hamda tayanch punkt ostonalarida to'siqlar mavjudligini aniqlashi kerak. Bu vazifani dushmanni o'zini qanday tutayotganini sinchiklab kuzatish orqali bajarish mumkin, ba'zan buning uchun seksiya komandirlari dushmanni ataylab o't ochishga majbur qilishi mumkin.

**Hujum davomidagi razvedkani** seksiya (tank) hujumdagi bo'linmalarni oldida yoki qanotida olib borishi mumkin. Seksiya (tank) tayanch punktlari oraliqlaridan, joylarni sharoitidan foydalanib, dushman mudofaasi ichkarisiga kirib olishi va u erdan turib hujumdagi bo'linmalar komandirlariga dushman o't ochish vositalari, artilleriya pozitsiyalari, komandirlik kuzatuv punktlari, to'siqlar va boshqa ob'ektlar to'g'risida bildiruv beradi. Dushman mudofaasi ichkarisidagi dushman kuchlari harakatini payqashi bilan seksiya (tank) komandiri uning tarkibini, harakat yo'nalishini aniqlaydi va zudlik bilan ularni yuborgan komandirga bildiruv beradi.

**Mudofaadagi razvedkani** seksiya (tank) mudofaaning oldingi chizig'i ostonalarida olib boradi. Ko'rsatilgan rayonga chiqiboq seksiya (tank) komandiri o'zlarini yuborgan komandirga bildiruv beradi va razvedkani kuzatish orqali olib boradi.

Seksiya (tank) komandiri dushmanlarning oldinga harakat qilish uchun foydalanadigan yo'nalishlarini va artileriya pozitsiyalari joylashgan rayonlarni kuzatib, razvedka qilishni tashkil qiladi.

### **Seksiya (tank) pistirmada**

Pistirma razvedka olib borish usullaridan biri hisoblanadi. Pistirma razvedka usullaridan biri sifatida har qanday jang turlarida, har qanday ob-havo sharoitida, yilning, kunning istalgan vaqtida, front oldida, dushman ichkarisida yoki qanotlarda o'tkazilishi mumkin. Pistirma dushman harakatlari kutilayotgan yo'nalishlarda, unga hujumni to'satdan bo'lishini taminlaydigan sharoitlarda, vzvod, guruh, seksiya(tank) tomonidan o'rnatilishi mumkin. Pistirmadagi muvaffaqiyat uni yashirin joylashganiga, mo'ljalga aniq otishga, barcha shaxsiy tarkibni shiddat bilan mohirona harakat qilishga bog'liq bo'ladi.

Seksiya (tank) komandiri pistirma qo'yish bo'yicha vazifani katta komandirdan joyning o'zida yoki xarita orqali oladi. Vazifani aniqlashtirib olgach, seksiya(tank) komandiri pistirma qo'yiladigan joyga yashirincha etib borish yo'lini va tartibini belgilaydi. Seksiya pistirma qo'yiladigan erga yashirincha borish, dushman to'satdan duch kelsa, jangga kirishadigan holda shay bo'lib harakatlanadi.

Pistirma qo'yiladigan joyga etib kelib seksiya (tank) komandiri dushmanni to'satdan xujumiga qarshi o't ochish tizimi va kuzatuvchi tashkil qiladi, shaxsiy tarkibni, o't ochish vositalari o'rini, ularga vazifalarini belgilaydi, dushman ko'ringanda va vazifani bajarib bo'lgandan keyingi harakatlar tartibini, xabar berish, boshqaruv, hamkorlik harakatlari, signallari va ular bo'yicha harakatlanish tartibini belgilaydi.

Seksiya (tank) komandiri jangovar vazifa qo'yganda quyidagilarni ko'rsatadi:

- orientirlarni;
- dushman to'g'risidagi malumotlarni;
- seksiyaning (tank) vazifasini;
- hujum va taminot guruhlaridagi har bir askar joylashgan o'rini, ularning vazifalarini, o't ochish tartibini, xujum davomidagi va vazifani bajarib bo'lgandan keyingi harakatlar tartibini;

- o't ochish, hujumga o'tish, ortga qaytish signallarini va o'rinbosarini.

To'satdan, kutilmaganlikka erishishning shartlaridan biri mustahkam intizom va seksiya (tank) shaxsiy tarkibini pistirma joyida puxta niqoblanishi hisoblanadi. Pistirmani bildirib

qo'yadigan har qanday iz va belgilar yo'qotilishi, puxta niqoblanishi kerak. Pistirmaga joylashgan seksiya (tank) dushmanga xujum qilguncha, o'zini mutlaqo sezdirmasligi kerak, yaqinlashayotgan dushman to'g'risidagi kuzatuvchi o'rnatilgan signal bo'yicha komandirga habar beradi.


Dushman kichik guruhleri, ularning yakka askarlari va ofitserlariga hujum qilinganda ularning eng yaqin masofaga kelishini kutib, keyin to'satdan hujum qilinadi. Dushmanning nisbatan katta guruhiga hujum qilinganda, pistirmadagi seksiya o'zining barcha o't ochish vositalaridan foydalanib, dushmanga to'satdan talofat etkazib, dushmanlar o'ziga kelguncha hujjatlar, qurol-aslaha namunalari va asirlarni qo'lga olib ko'rsatilgan rayonga chekinadi.

Tunda pistirma qo'yganda seksiya shahsiy tarkibi dushman kelishi ehtimoli bo'lgan yo'lga, bir-biriga yaqin masofada, bir-biriga talofat etkazmasligi uchun yo'lni bir tomoniga joylashtirilishi lozim. Tunda dushmanni kuzatish uchun tungi ko'rish moslamalaridan foydalaniladi.

### **2-o'quv savoli. Kuzatuvchi va uning vazifasi. Joylarni o'rganish usullari, belgilangan kuzatish maydonida dushmanni ilg'ash va kuzatish.**

Kuzatuvchi – askar, o'zi ko'rinmagan holda hamma narsani ko'rishi va eshitishi kerak.

Kuzatish uchun komandir shunday joyni tanlashni buyuradiki, bu joydagi atrof yaxshi ko'rinishi, yaxshi niqoblangan, raqib o'qidan yashirin va oson boriladigan joyi bo'lishi kerak.



### **Kuzatish uchun joy tanlash.**

Baland qoyalar va tepaliklar ustida alohida turgan daraxt, qurilmalar, chakalakzorlar cheti, o'rmon, alohida butalar chetida turish ya'ni raqib uchun orientir – mo'ljal bo'la oladigan va uni diqqatini tortadigan joylarda turish mumkin emas.

Kuzatish uchun eng qulayi - okoplar, ariqlar, snaryadlardan qolgan handaklar va boshqa erdagi chuqurliklardir. U joylar shunday tanlanadiki, bunda orqada ko'tarilish, tepalik yoki butalar bo'lishi kerak, bu vaqtda kuzatuvchi osmon fonida aniq ko'rinmaydi.

Mahalliy predmetlar yonida (ustun, daraxt va b.) kuzatish soya tushgan tomondan olib boriladi.

Seksiyaning razvedka uchun ajratilgan shaxsiy tarkibi jasurlik bilan, yashirincha harakat qilishi, topqirlik, tashabbuskorlik va harbiy ayyorlikni namoyon etishi, razvedka ma'lumotlarini o'z vaqtida qo'lga kiritishi va ular haqida axborot berishi lozim.

Razvedka natijalari haqidagi axborotlar ishonchli, qisqa va aniq bo'lishi lozim. Ularda, odatda, quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi: qanday dushman, qachon va qaerda aniqlanganligi, uning harakatlarining xususiyatlari, o'zining turgan joyi va qarori.

Dushmanning orqa tomonida razvedka olib borish uchun tayinlangan seksiya komandirining ish xaritasida o'z qo'shinlari haqida qandaydir ma'lumotlarning bo'lishi

taqiqlanadi, butun shaxsiy tarkibga esa shaxsiy va xizmat xujjatlarini yonida olib yurish man etiladi.

### **3-o'quv savol. Kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berish.**

Joyni ko'zdan kechirish yaqin zonadan boshlanadi. Bunda chapdan o'ngga qarab kuzatiladi. YAkin zonani kuzatib bo'lingach, shu tartibda qolgan zonalar kuzatiladi.

Dushmanni niqoblanishini oshkora qilib qo'yadigan belgilarga qarab ilg'ab olish mumkin. Bunga zanjir va g'ildirak izlari, so'qmoqlar, bosilgan barg va maysalar, tutunlar misol bo'la oladi. Nishonlarni mo'ljalarga nisbatan holatini kuzatuvchi ko'zchama qilib yoki optik uskunalar yordamida aniqlaydi. Talabalar mashg'ulot rahbari yordamida nishonni aniqlashgach, zudlik bilan komandirga doklad qilinishini, karta yoki sxemaga belgilanishi va kuzatish jurnaliga qayd etilishi shartligini bilishlari kerak. Talabalarga doklad qilish va kuzatish natijalarini qayd etish jurnalidagi shaklini daftarlariga yozib olishlari tavsiya etiladi.


Kuzatuvni osonlashtirish va kuzatilayotgan joyni yaxshilab ko'rish uchun kuzatuvchi o'zi kuzatayotgan sektorni, uzoqligi bo'yicha uchta kuzatuv sohasiga ajratadi:

yaqin, qurollanmagan ko'z bilan ko'ra oladigan soha – 400 metr uzoqlikda;

o'rta soha – 800 metr uzoqlikda;

uzoq soxa - ko'rinish imkoniyatiga qadar.


Sohalar chegarasi yaxshi ko'rinadigan mo'ljallar yoki mahalliy predmetlar bo'yicha ajratiladi.



*Rasm. Kuzatish sektorida joylikni o'rganish.*

Kuzatuvga kirishganda, oldin butun joyga ko'z yugurtirib chiqiladi (hujum vaqtida o'zi turgan tomondan dushman tomonga, mudofaada – dushman tomondan o'zi tomonga).

Kuzatish yaqin masofadan boshlanadi va o'ngdan chapga shartli belgilangan marralarda, ketma – ket joy va mahalliy predmetlarni kuzatish bilan boradi. Joyning ogoh qismlari tezroq, yopiq qismlari diqqat bilan ko'riladi.



Rasm. Ko'rinib turgan jism (nishonlar) ga qarab masofani aniqlash.

Barcha ko'rgan narsalari haqida kuzatuvchi komandirga axborot beradi, shu bilan birga u kuzatishni to'xtatmaydi.

Axborotda kuzatuvchi orientir – mo'ljol o'zidan necha metr uzoqlikda (o'ngda, chapda, uzoq, yaqin – barchasi metrlar hisobida) ekani, nima ko'zga tashlanganini ko'rsatadi.

Masalan, 2 – orientir chapga 50, yaqin 100, sariq butani yonida raqibning kuzatuv punkti.

Ayniqsa tunda kuzatuv olib borish qiyin. *SHuni yodda tutish kerakki, tunda ko'rish yuqoridan past tomonga yomonroq, pastdan yuqorini kuzatish esa tunda yaxshi ko'rinadi.*

Orientir sifatida konturlari aniq predmetlar tanlanadi, ular joyda aniq chizgiga ega bo'ladi.

Tunda kuzatish tungi ko'rish asbobi yoki qurollanmagan ko'z bilan olib boriladi.

Tunda kuzatish vaqtida, ko'z og'rib, xiralashmasligi uchun, yaltiroq predmetlar va yorug'lik manbaalariga qarash kerak emas. Agar tunda ko'rish juda qiyin yoki umuman mumkin bo'lmasa, razvedka eshitish orqali olib boriladi. Bunda shuni esda tutish kerakki, eshitishga harorat, havo namligi, shamol, joy reliefi, o'simliklar qoplami, mahalliy predmetlar ta'sir ko'rsatadi.

Havo bo'lutli bo'lganda, ayniqsa yomg'irdan so'ng eshitish kuchayadi, quyoshli ochiq kunda esa, eshitish pasayadi.

Tunda va erta tongda eshitish kunduziga nisbatan yaxshiroq; qishda esa yozga nisbatan yaxshiroq eshitiladi. Agar tovush to'lqinlari suvli yuza ustidan o'tsa ham eshitish yaxshilanadi. SHamol esa tovush to'lqinlarini yoki tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi. Agar shamol tovush manbai tomonidan kuzatuvchi tomonga essa, eshitish yaxshilanadi.

Tog' sharoitida qo'shirlarning harakati va mudofaa ishlaridan hosil bo'lgan tovushlar ancha masofaga eshitilib turadi, chunki tovush to'lqinlari tog'lar yuzasiga tegib qaytadi va yana uzoq tarqaladi.

o'simliklar va mahalliy predmetlar harakat tovushlarini pasaytiradi va yo'nalishini o'zgartiradi.

Eshitish joyini tanlayotganida, tovush qaytadigan joy bo'lmasligiga e'tibor berish kerak, ya'ni balandroq erlarda, to'siqlardan uzoqda va dushman o'tayotganda shovqin hosil qiladigan sohaga nisbatan ko'p shamol esadigan joy bo'lishi kerak. SHamoldan shovqin chiqarayotgan daraxtlar tagida joylashish mumkin emas.

## **15-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA** **QO‘LLANILADIGAN MINALAR.**

### **Reja**

O‘quv, tarbiyaviy maqsad: Talabalarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tankka va piyodalarga qarshi asosiy minalari va ularning texnik tavsifi, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyili bilan tanishtirish. Dushmanga qarshi kurashda minalarning axamyatini anglatish.

O‘quv savollari:

1-o‘quv savol. Tankka qarshi minalar (M), ularning taktik-texnik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyili.

2-o‘quv savol. Piyodalarga qarshi minalar (PM), ularning taktik-texnik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyili.

SHakl: Nazariy.

Uslub: Tushuntirish, ko‘rsatish.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi.

O‘MT: Mavzuga oid plakatlari, slaydlar. Tankka va piyodalarga qarshi o‘quv mashq uchun minalar.

Tayanch so‘z va iboralar: TM - tankka qarshi mina; cheka - portlatgichning ishlab ketishidan saqlagich.

### **1-o‘quv savol. Tankka qarshi minalar, ularning taktik-texnik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyillari.**

Ishlash prinsipi. Tankning g‘ildiragi minani bosganda uning qopqog‘i eziladi va portlagich bilan birgalikda oraliq detonatorga tarqalguncha pastga tushadi. Qopqog‘i yanada ezilganda portlatgichning korpusi to‘xtaydi, zarba beruvchi mexanizm esa pastlashda davom etadi. Bunda


cheka kesib tashlanadi, so‘ngra ozod bo‘lgan zarbdor prujinani harakati ostida zapalni yondiradi va minani portlatadi.

Tankka qarshi minalar zaryadning fugas ta‘hiri va kumulyativ yoy bilan talofat etkazadi.

Minalarning taktik-texnik tavsifi. 1-jadval.

| Minalar               | Umumiy og‘irligi kg | Zaryad massasi kg | Diametri mm | Balandligi mm | Ishga tushish uchun zarur kuch, kgs |
|-----------------------|---------------------|-------------------|-------------|---------------|-------------------------------------|
| Tankka qarshi minalar |                     |                   |             |               |                                     |
| TM-57                 | 9                   | 6,5               | 320         | 110           | 200-500                             |
| TM-62M                | 9,5-10              | 7                 | 320         | 330           | 150-600                             |
| TM-72                 | 6                   | 2,5               | 250         | 129           | 150-500                             |
| TM-62B                | 8,6                 | 8,2               | 315         | 128           | 200-500                             |

Ushbu minalar tanklar va boshqa jangovar texnikalarni yo‘q qilishga mo‘ljallangan. Ular zanjirga qarshi minalar (bevosita tank uni bosganda portlaydi) va tubga qarshi (tankning soyasi tushganda maxsus portlatgich ishlab ketganda portlaydi) minalarga bo‘linadi. Tankka qarshi mina birinchi bo‘lib rus harbiy-muxandisi D. M. Karbishev tomonidan 1934 yilda ixtiro qilingan.




## 2-o'quv stavol. 35 daqiqa. Piyodalarga qarshi minalar (PQM), ularning taktik-texnik ko'rsatkichlari, umumiy tuzilishi va ishlash prinsipi.

Ikkinchi o'quv savolini o'tkazish uslubi avvalgi o'quv savolining o'tkazish uslubi bilan bir xil. Piyodalarga qarshi minalarning harakat tamoyilini quyidagicha tushuntirish zarur. Portlatgichdan saqlovchi xalqani sug'irib olingach jangovor prujina harakati ostida kesuvchi element (rezak) metall elementni (vaqtinchalik sakqagichni) kesib tashlaydi va mina jangovor holatga keladi. Kesish vaqti 2,5 minut bo'lib bu minani xavfsiz sharoitda o'rnatish uchun etarlidir. PMD-6 va PMN minalarini qopqog'iga ezilsa va POMZ-2 minasini tortilgan ipiga uzilsa zarba beruvchi vosita (udarnik) ozod bo'ladi. Ozod bo'lgan zarba beruvchi vosita jangovor prujina ta'siriri ostida zapalni yondiradi va portlash yuz beradi. O'quv savoli yuzasidan mustaxkamlash uchun savollar beriladi.

### Ishlash prinsipi.

Piyodalarga qarshi minalar portlaganda fugasli ta'sir etib yoki parchalar bilan jarohat etkazadi. Fugasli minalar portlaganda odatda bitta odamga talofat etkazadi, parchalanuvchili minalar bir vaqtda bir necha odamni yo'q qilishi mumkin.



Rasm. a) umumiy ko'rinishi; b) kesimi; v) portlatgich MUV-2; 1-qopqoqcha; 2-metal element; 3-zarbdor; 4-zapal; 5-portlatkich korpusi; 6-saqlovchi cheka.

|       |      |      |        |     |         |
|-------|------|------|--------|-----|---------|
| PMD-6 | 0,49 | 0,2  | 190x90 | 50  | 6-28    |
| PMN   | 0,55 | 0,2  | 110    | 53  | 8-25    |
| POMZ  | 1,8  | 0,75 | 60     | 107 | 0,5-1,3 |

### **Minalarni o'rnatish**

Tankka qarshi va piyodalarga qarshi minalar tanklar va piyodalar yuradigan yo'llarga o'rnatiladi. Mudofaada ular old tomonga, ayniqsa qanotlarni va oraliqlarni himoya qilish uchun o'rnatiladi. Hujumda esa raqibning qayta hujumini qaytarish marrasi oldiga o'rnatiladi.

Tankka qarshi minalar joylarda qo'l bilan, mina o'rnatuvchi mashinalar va maxsus jihozlangan vertolyotlar yordamida o'rnatiladi, piyodalarga qarshi minalar faqat qo'l bilan o'rnatiladi.

Minani o'rnatish uchun uning o'lchamiga mos chuqurcha kovlanadi, bunda shuni esda tutish kerakki mina chuqurga qo'yilganda tuproq yuzasidan salgina ko'tarilib turishi kerak.

So'ngra unga portlatgich burab qotiriladi, portlatgich jangovar holatga keltiriladi (saqlovchi cheka sug'urib olinadi) va va mina niqoblar. Tankka qarshi minalar 5-8 sm tuproq bilan, piyodalarga qarshi minalar 1-2sm qalinlikdagi tuproq bilan, niqoblanadi. Piyodalarga qarshi minalar qaytarib zararsizlantirib olinmaydi, balki joyida portlatib yoki boshqacha yo'l bilan yo'q qilinadi.

### **YAshirin (niqoblanib) o'rnatilgan minalarning belgilari va ularni topish yo'l-yo'riqlari.**

Joyning maolum bir qismida o'rnatilgan minalar minali maydon hosil qiladi. Tankka qarshi minalashtirilgan, piyodalarga qarshi minalashtirilgan va aralash minalashtirilgan maydonlar bo'ladi.

Mina niqobini buzuvchi belgilarga mina ustida do'mning borligi, ular o'rnatilganda yig'ishtirilmagan tuproq, qishda toptalgan qor, tuproqning cho'kib turishi, minalashtirishda unutilib qolib ketgan anjomlar kiradi .

2-rasm. Mina o'rnatilganini bildirib turuvchi belgilar:



**Tuproqning cho'kishi**



**Tortilgan ip**



**Maysa ichidagi mina**



**Buzilgan chim**



**Do'ngchalar**



**Mina ko'rsatkichlari**

### **16-MAVZU. JOYLARDA XARITASIZ CHAMALASH (MO'LJAL OLISH).**

#### **Reja**

O'quv, tarbiyaviy maqsad: Talabalarga chamalashning mohiyatini, kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarni aniqlashni o'rgatish. Jangovor vaziyatlarda joylarda xaritasiz chamalashni ahamiyatini muhimligini anglatish.

O'quv savollari:

1. CHamalash(mo'ljal olish)ning mohiyati.
2. Kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarni aniqlash.
3. Magnit azimuti va uni aniqlash.

SHakl: Nazariy. (Amaliy).

Uslub: Tushuntirish, ko'rsatish, ma'ruza.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi.

Foydalanilgan adabiyotlar: «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi. 2007y. CHQBT fani o'quv dasturi. 2005 y. CHQBT o'quv qo'llanmasi 1- qism. 2005 y.

O'MT: Kompas (iloji boricha har bir o'quvchiga), soat, strelkali soat siferblati maketi, plakatlar.

### **1-o'quv savol. Chamalash (mo'ljal olish)ning mohiyati.**

Mashg'ulot rahbari ushbu mashg'ulotga tayyorgarlik jarayonida uni o'tkazish joyini, kerak o'quv vositalarini avvaldan xozirlab qo'yadi. Mashg'ulotni boshlashda dastlab chamalash(mo'ljal olish) va uning mohiyati to'g'risida tushunchasi beriladi. CHamalash(mo'ljal olish) deb ko'zga yaqqol tashlanib turadigan va atrofdagi boshqa predmetlardan aloxida ajralib turuvchi mahalliy predmetlar yoki relief elementlariga aytiladi. SHundan keyin mashg'ulot rahbari avvaldan tayyorlagan barcha o'quv vositalardan foydalanib ko'rsatib tushuntirishni boshlaydi. CHamalash (mo'ljal olish)larga nisbatan nishonlarning holati aniqlanadi. CHamalash(mo'ljal olish) olish gorizont tomonlari, relief va mahalliy predmetlarga nisbatan o'zining holatini va turli ob'ektlarining holatini aniqlash demakdir.

Avvalo gorizont tomonlariga bo'lgan yo'nalishlar aniqlanadi va chamalash(mo'ljal olish) lar bilan belgilab ko'yiladi hamda ko'z bilan chamalab chamalash(mo'ljal olish) gacha bo'lgan masofa aniqlanadi. Mashg'ulot raxbariga gorizont tomoniga bo'lgan yo'nalishni yuzi bilan o'sha tomonga qaragan holda o'ng qo'lga cho'zib ko'rsatish va chamalangan narsani aytish tavsiya etiladi.

O'quv materiali mazmuni o'rganilib bo'lingandan keyin Talabalarga savollar beriladi va o'qituvchi ko'rsatgan amaliy xarakatni mustaqil bajarish buyuriladi.

Harbiy topografiya joylarni o'rganish usullari, unda orientir (mo'ljal) olish va harbiy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa savollarni o'rganadi, jangovar topshiriqlarni bajarishda topografik xarita va aerosuratlardan foydalanishni o'rgatadi.

Harbiy topografiya tomonidan o'rganiladigan savollar shaxsiy tarkibning turli jangovar topshiriqlarni bajarishdagi amaliy faoliyatiga bevosita aloqador bo'ladi. Harbiy topografiya bo'yicha egallangan bilim va ko'nikmalar holatni yaxshi baholashga, eng ma'qul qarorni qabul qilishga, kuzatishni, o't ochish tizimini va jangda bo'linmalarni boshqarishni yaxshi tashkil etishga, jangni muvaffaqiyatli olib borish maqsadida joyning taktik va himoyaviy xususiyatlaridan to'la foydalanishga imkon beradi.

Harbiy topografiyani o'rganish shaxsiy tarkibda kuzatuvchanlik, aniqlik, kuzatish natijalarini tahlil qila olish va joyni jangovar topshiriqni bajarishga ta'siri to'g'risida xulosa qila olish kabi sifatlarni rivojlantira oladi.

**Joyda orientir (mo'ljal) olish** - bu o'zining turgan joyini gorizont tomonlariga va alohida ajralib turgan mahalliy predmetlarga (orientirlarga) nisbatan aniqlash va ko'rsatilgan yoki tanlangan harakat yo'nalishini aniq ushlashdir. Jangovar holatda joyda orientir olish o'zining turgan joyini o'z qo'shinlariga va dushman qo'shinlariga nisbatan aniqlashni ham o'z ichiga oladi.

Joyda topografik xarita yordamida yoki xaritasiz orientir olish mumkin. Joyda xaritasiz orientir olinganda gorizont tomonlarini aniqlab olish kerak bo'ladi.

## **2-o'quv savol. Kompas, soat, quyosh va mahalliy narsalar yordamida dunyo tomonlarni aniqlash.**

Ushbu o'quv savoli materiallarini o'rganishni gorizont tomonlarini aniqlashning asosiy usullarini sanashdan boshlanadi. Kompas yordamida gorizont tomonlarini aniqlashga o'tishdan avval Adrianov kompasining tuzilishi va ishlash tamoyilini tushuntirish lozim.

Mashg'ulot rahbari Talabalarga kuchli elektromagnit maydonlar, yirik metall buyumlar kompas strelkasini haqiqiy holatidan o'zgartirib yuborishi mumkinligini o'qtirish shart. SHuning uchun ta'kidlash kerakki kompas bilan ishlayotgan elektr uzatish tarmog'i, temir yo'l va metall inshootlaridan 40-50 metr uzoq masofada turish tavsiya etiladi.


Mashg'ulot rahbari o'zi kompas bilan gorizont tomonlarining yo'nalishni aniqlaydi undan keyin Talabalar mashg'ulot rahbari kuzatuvida mustaqil ravishda gorizont tomonlarining yo'nalishni aniqlashni davom ettiradilar. Talabalarni kompas yordamida gorizont tomonlarining yo'nalishini aniqlashni bilib olishganliklariga mashg'ulot rahbari ishonch xosil qilganidan keyin samo jismlari yordamida, avvalo quyosh yordamida gorizont tomonlarining yo'nalishni aniqlashni o'rgatishga o'tiladi.

Undan katta xajmdagi soatdan foydalanib gorizont tomonlarining yo'nalishni aniqlash ko'rsatib tushuntiriladi. Bunda soatdagi strelkalar o'sha paytdagi haqiqiy vaqtga to'g'irlanib qo'yiladi. Agar tun qorong'usida gorizont tomonlarining yo'nalishni aniqlash zarur bo'lsa katta va kichik ayiq yulduz turkumlaridan foydalanib qutb yulduzini topish zarur bo'ladi. Kutb yulduzi doimo shimol tomonda ko'rinadi. Qorong'ilikda gorizont tomonlarining yo'nalishni aniqlashni mashg'ulot raxbariga diafilim va rangli plakatlardan ko'rsatib tushuntirish tavsiya etiladi.

### **Gorizont tomonlarini aniqlash**

Joyning xarakteri, sutkaning vaqti va tomonlarning ko'rinishiga qarab gorizont tomonlari quyoshning holati, quyosh va soat bo'yicha, qutb yulduzi bo'yicha, mahalliy predmetlar belgilari bo'yicha va boshqa usullarda aniqlanadi.

Gorizont tomonlarini **kompas yordamida** aniqlash uchun avval mushkani limbning «nol» bo'lagi bilan mos keltirish kerak. Buning uchun kompas gorizont holatga qo'yiladi va mil tormozdan olinadi. Kompas milning shimol yo'nalgan qismi limbning «nol» bo'limiga to'g'ri kelguncha buraladi. Orientirlangan holatda kompas milining «nol»ga yo'nalishi shimolga yo'nalishini ko'rsatadi. SHundan so'ng o'yiqlik va mushka orqali qarab shimol ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladigan mahalliy predmetlar (orientirlar) tanlanadi. SHimol yo'nalishini bilib olingach, gorizontning boshqa tomonlarini aniqlash oson bo'ladi.




1-рasm. Адрианов компаси:  
1-мушка 2-магнит мили; 3-тормоз; 4-ўйик.

Gorizont tomonini **Quyoshning holati bo'yicha** aniqlash uchun bizning qit'omizda quyoshni 7:00 sharqda, 13:00 janubda, 19:00 g'arbda bo'lishligini bilish kifoya.

Gorizont tomonini **Quyosh va soat bo'yicha** (-rasm) aniqlashda soatning kichik (soatni ko'rsatuvchi) milini quyoshga qaratib gorizont holatda qo'yiladi. So'ngra, soatni shu holatda ushlab soatni ko'rsatuvchi mil va bir raqami orasidagi burchak taxminan teng ikkiga bo'linadi. hosil bo'lgan to'g'ri chiziq janubga bo'lgan yo'nalishni ko'rsatadi.

Kunning birinchi yarmida soat mili 13:00 gacha bosib o'tilishi kerak bo'lgan burchakni teng ikkiga bo'lishi kerak.

tomonlarini  
a-




Rasm. Quyosh va soat bo'yicha gorizont  
aniqlash:  
13:00 ga fadar; b-13:00 dan so'ng.



rasm. Qutb yulduzini topish

**Qutb yulduzi bo'yicha** gorizont tomonlarini aniqlash uchun Katta ayiq yulduz turkumini topib olish kerak. So'ngra "cho'mich"ning chekka yulduzlari orasidagi masofa ( $\alpha$  va  $\beta$ )ni uning kengaygan tomoniga chamalab davom ettirib 5 marta qo'yamiz. Hosil bo'lgan nuqta Qutb yulduzining holatini ko'rsatadi. Qutb yulduzi Kichik Ayiq yulduz turkumiga kiradi va doimo shimol yo'nalishida bo'ladi.

Gorizont tomonlarini **mahalliy predmetlar belgilari bo'yicha** aniqlash mahalliy predmetlarni quyoshga nisbatan holatiga asoslanadi. SHunday qilib daraxtlar, katta toshlar va qoyalarning shimol tomoni moh bilan qoplangan bo'ladi, o'rmonda chumoli uyalari doimo daraxtlarning janub tomonida joylashgan bo'ladi. Mevalarning janubga qaragan tomoni tezroq rang oladi. Qirlarni janub tomonidagi qorlar shimol tomonidagi qorlarga nisbatan tez eriydi. CHerkovlar gumbazidagi xochning to'sinlari shimol-janub yo'nalishida o'rnatilga bo'lib, to'sinning ko'tarilib turgan tomoni shimolga qaragan bo'ladi.




Rasm. Mahalliy predmetlarning belgilariga qarab gorizont tomonlarini aniqlash.

### 3-o'quv savol. Magnit azimuti va uni aniqlash.

Mahalliy predmetga bo'lgan yo'nalishni aniqlashda odatda magnit azimutidan foydalaniladi. **Magnit azimuti** deb soat mili harakati yo'nalishida o'lchanadigan meridianning shimol yo'nalishidan predmet yo'nalishigacha bo'lgan gorizont burchakka aytiladi. Magnit azimutining miqdori 0 dan 360 gradusgacha bo'lishi mumkin. Kompas yordamida mahalliy predmetga bo'lgan magnit azimutini aniqlash uchun yuz tomon bilan turish va kompasni

orientirlash lozim. So'ngra kompasni orientirlangan holda ushlab, ko'rish moslamasini shunday o'rnatish kerakki, o'yiqlik - mushka ko'rish chizig'i mahalliy predmetga bo'lgan yo'nalish bilan mos tushsin. Bu holatda mushkaning oldidagi ko'rsatkich qarshisida limbdagi hisob mahalliy predmetga bo'lgan magnit azimuti (to'g'ri azimut)ning miqdorini ko'rsatadi.

Teskari azimut - bu mahalliy predmetdan turish nuqtasiga bo'lgan yo'nalishdir. To'g'ri azimutdan u 180 gradusga farq qiladi. Uni aniqlash uchun agar to'g'ri azimut  $180^0$  dan kichik bo'lsa unga  $180^0$  qo'shiladi, agar  $180^0$  dan katta bo'lsa, undan 180 gradus ayirib tashlanadi.



rasm. Magnit azimutlari.

## **17-MAVZU: KALASHNIKOV AVTOMATI, GP-25 STVOLOSTI GRANATAMYOTI, PARCHALANUVCHI QO'L GRANATALARINING ASOSIY QISMLARI.**

### **Reja**

O'quv, tarbiyaviy maqsad:

Talabalarga qurol bilan ishlaganda xavfsizlik choralarini, avtomatning va GP-25 stvolosti granatamyotining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi, ishlash usulini o'rgatish. Kurolli Kuchlarimizga va jangovor qurollarga muhabbat ruxida tarbiyalash.

O'quv savollari:

1-o'quv savol. Qurol - yarog' va o'q dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari.

2-o'quv savol. Avtomatning va GP-25 stvolosti granatamyotining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi, ishlash usuli.

3-o'quv savol. Avtomatni to'liq va qisman qismlarga ajratish tartibi.

SHakl: Nazariy.

Uslub: Tushuntirish, ko'rsatish.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi.

Foydalanilgan adabiyotlar: «CHHT» tashkil etish va uning metodikasi. 2007y. CHQBT fani o'quv dasturi. 2005 y. CHQBT o'quv qo'llanmasi 1- qism. 2005 y.

O'MT: AK maketi, plakatlar, multimediya va slaydlar.

**1-o'quv savol. Qurol - yarog' va o'q dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari.**

Avtomat bilan muomala qilinganda xavfsizlik choralariga qat'iy amal qilish shart. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot boshlanmasdan avval avtomat o'qlanganligini tekshirib ko'rish zarur.
2. Avtomatni ko'zdan kechirish, o'qdonni o'qlash va bo'shatishda ehtiyot bo'lishlik, harakatlar ketma-ketligiga e'tibor berish kerak.
3. Tepkini ezishdan avval stvolni ko'tarib turiladi.

4. Avtomat xattoki o'qланmagan bo'lsa ham uni odamlarga do'layish taqiqlanadi; u mashg'ulotlardan so'ng saqlagichga qo'yiladi.

5. O'qdonni paxtavon patronlar bilan o'qlashda ularning ichida jangovarlarini yo'qligini tekshirish zarur.

6. Patronlar pistonini zarbalardan saqlash kerak.

7. Otilmay qolgan patronlardan o'quv patronlari sifatida foydalanish ta'qiqlanadi.

8. O'zga quroldan otish ta'qiqlanadi.

9. Foydalanish qoidalarini bilmagan quroldan otish ta'qiqlanadi.

10. Komandirning buyrug'isiz qurolni boshqa shaxsga berish ta'qiqlanadi.

11. Komandirning buyrug'isiz qurolni qarovsiz qoldirish ta'qiqlanadi.

12. O'zga shaxsga qurolni berayotganda u o'qланmaganligini tekshirib, keyin berish darkor.

13. O'zga shaxsdan qurolni olgandan so'ng u o'qланmaganligini tekshirib olish darkor.

14. Harakat chog'ida qurolni tutish qoidalariga rioya qilish darkor (yugurib ketayotganda; avtomobilda ketayotganda va h.).

15. Avtomatni faqat o'qlashga ruhsat berilganida, 45 gradus burchak ostida yoki nishon tomonga qaratilgan xolda o'qlash lozim;

16. Otish mashqlarida komandirning buyrug'iga qat'iy rioya qilinishi shart.

17. Otish maydonida odamlar, hayvonlar va avtomobil vositalari paydo bo'lgan xollarda mustaqil ravishda otish to'htatiladi.

18. Otish mashg'ulotlarida oq bayroq ko'tarilganida, yong'in sodir bo'lganida otish to'htatiladi.

19. Ruhsat etilmagan joylarda avtomatni yoyish-yig'ish ta'qiqlanadi.

20. Patronlarni ochish (poroxini olish maqsadida) ta'qiqlanadi.

21. Zanglagan, shakli buzilgan patronlardan foydalanish ta'qiqlanadi.

## **2-o'quv savol. Avtomatning va GP-25 stvolosti granatamyotining vazifasi, jangovar xususiyatlari, umumiy tuzilishi, ishlash usuli.**


Stvol osti granatomyoti GP-25 ochiq maydonda, okop va transheyalardagi hamda balandliklar ostidagi nishonlarni yakson etish uchun mo'ljallangan. Ushbu granatomyotning qo'llanishida barcha o'lchamdagi Kalashnikov avtomatlariga qo'shimcha ustamalarsiz o'rnatilgan bo'ladi. Granatomyotga parchalanuvchi granatalar qo'llaniladi. Bu granatalar tez portlovchi va o'zini yo'q qiluvchi moslamalari bilan taminlangan. Granatomyotni avtomatga o'rnatilmagan xolatda otish uchun foydalanib bo'lmaydi. Granatomyotni o'qlash tartibi, uning stvol boshidan o'qlanadi.

Granatomyotni beto'xtov ishlov xolati barcha iqlim va ob-havo sharoitlarida ham taminlab beradi. Granatomyot shaxsiy qurol bo'lib bir askarga tegishli xisoblanadi.

Kalibri 40 mm, mo'ljalga olish masofasi 400 metr, jangovar otish tezligi 1 daqiqada 4-5 marta, granatomyotning uzunligi 323 mm, og'irligi 1.5 kg. tashib yuruvchi o'q-dori miqdori 10 ta.

GP-25 granatomyotining tuzilishi. 1. Stvol, mo'ljalga olish va avtomatga o'rnatish moslamalari bilan; 2. Kazyonik - o'qlash qismi; 3. Otish boshlovchi mexanizm.

GP-25 granatomyotining ishlash prinsipi. O'ng qo'lda avtomatni ushlab, chap qo'lga granatomyotni olib stvol ostidagi granatomyot o'rnatish moslamasiga yuqoridan pastga tushiriladi. O'qlash tartibi-VOG-25 rusumli granata granatomyot stvolining bosh qismiga chap qo'lni bosh barmog'i bilan qadab qo'yiladi. Bu granata o'qlash qismiga qotirilgan xolatda turishi kerak. SHu xolatda granatomyot otishga tayyor xisoblanadi.



Расм №3 ГП – 25 **Ствол остида**

Otish tartibi - granatomyotdan uch xil xolatda, ya'ni tik turgan xolatda, tizzaga tayangan xolatda va o'tirgan xolatda otish belgilangan.




Расм №4 ГП – 25. **Отиш усуллари**

Granatomyotni qismlarga ajratish - zarba beruvchi mexanizmning korpusi o'ng qo'l bilan ushlab, bosh barmoq bilan qotiruvchi moslama bosiladi. Cxap qo'l bilan stvol tanasini ushlab, o'ng qo'l bilan esa soat strelkasi yo'nalishida buraladi va yuqoriga tortiladi.

To'la qismlarga ajratish taqiqlanadi. Granatomyotga faqat VOG-25 rusumli granatalar ishlatiladi.

#### **Avtomatning asosiy qism va mexanizmlarining umumiy tuzilishi, vazifalari.**

AK-74 qurolining og'irligi 3,4 kg bo'lib, tez otish va ballistik AK - 74 quroli bilan bir xildir. Quroldan otishda oddiy va xavoda iz qoldiruvchi o'qlardan foydalaniladi. O'qlarni yoritish izi 800 metrgacha ko'rinish beradi. O'qdondan qitichasirnon bo'lib, korpus plastmassadan yasalgan. Unga 30 ta o'q shaxmat tarzida joylashadi. O'qdonga 15 tagacha o'qni tez joylashtirish uchun maxsus asbob ishlab chiqilgan. Avtomatga soddalashtirilgan nayza-pichoq ham o'rnatilgan. Stvol - o'qning mo'ljallangan tomonga uchishi uchun xizmat qiladi.



Stvol ichkarisida to'rt qirrali kanali bo'lib, chapdan yuqoriga va o'ngga yo'nalgan, Qirralar o'qni tez kuclilanib hardkdllanishiga xizmat qiladi. Qirraiar bilan bog'langan yo'lak bo'lib, bu yo'lakning o'rtasi stvol kalibri deyiladi.

Stvolning zixrlangan qismi qattiq piston shaklida bo'lgan o'qianish qismi deyiladi. O'qlanish qismidan stvol kanalining qismiga o'tishi o'qning yo'lagi deb ataladi,


Stvolning bosh qismida rezba bo'lib, unga kompensator ula gaz kamerasi, bog'lovchi mufta, nishonga olish dastasi hamda o'q solinadigan joyda otilgan o'q gilzasini chiqarib tashlovchi ilib Molish uchun zirxli kesishgan joyida yo'naltiruvchi changakdan.




Gaz tuynugida ishqorlangan yo'nalish gaz kamerasi orqali gaz kamerasiga o'tadi.

Stvol qutisi - avtomat qisrn va mexanizmlarini biriktinsh, zatvor rainasini zatvor bilan birgalikdagi harakatini yo'naltirish, sivol tanalini zatvor bilan yopish va zatvorni yopish uchun xizmat qiladi.

Stvol qutisi o'zining qopqog'i bilan yopiladi



Stvol qutisi qopqogi - stvol qutisida joylashgan avtomatning qism va mexanizmlarini ifloslanishdan saqlaydi.



Mo'ljalga olish moslamasi - avtomat (pulemyot)ning o't cho'g'ini turli masofalardagi nishonlarga to'g'rilash uchun xizmat qiladi.



Mo'ljalga olish moslamasining asosi quyidagilarga ega: moslama plankasiga belgilangan balandlikni berish uchun xizmat qiladigan yo'laklar, nishon plankasini biriktirish uchun lpxatqalar, shift va gaz tmbkasi uchun darchalar; ichida - yassi prujina uchun uya va zatvor ramasi uchun bo'shliq; ortki devorida - stvol qutisining qopqog'i uchun yarim doira kesma.

Yassi prujina moslama asosi ichida joylashgan bo'lib. moslaraa plankasini o'rnatilgan xolatida tutib turadi.

Moslama plankasining o'yiqli joyi bo'lib undagi kesma nisbonga mo'ljallanish uchun, plankadagi ko'ndalang kesmalar esa yuruvchi xalqani o'rnatilgan xolatda prujinali tortqi yordamida tutib turiladi.

Pulemyotdagi nidioncha o'yiqli joyga ega bo'lib, u nishonga to'g'ri olish uchun mo'ljallangan.

Bundan tashqari u buragich bilan birgalikdagi vintga shayba va shtiftga ega.

Yuruvchi xalqa moslama plankasiga kiydirilgan bo'lib, tortqi yordamida tutib turiladi.

Tunda otish uchun (mo'ljallan plankasi qadog'iga va mushkasiga yoritish jixzlari o'rnatiladi va tungi Mmo'ljallashlar ham qo'llanida.


Mushka sirg'aluvchisi tengma-teng mushka asoslariga qodrilgan va mushka asoslariga xavf bcrilish xolatlari ham aniqlanadi.

Qo'nqop pisolet dastagi - avtomatdan qulay tarzda otishni ta'minlaydi.


Zatvor ramasi, gaz porsheni bilan birgalikda zatvor va zarbdor-tepki mexanizmini harakatga keltirish uchun xizmat qiladi.



Zatvor patronni patrondonga yuborish, stvol kanalini yopish, kapsulni ezish va patrondan gilzani (patronni) sug'irib olish uchun xizmat qiladi.



Qaytaruvchi mexanizm - zatvor ramasini zatvor bilan birga a qaytarishni taminlaydi.



Gaz trubkasi gaz porsheni harakatini yo'naltirish uchun xizmat qiladi.

Stvol usti qoplamasi avromatchini (pulemyotchini) o't ochish chog'ida stvol qiziganda qo'llarini kiyishdan asrash uchun xizmat qiladi.



Zarbdor-tepki mexanizmi tepkini jangovar xolatdan xalos zarbdorga zarba berish, avtomatik va yakka tarzda o't ochil taminlash. o't ochishni to'xtatish, zatvor yopilgan xollarda o't Mochishni oldini olish va avtomatni (pulemyotni) saqlagichga uchun xizmat qiladi.



Jangovar prujinali tepki - zarbdorga zarba berishga m'oljallangan, Tepkida jangovar vzvod, to'xtovsiz avto boshlovchi vzvod o'qini aylanuvchi qismi bo'yini va o'q (osi)lar uchun teshiklar mavjuddir. Jangovar prujina tepkini aylanuvchi qismi bo'yicha kirgizilib va o'z ilmoqlari bilan tepkini hamda oxirida boshlovchi tepkini to'g'ri burchakli tumshug'iga harakatlanishiga olib keladi.

Tepki harakatini so'ndirgich - oldindagi jangda avtomatik tarzda o'qlaming g'ujligini amalga oshirishda tepkini susaytirish uchun xizmat qiladi.

Avtotepki - tepkini jangovar vaziyatda ishlashini va tepkini bosish uchun xizmat qiladi.

Yakka o't ochish sheptalasi - o't ochishdan keyin, yaklta o't ochishni taminlashda tepki qo'yib yuborilmagan bo'lsa, tepkini CM oxirgi xolatida ishlashni tammkydi.

Avtotepki prujina - to'xtovsiz avtomatik tarzda o't ochishda avtoboshlovchi vzvod tepkisini avtomatik ravishda oznd bo'lishi uchun, shuningdek, stvol kanali va zatvor berkitilmaganda o't ochishning oldini oladi.

O'tkaziluvchi - to'xtovsiz avtomatik tarzda yoki bittadan o't ochishga qo'riqlagich (predoxranitel)ga o'tkazilish uchun xizmat qiladi.

Stvol osti qoplamosi - avtomatning harakatlanishiga shamit yaratib, qo'lni kuyishdan saqlaydi.



O'qdon (magazin) - o'qlaming joylashishini va stvol qutisi yetkazib berisli taminlaydi.



Nayza-pichoq - xujumga o'tish oldidan avtomatga qadaladi. qo'l jangida dushmanni safdan chiqarish uchon qo'llaniladi. U bel kamariga qadab yuriladi. Ayrim xollarda u bilan simlar ham kesiladi.



Найза – пичоқ ғилофи билан

### 3-o'quv savol. Avtomatni to'liq va qisman qismlarga ajratish tartibi.

Ushbu o'quv savolini yoritishda mavjud multimedia qo'llanmasidan foydalaniladi. O'qituvchi talabalarga avtomatni yoyish va yig'ish tartibini tushuntirar ekan, ketma-ketlikni yozib olishlarini va avtomatning qismlarini yod olishlarini tavsiya etadi.

Avtomatni to'liqsiz qismlarga ajratish va yig'ishni ko'rsatib tushuntirib boradi. Svol ustida avtomat qismlarining joylanish ketma-ketligi qismlarni ajratish tartibiga mos kelishi kerak. Mashg'ulot rahbari Talabalarga avtomatni chap qo'l bilan ushlash kerakligini, o'ng qo'l bilan esa uni qismlarga ajratish lozimligini xam o'zi ko'rsatib bajaradi va tushuntiradi. Keyin Talabalarining ichidan xoxish bildirgan 2 nafar o'quvchiga avtomatni qismlarga ajratish va yig'ish uchun maxsus stolga taklif qilib ularni xarakatini kuzatib boradi va kerak joylarda tuzatishlar kiritadi. Bu xol vaqti-vaqti bilan boshqa talabalar bilan ham o'rin almashib qaytariladi. Mashg'ulot yakunida mashg'ulot rahbari Talabalardan avtomatning jangovor xususiyatlarini, ajratish va yig'ish tartibini, asosiy qism va mexanizmlarini aytib berishini so'raydi.

## 18-MAVZU. KICHIK KALIBRLI (PNEVMATIK) MILTIQ.

### Reja

O'quv, tarbiyaviy maqsad: Talabalarga miltiqning vazifasini, tuzilishini, o'qlash tartibini, otishga tayyorlash, o'qlash va o'q otishning o'ziga xos tomonlarini tushuntirish. Talabalarga otish mashqlariga bo'lgan qiziishlarini orttirish.

O'quv savollari:

1-o'quv savol. Miltiqning vazifasi, tuzilishi.

2-o'quv savol Miltiq qismlarining ishlash prinsipi va uni o'qlash tartibi. Vintovka bilan muomala qilinganda xavfsizlik qoidalari.

3-o'quv savol. Miltiqni otishga tayyorlash, o'qlash va o'q otishning o'ziga xos tomonlari.

SHakl: ma'ruza

Uslub: Ma'ruza, tushuntirish, ko'rsatish.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi.

O'MT: Plakatlar, slaydlar. Otish tayyorgarligi bo'yicha qo'llanma.

Tayanch so'z va iboralar: kalibr - qurol stvolining kengligi; gilza - patronning poroxi idishi.

### 1-o'quv savol. Miltiqning vazifasi, tuzilishi.

Miltiqning tuzilishi: Kichik kalibrli miltiq Tula qurolsozlik zavodida ishlab chiqarilgan bo'lib, otish bo'yicha o'tkaziladigan tayyorgarlik mashqlarida otishni o'rganish uchun qo'llaniladi.


Kichik kalibrli miltiq boshlang'ich o'qitishda va otish ommaviy tadbirlarni o'tkazishda qo'llaniladi.

#### Kichik kalibrli mitiqlarning asosiy tavsiflari.

| t/r | Asosiy tavsiflar                                | TOZ - 8     | TOZ - 12 |
|-----|-------------------------------------------------|-------------|----------|
| 1   | Kalibr, mm,                                     | 5.6         | 5.6      |
| 2   | O'qning boshlang'ich tezligi, m / soniya        | 310         | 310      |
| 3   | O'qning og'irligi, gr                           | 2,55 – 2,60 |          |
| 4   | Patronning og'irligi, gr                        | 3,5         |          |
| 5   | Poroxli zaryad og'irligi, gr                    | 0,06        |          |
| 6   | Stvol kanalida poroxli gazning maksimal bosimi, | 1300        |          |
| 7   | Patron uzunligi, mm                             | 25,4        |          |
| 8   | Gilza uzunligi, mm                              | 15,66       |          |

Kichik kalibrli TOZ-8, TOZ-12 miltqlaridan ko'proq sport musobaqalari o'tkazishda hamda otish tayyorgarligining boshlang'ich o'q otish mashg'ulotlarni olib borishda keng foydalaniladi. TOZ-8 miltiqning jangovar xususiyatlari:

**Kalibr** – 5,6 mm; og'irligi – 3, 0/2 kg; umumiy uzunligi – 111 sm; o'qning boshlang'ich tezligi – 310 m/s. gacha; otish tezligi bir daqiqada – 10 – 12 martagacha; nishonga olish masofasi – 250 m; o'qning eng uzoqqa uchish masofasi – 1200 metrdan 1600 metrgacha; o'qning o'ldirish (halok etishi) kuchi masofasi – 800 metrgacha.



**Rasm. Kichik kalibrli miltiq (TOZ-8);**

1 – qo'ndiq yuz qismi; 2 – qo'ndiq bo'yini; 3 – orqa qalpoqchasi; 4 – stvol karobkasi, otishni boshlovchi mexanizm ilovasi bilan; 5 – otilgan gilzalarni chiqarib tashlovchi tuynuk; 6 – mo'ljal; 7 – stvol; 8 – namushnik; 9 – poya uzasi; 10 – yuqori qadog'ich; 11 – zatvor dastagi; 12 – zatvor; 13 – boshlovchi ilgak; 14 – boshlovchi halqa; 15 – pastki qadog'ich; 16 – qo'ndiq.

Miltiqni vazifasi va mexanizmlarining tuzilishi.

TOZ- 8 miltig'i stvol, Stvol qutichasi, tepki mexanizimi, nishonga olish moslamasi, zatvor va lojkadan iborat.

- Stvol – o'qni yo'naltirish uchun xizmat qiladi.

- Stvol qutichasi – kanop tola yordamida stvol bilan birlashtirilgan. U undan zatvor va vkladishni joylashtirish uchun xizmat qiladi. Stvol qutichasi orqadan qopqoq yoki qopqoqcha bilan berkitiladi.

- Tepki mexanizimi – tepkini jangovor holatda turishi uchun zarur. U tepki ilmog'i, tepki prujinasi vintidan iborat.

- Zatvor – patronlarni patrondonga yuborish, stvol kanalini berkitish, otilishni amalga oshirish va otilgan gil'zani chiqarib tashlash uchun xizmat qiladi.

Nishonga olish moslamasi – miltiqni nishonga qaratish va unga zaruriy nishonga olish burchagini berish uchun mo'ljallangan. U ochiq turdagi spektor nishon va nishonlagichdan iborat.

Kichik kalibrli miltiq uchun patron maxsus kapsulaning yo'qligi bilan farqlanadi.

Gil'za latundan tayyorlanadi va silindrik shaklda bo'ladi. Gilza ichiga porox joylashtiriladi. Gilzaning oldingi qismiga surmali qo'rg'oshin eritmasidan tayyorlangan o'q mahkamlanadi. O'qning o'rta qismiga stvol kanaliga ishqalanishni kamaytirish uchun etakchi belbog'chalar qilinadi. Orqa qismida otilishda o'q va stvol devorlari orasidan gazning chiqishini oldini olish uchun sferik chuqurlik mavjud.

**Har bir kichik kalibrli miltiq uchun quyidagilar ko'zda tutiladi:**

- 1.Stvol kanali va patronni tozalash va moylash uchun tozalash.
- 2.Miltiqni yoyish va yig'ish uchun buragich.
- 3.stvol kanalini tozalash uchun shompol.
- 4.Stvol kanalini moylash uchun dag'al junli sho'tka.
5. Qurol moyini saqlash uchun moydon.
6. Bundan tashqari miltiq to'plamiga tasma ham kiradi.

**2-o'quv savoli: Miltiq qismlarining ishlash prinsipi va uni o'qlash tartibi. Vintovka bilan muomala qilinganda xavfsizlik qoidolari.**

Miltiq qismlarining ishlash prinsipi.

Miltiqni o'qlashda stvol qutiyaasi darchasi orqali qo'yilgan patron oldinga zatvor bilan uni yuborish paytida vkladish qirralari bo'ylab sirpanadi va patrondonga kelib tushadi. Zatvor bilan oldinga yuborishda tepki o'zining jangovor holati bilan tepki prujinasi tirgagiga taqaladi va ushlab qolinadi, poya va jangovor lichinka oldinga harakatni davom ettirib, jangovor prujinani siqadi. Uloqtirgich va gil'za ushlagich patrondon kesiklariga kiradi, uloqtirgich tishi gilza chetiga sakrab oladi. Zatvor poyasi ushdagichini quyi holatga bo'g'umli kesik bo'ylab tushirishda zatvor mahkam stvol kanalini berkitadi.

Tepkiga bosishda u o'z o'qi atrofida buraladi va tepki prujinasi tirgagini cho'ktiradi, bunda u jangovor holatdan chiqadi.

Jangovor prujina ta'sirida zarbalagich jangovor lichinka kanali bo'ylab oldinga beriladi. Jangovor lichinka kosachasidagi oraliq orqali o'tgan boyok gilzaga zarba beradi va otilish sodir bo'ladi.

Miltiqni o'qsizlantirishda zatvor ushlagichini yuqoriga burashda poya keskilari tepking kerakli do'nglari bo'ylab siljiydi va tepeini, u bilan birga zarbalagichni ham siqadi.

Zatvorni orqaga olishda uloqtirgich gilzani patrondondan chiqarib tashlaydi, vkladishning do'ngiga taqalib, gilza stvol qutichasi darchasi orqali uloqtiradi. Sung tepking jangovor holati tepki prujinasi tirgagi tagidan utib, undan cho'kadi. Jangovor holatdan keyin prujina ko'tariladi va tushib qolishdan zatvorni ushlab qoladi.

Sport otishmasi uchun jangovor o't ochish 5,6 mm li yoppasiga va nishonga ko'ra otiladigan kichik kalibrli patronlar ko'llaniladi.

**Miltiqni o'qlash tartibi:** Miltiqni yotib olib otish holatida miltiq qo'ndog'ining bosh qismini o'ng qo'l bilan ushlab o'ng oyoq bir qadam oldinga tashlanadi va oyoqni biroz o'ngroqqa olib, oldinga engashib, chap oyoqni egib chap qo'l bilan erga yotib chap oyoqning tovonini erga qadaladi va chap qo'lni ko'ksiga olinadi. CHap tomonga yotgan holda qorin tomonga tez o'girilib erkin holda oyoqlarni tovonini bilan yozib yuboriladi. Miltiq g'ilofi (poyasi)dan o'ng qo'lning kaftiga olinadi.

Kichik kalibrli miltiqni o'ng qo'lda zatvor ushlagichidan orqaga tortib, stvol qutisining ochilgan joyiga o'ng qo'lning bosh va qo'rsatkich barmoqlari yordamida o'qni olib uni o'qdonga solinadi. O'qni bosh barmoq bilan oldinga, stvolga to'liq kirguncha yo'naltiradi, so'ngra o'ng qo'l bilan zatvor yopiladi.

**Otishdagi to'xtalishlar va ularni bartaraf etish usullari.**

Miltiqni tozalash, moylash va saqlash qoida va tartibiyu Qurolni ishlatishda xavfsizlik choralari. Qurolga qarash, uni saqlash va avaylash.

Qurolni har doim toza hamda janga shay holatda saqlash kerak. Bunga o'z vaqtida mohirona tozalash va moylash hamda turli xil shart – sharoitlarda to'g'ri saqlash va avaylash orqali erishiladi.

#### **Miltiqni tozalash tartibi.**

Qurolni tozalanishi otishga tayyorlashda, jangovor patronlar bilan otgandan keyin amalga oshiriladi. Tirda, dalada stvol qutuchasi, stvol kanali va zatvor tozalanadi va moylanadi. YAkuniy qurol tozalanish otishmadan qaytgach va kelgusi 3-4 kunlarda har kuni, daladagi mashg'ulotdan keyin, jangdan tashqari vaqtda kunda va o'qishlardagi tanaffus paytida amalga oshiriladi.

Agar qurol qo'llanmagan bo'lsa, unda u har haftada bir marta kichik kalibrli miltiq esa 10 kunda bir marta tozalanadi.

Tozalashdan keyin qurol darhol metallga namlik ta'sir qilmaslik uchun moylanadi. Qurolni tozalash va moylashni shu maqsadda jihozlangan stollarda, dala sharoitida esa toza tagliklardan, taxtadan, fonerda amalga oshirish kerak.

Otishma joyida qurol otishdan keyin suyuq qurol moyi bilan tozalanadi va moylanadi.

Qurolni sovuqdan issiq joyga olib kirishdan ilgari uning ustini qurol moyi bilan bo'ktirilgan latta bilan artib chiqish va moy so'rilib bo'lgandan so'ng tozalash tavsiya eiladi.

Qurol bevosita harbiy rahbar boshchiligida tozalanadi. Turli ob-havo sharoitlarida qurol qism va mexanizmlarini tozalash va moylash uchun quyidagilar qo'llaniladi: 981-75 DST li suyuq qurol moyi, ishqalash, tozalash, va moylash uchun KV – 22 qog'ozi va faqat stvol kanali uchun kanop losi.

Suyuq qurol moyi o'rniga boshqa moyi ishlatish qa'tiyan man etiladi.

Miltiqni chap qo'l bilan ushlab turib, o'ng qo'l bilan shompol butun stvol bo'ylab bir necha bor asta surtilib chiqiladi. SHompol chiqariladi va kanop losi almashtiriladi, uni yana qurol moyi bilan bo'ktirilib, huddi shu tartibda stvol kanali yana tozalanadi. Bir necha bor shunday qilinadi, so'ngra shompol yaxshilab artib chiqiladi va stvol kanali toza quruq latta bilan artiladi. So'ng toza latta bilan artish kerak. Latta ko'zdan kechiriladi, agar unda zang, kuyindi va iflos izlari sezilsa, tozalashni davom ettirish kerak. Stvol kanali undan toza latta chiqmagunga qadar tozalanadi. Stvol kanali old qismidan va patrondon tomondan yorug'da tekshiriladi.

Qolgan boshqa metall qismlari latta bilan quruq qilib artiladi. Qattiq ifloslanishlarda suyuq qurol moyi bilan tozalab so'ng quruq qilib artiladi.

YOg'ochli qismlari quruq latta bilan artiladi. Tozalab bulgach har bir otuvchi instruktorga ko'rsatadi va uning ruxsati bilan qurolni moylashga va yig'ishga kirishadi.

#### **Qurol kuyidagi tartibda moylanadi:**

Stvol kanali, patrondon va kompensator moylanadi, qolgan barcha metall qismlari yog'langan latta yordamida yupqa moy bilan qoplanadi. Bunda nazarda tutish keraki ortiqcha moy qismlarning ifloslanishiga olib keladi. YOg'ochli qismlar moylanmaydi va har doim moydan tozalangan holda saqlanadi. Moylab bo'lgach miltiq yig'iladi, mexanizmlarining ishlashi tekshiriladi.

#### **Qurol bilan mashg'ulotlarda xavfsizlik choralari:**

1. Mashg'ulot boshlanmasdan avval miltiq o'qlanganligini tekshirib ko'rish zarur.
2. Miltiqni ko'zdan kechirish, o'qlash va bo'shatishda ehtiyot bo'lishlik, harakatlar ketma-ketligiga e'tibor berish kerak.
3. Tepkini ezishdan avval stvolni ko'tarib turiladi.
4. Miltiq xattoki o'qlanmagan bo'lsa ham uni odamlarga do'layish ta'qiqlanadi; u mashg'ulotlardan so'ng saqlagichga qo'yiladi.
5. O'qdonni paxtavon patronlar bilan o'qlashda ularning ichida jangovarlari yo'qligini tekshirish zarur.
6. Patronlar pistonini zarbalardan saqlash kerak.

7. Otilmay qolgan patronlardan o'quv patronlari sifatida foydalanish ta'qiqlanadi.
8. Foydalanish qoidalarini bilmagan shaxslarga quroldan otish ta'qiqlanadi.
9. Rahbarning ko'rsatmasisiz qurolni boshqa shaxsga berish ta'qiqlanadi.
10. O'zga shaxsga qurolni berayotganda u o'qlanmaganligini tekshirib, keyin berish darkor.
11. O'zga shaxsdan qurolni olgandan so'ng u o'qlanmaganligini tekshirib olish darkor.
12. Harakat chog'ida qurolni tutish qoidalariga rioya qilish darkor (yugurib ketayotganda; avtomobilda ketayotganda va h.).
13. Otish mashqlarida rahbarning buyrug'iga qat'iy rioya qilinishi shart.
14. Otish maydonida odamlar, hayvonlar va avtomobil vositalari paydo bo'lgan xollarda mustaqil ravishda otish to'htatiladi.
15. Otish mashg'ulotlarida oq bayroq ko'tarilganida, yong'in sodir bo'lganida otish to'htatiladi.
16. Ruhsat etilmagan joylarda miltiqni yoyish-yig'ish ta'qiqlanadi.
17. Patronlarni ochish (poroxini olish maqsadida) ta'qiqlanadi.
18. Zanglagan, shakli buzilgan patronlardan foydalanish ta'qiqlanadi.

### **3-o'quv savol. Miltiqni otishga tayyorlash, va o'q otishning o'ziga xos tomonlari.**

Kichik kaliberli vintovkani otishga tayyorlashda xam tozalash va moylashda xam Kalashnikov avtomatini otishga tayyorlashdagi talablar qo'yiladi va tozalash va moylashdagi tartib qo'llaniladi. Kichik koliberli vintovkadan o'q otishni o'ziga xos tomoni shundaki, otish to'garagida shug'ullanuvchi talabalarning xar biri «Mergan o'qchi» ko'krak nishoni uchun otish me'yorlarini bajaradilar. Bu xaqida mashg'ulot rahbari talabalarga aytishi lozim. Mashg'ulot rahbarlari kichik koliberli vintovkadan aniq otishni, qurol bilan ishlash qoidalarini va uni qo'llashda xavfsizlik choralarini, shuningdek, qurol to'g'risida barcha ma'lumotlarni puxta bilishi shart.

## **19-MAVZU. QUROLDAN OTISH ASOSLARI VA QOIDALARI.**

### **1-mashg'ulot. Otish jarayoni va uning davrlari.**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

- 1.Otish jarayoni va uning davrlari. O'qning boshlang'ich tezligi va uning otishga ta'sirini talabalarga tushuntirish.
  - 2.Talabalarga qurolning silkinishi va otish burchagi. O'q traektoriyasining (uchish yo'lining) hosil bo'lishini tushuntirish.
  - 3.O'q tegishi (nishonga olishni) imkoni bo'lmagan va bo'lgan joylar. O'lik bo'shliqlar hamda ularning amaliy ahamiyatini talabalarga etkazish.
  - 4.Talabalarda vatanga bo'lgan tuyg'ularni yanada oshirish.
- O'quv savollar:
- 1.Otish jarayoni va uning davrlari. O'qning boshlang'ich tezligi va uning otishga ta'siri.
  - 2.Qurolning silkinishi va otish burchagi. O'q traektoriyasining (uchish yo'lining) hosil bo'lishi.
  - 3.O'q tegishi (nishonga olishni) imkoni bo'lmagan va bo'lgan joylar. O'lik bo'shliqlar hamda ularning amaliy ahamiyati.

SHakl: Nazariy.

Uslub: Ma'ruza, Tushuntirish, ko'rsatish.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: CHQBT xonasi.

O'MT: Plakatlar, slaydlar. Multimediya.

### **1-o'quv savol. Otish jarayoni va uning davrlari. O'qning boshlang'ich tezligi va uning otishga ta'siri.**

O'q havoda uchishi uchun uni stvol kanalini tark etayotgandagi tezligi katta ahamiyatga egadir. Bu tezlik o'qni havoda uchishini xarakterlovchi kattalikdir. U o'qning boshlang'ich tezligi deb ataladi, odatda  $V_0$  deb belgilanadi va metr/soniyada (m/sek) o'lchanadi.

O'qning boshlang'ich tezligi orsa uning uchish uzoqligi, teshib o'tuvchi va o'ldiruvchi ta'siri ortadi, shuningdek uning uchishiga taosir etuvchi tashqi taosirlar pasayadi.

Boshlang'ich tezlikni kattaligi stvolning uzunligi, o'qning vazni va zaryadining (poroxning) miqdoriga bog'liq. Stvol qanchalik uzun bo'lsa (ma'lum uzunlikkacha) o'qqa parox gazlari shunchalik ko'proq taosir etadi va boshlang'ich tezlik shunchalik katta bo'ladi.

O'qning o'ldiruvchi kuchi-uning nishon bilan to'qnashayotgandagi energiyasi bilan xarakterlanadi va kilogrammetrda (kgm)da o'lchanadi. O'qning stvol uchidagi harakatining energiyasi boshlang'ich energiya deyiladi. Avtomatdan otishda o'qning boshlang'ich energichsi 29 kgm ga teng. Odamni jarohatlab safdan chiqarish uchun 8 kgm ga teng energiya kifoyadir.

O'qning teshib o'tuvchi taosiri ma'lum zichlikdagi to'siqqa kirib borish chuqurligi bilan xarakterlanadi. Vintovkaning yoki pulemyomotdan 100 m uzoqlikdagi otilgan o'q to'siq tekkisligiga perpendikulyar tarzda tekkanda:


- 6 mm qalinlikdagi po'lat plitani;
- 12 sm qalinlikdagi shag'al qobig'ini;
- 15 smli g'ishtin devorni;
- 45 smli qum, tuproq va yog'och devorini tesha oladi.

### **2-o'quv savol. Qurolning silkinishi va otish burchagi. O'q traektoriyasining (uchish yo'lining) hosil bo'lishi.**

Stvol kanalidagi gaz bosimi hamma tamonga bir xil kuch bilan ta'sir ko'rsatadi. Otish amalga oshirilganda bu bosim nafaqat o'qni oldinga qaratib haydaydi, balki qurolni ortga qaratib ham turtadi. Otish paytidagi qurolning ortga harakati ortga turtish deb ataladi. Qurolning turtuvchi harakati uning ortga harakat qilganda egallagan tezligidan o'qning og'irligi qurolning og'irligidan qancha kichik bo'lsa, o'shancha miqdorda kichikdir. Avtomatning ortga turtish energiyasi 2 kgsn dan ortmaydi va otuvchi tamonidan og'riqsiz tarzda qabul qilinadi.

Porox gazlarining bosim kuchi turtish kuchi va turtkiga qarshilik kuchi bir to'g'ri chiziqda joylashmagan va qarama-qarshi tamonga yo'nalgan. Ular shunday kuchlar juftligini tashkil qiladilarki, ular taosirida stvol uchi tepaga ko'tarilib ketadi. Ushbu kuchlar juftligining elkasi qancha katta bo'lsa, og'ish ham shuncha katta bo'ladi. Bundan tashqari otish paytida qurolning stvoli qaltirab, boshlang'ich holatdan har qanday tomonga (chapga, o'ngga, tepaga, pastga) og'ishi mumkin. Bu og'ishning miqdori otish uchun tayanchdan noto'g'ri foydalanish, qurolning kirlanishi va boshqa sabablar tufayli yanada ortishi mumkin.

Stvol qaltirashi, qurolning turtishi va boshqa sabablar stvol kanali simmetriya o'qining otishgacha bo'lgan va o'q otilganidagi holatlarining orasidagi burchakni paydo bo'lishiga olib keladi. Bu burchak uchish burchagi deyiladi.




Rasm. Qurolni ortga turtishi natijasida stvol uchini ko'tarilishi.

### **Traektoriyaning xosil bo'lishi**

Otish vaqtida qurolning stvoli aniq bir holatni egallaydi. Otish vaqtidagi stvol kanalining davomi ko‘rinishda bo‘lgan to‘g‘ri chiziq **tashlash chizig‘i** deyiladi.

O‘q havoda harakat qilayotganda og‘irlik kuchi va havoning qarshilik kuchlarining taosiriga uchraydi. Og‘irlik kuchi pastga yo‘nalgan va o‘qni pastga tashlash chizig‘idan uzluksiz ravishda pastlashga majbur egadi. Havoning qarshilik kuchi o‘qning harakat yo‘nalishiga teskari yo‘nalgan bo‘lib, o‘qni uzluksiz ravishda harakatini yo‘qotishga majbur etadi.

O‘q mana shu ikki kuchning taosiri ostida tashlash chizig‘i bo‘ylab to‘g‘ri chiziq bo‘ylab emas, balki tashlash chizig‘idan pastga egri chiziq bo‘ylab harakat qiladi. O‘qning og‘irlik markazi havoda uchayotganda chizadigan egri chiziq **traektoriya** deyiladi.




Rasm. O‘qni uchish traektoriyasi.

O‘qning uchish nuqtasi (stvol uchining markazi) traektoriyani boshlanishi, o‘qning uchrashuv nuqtasi ( o‘qning nishon yuzasi bilan kesishish nuqtasi) traektoriyaning oxiri deyiladi.

**3-o‘quv savol. O‘q tegishi (nishonga olishni) imkoni bo‘lmagan va bo‘lgan joylar. O‘lik bo‘shliqlar hamda ularning amaliy ahamiyati.**


**To‘g‘ri otish** deb shunday otishga aytiladiki, bunda o‘qning uchish traektoriyasi o‘zining butun davomiyligida nishondan balandga ko‘tarilmaydi. To‘g‘ri otishning amaliy ahamiyati shundaki, jangning qaynoq daqiqalarida otishma pritselni boshqatdan qo‘ymasdan olib borilishi mumkin, bunda mo‘ljallash nuqtasi nishonning quyi qismi bo‘yicha tanlanadi.

To‘g‘ri otishni uzunligi nishonning balandligiga va traektoriyaning er bag‘irlaganiga bog‘liq bo‘ladi. Nishon qanchalik baland va traektoriya er bag‘irlagan bo‘lsa, to‘g‘ri otish uzoqligi shunchalik katta bo‘ladi va o‘z navbatida pritselni bir marta o‘rnatish bilan nishonni yo‘q qila olish masofasi ham shunchalik katta bo‘ladi. Bu esa nishonlarni yo‘q qilishni tezlatish imkoniyatini beradi.



Rasm. To‘g‘ri otish.

To‘siq ortidagi o‘q tegmaydigan, to‘siqning cho‘qqisidan uchrashish nuqtasigacha bo‘shliq **to‘silgan bo‘shliq** deyiladi.



Rasm. To'silgan, tegadigan va o'lik bo'shliq.

To'silgan bo'shliqning ushbu traektoriya bo'yicha nishonni yo'q qilib bo'lmaydigan qismi **o'lik bo'shliq** deyiladi. To'siq qanchalik baland, nishonning bo'yi past va traektoriya erbag'irlaganroq bo'lsa, o'lik bo'shliq shunchalik katta bo'ladi. To'silgan va o'lik bo'shliqlardan dushmannning o'qidan himoya qilish uchun foydalanish zarurdir.

To'silgan bo'shliqning nishon yo'q qilina oladigan qismi **tegadigan bo'shliq** deyiladi. Tegadigan bo'shliqni kattaligi nishonning balandligi, traektoriyaning erbag'irlaganligi va tushish burchagiga bog'liq. Uning amaliy ahamiyati shundaki, u pritselni o'rtatishdagi xatoni tengshaydi va nishongacha bo'lgan masofani katta tomonga ixchamlash imkonini beradi.

## **20-MAVZU. QO'ZG'ALMAS HAMDA PAYDO BO'LUVCHI NISHONLARGA JOYDAN TURIB VA HARAKAT HOLATLARIDA O'Q OTISH.**

### **1-mashg'ulot. Mashg'ulot o'tkazishdagi xavfsizlik choralari.**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlari:

1.Mashg'ulot o'tkazishdagi xavfsizlik choralari. O'qdonni o'q bilan to'ldirish va sumkaga joylash. Tayanchni tayyorlash. Tayanchdan yotib otishga tayyorlash. Otishni amalga oshirish. Otishni to'xtatishlarni talabalarga tushuntirish.

2.Talabalarga kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlarini bajarish shartlarini o'rganish.

3.Kichik kaliberli (pnevmatik) vintovkadan otish mashqini bajarishni talabalarga tushuntirish.

4.Talabalarda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish.

O'quv savollari:

1.Mashg'ulot o'tkazishdagi xavfsizlik choralari. O'qdonni o'q bilan to'ldirish va sumkaga joylash. Tayanchni tayyorlash. Tayanchdan yotib otishga tayyorlash. Otishni amalga oshirish. Otishni to'xtatish.

2.Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlarini bajarish shartlarini o'rganish.

3.Kichik kaliberli (pnevmatik) vintovkadan otish mashqini bajarish.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

O'quv moddiy ta'minot: Tematik reja, o'quv jurnali, kalendar reja, mavzuga tegishli adabiyotlar, ishchi dastur.

**1 – o'quv savoli. Mashg'ulot o'tkazishdagi xavfsizlik choralari. O'qdonni o'q bilan to'ldirish va sumkaga joylash. Tayanchni tayyorlash. Tayanchdan yotib otishga tayyorlash. Otishni amalga oshirish. Otishni to'xtatish.**

Otish qoidalari va usullarini o'rganish mashg'ulotlarni va otishni o'tkazishda xavfsizlik mashg'ulotlarni aniq tashkil qilish, tirda o'rnatilgan tartib va qoidalarni bilish va ularga aniq amal qilish, barcha o'rganuvchilarni yuqori darajadagi intizomlilik orqali taaminlanadi.


Mashg'ulotlarda avtomatning moddiy qismlari va patronlarni o'rganishda ko'zda tutilgan xavfsizlik choralari saqlash zarurdir. Bundan tashqari, avtomatni odamlar tarafga qaratish va mo'ljallash taqiqlanadi.

Otish vaqtida quyidagilar taqiqlanadi: otish rahbarining ruxsatisiz avtomatni ushlash va uni o'qlash; nosoz avtomatdan otishni amalga oshirish; oq bayroq ko'tarilganda otishni amalga oshirish; xattoki o'qlanmagan bo'lsa ham avtomatni otish marrasidan olib chiqish; qaerda bo'lishidan qat'iy nazar o'qlangan avtomatni qoldirish yoki uni otish rahbarining ruxsatisiz birovga berish; otish marrasida begona odamga "O't och" komandasidan to "Bekor qilinadi" komandasigacha mavjud bo'lishlik.

Otish zonasida qo'qqisdan odamlar va hayvonlar paydo bo'lib qolsa otish darhol to'xtatiladi. Xavfsizlik qoidalariga amal qilishlik mashg'ulotlarda qurol bilan muomala qilinganda baxsiz hodisalarning oldini oladi.

O'qdonni patron bilan to'ldirish uchun uni chap qo'l bilan og'zini tepaga, shishgan tomoni bilan chapga, o'ng qo'lga patronlar o'qlarini jimjiloqqa qaratib, gilza tubi bosh va ko'rsatkich barmoqdardan teparoqqa chiqib turadigan qilib ushlanadi.

O'qdonni sal chapga og'itib, bosh barmoq bilan ezib patronlar bittalab yon devorlarning bukigi ostida gilza tubi o'qdonning ortki devoriga qilib joylanadi. O'qdonni patron bilan to'ldirilgach, sumkaga solib qo'yiladi.




Rasm. O'qdonni oboymadagi patron bilan to'ldirish bilan odatiy usulda to'ldirish.

### **YOtib otishga tayyorlanish.**

Otishga to'g'ri tayyorlanish avtomatning turg'unligini taominlab beradi. Otuvchining gavdasini qulay va tabiiy holati mushaklarni eng kam kuchlanishini hosil qiladi va otishga to'g'ri tayyorlanishni asosiy sharti hisoblanadi.

Otish uchun eng qulay holat - yotgan holatdir. YOtib otishda otuvchining gavdasi va qo'llari erga qattiq tiraladi, bu avtomatni turg'unligini ta'minlaydi. Avtomat turg'unligini tayanchdan foydalanib yanada kuchaytirish mumkin. Odatda tayanch sifatida chim, qirindi yoki qum to'ldirilgan qopchalardan foydalaniladi.



Rasm. YOtib otish uchun holatni qabul qilish: A va b harakatlar ketma-ketligi.

YOtib otish uchun hozirlik holatni qabul qilishni va o'qlashni o'z ichiga oladi. O'quv mashg'ulotlarida otishga tayyorlanish uchun komanda alohida berilishi mumkin. Masalan: "**Otish marrasiga, qadam - BOS**" va so'ngra "**O'QLA**". Agar zarur bo'lsa "o'qla" komandasidan avval otish uchun holat ko'rsatiladi. Masalan: "**YOtib -O'QLA**".

YOtib otish uchun holatni qabul qilishda, o'ng qo'lni tepaga ko'tarib avtomat elmadan olinadi, uni chap qo'lga olinib stvol qutisidan ushlanadi. So'ng avtomat o'ng qo'lga olinadi stvol nakladkasi va sevyodan stvol uchini oldinga qaratib ushlanadi; shu bilan bir vaqtda o'ng oyoq bilan oldinga va sal o'ngroqqa bir qadam tashlanadi. Oldinga engashilib chap tizzaga tushiriladi va chap qo'lni oldinga, barmoqlarini o'ngga qilib qo'yiladi. (rasm, a); so'ngra chap oyoqning son qismiga va chap qo'lning tirsagiga suyalib chap yon bilan yotiladi va tezda qoringa ag'darilib olinadi, oyoqlar uchlari tashqariga qilingan holda engilgina ochiladi; bunda avtomat sevyosi bilan chap qo'l kaftiga qo'yiladi (rasm, b).

Otish uchun holat qabul qilingach qurolni o'qlash amalga oshiriladi. Bu otishga tayyorlanishni ikkinchi elementi hisoblanadi.

Avtomatni o'qlash uchun, uni chap qo'l bilan sevyodan ushlanadi, o'ng qo'l bilan stvol qutisining tuynugiga o'qdon ilgichi bilan solinadi va uni yopqich bo'rtmasiga sakrab chiqquncha o'ziga tortiladi; o'tkazgich uzluksiz o't ochish (AV)ga qo'yiladi; o'ng qo'l bilan zatvor ramasi dastachasidan ushlab ortga tortib qo'yib yuboriladi. Agar zudlik bilan o't ochishni zarurati bo'lmasa yoki "O't och" komandasi berilmasa, avtomat saqlagichga qo'yiladi va o'ng qo'l pistolet dastasiga olinadi.

## 2-o'quv savoli. Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlarini bajarish shartlarini o'rganish.


Qo'yilgan vazifa va holatga qarab o't ochish mustaqil ravishda yoki komandirning komandasi bo'yicha amalga oshiriladi.

O't ochish uchun komandada odatda kimning o't ochishi, nishon, pritsel, o't ochish turi va mo'ljallash nuqtasi ko'rsatiladi. Masalan: "**Axmedov, piyodalarga qaratib, uch, bittalab, nishon ostiga-O'T OCH**".

300 metr uzoqlikda bo'lgan nishonlarga qaratib o't ochishda pritsel va mo'ljallash nuqtasi ko'rsatilmaydi. Masalan: "**Avtomatchilar, xujum qilayotgan piyodalarga qaratib - O'T OCH**". Bunday holatda uni askar mustaqil ravishda tanlaydi.

Otishni amalga oshirish pritselni o'rnatish, o'tkazgich (perovodchik)ni zarur o't ochish turiga qo'yish, avtomatni qo'ndolash, mo'ljalga olish, tepkini echish va otish chog'ida avtomatni ushlab turishlari o'z ichiga oladi.

**Pritselni o'rnatish** uchun askar avtomatni o'ziga yaqinlashtiradi, o'ng qo'lni katta va ko'rsatkich barmoqlari bilan xomutcha yopqichini siqadi va xomutchani pritsel plankasi bo'ylab kerakli raqamgacha suradi.




Rasm. O'tkazgich (o'tkazgich)ni kerakli o't ochish turiga qo'yish:  
a-uzluksiz o't ochishga; b-bittalab o't ochishga.

**O'tkazgichni kerakli o't ochish turiga qo'yish** uchun o'ng qo'lning bosh barmog'i bilan o'tkazgichning uzluksiz o't ochish (AB) yoki bittalab o't ochish (OD) holatiga qo'yiladi.

**Avtomatni to'g'ri qo'ndoqlash** otuvchining gavdasi, qo'llari va kallasining holatiga bog'liq bo'ladi. Avtomatning turg'unligi o'z navbatiga to'g'ri qo'ndoqlashga bog'liq.

Avtomatni to'g'ri qo'ndoqlash uchun ( qo'ndoqni elkaga o'rnatish uchun chap qo'l bilan sevyodan yoki o'qdondan o'ng qo'l bilan esa pistolet dastasidan ushlanadi va nishonni ko'zdan qochirmay, avtomat qo'ndog'i bilan elkaga to'la etkanligi sezilguncha taqaladi; o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i birinchi bo'g'ini tepkiga qo'yiladi.

Boshni ozroq miqdorda oldinga engashtiriladi va bo'yinni zo'riqtirmasdan, o'ng chakka qo'ndoqqa engilgina siqiladi bunda o'ng ko'z pritsel darajasida va unda 25-30 sm masofada yoki pritsel o'yig'i va mushkani doimo ochiq va bir xilda ko'ra oladigan masofada bo'lishi kerak.



Rasm. Otish paytida avtomatni ushlash:  
a-chap qo'l bilan sevyodan; b-chap qo'l bilan o'qdondan.



Rasm. Pana ortidan o'tayotganda avtomatni ushlash.

### **3- o'quv savoli. Kichik kaliberli (pnevmatik) vintovkadan otish mashqini bajarish.**

Qo'llarning tirsaklari ham to'g'ri holatni egallashi kerak. CHap qo'l tirsagi avtomatning ostiga olib kiriladi, chunki u qurolning asosiy og'irligini qabul qiladi va tayanch vazifani o'taydi. Agar chap qo'l tirsagini avtomat ostiga olib kirilishini iloji bo'lmasa, uni sal yonroqqa qo'yish mumkin, lekin avtomatning bo'ylama o'qidan ko'pi bilan 4 sm gacha.

Agar tirsak undan ko'proq masofaga chiqarilsa, avtomatning vertikal turg'unligi buziladi.

Qo'ndoqlash oxiriga etgach o'ng qo'l tirsagi uchun joy topish zarur. Buning uchun avtomat qo'ndog'ining ort tomoni elkaga qo'yilib qo'ndoqlab ushlangan holatda, o'ng qo'l tepaga elka balandligicha ko'tariladi (5-rasm);

So'ng tirsak erga erkin tushiriladi va tushgan joyiga qo'yiladi. Bunda o'ng qo'l barmoqlari pistolet dastasida qoladi.

Qondoqning ort qismi elkaga yaxshi juftlanib o'rtasi bilan yotishi kerak. Agar qo'ndiq pastroq qo'ndiqdansa o'qlar pastga, teparoq qo'ndiqdansa tepaga ketadi.

Qondoqning xolatini to'g'riligini tekshirish uchun qo'ndoqlashdan so'ng o'ng qo'l yonga elka barobarida ko'tarish kerak (5-rasm). Agar qo'ndiq elka chuqurligiga yaxshilab juftlanmasdan yoki noto'g'ri qo'yilgan bo'lsa qo'l ko'tarilgan vaqtda qo'ndiq tepaga yoki pastga sirpanib chiqib ketadi. Agar tirsakni yon tomonga uzunroq qo'yilishi qurolni vertikal turg'unligini buzsa, qondoq qisib ushlangan o'ng tirsak avtomatni yon tomonga tebranishini keltirib chiqaradi.




Rasm. O'ng qo'l tirsagini qo'yish joyin aniqlash.



Rasm. Elka chuqurida qo'ndiq holatini to'g'riligini tekshirish.

YOtgan holda otish qulay bo'lishligi uchun sevyo ostiga 20-25 sm balandlik ostiga tayanch to'shaladi.



Rasm. Otayotganda tayanchdan foydalanish. a-g'ishtdan b-to'siqdan.

**Mo'ljallash** - avtomatchining bo'shliqda qurol stvoli kanaliga o'qni zarur yo'nalish va zarur masofaga otishni taaminlashni taaminlab berishga mo'ljallangan harakatlari yig'indisidir. Bu harakatlar pritsel va mushka yordamida bajariladi.

Mo'ljallash uchun chap ko'z qisiladi, o'ng ko'z bilan pritsel o'yig'i orqali mushkaga qaratiladi. Bunda mushka o'yiqning qoq o'rtasida, uning cho'qqisi pritsel plankasiga qirrasi bilan bir xil bo'lishi kerak.

Bu tekkis mushka deyiladi va uni ushlab turish zarur.

So'ngra, nafasni chiqarib tashlab, tekkis mushka mo'ljallash nuqtasiga olib boriladi. Bir vaqtda tepki eziladi.


Otish aniqligini pasaytirib yubormaslik uchun uzoq mo'ljallash tavsiya etilmaydi. O't ochish biror sababga ko'ra o'n soniyadan ko'proqqa cho'zilib ketsa, unda mo'ljallashni to'xtatish va ko'zga 5-10 soniya dam berish zarur.

**Ilmoqni tushirish** - otishni amalga oshirish texnikasining muhim mas'uliyatli elementlardan biri.

Ilmoqni tushirish vaqtida nafasni to'xtatish zarur. Agar bu vaqtda erkin nafas olinsa, qurol tebranadi: nafas olinganda, stvol pastga jiladi, nafas chiqarmasa - tepaga jiladi. Qurol 1-2 sm atrofida tebranadi, bu 100m gacha otishda mo'ljallash nuqtasidan o'qlarni 1m gacha tepaga va pastga sochilib ketishiga sababchi bo'ladi.

Tepkiga o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'ining birinchi bo'g'inini qo'yish va astalik bilan to'g'ri orqaga ezish zarur. Agar barmoqning 2-bo'g'ini bilan qo'yilsa, ezish orqaga chapga buriladi, natijada qurol ham chapga jilib ketadi.

Ilmoqni tushirish uchun chap qo'l bilan qurol sevyosidan yoki o'qdondan, o'ng qo'l bilan pistolet dastasidan ushlab elka tomonga tortiladi, nafasni to'xtatib, tepkiga otish yuz berguncha eziladi.



Rasm. Otuvchi nafas olganda qurol stvolining tebranishi.

Ilmoqni tushirish paytida tekkis mushkaning mo'ljallash nuqtasida engil tebranishiga ahamiyat berish kerak emas. Tepkini ezayotganingizda nafas olmay tura olmasligingizni sezsangiz, barmoq bilan ilmoqchaga ezishni kuchaytirmay va susaytirmay, nafas olishni davom ettirish, uni chiqarishda to'xtatib, mo'ljalni aniqlab va tepki ezishda davom etish zarur.

Avtomatdan uzluksiz otishni amalga oshirayotganda avtomat qo'ndog'ini elkada mahkam ushlab, tirsak holatlarini o'zgartirmay tekis mushkani mo'ljallash nuqtasi ostida ushlab kerak. Har bir uzluksiz otishdan so'ng mo'ljallashning to'g'riligini tikkalash va otishni davom ettirish zarur. YO'tgan holda otayotganda avtomatni o'qdon bilan tuproqqa tirashga ruxsat etiladi.

## **Mavzu № 21. HARBIY XIZMATNING XUQUQIY ASOSLARI.**

### **Mashg'ulot №1. O'R DAVLAT MUDOFASIGA OID QONUNLARI.**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. Talabalarga O'R «Mudofaa to'g'risida»gi qonuni» xaqida tushuncha berish.
2. O'R «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonun. O'R Vazirlar maxkamasining qarorlarini talabalarga tushuntirish.
3. SHartnoma asosida xizmat qiluvchi va zaxiradagi mobilizatsiya xizmatining Qurolli Kuchlaridagi xukuk va vazifalari yuriknomasini talabalarga tushuntirish.
4. Talabalarda harbiy xizmatga bo'lgan sadoqatni yuksaltirish.

O'quv savollari:

1. O'R «Mudofaa to'g'risida»gi qonuni».

2.O'R «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni. O'R Vazirlar maxkamasining qarorlari.

3.SHartnoma asosida xizmat qiluvchi va zaxiradagi safarbarlik xizmatining Qurolli Kuchlaridagi huquq va vazifalari yo'riqnomasi.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

O'quv moddiy ta'minot: Tematik reja, o'quv jurnali, kalendar reja, mavzuga tegishli adabiyotlar, ishchi dastur.

## **1 – o'quv savoli. O'R «Mudofaa to'g'risida»gi Qonuni».**

### *I. Umumiy qoidalar*

1-modda. Ushbu qonunning asosiy vazifalari

Ushbu Qonun mudofaani tashkil etishning hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini (bundan buyon matnda Qurolli Kuchlar deb yuritiladi) boshqarishning huquqiy asoslarini belgilaydi, mamlakat mudofaasini ta'minlashda davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar ishtirokini aniqlab beradi.

2-modda. Mudofaa tushunchasi

Ushbu Qonunda mudofaa deganda O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa tadbirlari majmui tushuniladi.

3-modda. Mudofaa to'g'risidagi qonun hujjatlari

Mudofaa to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

4-modda. Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari

II. Mudofaani tashkil etish hamda Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish

5-modda. Mudofaani tashkil etish

6-modda. Qurolli Kuchlar

Qurolli Kuchlar urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo'shilmalar va qismlarni, shuningdek boshqa harbiy tuzilmalarni o'z ichiga oladi.

Qurolli Kuchlar o'z faoliyatini qonun ustunligi, markazlashgan rahbarlik va yakkaboshchilik, jangovar va safarbarlik borasida doimiy shaylik hamda harbiy intizomga rioya etish asosida quradi va amalga oshiradi.

Harbiy ob'ektlar, binolar va inshootlar, qurol-yarog', harbiy texnikaning barcha turlari, boshqa harbiy mol-mulklar davlat mulki hisoblanadi va Qurolli Kuchlar tasarrufida bo'ladi.

Qurolli Kuchlarning komplektlanishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

III. Davlat organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning mudofaani ta'minlashdagi ishtiroki

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mudofaa sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni:

O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosati va harbiy qurilishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

davlat boshqaruv organlarining mudofaa sohasidagi faoliyatiga rahbarlik qiladi;

O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati ta'minlanishi, uning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligi muhofaza etilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

Qurolli Kuchlarni qurish, qo'llash va rivojlantirish rejalarini, shuningdek mudofaani tashkil etish yuzasidan davlatning boshqa reja va dasturlarini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarining tinchlik va urush davriga mo'ljallangan tuzilishi, tarkibi va joylashuvini tasdiqlaydi;

harbiy harakatlar olib borish to'g'risida, shu jumladan xalqaro tinchlikparvarlik tadbirlarida qatnashish to'g'risida, shuningdek Qurolli Kuchlarni o'zlariga bevosita taalluqli bo'lmagan vazifalarni bajarishga jalb etish to'g'risida qaror qabul qiladi va Qurolli Kuchlarga buyruq beradi;

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tartibda: O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qiladi hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi;

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mudofaa sohasidagi vakolatlari

10-modda. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi o'z tasarrufidagi qo'shinlarga boshqaruvni amalga oshiradi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosati yuritilishini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarining zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika va moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishini, harbiy hamkorlik kengaytirilishini, chaqiruvning va Qurolli Kuchlar kadrlari tayyorlashning tashkil etilishini ta'minlaydi.

11-modda. Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi

12-modda. Harbiy okruglar

13-modda. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning mudofaa sohasidagi vakolatlari

14-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari

15-modda. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mudofaani ta'minlashdagi ishtiroki

16-modda. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mudofaani ta'minlashdagi ishtiroki

17-modda. Fuqarolarning mudofaani ta'minlashdagi ishtiroki

IV. Urush holati. Urush davri. Safarbarlik. Hududiy mudofaa. Qurolli mojarolar

18-modda. Urush holati; 19-modda. Urush davri; 20-modda. Safarbarlik

Urush holati e'lon qilinishi yoki favqulodda holat joriy etilishi bilanoq umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilinishi mumkin. Safarbarlik tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

21-modda. Hududiy mudofaa; 22-modda. Qurolli mojarolar.

V. YAkunlovchi qoidalar

23-modda. Mudofaa sohasidagi xalqaro hamkorlik

24-modda. Mudofaa ehtiyojlarining moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti

25-modda. Mudofaa to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Mudofaa to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov Toshkent shahri, 2001 yil 11 may,

**2-o'quv savoli. O'R «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonuni. O'R Vazirlar maxkamasining qarorlari.**

1. Umumiy harbiy majburiyat. 2. Fukarolarni harbiy xizmatga tayyorlash. 3. Fukarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish, harbiy xizmatga chaqirilish va kirish. 4. Harbiy xizmatni o'tash. 5. Rezervdagi xizmat. 6. Muqobil xizmat. 7. Harbiy ro'yxat. 8. Safarbarlik bo'yicha chaqirilish to'g'risida va harbiy xizmatdan bo'shatish. 9. YAKunlovchi qoidalar.

Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni ikkinchi chaqirik O'zbekiston Respublikasi oliy majlisining 10 sessiyasida № 12 sonli qarori asosida 2002 yil 12-13 dekabr kunlari tasdiklangan

#### **Ushbu qonun maksadi.**

Ushbu qonun maksadi O'zbekiston Respublikasi fukarolarning umumiy xabiy majburiyatni bajarishi va harbiy xizmatni o'tashi bilan boglik munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

#### **Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonun xujjatlar.**

Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonun xujjatlari Ushbu qonundan xamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanadigan boshka qonun xujjatlaridan iboratdir.

#### **Umumiy harbiy majburiyat**

Umumiy harbiy majburiyat fukarolarning O'zbekiston Respublikasini ximoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarlikdan iborat buladi xamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari (bundan buyon matnda Qurolli Kuchlar deb yuritiladi) safini tuldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta'minlash maksadida joriy etiladi.

Umumiy harbiy majburiyat fukarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmat o'tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro'yxatdan utish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O'zbekiston Respublikasiga karshi harbiy tajovuz bulgan takdirda axolini muxofaza etish tadbir – choralarini kamrab oladi.

Ushbu Qonunga muvofik O'zbekiston Respublikasining kuyidagi fukarolari, xususan:

- harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman (shahar) chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar - chaqiriluvchilar;

- xaqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar - harbiy xizmatchilar;

Qurolli Kuchlarning rezervi yoki zaxirasidagi shaxslar – harbiy xizmatga majburlar:

- turli sabablarga ko'ra harbiy ro'yxatga olinmagan yoki harbiy ro'yxatdan chikarilgan, shu jumladan iste'fodagi shaxslar – harbiy xizmatga majbur bulmagan shaxslar deb ataladi.

Xaqiqiy harbiy xizmat chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatdir.

Umumiy harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi xududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet El fukarolari va fukaroligi bulmagan shaxslarga tatbik etilmaydi.

#### **Harbiy xizmat turlari.**

Harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fukarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining aloxida turidir.

Harbiy xizmatning kuyidagi turlari joriy etiladi;

- muddatli harbiy xizmat;

- safarbarlik chaqiruvchi rezervdagi harbiy xizmat;

- kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek safarbarlik chaqiruvchi rezervdagi xizmat un sakkiz yoshdan yigirma etti yoshgacha bulgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yarokli erkak fukarolar chaqiriladilar.

#### **Muddatli harbiy xizmat.**

Muddatli harbiy xizmat chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek mukaddam harbiy xizmatni utamagan ofitserlarning qonun xujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir.

Muddatli harbiy xizmat muddatlari kalendar xisobida:

- muddatli harbiy xizmatni oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida utayotgan harbiy xizmatchilar uchun - un ikki oy (oliy ma'lumotli shaxslar uchun – tukkiz oy);

- muddatli harbiy xizmatni chaqiruv bo'yicha ofitserlar tarkibi lavozimlarida utayotgan ofitserlar uchun – tukkiz oy kilib belgilanadi.

Muddatli harbiy xizmatni o'tash tartibi qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

#### **Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat.**

Muddatli harbiy xizmatni o'tashga yarakli xamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish xukukiga ega bulmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safariylik chaqiruvi rezervi safiga olinadilar.

Safariylik chaqiruvi rezervidagi xizmat xududiy prinsip asosida oylik yiginlar tarzida tashkil etiladi xamda chaqiriluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus xisob varagiga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Safariylik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga shaxslar yigirma etti yoshga tulgunga kadar olinadilar va xar yilgi harbiy yiginlarga jalb etilishlari mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga karshi harbiy tajovuz ruy bergan takdirda esa xaqiqiy harbiy xizmatga chaqiradilar.

Safariylik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan fuqarolar yigirma etti yoshga tulaganlaridan keyin Qurolli Kuchlar rezervi tarkibiga utkaziladilar.

Safariylik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga olingan shaxslar tulaydigan pul badallari mikdori va ularni tulash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan ttasdiklanadigan aloxida nizom bilan belgilanadi. Bu mablaglar muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarning pul va moddiy ta'minotini oshirish, shuningdek safariylik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga olingan shaxslarning harbiy yiginlarini utkazishga anik maksadli yunaltirilgan buladi.

Safariylik chaqiruvi rezervidagi xizmatni tashkil eti shva o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiklanadigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

#### **Harbiy xizmatni o'tash tartibi. Harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasi.**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi ushbu Qonun xamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasi:

- kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni utayotgan oddiy askarlar (matroslar), (serjantlar) uchun – kirk besh yosh;

- kichik ofitserlar uchun – kirk besh yosh;

- katta ofitserlar uchun – ellik yosh, polkovniklar (1 darajadagi kapitanlar) uchun – ellik besh yosh;

- general – mayor, general – leytenant harbiy unvondagi ofitserlar uchun – 60 yosh;
- general - polkovnik harbiy unvonndagi ofitserlar uchun – 65 yosh etib belgilanadi.

Ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, shuningdek yuksak kasbiy tayyorgarligi, egallab turgan lavozimida katta amaliy ish tajribasi bulgan, salomatligiga ko'ra harbiy xizmatni o'tashga yarakli harbiy xizmatchilarning xizmat muddati harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat kumirtalari va idoralar rahbarlari tomonidan harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasidan besh yilgacha bulgan muddatda uzaytirilishi mumkin.

Harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga va harbiy xizmatga tayyorgarlik. Jismoniy tayyorgarlik. Davolash – sog'lomlashtirish ishlari. Umumta'lim tayyorgarlik darajasini oshirish. CHaqiriluvchilarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash.

Oliy harbiy ta'lim muassasalariga ukishga kirish istagini bildirgan fukarolar harbiy litseylarda, umumta'lim maktablarida, urta-maxsus va urta kasb-xunar ta'limi muassasalarida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkilotining o'quv muassasalarida yoki mustaqil ravishda tayyorgarlikdan o'tadilar.

CHaqiriluvchilarning jismoniy tayyorgarligi ta'lim muassasalarining ukuv dasturlari doirasida, shuningdek sport jamiyatlari va klublari, davolash muassasalari, mudofaa – sport sog'lomlashtirish muassasalarida usmirlar xonalarini tashkil etgan xolda uyushtiriladi xamda utkaziladi.

O'n besh va un olti yoshdagi usmirlarni tibbiy kurikdan utkazish chaqiriluvchilarni tibbiy kurikdan utkazishga mudofaa ishlari organlari tomonidan jalb etiladigan mutaxassis vrachlar tomonidan xar yil amalga oshiriladi.

Xalk ta'limi organlari chaqiriluvchilarning umumta'lim tayyorgarlik darajasini oshirish yuzasidan zarur chora – tadbirlar kurishlari shart.

YOshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash vazirliklar, davlat kumitalari, idoralar, maxaliy davlat xokimiyati organlari, fukarolarning uzini uzi boshkarish organlari va ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. YOshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda jamoat birlashmalari va boshka nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin.

#### **Oliy ta'lim muassasalarida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash.**

Oliy ta'lim muassasalarining talablari orasidan rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash mazkur muassasalarda tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik ukuv bulinmalarida (harbiy kafedralar, sikllar va fakultetlarda) amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bulimda ukiyotgan erkak talabalari, shuningdek tibbiy oliy ta'lim muassasalarining talabalari jinsidan kat'iy nazar harbiy tayyorgarlikdan o'tadilar.

Harbiy tayyorgarlikka yigirma etti yoshgacha bulgan, salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga yarakli talabalar jalb qilinadilar.

Talabalarni harbiy tayyorgarlikdan utishga kabul qilish ularning shaxsiy arizalariga binoan ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatni utab kelgan talabalar xam rezervidagi va zaxiradagi ofitserlar ta'limi dasturi bo'yicha harbiy tayyorgarlikdan utishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining ukuv bulinmalarida harbiy tayyorgarlikdan utgan, ta'lim dasturini uzlashtirgan va belgilangan davlat imtixonlarini topshirgan talabalar ularga leytenant unvoni berilganidan keyin xaqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar yoki rezerv yoxud zaxiraga utkaziladilar.

Oliy ta'lim muassasalarining ukuv bulinmalarida harbiy tayyorgarlik ta'limida utmagan talabalar ta'lim muassasasini tomomlaganlaridan keyin ushbu Qonunga muvofik muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun chaqiriladilar.

Ofitserlarni tayyorlash dasturlarini oliy ta'lim muassasalari bulgan vazirliklar, davlat kumitalari va idoralar Bilan birgalikda ishlab chikish va tasdiklash vazifasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

Oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik bo'yicha ukvu bulinmalari yunalish, rezervidagi va zaxiradagi ofitserlar tayyorlashda asoslanaladigan ixtisosliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiklanadi.

Oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat kumitalari va idoralar, agar bu ta'lim muassasalari bazasida harbiy tayyorgarlik bo'yicha ukuv bulinmalari tashkil etilgan bulsa, mazkur ta'lim muassasalarining anik maksadli moliyalashtirilishini amalga oshiradi xamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining kumagida zarur ukuv moddiy bazasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi talabalarning harbiy tayyorgarligi ustidan nazoratni, harbiy tayyorgarlik bo'yicha ukuv bulinmalarining boshliklari va ularning urimbosarlari lavozimlari ofitserlar oliy ta'lim muassasalari bulgan vazirliklar, davlat kumitalari va idoralar bilan kelishilgan xolda tanlash va tayinlash amalga oshiradi.

#### **Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat.**

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat Qurolli Kuchlar safidagi xaqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat kumitalari va idoralar orkali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fukarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir.

Harbiy xizmatni kasb tarikasida tanlangan fukarolar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida utaydilar.

Harbiy xizmatni o'tash muddatlari va asosiy shartlari kontrakda belgilanadi. Ayni paytda dastlabki kontrakt xizmatni oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida o'tash bo'yicha uch yil, ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'tash bo'yicha besh yil muddatga tuziladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari Bilan ukish davri uchun kelgusida ularning ofitserlar tarkibi lavozimlarida harbiy xizmatni kamida besh yil majburiy o'tash sharti Bilan kontrakt tuziladi.

Harbiy xizmatning kontrakda nazarda tutilgan muddatli tugaganidan keyin taraflarning kelishuvi Bilan bu muddat YAngi kontrakt tuzish orkali uzaytirilishi mumkin. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi fukarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizom Bilan belgilanadi.

#### **Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.**

Rezervchilar xizmati xaqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bulgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning kushilmalari, kismalari va bulinmalari safini urush davrida takozo etiladigan shtatlar darajasiga kadam tuldirish, shuningdek urush davri takozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maksadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar sifatida xizmatni utayotgan harbiy xizmatga majburlar tinchlik davrida, qoida tarikasida, qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini saklab turish, rezervchilarning harbiy xisobdagi ixtisoslik bo'yicha majburiyatlarini tinchlik va urush davrida bajarish uchun zarur bulgan kunikmalarini saklab koli shva takomillashtirish maksadida harbiy kismal bazasida xududiy prinsip asosida tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik bo'yicha harbiy yiginlarni o'tashga jalb etishlari mumkin.

#### **CHaqiruvga kadam boshlang'ich tayyorgarlik.**

CHaqiruvga kadam boshlang'ich tayyorgarlik, shu jumladan fukaro muxofazasi bo'yicha tayyorgarlik ukuv davturidagi majburiy Fan bulib, umumta'lim maktablarida, urta maxsus va urta kasb xunar ta'limi muassasalarida chaqiruvga kadam tayyorgarlik ukituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab utiladi.

CHaqiruvga kadam tayyorgarlik darajasi past bulgan chaqiriluvchilar chaqirilishdan oldin kushimacha ravishda bunday tayyorgarlikdan Korakalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar xokimliklari tomonidan tashkil etiladigan mudofaa – sport soglomlashtirish lagerlarida utishlari mumkin.

#### **Harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar tarkibi. Harbiy unvonlar.**

Harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga majburlar oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga bo'linadi. Ofitserlar tarkibi kichik ofitserlar, kata ofitserlar va generallar tarkibiga bo'linadi.

Xar bir harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburga tegishli harbiy unvon beriladi. Qurolli Kuchlardagi harbiy unvonlar qo'shin unvonlari va kema tarkibidagi unvonlarga bo'linadi.

Qurolli Kuchlarga kuyidagi harbiy unvonlar joriy etiladi:

Harbiy xizmatchilarning huquqiy holati deganda ularning davlat tomonidan kafolatlangan xuquq va erkinglari, shuningdek ularning qonunchilik tomonidan o‘rnatilgan majburiyatlari va javobgarligi tushuniladi.

Harbiy xizmatchilarning jamiyatdagi xuquqiy holati muxim xususiyatga ega. Ularga umumiy qonunchilik joriy etilgan. Harbiy xizmatchilar O‘zbekiston fuqarolarining xuquqlariga ega va ularning majburiyatlarini bajaradilar. SHu bilan birga harbiy xizmatchilar davlatni qurolli himoya qilishni ta‘minlash uchun tayinlanganlar. Ular bu vazifani ba‘zan hayotlariga taxdid bo‘lgan holda bajaradilar. SHuning uchun harbiy xizmatchilarga maxsus harbiy qonunchilik joriy etilgan. Bu qonunchilikda harbiy xizmatning xususiyatlari hisobiga olingan holda harbiy xizmatchilar uchun qo‘shimcha huquq, imtiyozlar, shuningdek qo‘shimcha majburiyatlar ham joriy etilgan.

Harbiy xizmatchilar so‘z erkingligi, o‘z fikrini bildirish, axborot olish va uni tarqatish kabi umumfuqaroviy xuquq va erkingliklaridan foydalanganda davlat va harbiy sirlarni tarqatib yubormasliklari, komandirlari (boshliqlari)ning buyruqlarini muxokama qilishlari va tanqid qilishlari mumkin emas.

Harbiy xizmatchilar davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etish xuquqiga egadirlar. SHuningdek, davlat xukumati organlari va maxalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Mehnat qilish, dam olish, yashash joyiga egalik qilish huquqi va shu kabi boshqa huquqlarni amalga oshirishda qonunda aniq ko‘rsatilgan haqida ma‘lum chegaralashga yo‘l qo‘yishi mumkin.

Umumfuqaroviy huquq va erkinliklardan tashqari harbiy xizmatchilar harbiy xizmat xususiyatidan kechib chiqadigan xuquqlarga ham egadir. Bu huquqlar davlatdan pul ta‘minoti (maosh), oziq-ovqat va kiyim-bosh ta‘minoti, shuningdek, yotoq joy bilan ta‘minlanish ko‘rinishida bo‘ladi. SHuningdek harbiy xizmatchilar uchun halok, bo‘lgan holatlarda sug‘urta kafolatlari, shuningdek ma‘naviy va moddiy zararlarini qoplash huquqi ko‘zda tutilgan.

## **MAVZU № 22. HARBIY XIZMATCHILAR VA ULAR ORASIDAGI**

### **MUNOSOBATLAR. HARBIY INTIZOM.**

#### **Mashg‘ulot №1. Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari.**

O‘quv va tarbiyaviy maqsadlari:

1. Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlarini talabalarga tushuntirish.
2. Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliqlarning xuquqlari va majburiyatlarini talabalarga tushuntirish.
3. Harbiycha salomlashish, harbiy xushmuomalalik va murojat qilish qoidalari. Buyruq berish va uni bajarish tartibini talabalarga tushuntirish.
4. Talabalarda vatanprvarlik sifatlarini shakllantirish.

O‘quv savollari:

1. Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari.
2. Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliqlarning xuquqlari va majburiyatlari.
3. Harbiycha salomlashish, harbiy xushmuomalalik va murojat qilish qoidalari. Buyruq berish va uni bajarish tartibi.

Vaqt: 2 soat.

Joyi: O‘quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko‘rsatish.

SHakli: Ma‘ruza.

O'quv moddiy ta'minot: Tematik reja, o'quv jurnali, kalendar reja, mavzuga tegishli adabiyotlar, ishchi dastur.

## **1 – o'quv savoli. Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari.**

**13 - modda.** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari xizmat faoliyatida qonunlar, harbiy nizomlarning talablariga amal qiladilar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat tashkilotlari va birlashmalarning faoliyati bilan aloqador bo'lmashliklari lozim.

Harbiy xizmatchi quyidagilarga:

— Harbiy kasamyodga sodiq qilishga, uz xalkiga fidoyilarcha xizmat k<sup>^</sup>ilishga, O'zbekiston Respublikasining davlat mustakilligi va xududiy bugunligini matonat, mahorat bilan, uz so'nggi tomchi qoni va xatto hayotini ayamassdan himoya qilishga, harbiy burchni bajarishga;

— uz davlati konstitutsiyasiga va qonunlariga kat'iy rioya qilishga, harbiy nizomlarning talablarini bajarishga;

— O'zbekiston Respublikasini ximoya qilish bo'yicha vazifalarni bajarish bilan bogliq harbiy xizmat mashakdatlariga sabot bilan chidashga;

— harbiy kasb bilimlarini muntazam egallshga, uz o'quvi va askariy maxorratini takomillashtirishga;

— uziga ishonib topshirilgan qurol-aslaha va harbiy texnikani bilish va ishlatishga doimiy shaylikda saqlashga, harbiy mulkni asrashga;

— xalol, intizomli, jasur bo'lishga, harbiy burchni ijro etish chogida okilona tashabbuslar ko'rsatishga;

— komandirlarga (boshliqlarga) so'zsiz buysunish va ularni jangda himoya qilishga, harbiy qism Jangovar Bayrog'ini kuriklashga;

— askariy birodarlikni e'zozlashga, uz xayotini ayamassdan urtokdarini xavfxatardan kutqarishga, ularga suz va ish bilan yordam berishga, har birining ornomusi va kadr - kimmatini xurmat qilishga, uziga va boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan kupollik va taxdirlashlarga yul kuymaslikka, ularni noloyiq kilmishlardan tiyib qolishga;

— askariy yurishturish odobi qoidalariga rioya qilishga va harbiycha salom berishni bajarishga, har doim rusum bo'yicha, ozoda va saranjom kiyinishga majburdir.

**14.** Harbiy xizmatchi O'zbekiston Respublikasi ximoyachisi oliy unvonini sharaf bilan oklashga, Qurolli Kuchlarning, uz harbiy qismining ornomusi va jangovar shonshuxratini va uz harbiy unvonining obrusini e'zozlashga majburdir.

**15.** Harbiy xizmatchi vatanparvarlik ko'rsatishga, xalklarning baynalmilal dustligini qadrlashga, millatlar va elatlar o'rtasidagi birodarlikni mustaxkamlashga imkon yaratishga majburdir.

Harbiy xizmatchilarni ukitish va tarbiyalash jarayonida ularning milliy tuygulariga, urf-odatlar va an'analariga xurmat ko'rsatilishi lozim. Harbiy xizmatchilar bir-biriga xurmat ko'rsatish, komandirlarga (boshliqlarga) va kattalarga tartib va intizomni saqlashda kumak berishga majburdirlar.

**16.** Harbiy xizmatchi o'ziga uning majburiyatlarini ijro etishiga ta'sir ko'rsatgan barcha sodir bo'lgan voqealar to'g'risida va unga berilgan tanbexlar hakida o'zining bevosita boshlig'iga bildiruv berishga majburdir.

Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi uzaro munosabatlarning harbiy nizomlarda belgilangan qoidalari buzilganda, u zudlik bilan tartib o'rnatish choralari kurishga va shuningdek, o'zining bevosita boshlig'iga bildiruv berishga majburdir.

**17.** Harbiy xizmatchi harbiy xizmat xavfsizligi talablariga, kasallanish, jaroxat orttirish va kuyishdan ogoxlantirish tadbirlariga rioya qilishi, har kuni jismoniy chinikishi va mashq kurganligini o'stirishi, zararli odatlardan (chekish va ichkilik ichishdan) tiyilishi lozim.

**18.** Xizmat masalalari yuzasidan harbiy xizmatchi o'zining bevosita boshliqqa va uning ijozati bilan makomi bo'yicha navbatdagi boshliqqa murojaat qilishi lozim.

SHaxsiy masalalar yuzasidan xam harbiy xizmatchi o'zining bevosita boshlig'iga, uta zarur xollarda esa katta boshliqqa murojaat qilishi kerak

Taklif, ariza kiritayotganda va shikoyat berayotganda harbiy xizmatchi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi qoidalariga amal qiladi.

**19.** Harbiy xizmatchi harbiy harakatlar yuritish, yaradorlar, bemorlar, kema xaloqatiga uchragan shaxslar va harbiy harakatlar mintakasidagi axoli, shuningdek, harbiy asirlar bilan muomala qilishning xalkaro qoidalarini bilishga majburdir.

**20.** Harbiy xizmatchi jangovar harakatlar paytida, xatto uz harbiy qismidan (bo'linmasidan) yiroq va tula kurshovda qolgan bo'lsa xam, asirga tushishdan kutulmoq uchun dushmanga ashaddiy qarshilik ko'rsatishga majburdir. U jangda askarlik burchini oxirigacha bajarishga majbur.

## **2 – o'quv savoli. Boshliqlar va bo'ysunuvchilar, kattalar va kichiklar, to'g'ridan-to'g'ri va bevosita boshliqlarning xuquqlari va majburiyatlari.**

Yakkaboshchilik — O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qurulishining, unga rahbarlik qilishning va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi uzaro munosabatlarning prinsiplaridan biri sanaladi. U komandirga (boshliqla) bo'ysunuvchilarga nisbatan idora qilish hokimiyatining butun tulaligicha berilishida va harbiy qism, bo'linma va har bir harbiy xizmatchining hayoti va faoliyatining hamma jihatlari uchun davlat oldida shaxsiy javobgarlik uning zimmasiga yuklanishida uz ifodasini topadi.

Yakkaboshchilik komandirning (boshliqning) vaziyatni har tomonlama baholashdan kelib chikkan xolda yolgiz uzi qaror qabul qilish, qonun va harbiy nizomlarning talablariga qat'iy muvofiq ravishda buyruqlar berish va ularning bajarilishini talab qilish xukukida mujassamlashgandir.

Buyruqlarning muhokama etilishiga yul quyilmaydi, buysunmaslik yoxud buyruqni boshqacha ijro etmaslik harbiy jinoyat sanaladi.

**31.** Uz xizmat makomi va harbiy unvoniga ko'ra ayrim harbiy xizmatchilar boshqalarga nisbatan boshliq, yoxud buysunuvchi bo'lishi mumkin. Boshliq bo'ysunuvchiga buyruqlar berish va ularning ijrosini talab qilish xukuqiga ega.

Boshliq, bo'ysunuvchi uchun xushmuomalalik va bosiklik namunasi bo'lishi va takallufsizlikka ham, noxolislikka ham yul kuymasligi lozim. Bo'ysunuvchining insoniy qadrimmatini poymol etuvchi harakatlari uchun boshliq javobgar bo'ladi.

Bo'ysunuvchi boshliqning buyruqdarini suzsiz bajarishga majburdir. Agar u uziga nisbatan noto'g'ri munosabatda bulingan deb hisoblasa, buyruqni bajarib, shikoyat qilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining noharbiy xodimlaridan bo'lgan shaxs egallagan lavozimiga muvofiq bo'ysunuvchilar uchun boshliq xisoblanadi.

**32.** Harbiy xizmatchilar, xizmat yuzasidan, xatto vaqtincha bo'lsa ham, buysundirilgan boshliqlar bevosita boshliqlar xisoblanadi. Bo'ysunuvchiga yaqinroq bo'lgan to'g'ridan to'g'ri boshliq, bevosita boshliq deb ataladi.

**33.** Harbiy xizmatda bo'lganlar uz harbiy unvonlariga ko'ra boshliqlar xisoblanadi:

— O'zbekiston Respublikasi marshallari va armiya generallari — katta va kichik ofitserlar, praporshiklar, michmanlar, serjantlar, askar va matroslar uchun;

— generallar, polkovniklar va 1 - darajali kapitanlar — kichik ofitserlar, serjantlar, starshinalar, askarlar va matroslar uchun;

— podpolkovnik, 2 darajali kapitan, mayor, 3 - darajali kapitan harbiy unvonidagi katta ofitserlar, serjantlar, starshinalar, askarlar va matroslar uchun;

— kichik ofitserlar serjantlar, starshinalar, askarlar va matroslar uchun;

— harbiy qismda birga bo'lgan serjantlar, askarlar va matroslar uchun;

— serjantlar— harbiy qismda birga bo‘lgan askarlar va matroslar uchun.

34. O‘z xizmat maqomi va harbiy unvoniga ko‘ra boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan ularning boshlig‘i yoxud buysunuvchisi sanalmagan harbiy xizmatchilar katta yoxud kichik bo‘lishlari mumkin.

Kattalik harbiy xizmatchilarning harbiy unvoniga qarab belgilanadi. Harbiy unvoni bo‘yicha kattalar, kichiklar harbiy intizomni, jamoat tartibini, axlok, harbiy kiyim kechakni kiyish va askarchasiga salomlashishni bajarish qoidalarini buzgan xollarda, ulardan bu buzishlarni bartaraf etishlarini talab qilishlari lozim. Unvoni bo‘yicha kichiklar kattalarning bunday talablarini so‘zsiz bajarishga majburdirlar.

35. Bir-biriga bo‘ysunuvchi bo‘lmagan harbiy xizmatchilar majburiyatlarni birgalikda bajaradigan xollarda, ularning o‘zaro xizmat munosabatlari komandir (boshliq) tomonidan belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, ulardan lavozimiga ko‘ra kattasi, teng mansablarda esa harbiy unvoni bo‘yicha kattasi boshliq sanaladi.

### **3- o‘quv savoli. Harbiycha salomlashish, harbiy xushmuomalalik va murojat qilish qoidalari. Buyruq berish va uni bajarish tartibi.**


43. Harbiycha salomlashish harbiy xizmatchilarning birodarlarcha jipsligining ifodasi, o‘zaro xurmat va mushtarak madaniyatni namoyon bo‘lishi belgisi sanaladi.

Barcha harbiy xizmatchilar bir biriga duch kelganda (etib utib ketganda) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi bilan belgilangan qoidalariga katiy rioya qilgan xolda bir biriga salom berishga majburdir.

Harbiy unvoniga ko‘ra, bo‘ysunuvchilar va kichiklar birinchi bo‘lib salom beradi. Makomlar teng bo‘lgan paytda esa kim o‘zini kuprok, xushmuomala, tarbiya kurgan deb xisoblasa, u birinchi bo‘lib salom beradi.

#### **Ilova № 2.**

**Bundan tashqari, agar moddiy ta‘minot imkon bersa, o‘qitishning zamonaviy uslublari ham qo‘llanilishi mumkin: “Klaster” tuzish.**



**MAVZU № 23. O‘R QK DAVLAT XARBIY TASHKILOTI. O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASINING MUDOFASINING ASOSI.**

**1 – mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari faoliyatining asoslari.**

**Reja**

O‘quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. Talabalarga O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining vazifasini tushuntirish.
2. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari faoliyatining asoslarini talabalarga tushuntirish.
3. Qurolli Kuchlarga rahbarlik, harbiy boshqaruvning mahalliy organlarini talabalarga tushuntirish.
4. Talabalarda harbiy xizmatga bo‘lgan sadoqatni yuksaltirish.

O‘quv savollari:

1. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining vazifasi.
2. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari faoliyatining asoslari.
3. Qurolli Kuchlarga rahbarlik, harbiy boshqaruvning mahalliy organlari.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O‘quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko‘rsatish.

SHakli: Ma‘ruza.

O‘quv moddiy ta‘minot: Tematik reja, o‘quv jurnali, kalendar reja, mavzuga tegishli adabiyotlar, ishchi dastur.

Tayanch so‘z va iboralar:

**1 – o‘quv savol. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlarining vazifasi.**

Qurolli Kuchlarimiz mudofaaga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qo‘shin turlari quyidagicha

- quruqlikdagi qo‘shinlar;
- harbiy havo kuchlari va havo xujumidan mudofaa ko‘shinlari;
- maxsus qo‘shinlar;

**2. Qo‘shin turlari va ularning vazifalari.**

a). Ichki qo‘shinlar - Ichki ishlar vazirligi tarkibida tashqil qilingan bo‘lib, uning asosiy vazifalari militsiya organlari bilan hamkorlikda axoli yashaydigan joylarda toifalangan halq xo‘jaligi korxonalarida va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning

xuquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tashqilotlar, idoralar, muassasalarni jinoyatchilikdan va boshqa jamiyatga qarshi harakatlardan muxofaza qilishdan iboratdir.

b). Davlat havfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklar tashqilotlar hamda harbiy tuzilmalarining asosiy vazifasi milliy havfsizlikni taminlashning o'ziga xos vazifalarini bajarish, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish va inson xayotini taminlovchi halq xo'jaligi korxona va muassasalarini qo'riqlash xisoblanadi.

v). Quruqlikdagi qo'shinlar Qurolli Kuchlarning eng ko'p soni xillaridan biri bo'lib, boshqa qo'shin xillari va turlari bilan o'zaro harakatda O'zbekistonga nisbatan qilingan, qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, tajovuzni qaytarishga oid vazifalarni bajarishga mo'ljallangan

g). Quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga *motoo'qchi, tank va artilleriya qismlari, xavo xujumidan mudofaa bo'linmalari, tezkor harakat qiluvchi (desant) kuchlar qismlari, taminot qism va bo'linmalari* kiradi.

d) *Motoo'qchi qismlar* - Quruqlikdagi qo'shinlarning asosi, jangovar tarkibining negizi xisoblanadi. Ular erdagi va xavodagi nishonlarni yakson qilish uchun qudratli qurol-aslahalar, tanklar, to'plar va minomyotlar, tankka qarshi boshqariluvchi raketalar, zenit komplekslari va qurilmalari, razvedka va boshqaruvning samarali vositalari bilan taminlangan.

e). *Tank qismlari* - quruqlikda qo'shinlarning zamonaviy jang olib borish sharoitlarida muxim vazifalarni bajarishga qaratilgan bosh zarba beruvchi kuchi va qurolli jangning qudratli vositasidir.

yo). *Artilleriya qismlari* - jangovar vazifalarni bajarishda bosh (olovli kuch hamda muxim tezkor-taktik vositadir. Ular arsenalida mavjud zamonaviy to'plar, reaktiv qurilmalar, gaubitsalar, minomyotlar artilleriya qismlarining o't ochish imkoniyatlari, jangovar harakatlar samaradorligini yanada oshiradi.

j). *Tezkor harakat qiluvchi (desant) kuchlar qismlarning roli* - xozirgi kunda sezilarli darajada ortgan. Desantchilar jangovar mashinalari, o'ziyurar artilleriya qurilmalari, tanklar, zirxli transportyorlar, yuksak samarali tankka qarshi va zenit vositalari, stvolli va reaktiv kuchli avtomatik qurollar, aloqa va boshqaruvning zamonaviy uskunalar bilan taminlangan.

z). Havo xujumidan mudofaa qo'shinlari - O'zbekiston Respublikasiga xavodan turib qilingan har qanday xujumni bartaraf etish darajasida zudlik bilan harakat qilishga doimiy shay turuvchi va mamlakatimiz xavo sarxadlarini radiolokatsion razvedkasini taminlovchi qo'shin turidir.

i). Muxandislik-quruvchilik qo'shinlari - tinchlik davrida Qurolli Kuchlar infratizimi taraqqiyotini taminlash va davlatning iqtisodiy dasturini bajarishga, urush paytida mudofaa kommunikatsiya qurilishlari va qutqaruv-avariya ishlarini bajarishga mo'ljallangan.

y). Milliy havfsizlik xizmatining chegara qo'shinlari - chegaraga doir siyosatni amalga oshiradi, davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlashni tashqil etadi.

k). Milliy havfsizlik xizmati:

CHegara qo'shinlari faoliyatini boshqarishni amalga oshiradi; joylardagi davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat xokimiyat organlari, nodavlat, notijorat tashqilotlarining Davlai chegarasini himoya qilish va qo'riqlash soxasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi; chegara qo'shinlari bugungi kunda qo'shinning mustaqil turi bo'lib, davlat chegaralari himoyasining birinchi esheloni tashkil etadi.

## **2 - o'quv savoli. O'zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari faoliyatining asoslari.**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibi va tuzilishi, vositalari takomillashtirish, kadrlar tayyorlashni, mobilizatsion resurslar va zaxiraga bo'lgan talabni, harbiy qurilishni moliyalashni agressiyani mustaqil ravishda va jamoaviy xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma qatnashchilari bo'lgan davlatlarning qurolli kuchlari bilan birgalikda qaytara oladigan mikdorda ishonchlik va etarlicha ta'minlash tamoyili bilan bog'liq.

Agressiya boshlanishi bilan harbiy xarakatlarning asosiy ko‘rinishi bo‘lgan mudofaaga o‘tiladi. Biroq vaziyatga qarab ba’zi aniq yo‘nalishlarda hujum xarakatlari olib borilishi inkor etilmaydi.

SHuning uchun tinch vaqtda qo‘shinlar xar qanday holatda, shuningdek dushman tomonidan yadro quroli qo‘llanilgan xolatda xam jangovar harakatlarni olib borishga tayyorlanadilar.

**O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.**

Qurolli Kuchlarimiz mudofaaga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qo‘shin turlari quyidagicha

- quruqlikdagi qo‘shinlar;
- harbiy havo kuchlari va havo xujumidan mudofaa ko‘shinlari;
- maxsus qo‘shinlar;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kadrlardan iborat doimiy armiya tamoyili asosida quriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari quyidagi maqsadlarda qo‘llanishi mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasiga bo‘lgan xujumni qaytarish maqsadida;
- Agressiyadan mudofaa qilish borasidagi shartnoma majburiyatlarini bajarish maqsadida;
- BMT qarori asosida tinchlikparvarlik operatsiyalarni o‘tkazish va «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturi doirasida operatsiyalarni o‘tkazish maqsadida.

Jangovar xarakatlarni olib borish tqg‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti - Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh Qo‘mondoni buyruq beradi va qaror qabul qiladi.

Fuqarolar, davlat va jamiyatning xavfsizligiga putur etkazish uchun ichki vaziyatni destabilizatsiya qilinishini, xukumat organlarining funksiyalarini buzilishini oldini olish va bartaraf qilish uchun Oliy Bosh Ko‘mondon Qurolli Kuchlarni qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin, Uning bu qarori keyinchalik Oliy Majlisda ko‘rib chiqiladi.

### **3- o‘quv savoli. Qurolli Kuchlarga rahbarlik, harbiy boshqaruvning mahalliy organlari.**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo‘mondoni - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Bosh Ko‘mondoni-O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vaziri.

#### *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mudofaa sohasidagi vakolatlari*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

davlat harbiy buyurtmalarini shakllantirish va mudofaa ahamiyatiga molik ishlab chiqarishlarni tashkil etish sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta’minlaydi;

mamlakat iqtisodiyotining safarbarlik tayyorgarligi, shuningdek safarbarlik va strategik davlat zaxiralarini shakllantirish hamda ulardan foydalanish rejalarini ishlab chiqadi, mazkur rejalarining ijrosi ustidan nazorat olib boradi;

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy-maishiy ta’minoti masalalarini hal etadi;

Qurolli Kuchlarning tegishli ravishda qurol-yarog‘lar, harbiy texnika, harbiy-texnikaviy va ashyoviy mol-mulklar, oziq-ovqat hamda boshqa moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishi va ta’minlanishini tashkil etadi;

qurol-yarog‘lar va harbiy texnika, strategik materiallar eksporti hamda importi ustidan nazorat olib boradi;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar mudofaa ehtiyojlariga doir vazifalarni bajarganligi munosabati bilan ular sarf qilgan moddiy xarajatlarning o'rnini qoplash tartibini belgilaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

#### ***O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi***

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi o'z tasarrufidagi qo'shinlarga boshqaruvni amalga oshiradi, mudofaa va harbiy qurilish sohasidagi davlat siyosati yuritilishini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarining zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika va moddiy-texnika vositalari bilan jihozlanishini, harbiy hamkorlik kengaytirilishini, chaqiruvning va Qurolli Kuchlar kadrlari tayyorlashning tashkil etilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

*Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning mudofaa sohasidagi vakolatlari.*

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qonun hujjatlariga muvofiq mamlakat mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarning jangovar va safarbarlik tayyorgarligini, shuningdek jangovar qobiliyatini ta'minlashda qatnashadilar hamda zimmalariga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun mas'uldirlar.

Harbiy buyurtmalarni bajaruvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar mudofaa ehtiyojlariga zarur bo'lgan mahsulotlar etkazib berilishi, tarmoqning safarbarlik tayyorgarligi uchun mas'uldirlar, safarbarlik tayyorgarligi rejasiga muvofiq tarmoqning urush davrida barqaror ishlashini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

#### ***Harbiy boshqaruvning mahalliy organlari.***

##### ***Harbiy okruglar***

Harbiy okrug operatsion yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy harbiy-ma'muriy birlik hamda umum qo'shin tezkor-strategik hududiy birlashmasidir.

Harbiy okruglar zimmalariga yuklangan vazifalarni bajaradilar hamda qonun hujjatlariga muvofiq qarorlar qabul qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida beshta harbiy okrugi mavjud:

1. Toshkent harbiy okrugi;
2. Markaziy harbiy okrug
3. SHarqiy harbiy okrug;
4. Janubiy-G'arbiy maxsus xarbiy okrug;
5. SHimoliy-G'arbiy harbiy okrug.

Respublikamizdagi viloyatlarda Mudofaa ishlari boshqarmalarining va tumanlardagi mudofaa ishlari bo'limlarining faoliyatlari to'g'risida tushuncha berib talabalarni o'quv materialini bo'yicha bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi savollar beradi:

#### ***Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari***

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

tegishli safarbarlik topshiriqlari bajarilishini ta'minlaydilar;

o'z hududlarida joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda safarbarlik rejalari hamda davlat va safarbarlik zaxiralari moddiy boyliklarini jamlash topshiriqlari bajarilishi ustidan nazorat olib boradilar;

harbiy hisobga olish ishini, harbiy va muqobil xizmatga chaqirishni, safarbarlik, harbiy yig'inlarni tashkil etishda, shuningdek safarbarlik va urush davrida O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga bron berishda qatnashadilar;

fuqaro muhofazasi tadbirlari bajarilishini ta'minlaydilar;

hududiy mudofaa tadbirlarini rejalashtirishda va ularning bajarilishini ta'minlashda qatnashadilar;

Qurolli Kuchlarning zarur mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlariga, issiqlik va elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydilar, ularga aloqa vositalarini beradilar, kommunal-maishiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadilar;

harbiy qismlar, Qurolli Kuchlarning korxona, muassasa va tashkilotlari ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda er, xizmat xonalari hamda turar joy beradilar;

fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi, jangovar harakatlarda qatnashishi munosabati bilan ularga, shuningdek ularning oila a'zolari uchun belgilangan ijtimoiy kafolatlar amalga oshirilishini ta'minlaydilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

*Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mudofaani ta'minlashdagi ishtiroki.*

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

harbiy xizmatga majburlarni va chaqiriluvchilarni xabardor etish va mudofaa ishlari bo'limlariga chaqirishni tashkil etishda ko'maklashadilar;

shaharchalar, qishloqlar va ovullarda harbiy xizmatga majburlarni va chaqiriluvchilarni birlamchi shaxsiy hisobga olish ishini yuritadilar, shuningdek fuqarolarni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qatnashadilar;

fuqaro muhofazasi va hududiy mudofaa tadbirlarida qatnashadilar;

o'z mulkidagi binolar, inshootlar, transport va aloqa vositalari hamda boshqa mol-mulklarni urush davrida mudofaa ehtiyojlari uchun qonunda belgilangan tartibda berib turadilar, qilingan xarajatlarning o'zni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda keyinchalik qoplanadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda qatnashadilar.

**MAVZU № 24. SUTKALIK NARYAD, GURUH NAVBATCHISINING**  
**HARAKATLARI.**  
**MASHGULOT №1. VZVOD BO'YICHA NARYADNING VAZIFASI,**  
**TARKIBI, QUROLLANISHI.**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. Vzvod bo'yicha naryadning vazifasi, tarkibi, qurollanishini talabalarga o'rgatish.

2. Vzvod bo'yicha posboning majburiyatlari. Navbatchilikdagi posbon o'z majburiyatlarini bajaradigan joy va uning jihozlanishini talabalarga tushintirish.

3. Trevoga e'lon qilinganda, yong'in chiqqanda, to'g'ridan-to'g'ri boshliqlar kelgan paytda, boshqa vzvoddan harbiy xizmatchilar kelgan paytda, vzvod komandiri navbatchilikdagi posbonni chaqirgan paytda, posbonning hatti harakatlarini talabalarga tushintirish.

4. Talabalarda harbiy xizmatga bo'lgan sadoqatni yuksaltirish.

O'quv savollari:

1. Vzvod bo'yicha naryadning vazifasi, tarkibi, qurollanishi.

2. Vzvod bo'yicha posboning majburiyatlari. Navbatchilikdagi posbon o'z majburiyatlarini bajaradigan joy va uning jihozlanishi.

3. Trevoga e'lon qilinganda, yong'in chiqqanda, to'g'ridan-to'g'ri boshliqlar kelgan paytda, boshqa vzvoddan harbiy xizmatchilar kelgan paytda, vzvod komandiri navbatchilikdagi posbonni chaqirgan paytda, posbonning hatti harakatlari.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

O'quv moddiy ta'minot: Tematik reja, o'quv jurnali, kalendar reja, mavzuga tegishli adabiyotlar, ishchi dastur.

## **1 – o‘quv savoli. Vzvod bo‘yicha naryadning vazifasi, tarkibi, qurollanishi.**

Sutkalik naryad harbiy qismning (bo‘linmaning) ichki tartibini saqlash, shaxsiy tarkibi, qurol-aslahasi, harbiy texnikasi va o‘q-dorilari, inshootlari va mulkini ko‘riqlash, bo‘linmalarda ishlarning ahvolini nazorat qilish va huquqbuzarliklardan ogohlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z vaqtida qabul qilish, shuningdek, ichki xizmat bo‘yicha boshqa majburiyatlarni bajarish uchun tayinlanadi.

Sutkalik naryad tarkibi brigada bo‘yicha buyruqni o‘rganish davrida e‘lon qilinadi.

Brigada sutkalik naryadining quyidagi tarkibi ko‘zda tutiladi:

- ✓ brigada buyicha navbatchi;
- ✓ brigada bo‘yicha navbatchining yordamchisi;
- ✓ bo‘linmalarning navbatchilari;
- ✓ qorovul;
- ✓ park bo‘yicha navbatchi va posbon, shuningdek, navbatchi shataklarning mexanik-haydovchilari (haydovchilari);
- ✓ navbatchi feldsher yoxud sanitariya yo‘riqchisi va tibbiyot punkti bo‘yicha posbon;
- ✓ oshxona bo‘yicha navbatchi va oshxonada ishlovchilar;
- ✓ brigada shtabi bo‘yicha navbatchi;
- ✓ navbatchi signalchi-barabanchi;
- ✓ xat tashuvchilar;
- ✓ o‘t o‘chirish naryadi.

Har kuni brigada bo‘yicha buyruqqa ko‘ra: brigada bo‘yicha navbatchi, brigada bo‘yicha navbatchining yordamchisi, qorovul boshlig‘i, park bo‘yicha navbatchi, bo‘linmalarning navbatchilari, shuningdek, tarkibidan brigada sutkalik naryad va ishga naryad ajratiladigan bo‘linmalar tayinlanadi. Zarur bo‘lgan hollarda brigada komandiri sutkalik naryad tarkibni qisqartirishga xaqqi bo‘ladi.

Vzvodning sutkalik naryadiga:

- ✓ vzvod bo‘yicha navbatchi;
- ✓ vzvod bo‘yicha posbonlar tayinlanadilar.

Vzvod bo‘yicha posbonlarning almashinish miqdori brigada komandiri tomonidan belgilanadi.

Harbiy xizmatchi ayollar yotoqxonasi bo‘yicha sutkalik naryad tarkibi, shuningdek, uning majburiyatlari vzvod sutkalik naryadiga muvofiq ravishda belgilanadi.

Vzvodlar bo‘yicha navbatchilar o‘rnida ba‘zi batalonlarda ularning soni va joylashish sharoitlariga qarab brigada komandirining qaroriga binoan batalon bo‘yicha navbatchi, brigada ta‘minoti bo‘linmalarida esa ular bir joyda joylashganda — bu bo‘linmalar bo‘yicha navbatchi tayinlanishi mumkin.

Posbonlarning soni ko‘rsatiladigan hollarda bo‘linmalarning joylashishi, qo‘riqlashning ta‘minlanishi va ichki tartib saqlanishi sharoitlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vzvod bo‘yicha navbatchi serjantlardan va istisno tarzida xammadan ko‘ra yaxshi tayyorlangan askarlar orasidan tayinlanadi. U vzvodda kun tartibining anik, bajarilishi va ichki tartibni saklash bo‘yicha boshqa qoidalariga rioya kilinishi uchun, qurollar, uk-dorili kutilar, vzvod mulki, askar va serjantlarning shaxsiy anjomlari saklanishi va posbonlar xizmatni to‘g‘ri utashi uchun javob beradi. Vzvod bo‘yicha navbatchi brigada bo‘yicha navbatchiga va uning yordamchisiga, vzvoddagi ichki xizmat yusinida esa — vzvod komandiriga va vzvod starshinasiga bo‘ysunadi.

Tarqatish oldidan vzvod bo‘yicha yangi navbatchi vzvod tayinlangan sutkalik naryad tarkibini tekshiradi, uni kuzdan kechiradi va vzvod starshinasiga tanishtiradi. Vzvod starshinasi tekshiruv, majburiyatlarni bilishni tekshirishi va amaliy mashg‘ulot o‘tkazganidan so‘ng eski

navbatchidan odamlar joy - joyidaligi va tarkatilihi to'g'risida ma'lumot oladi va sutkalik naryadni tarkatishga olib boradi.

Tarkatishdan so'ng yangi navbatchi eski navbatchi bilan birgalikda qurollarni, o'k-dorili kutilarni va ulardagi muxrni, ruyxatlardagi mulkni tekshiradi va kabul kilib oladi, ut uchirish va xabar qilish vositalarining joy - joyidaligi va shayligini tekshiradi, shundan so'ng navbatchilar navbatchilikni kabul qilish va topshirish daftariga imzo chekadilar.

Qurollar donalab, rakamiga ko'ra va butligida kabul kilinadi. Ayni chog'da kulflar, qo'riqlash signalizatsiyasi, javonlar, muxrlar va boshqa uskunalarining sozligi tekshiriladi. Navbatchilikni qabul kilgach, yangi navbatchi eskisi bilan birgalikda vzvod komandirining, u yuq paytda esa vzvod komandiri o'rinbosarining, agar u ham yuk, bo'lsa, vzvod starshinasining xuzuriga navbatchilikni topshirish va kabul qilish to'g'risidagi bildiruv bilan kiradilar.

**M a s a l a n: «O'rtoq kapitan. Serjant Sulaymonov vzvod bo'yicha navbatchilikni topshirdi». «O'rtoq kapitan. Kichik serjant Krsimov vzvod bo'yicha navbatchilikni kabul kildi».**

So'ngra vzvod bo'yicha yangi navbatchi tarqatish brigada bo'yicha navbatchi tomonidan berilgan barcha tanbexlar va ko'rsatmalarni, shuningdek, navbatchilikni kabul qilish chog'ida aniklangan buzukliklar va kamomadni ma'lum kiladi.

## ***2 – o'quv savoli. Vzvod bo'yicha posboning majburiyatlari. Navbatchilikdagi posbon o'z majburiyatlarini bajaradigan joy va uning jihozlanishi.***

Vzvod bo'yicha posbon askarlardan tayinlanadi. U uning muxofazasi ostida bo'lgan qurol, to'plangan javonlar (qutilar), o'q-dorili qutilar, vzvod mulki, askar va serjantlarning shaxsiy buyumlari saqlanishi uchun javob beradi. Vzvod bo'yicha posbon vzvod bo'yicha navbatchiga bo'ysunadi.

Vzvod bo'yicha navbatdagi posbon kazarma xonasi ichkarisida kirish eshigi oldida, qurol saqlash uchun xona yaqinida xizmatni o'taydi.

U:

—vzvod bo'yicha navbatchining ruxsatisiz vzvod xonasidan xech kayokka jilmaslikka, qurol saqlash uchun xonani doimiy kuzatib turishga;

—begona kishilarni xonaga o'tkazmaslik, shuningdek, kazarmadan vzvod bo'yicha navbatchining olib chiqib ketilishiga yul kuymaslikka;

—vzvoddagi barcha ko'ngilsiz hodisalar, vzvod askarlari yoxud serjantlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning nizomlarda belgilangan qoidalari buzilishlari to'g'risida vzvod bo'yicha navbatchiga zudlik bilan biddirishga, ularni bartaraf etish uchun choralar ko'rishga;

—shaxsiy tarkibni umumiy o'ygotish paytida, shuningdek, trevoga paytida yoxud yong'in bo'lganda tunda o'ygotishga;

—kun tartibiga muvofiq komandalarni o'z vaqtida berishga;

—xonalarda ozodalik va tartibni nazorat qilib turish va xizmatchilardan ularga rioya qilishni talab etishga;

—sovuq vaqtida, ayniksa, tunda harbiy xizmatchilarning xonadan kiyinmasdan chikishlariga yo'l kuymaslikka;

—harbiy xizmatchilar faqat ajratilgan xonalar yoxud joylarda chekishlariga, poyabzal va kiyimni tozalashlariga ko'z-kulok, bo'lib turishga;


—vzvod komandiri va undan yuqori to'g'ridan - to'g'ri boshliqdar va brigada bo'yicha navbatchi kelganda **«Rostlan»** komandasini berish; vzvodning ofitserlari, shuningdek, vzvod starshinasi va o'z vzvodidan bo'lmagan harbiy xizmatchilar vzvodga kelishi bilan navbatchini chaqirishga majburdir.

Masalan: **«Vzvod bo'yicha navbatchi, eshikka».** Navbatdagi posbonga o'tirish, anjom aslaxasini echish va kiyimining tugmasini echish man etiladi. Bo'sh turgan smena posboni vzvod xonalarida ozodalik va tartibni saqlashga va vzvod bo'yicha navbatchining ruxsatisiz

xech qayokqa jilmaslikka, vzvod askarlari yoxud serjantlari o'rtasidagi o'zaro munosabatning harbiy nizomlarda belgilangan qoidalari buzilgan xollarda unga tartib o'rnatishga yordam berishga; vzvod bo'yicha navbatchi o'rnida qolganda uning majburiyatlarini bajarishga majburdir.

Vzvod zaxira manzillarida joylashtirilgan paytda posbonlardan biri ko'chada, brigada komandiri belgilagan va yomon xavodan ximoya uchun jixozlangan bostirmada xech yoqqa jilmasdan turadi.

Posbon vzvod bo'yicha navbatchi kaerda ekanligini har doim bilishga va harbiy xizmatchilar tomonidan jamoat tartibi va harbiy kiyim - kechak rusumini kiyib yurish qoidalariga rioya qilinishi ustidan kuzatib turishga majburdir. Aniklangan barcha buzilishlar to'g'risida u vzvod bo'yicha navbatchiga bildiruv beradi.



Rasm. a) Navbatdagi posbon.



b) Ozod smena posboni.

Navbatdagi posbonga o'tirish, anjom aslahasini echish va kiyim tugmasini echish man etiladi. **Ozod smena posboni** vzvod xonalarida ozodalik va tartibni saqlashga majburdir. U vzvod bo'yicha navbatchining o'rnida qolganda uning majburiyatlarini bajarishga majburdir.

Navbatdagi posbon o'z xizmat vazifalarini bajaradigan joy (post)da quyidagi jihozlar bo'lishi kerak; vzvod bo'yicha navbatchining xujjatlari bayon qilingan stend, yog'och tumbochka, telefon, O'zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari, o't o'chirish vositalari.

**3— o'quv savoli. Trevoga e'lon qilinganda, yong'in chiqqanda, to'g'ridan-to'g'ri boshliqlar kelgan paytda, boshqa vzvoddan harbiy xizmatchilar kelgan paytda, vzvod komandiri navbatchilikdagi posbonni chaqirgan paytda, posbonning hatti harakatlari.**

**Vzvod bo'yicha posbon** askarlardan tayinlanadi. U uning qo'l ostida bo'lgan qurol, o'q dorili qutilar, vzvod mulki, askar va serjantlarning shaxsiy buyumlarini saqlanishi uchun javob beradi. Vzvod bo'yicha posbon vzvod bo'yicha navbatchiga bo'ysunadi.

Vzvod bo'yicha **navbatdagi posbon** kazarma xonasi ichkarisiga kirish eshigi oldida, qurol saqlash xonasi yaqinida xizmatni o'taydi.

**U quyidagilarga majburdir:**

- vzvod navbatchisining ruxsatisiz hech qayoqqa ketmaslikka, qurol saqlash xonasini doimiy kuzatib turishga;
  - begona kishilarni xonaga o'tkazmaslikka;
  - vzvoddagi barcha ko'ngilsiz xodisalar, askarlar yoki serjantlar ortasida nizom qoidalar buzilishlari to'g'risida vzvod bo'yicha navbatchiga zudlik bilan bildirishga;
  - shaxsiy tarkibni umumiy uyg'otish paytida, trevoga paytida yoki yong'in bo'lganda tunda uyg'otishga;
  - kun tartibiga muvofiq komandalarni o'z vaqtida berishga;
  - xonalarda ozodalik va tartibni nazorat qilishlikka;
  - sovuq paytida harbiy xizmatchilarni xonadan kiyinmasdan chiqishlariga yo'l qo'ymaslikka;
  - harbiy xizmatchilar faqat ajratilgan joylarda poyafzal va kiyimlarini tozalashlariga ko'z-quloq bo'lib turishga;
  - vzvod komandiri va undan yuqori boshliqlar kelganda **“ROSTLAN”** komandasini berishga, vzvodning boshqa ofitserlari va boshqa harbiy xizmatchilari kelganda **“VZVOD BO'YICHA NAVBATCHI ESHIKKA”** komandasini berishga.
- Navbatdagi posbonga o'tirish, anjom aslahasini echish va kiyim tugmasini echish man etiladi. **Ozod smena posboni** vzvod xonalarida ozodalik va tartibni saqlashga majburdir. U vzvod bo'yicha navbatchining o'rnida qolganda uning majburiyatlarini bajarishga majburdir.

## **Mavzu № 25. CHQBTTE VA UM FANI ASOSIDA KURS ISHLARINI BAJARISH VA TASHKIL QILISH.**

### **Reja**

O'quv-tarbiyaviy maqsadlari:

1. Talabalarga kurs ishini xajmi va uni jihozlashni o'rganish.
2. Talabalarga kurs ishini himoyasiga tayyorgarlik ko'rish, ilmiy rahbardan maslaxatlar olishni o'rganish.
3. Talabalarga kurs ishini sifati va uning bajarilishiga baho qo'yishni o'rgatish.

O'quv savollari:

1. Kurs ishini xajmi va uni jihozlash.
2. Kurs ishini himoyasiga tayyorgarlik ko'rish, ilmiy rahbardan maslaxatlar olish.
3. Kurs ishini sifati va uning bajarilishiga baho qo'yish.

SHakl: nazariy

Uslub: ma'ruza, tushuntirish, suhbat.

Joy: o'quv xonasi.

Vaqt: 80 daqiqa

### **1- o'quv savoli. Kurs ishini xajmi va uni jihozlash.**

**Kurs** ishining maqsadi talabalarining olgan bilimlarini mustaqil qo'llashi, mustaqil qaror qabul qilishi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish, tartibga solish va mustahkamlash, ushbu fan bo'yicha talabalar bilimini baholash. Kurs ishi doklad/ referat/, uslubiy qo'llanma yoki talabalarining mashg'ulotda tatbiq qiladigan ta'lim - usul va uslublarini birma-bir tasvirlash bilan mashg'ulotlarni o'tkazish rejasidan iborat bo'lishi kerak. xajmi yozuv mashinasida intervali 12-15 varaqdan iborat matn bo'lishi kerak. Ish aniq ravshan xat bilan qo'lda yozilgan bo'lishi xam mumkin. Mavzu tanlashga kirishib, talaba uning mazmunini tushunib olishi kerak. Mavzuni bilib olish natijasida talaba kurs ishi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topishi kerakligini, maqsadini belgilab olishi kerak. Kurs ishini bajarishga kirishib, talaba ishlab chiqilishi kerak bo'lgan mavzuni, asosiy savollar va boshqa

boshlang'ich ma'lumotlarni tushunib olishi, ish kalendar rejasini tuzishi, adabiyot, metodik qo'llanmalarni tanlashi va o'rganib chiqishi kerak. Tanlangan mavzu bo'yicha adabiyot va metodik qo'llanmalarni tanlash va o'rganish o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-adabiyotlarni tanlash;

-adabiyot materiali bilan oldindan tanishish, uni baholash va tartibga solish;

Tanlangan adabiyotlarni o'rganishda, manbalarni tanlashda, talaba boshqaruv xujjatlarni, nizomlarni, qoidalarni, ko'rsatmalarni o'rganishdan boshlaydi. YOCHQBT dasturi metodik qo'llanmalardan boshlanadi. Bundan so'ng kurs ishi mavzusiga yaqin boshqa adabiyot tanlanadi. Tanlab olingan adabiyotlar bilan tanishib chiqish va keraksizlarini chiqarib tashlash maqsadida ko'rib chiqiladi. Qolgan adabiyotlar sinchiklab o'rganiladi. kerakli qismlari esa varaqlarga yozib olinib, tartibga solinadi, xar bir manba aniq ko'rsatiladi. Manbalar bilan ishlash tanlab olingan materiallarni tartibga solish bilan yakunlanadi. Kurs ishining dastlabki boshlang'ich tashkiliy xujjatlari mutaxassislik sikli bo'yicha ishlab chiqiladigan, kafedra uslubiy yig'ilishida muhokama qilinadigan va kafedra boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan mavzular majmui hisoblanadi. Talabalarga yordam ko'rsatish uchun kafedra o'qituvchilaridan maslahatchilar ajratiladi, maslahat berish individual tartibda amalga oshiriladi. Bu kurs ishlarini yozishning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Talabaning yutug'i va kamchiliklarini bilgan xolda o'qituvchi mavjud bo'sh joylarini to'ldirish uchun yordam ko'rsatadi. O'qituvchi kurs ishini yozilishidan avval mavzu savollari bo'yicha metodik qo'llanma va adabiyotlar to'g'ri tanlanganiga va talaba tomonidan mavzu to'g'ri tushunilganligiga ishonch xosil qilishi kerak. Buning uchun u talaba bilan suxbat o'tkazadi, suxbat chog'ida unga bor bilimlarini chuqurlashtirishga, kurs ishini muvaffaqiyatli yozish uchun ularni kerakli tizimga tushurishga yordam beradi. Agarda talaba biror ishni boshlay olmayotgan bo'lsa, o'qituvchi unga yordam beradi.

Savollarni mantiqiy bir-biri bilan bog'lash orqali o'qituvchi talaba kurs ishi savolini mustaqil bayon eta olishi uchun uni kerakli fikrga olib keladi. *Ish bo'limlari* va rejasini ishlab chiqish bo'yicha amaliy mashg'ulot, kurs ishini yozish, himoya qilish, sifatini baholash. Kurs ishi talabaning shaxsiy vaqti va mustaqil tayyorlanish soatlari xisobiga bajariladi, bir xilda u uchun mashg'ulotlar jadvali bo'yicha soatlar ajratiladi. Kurs ishini yozish jarayoni talaba ishida eng kiyin jarayon xisoblanadi, u yuqori bilim va ular tahlili, mexnatsevarlik va qat'iylikni talab qiladi. Nazariy mavzulardagi kurs ishlari odatda quyidagilardan iborat.

Kurs ishini talaba o'z so'zlari bilan yozishi kerak. Material oddiy tushunarli bayon etilishi, sxema, rasmlar bilan bezatilishi, nizom, ko'rsatma, buyruqlar bandlari, namunalar bilan tushuntirilishi, zaruriyat bo'lsa hisobot berilishi kerak. Kirish qismida mavzu dolzarbligi va uning maqsad yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi. Bundan keyin o'quv savollari mazmuni bayon etiladi. xar bir savol bayoni xulosa bilan yakunlanishi, namuna va tushuntirishlarsiz bo'lishi kerak. Xulosada namuna bilan ishga, uning axamiyatiga yakun yasaladi va muallifning mavzu bo'yicha tavsiya va takliflari beriladi. Kurs ishi quyidagi tartibda yoziladi:

1.Muqova 2.Topshiriq 3.Kurs ishi bajarish kalendar rejasi.

4. Kurs ishi rejasi. 5. Kurs ishi mazmuni.

6.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 7. Ilova

## **2 – o'quv savoli. Kurs ishini himoyasiga tayyorgarlik ko'rish, ilmiy rahbardan maslaxatlar olish.**

Adabiyotlarni tanlash va o'rganish.

Manbalarni tanlab, saralangan adabiyotlarni o'rganishda, talaba tanishuvni boshqaruv xujjatlaridan, nizom, qoida, ko'rsatmalar va o'quv dasturlaridan boshlaydi.

Undan keyin kurs ishining mavzusiga mazmun jihatdan yaqin bo'lgan yaqin bo'lgan boshqa adabiyotlar tanlanib o'rganiladi. Keraksiz adabiyotlarni chiqarib tashlash maqsadida olingan adabiyotlar bilan tanishib chiqiladi.

Saralab qoldirilgan adabiyotlar sinchiklab o'rganiladi. kerakli parchalari esa yozib olinib, tartibga solinadi, xar bir manba aniq ko'rsatiladi.

Manbalar bilan ishlash tanlab olingan materiallarni tartibga solish bilan yakunlanadi.

Kurs ishlarining boshlang'ich tashkiliy xujjatlari mutaxassislik sikli bo'yicha ishlab chiqiladigan, kafedraning uslubiy kengashida muhokama qilinadigan va kafedra boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan mavzular majmui hisoblanadi.

Kafedra o'qituvchilari tomonidan kurs ishlariga rahbarlik qilish.

Talabalarga yordam ko'rsatish uchun kafedra o'qituvchilaridan maslahatchilar ajratiladi, maslahat berish individual tartibda amalga oshiriladi.

Bu kurs ishlarining yozilishini yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Talabaning yutug'i va kamchiliklarini bilgan xolda o'qituvchi mavjud bo'sh joylarini to'ldirish uchun yordam ko'rsatadi.

O'qituvchi kurs ishini yozilishidan avval mavzu savollari bo'yicha metodik qo'llanma va adabiyotlar to'g'ri tanlanganiga va talaba tomonidan mavzu to'g'ri tushunilganligiga ishonch xosil qilishi kerak bo'ladi.

Buning uchun u talaba bilan suxbat o'tkazadi, suxbat chog'ida unga bor bilimlarini chuqurlashtirishga, kurs ishini muvaffaqiyatli yozish uchun ularni kerakli tizimga tushurishga yordam beradi. Agarda talaba biror ishni boshlay olmayotgan bo'lsa, o'qituvchi unga yordam ko'rsatadi.

Savollarni bir-biri bilan mantiqiy bog'lash orqali o'qituvchi talabaning kurs ishi savollarini mustaqil bayon eta olishi uchun uni kerakli bir to'xtamga olib keladi.

Kurs ishi talabaning shaxsiy vaqti va mustaqil tayyorgarlik soatlari xisobiga bajariladi, ayrim hollarda kurs ishi uchun mashg'ulotlar jadvali bo'yicha soatlar ajratiladi. Kurs ishini yozish jarayoni talaba ishida eng kiyin jarayon xisoblanadi, u yuqori bilim va uning tahlilini, mexnatsevarlik va qat'iylikni talab qiladi.

Kurs ishini himoya klish uchun kerakli ko'nikmalarni egallash maqsadida:

1.YAna bir marotaba ushbu masalalar bo'yicha boshqaruv xujjatlari asosiy qoidalarini hotiraga olish kerak.

2.Namoyish etiladigan materiallar (maket,sxema,stendlar) tayyorlanadi.

3. Ushbu ish mavzu va maqsadi dolzarbligi ko'rsatilgan ma'ruza rejasi tuziladi, asosiy savollar ochib beriladi, muallif foydalangan manbalar ko'rsatiladi.

Talaba o'z o'rtoqlaridan tashkil topgan kichik bir guruh oldida himoya qilishni mashq qilinadi. Himoya qilishni mashq qilishdan maqsad kurs ishi asosiy mazmunini aniq ifoda etishga erishish, o'quv savollari va ma'ruzani umumiy bayon etib berish vaqtini taqsimlashni tekshirib ko'rish,tayyorlangan ko'gazmali materiallardan foydalanishni bilishdir.

### **3 – o'quv savoli. Kurs ishini sifati va uning bajarilishiga baho qo'yish.**

Kurs ishini himoya qilish harbiy kafedrada tashkil etiladi. Ma'ruza uchun talabaga 15-20 daqiqa ajratiladi. Himoya paytida kurs ishi rahbari, o'qituvchilar va talabalar fatnashadilar. Himoya boshlanishidan oldin maxsus ajratilgan auditoriyada talaba stend, sxemalarni tayyorlaydi, talaba komissiya raisiga himoyaga tayyorligi xaqida axborot berib, ma'ruza qilishni boshlaydi. Kommissiya a'zolari mavzu bo'yicha talabaga savollar berishlari mumkin, ularga talaba qisqa va to'liq javob berishi kerak. Himoya oxirida yoki mashg'ulotlar yakuniy qismida ish ko'rib chiqiladi va talabaga umumiy baho e'lon qilinadi. baho berishda quyidagilar xisobga olinadi:

- ish sifati, mavzuning to'g'ri va chuqur bayon etib berilishi, kurs ishi mavzusi to'g'riligi, maqsad yo'nalishlari;

- ko'rilayotgan mavzub o'yicha bilim chuqurligi, talaba bajargan ishning to'g'riligi va ahamiyatliligi;

- uslubiy darajasi, badiiy ishlov, kurs ishi materiallarini bezatish madaniyati va ravshanligi;

-kurs ishining bajarilishdagi mustaqillik darajasi;

- ma'ruza sifati, qisqaligi, aniq asoslab berilishi xamda talabaning unga berilgan savollariga aniq va tez javob berishi maxorati;

Kurs ishini himoya klish uchun kerakli ko'nikmalarni egallash maqsadida:

1 YAna bir marotaba ushbu masalalar bo'yicha boshqaruv xujjatlari asosiy qoidalarini hotiraga olish kerak.

2.Namoyish etiladigan materiallar(maket,sxema,stendlar) tayyorlanadi.

3. Ushbu ish mavzu va maqsadi dolzarbligi ko'rsatilgan ma'ruza rejasi tuziladi, asosiy savollar ochib beriladi, muallif foydalangan manbalar ko'rsatiladi. Himoya oxirida yoki mashg'ulotlar yakuniy qismida ish ko'rib chiqiladi va talabaga umumiy baho e'lon qilinadi.

Kurs ishi uchun baho reyting daftarchasiga qo'yiladi. Kurs ishini bajarmagan talabalar yoki qoniqoniqarsiz olganlari harbiy kafedra boshlig'i ruxsati bilan kamchiliklarni tugatgandan so'ng qayta himoyaga keladi.

**Baho berishda quyidagilar hisobga olinadi:**

- ish sifati, mavzuning to'g'ri va chuqur bayon etib berilishi, kurs ishi mavzusi to'g'riligi, maqsad yo'nalishlari;

- ko'rilayotgan mavzub o'yicha bilim chuqurligi, talaba bajargan ishning to'g'riligi va ahamiyatliligi;

- uslubiy darajasi, badiiy ishlov, kurs ishi materiallarini bezatish madaniyati va ravshanligi;

-kurs ishining bajarilishdagi mustaqillik darajasi;

- ma'ruza sifati, qisqaligi, aniq asoslab berilishi xamda talabaning unga berilgan savollariga aniq va tez javob berishi maxorati.

## **26-MAVZU: HARBIY RAHBAR VAZIFASIDA PEDAGOGIK AMALIYOTNI**

### **TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH.**

#### **Mashg'ulot №1 Pedagogik amaliyotning vazifalari.**

O'quv, tarbiyaviy maqsadlar:

1. 4-kurs pedagogik amaliyoti (tajriba orttirish)ning vazifasini talabalarga tushuntirish.

2.CHaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik o'qituvchisi lavozimidagi pedagogik amaliyotning mazmuni, muddatlari va pedagogik amaliyotchilarning majburiyatlarini talabalarga tushuntirish.

3.Talabalarda pedagogik tuyg'ularni yanada oshirish.

O'quv savollari:

1. 4-kurs pedagogik amaliyoti (tajriba orttirish) ning vazifasi.

2. CHaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik o'qituvchisi lavozimidagi pedagogik amaliyotning mazmuni, muddatlari va pedagogik amaliyotchilarning majburiyatlari.

Vahti: 2 soat.

Joyi: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

#### **1 – o'quv savoli. 4-kurs pedagogik amaliyoti (tajriba orttirish) ning vazifasi.**

Akademik litsey, KXX va umumta'lim muassasalarida talabalarni harbiy rahbar, CHXT o'qituvchisi sifatidagi pedagogik amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta

maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 30 oktyabr 305 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti xaqidagi Nizomga asosan o'tkaziladi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Unda oliy oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyotini o'tkazish shakllari, tartibi va uslublari belgilangan.

Pedagogik amaliyot - oliy malakali pedagogning umum tayyorgarlik tizimining tarkibiy qismlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi xukumati harbiy rahbar, CHTO' oldiga katta talablarni qo'yadi, ular yoshlarni O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlariga xizmatga tayyorlash ishlarini uddalashlari uchun barcha axloqiy sifatlarga ega bo'lishlari shart.

#### **Pedagogik amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

1. Talabalarining universitetdagi mashg'ulotlarda olgan pedagogik bilim va malakalarini mustaxkamlash va chuqurlashtirish. Ularni ta'lim muassasalarida YOCHQBT bo'yicha vatanparvarlik tarbiyasi va turli o'quv – tarbiyaviy ishlarining shakllarini qo'llashga o'rgatish.

2. Talabalarni harbiy rahbar, CHXTO'ning pedagogik faoliyatidagi ishlarining quyidagi turlariga o'rgatish:

- o'quv dasturining asosiy bo'limi mavzulari bo'yicha boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darslarini rejalashtirish va o'tkazish;

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ruhiy - pedagogik kuzatuvlarni olib borish;

- YOCHQBT mashg'ulotlarida amalga oshiriladigan o'quv-tarbiyaviy jarayonining alohida tomonlarini, pedagogik va mashg'ulotlar taxlili asoslarini kuzatish;

- akademik litsey, KXX va umumta'lim ta'lim muassasasi o'quvchilarini vatanparvarlik va jismoniy tarbiya bo'yicha darsdan tashqari ishlarini o'tkazish metodikasi va tashkil etish asoslari, o'quv xujjatlarini yuritish;

- o'rta sinflarda tarbiyaviy ishlarni o'tkazish va tashkil etish asoslari;

- talabalarni YOCHQBT va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini takomillashtirish, tajribalarni va o'z faoliyatlari natijalarini uzuluksiz hisobini yuritish, pedagogik tajribalarini tahlil qilish, baholash malakalari bilan qurollantirish.

#### **2 – o'quv savoli. CHaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik o'qituvchisi lavozimidagi pedagogik amaliyotning mazmuni, muddatlari va pedagogik amaliyotchilarning majburiyatlari.**

Pedagogik amaliyot IV- kursda (VIII- semestr) olib boriladi, uning muddati o'quv rejada belgilanadi. Aksariyat xollarda mutaxassislik bo'yicha amaliyotning davomiyligiga 14 hafta ajratiladi.

Pedagogik amaliyotning mazmuni o'qituvchi va pedagog tarbiyachining kasbiy-pedagogik faoliyatini aks ettiruvchi bir qancha asosiy bo'limlardan tuziladi.

1. Tashkiliy ish.

2. O'quv-uslubiy ish.

3. CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazish.

4. O'quvchilarning vatanparvarlik va jismoniy tarbiyasi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar.

5. Sinfdagi tarbiyaviy ish.

6. Xo'jalik ishi.

7. Gigena bo'yicha topshiriq bajarish. (III-kursda). SHifokor nazorati. (IV-kursda) psixologiya bo'yicha (III- IV-kurslarda) topshiriqlarning bajarilishi.

### ***I. Tashkiliy ish.***

1. Pedagogik amaliyotni tashkil etish va mavzu muammolari bo'yicha fakultet konferensiyasida qatnashish.

2. Ta'lim muassasalari ishchi - xodimlari va o'quv ijtimoiy tashkilotlar vakillari, direktor, o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini, harbiy rahbar, CHTO' va jismoniy tarbiya o'qituvchi bilan suxbatlashish;

3. Pedagogik amaliyot davriga individual rejani tuzish.

4. Ommaviy – mudofaa ishlari va o'quvchilarni vatanparvarlik tarbiyasi masalalari bo'yicha ta'lim muassasasi yig'ilishlarida qatnashish.

5. Pedagogik amaliyot rahbarlari tomonidan olib boriladigan majlislarda qatnashish.

6. Majlislarda gurux ishi xaqida og'zaki xisobot berish uchun tayyorgarlik ko'rish.

7. Ta'lim muassasalarining ma'muriyati va o'qituvchilari bilan xamkorlikda uslubiyotchilar tomonidan olib boriladigan pedagogik amaliyot natijalari bo'yicha fakultetda o'tkaziladigan yakuniy konferensiyada qatnashish.

8. CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha o'quv moddiy baza bilan tanishtirish. Harbiy xonaning umumiy xolati va jixozlanishi. O'quv qurollarini saqlash xonasi, otish joyi, amaliy mashg'ulotlar joyi va h. Sport maydonlari, jixoz va sport anjomlarining xolati va soni.

### ***II. O'quv-uslubiy ishlar.***

1. YOCHQBT bo'yicha rejalashtirish xujjatlarini, ta'lim muassasalari o'quvchilarining jismoniy va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishlarini, shuningdek, xisobot xujjatlarini o'rganish.

2. Ta'lim muassasasida mavjud bo'lgan YOCHQBT va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha yo'riqli, uslubiy xujjatlar bilan va «SHunqorlar» harbiy –sport o'yini qoidalari bilan tanishish.

3. Ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ish rejasiga muvofiq talabaga (ped.amaliyotchiga) o'quv ishlarini olib borish uchun biriktirilgan yuqori kurs (X-XI sinf)lar bilan YOCHQBT bo'yicha mashg'ulot o'tish uchun reja – konspekt ishlab chiqish.

4. YUqori kurs (X va XI sinf)larda harbiy rahbar, CHTO' tomonidan o'quv dasturining turli bo'lim mavzulari bo'yicha YOCHQBT uslubiyotchilar rahbarligida o'tkaziladigan mashg'ulotlarni ko'zdan kechirish.

5. Uslubiyotchining topshirig'iga ko'ra bashqa pedagogik amaliyotchilarning YOCHQBT bo'yicha o'tkazgan mashg'ulotlarini va o'quv – tarbiyaviy jarayonni o'ziga xos tomonlarini kuzatish.

6. Faoliyat turlarini va dars qismlari bo'yicha vaqtni taqsimlash.

7. YUqori kurs (X-XI sinf)larda YOCHQBT bo'yicha darslari pedagogi tahlilining olib borish.

8. Tajriba oshirishda pedagogik amaliyotchi talabalar tomonidan olib borilagan dars muhokamalarida va tahlilida qatnashish.

9. YOCHQBT va jismoniy tarbiya darslariga ko'gazmali qurollarni tayyorlashda qatnashish.

10. Aniq topshiriqlarni bajarish masalasi bo'yicha pedagogik amaliyotni boshqaruvchisi tomonidan olib boriladigan uslubiy mashg'ulotda qatnashish.

11. Pedagogik kuzatuvni olib borish. Mashg'ulotni samaraliligini aniqlash.

12. Tuman o'qituvchilarining ochiq darslarini muhokama qilishda harbiy rahbar uslubchilari bilan xamkorlikda, ta'lim muassasasi pedagogik kengashida qatnashish.

13. Boshqa ta'lim muassasasida pedagogik amaliyotni o'tkazayotgan talabalar bilan tajriba almashish maqsadida ta'lim muassasasiga tashrif buyurish. Pedagogik amaliyotchilarning kundalik daftarini yuritish.

14.YOCHQBT mashg'ulotlarini o'tkazish.

15. O'quv dasturining turli bo'limlaridan mavzu bo'yicha yuqori kurs (X-XI sinf)larda 10 soatdan kam bo'lmagan mustaqil, o'qituvchisining assistenti (yordamchisi) sifatida esa 4 soatdan iborat YOCHQBT bo'yicha darslarni o'tkazish.

16. O'qituvchi yoki boshqa pedagogik amaliyotchiga yordamchi sifatida 4 soat, mustaqil ravishda 4 soat, o'quv materiallari mazmuni bo'yicha qo'shma bo'lgan quyi sinflarda 2 soatdan kam bo'lmagan mashg'ulotlarni utkazish.

**Eslatma:** Pedagogik amaliyot (tajriba oshirish) davrida talaba YOCHQBT bo'yicha 10 soat, yuqori kurs (X - XI sinf)larda 8 soat, jismoniy tarbiya bo'yicha o'rta va kichik ochiq sinflarda 2 soatdan kam bo'lmagan darslarni o'tkazilishi kerak. Har bir talaba uchun dars soni uning tayyorgarlik darajasini xisobga olgan xolda uslubiyotchi tomonidan individual belgilanadi.

### **III. O'quvchilarning vatanparvarlik va jismoniy tarbiyasi asoslari bo'yicha sinfdan tashqari ishlari.**

1.Ta'lim muassasalarining ish rejasi bo'yicha harbiy qism va ta'lim muassasalari vakillari, II jaxon urushi qatnashchilari bilan uchrashuvlarni tashkil etishda va o'tkazishda ishtirok etish.

2.«SHunqorlar» o'yinining biron-bir yo'nalishida qatnashish.

3.Ta'lim muassasasida o'tkaziladigan saf ko'rigi va saf qo'shig'i tanloviga guruh (sinf)lardan birini tayyorlash.

4.Harbiy-sport musobaqalarini o'tkazish va tashkil etishda, ayrim tomonlarini ta'minlashda javobgar shaxsning majburiyatini bajarilish.

5. Ommaviy-mudofaa to'garaklari ishlaridan birida to'garak rahbarining assistenti sifatida 2 soat, mustaqil ravishda 2 soatdan kam bo'lmagan mashg'ulotlar o'tkazish.

6.Ta'lim muassasasi MKT «Vatanparvar» ko'mitasining ish yo'nalishlaridan biriga yordam ko'rsatish bo'yicha harbiy rahbar, CHTO'ning vazifalarini bajarish.

7.Ommaviy jismoniy madaniyat tadbirlaridan birini tashkil qilish va olib borish, tadbirlarning ayrim tomonlarini, o'tkazish joylarini tayyorlashni, xay'at katnashchilarini tashkil qilishni ta'minlash bo'yicha mas'ul shaxsning majburiyatlarini bajarish.

8.Ta'lim muassasasi terma jamoalarini tuman, shaxar musobaqalariga tayyorlashni tashkil qilishda qatnashish; talabnomalarni tashkil qilish va katnashchilarni yig'ish; musobaqalar joyiga kuzatib borish.

9.Birorta jismoniy to'garak yoki «Salomatlik» kompleksi me'yorlarini bajarishga o'quvchilarni tayyorlashda o'quv mashg'ulotlarini olib borish bo'yicha o'qituvchi vazifalarini bajarish.

10. Ta'lim muassasasining jismoniy tarbiya jamoasiga yordam ko'rsatish bo'yicha o'qituvchining alohida vazifalarini bajarish.

- majlis va jismoniy faollikni oshirish ishlari bo'yicha mashg'ulot o'tkazish;
- ko'gazmali targ'ibot vositalaridan birini bezash;
- sinfdan tashqari ish xujjatlarini yuritish;
- to'garak ishlarini yuritish jurnalini yuritish;
- «Salomatlik» kompleksi me'yorlarini topshirish qaydnomasi.

### **IV. Sinfdagi tarbiyaviy ish**

1.Pedagogik amaliyotchi talabaga biriktirilgan guruh (sinf)ning ayrim o'quvchilari va jamoa xususiyatlari bilan xar-xil turdagi fanlar bo'yicha sinfdan tashqari vaqtlardagi faoliyatlarini 3-4 ta mashg'ulotlar jarayonida kuzatish yo'li orqali tanishish.

2. Guruh(sinf)dagi tarbiyaviy ish xususiyatlarini o'rganish;

3. O'quvchilar jamoasini boshqarish tajribasi;

4. tajribaviy chora-tadbirlar o'tkazish metodikasi va mazmuni.

5. vatanparvarlik va jismoniy sog'lomlashtirish yo'nalishdagi chora-tadbirlarni o'tkazishda sinf rahbari bilan kelishish;

6. harbiy mavzuga doir suxbatlar o'tkazish;
7. II jaxon urushi qatnashchilari va harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish;
8. Qurolli kuchlar va muzeylarga ekskursiya uyushtirish;
9. «Vatanparvar» va «Salomatlik» kompleksi mashqlari turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish;
10. rejalashtirilgan chora-tadbirlarni o'tkazish va tashkil etishda gurux (sinf) jismoniy faollariga yordam ko'rsatish.

#### **V. Xo'jalik ishi**

1. O'quv-ko'gasmali qurollarni olish, rasmiylashtirish, ta'mirlash, saqlash va stendlarni jixozlash bo'yicha harbiy rahbar, CHTO'ning alohida vazifalarini bajarish.

2. Sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish joylarini tashkil etish, sport anjomi va uskunalarni tayyorlash, ta'mirlash va saqlash bo'yicha o'quvchilarni ishga jalb etish va jismoniy tarbiya o'qituvchisiga yordam ko'rsatish.

#### **VI. Gigena va psixologiya bo'yicha topshiriqlarning bajarilishi.**

1. YOCHQBT, vatanparvarlik va jismoniy tarbiya bo'yicha tadbir va mashg'ulotlarni o'tkazish joyi, anjom va asbob-uskunalar sanitariya-gigena xolatini baholash. Kuzatilgan ob'ektlarning sanitariya-gigena xolatini yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

2. YOCHQBT yoki jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini gigenik jihatdan baholash.

3. O'quvchi shaxsini uning aniq bir faoliyatidagi, sinf jamoasidagi, xatti-xarakatlarida, shuningdek o'qituvchilar bilan muloqotidagi o'zini tutishini psixologik-pedagogik materiallar bo'yicha o'rganish.

4. Kuzatuv va suxbat asosida o'quvchining ruhiy-pedagogik tasnifini tuzish.

### **MAVZU № 27. SAF AMALLARI VA QUROLSIZ HARAKATLANISH.**

#### **Reja**

O'quv - tarbiyaviy maqsadlar:

1. Saf tayyorgarligi jangovar tayyorgarlikning asosiy predmetlaridan biri sifatida.
2. Saf tayyorgarligini rejalashtirish. Saf ko'nikmalarini oshirishning asosiy shakllari.
3. Qurolsiz saf usullari va harakatlari. Safda harakatlanish usullarini o'rganishning ketma-ketligi.

O'quv savollari:

1. Saf tayyorgarligi jangovar tayyorgarlikning asosiy predmetlaridan biri sifatida.
2. Saf tayyorgarligini rejalashtirish. Saf ko'nikmalarini oshirishning asosiy shakllari.
3. Qurolsiz saf usullari va harakatlari. Safda harakatlanish usullarini o'rganishning ketma-ketligi.

Vahti: 2 soat.

Joyi: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

#### **1 – o'quv savoli. Saf tayyorgarligi jangovar tayyorgarlikning asosiy predmetlaridan biri sifatida.**

Saf tayyorgarligi jangovar tayyorgarlikning asosiy predmetlaridan biri hisoblanib, harbiy xizmatchilarning faoliyati va hayotining barcha jabhalariga ga'sir ko'rsatadi.

U harbiy xizmatchilarning irodasini toblaydi, o'z jismini boshqara olishni rivojlantiradi, sinchkov-likni, kuzatuvchanlikni, jamoaviylikni, qat'iylikni rivojlantiradiki, bu harbiy tartibga rioya qilishga va intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchi safda turganda, bu uni intizomga, fikrni jamlashga, batartiblikka o'rgatadi, saf komandalarini bajarish esa askarni so'zsiz komandirga bo'ysunishga o'rgatadi.

Hozirgi paytda, harbiy bo‘linmalar va qismlar murakkab jangovar texnika va qurol-aslaha bilan qurollanganda, jangda jamoaviy qurolning roli yanada oshganda saf madaniyatining darajasi o‘ta yuqori bo‘lishi kerak.

Saf usullarining bir vaqtda bajarilishi, bunda-anik va uyg‘unlashgan harakatlar harbiy xizmatchilarning ruhini ko‘taradi, o‘z harakatlariga ishonchli-likni singdiradi, ularda bajaruvchanlikni va xushyorlikni oshiradi.

SHaxsiy tarkibni o‘rgatishga mo‘ljallangan yaxshi saf ta‘limigina zamonaviy jangda harbiy xizmatchilarning muvaffaqiyatli harakatlanishi uchun yordam beradi.

Saf ta‘limi rejalashtirilgan mashg‘ulotlarda o‘tkaziladi va boshqa barcha mashg‘ulotlarda hamda kundalik hayotda mukammallashtiriladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilar-ning yuqori darajali saf ko‘nikmalari:

— saf tayyorgarligini maqsadli va to‘g‘ri reja-lashtirish, barcha mashg‘ulotlarni aniq tashkillashti-rish va uslubiy to‘g‘ri o‘tkazish;

— saf nizomi talablariga qat‘iy mos ravishda usullarni har bir harbiy xizmatchi ongli ravishda o‘rganishi va keyinchalik mukammallashtirishi;

— saf tayyorgarligi bo‘yicha o‘tkazilayotgan yo‘rik-nomalarning, yo‘riq-uslubiy, ko‘rgazmali mashg‘ulotlar va rejadagi mashg‘ulotlarning ular orasidagi katta uzilishsiz doimiyligi;

— saf ta‘limi ko‘nikmalariga barcha mashg‘ulotlarda, kundalik hayotdagi saflanishlarda va harakatlarda mukammallashtirilib erishiladi.

Saf ta‘limida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishda ofitserlar va serjantlarning shaxsiy saf ko‘nikmala-ri, saf usullarini namunali ko‘rsata olish va qo‘l os-tidagilarga harakatlarni o‘rgatishda yuqori talabchan-likka rioya qilish katta ahamiyatga ega.

O‘rgatuvchi o‘z ishini mukammal ravishda bilishi, harbiy ishni sevishi kerak. Saf mashg‘ulotlarini yuqori sifatda o‘tkazishning muhim sharti bo‘lib, ofitserlar va serjantlarning uslubiy mahoratlarini uzluksiz rivojlantirishi, hamda bu hakda barcha dara-jadagi katta boshliklarning qayg‘urishi xisoblanadi. Qaerdaki komandirlarning saf jihatdan uslubiy tayyorgarligiga kundalik diqqat qaratilayotgan bo‘lsa, o‘sha erda bo‘linmalarni tayyorlashda yuqori ko‘rsatkich-larga erishish uchun mustahkam poydevor qo‘yiladi. Mana shuning uchun komandirlar uslubiy usullarni va ta‘lim usullarini doimo hamda astoydil rivojlan-tirishlari lozim.

Saf tayyorgarligi amaliydir. Bu erda har bir usul ko‘p martali mashqlar bilan qayta ishlanadi, bular keyinchalik ham to‘xtamaydi, to‘xtasa uni bajarishda anikdik va nafislik yo‘qotiladi.

Saf tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulotni, odatga ko‘ra, seksiya (ekipaj, raschyot, guruh), vzvod tarkibida shu bo‘linmalar komandirlari rahbarligida o‘tkazish lozim.

Faqat yakka tartibdagi saf tayyorgarligi jarayoni-da harbiy xizmatchilar yo‘l qo‘ygan barcha xatolarni ko‘rish va ularni o‘z vaqtida to‘g‘rilash mumkin. Biroq ba‘zi komandirlar buni esdan chiqaradilar va bo‘lin-mani ortidan yurib o‘rganishni asos qilib oladilar. Bunda alohida harbiy xizmatchilarning yakka tartibda tayyorlanishidagi ko‘pgina ko‘zga ko‘rinmas kamchilik-lari odat tusiga kiradi va bo‘linmaning o‘qish jarayo-nini sekinlashtiradi. Saf tayyorgarligi vazifalari-ni muvaffaqiyatli echishda har bir harbiy xizmatchi-ning nafaqat yuqori darajadagi mutaxassis bo‘lishga intilishi, balki a‘lo safchi bo‘lishi ham yordam beradi.

Saf ko‘nikmalarini yaxshilash va harbiy xizmatchilarning batartiblilikini kuchaytirishda bo‘linmalar va qismlarni harbiy marosimlarda qatnashishi katta rol o‘ynaydi.

Qasamyod qabul qilish, Jangovar bayroqni chiqarib saflanish, qorovullar almashuvi va tarqatish, umumbatalon va brigada kechki yo‘qlamalari, jangda halok bo‘lgan askarlar qabriga gulchambarlar qo‘yish va boshqa harbiy marosimlar — askar ongiga ta‘sir o‘t-kazuvchi muhim vositalardir.

Komandirlarning vazifasi — harbiy xizmatchilarga safga va harbiy marosimlarga bo‘lgan ehtiromni singdirish.

Yo'riq-uslubiy va ko'rgazmali mashg'ulotlarni, yo'riqlarni o'tkazish va saf ta'limini targ'ibot qi-lish hamda tarbiyalash, eng yaxshi safchi-uslubchilar-ning oldingi tajribalarini keng yoyish saf ta'limi-ning darajasi oshishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

## **2 – o'quv savoli. Saf tayyorgarligini rejalashtirish. Saf ko'nikmalarini oshirishning asosiy shakllari.**

Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotni rejalashti-rishda komandir jangovar tayyorgarlik dasturi talab-lari, saf tayyorgarligi bo'yicha bo'linmalar oddiga qo'yilgan vazifalar, Saf nizomi holatlari hamda shaxsiy tarkibning saf ko'nikmalari darajasi bilan mukammal tanishgan bo'lishi lozim.

Dasturlar bo'linma komandiriga o'quv savolini o'zlashtirishga ketadigan vaqtni, o'rganuvchilarning tayyorgarlik darajasiga kura mavzuni anikdab olish-ga huquq beradi. SHunday qilib, har bir mavzu bo'yicha mashg'ulotlar va o'kuv savollari soni har xil bo'lishi mumkin. Saf qadami, joyda va harakatda burilishlar hamda shu kabi qiyin saf usullarini yanada yaxshiroq

o'rganish uchun mashg'ulotlar bir necha marta takrorla-nishi kerak. O'rganilayotgan o'quv savoli sifatli o'rga-nilib bo'lmaguncha, navbatdagi o'quv savolga o'tish mumkin emas.

Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulot doimo, o'tgan mashg'ulotlarda olgan ko'nikmalarni yo'qotmaslik uchun, bir xil vaqt oralig'ida o'tkazilishi kerak.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, haftasiga ikki marta saf mashg'ulotini rejalashtirgan bo'linma komandir-lari katta yutuqlarga erishmoqdalar.

Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar vzvodda qoidaga ko'ra bir vaqtga rejalashtiriladi va odatda, vzvod komandiri rahbarligida o'tkaziladi: yakka tayyorgarlik bo'yicha bir soatlik, bo'linmalarni saf uyg'unligi bo'yicha masshtabga bog'liq holda ikki soatlik bo'lishi mumkin. Harbiy bilim muassasalarida (serjantlar tayyorlash maktablarida) mashg'ulot guruh tarkibida guruh komandiri rahbarligida o'tkaziladi.

Har bir mashg'ulot uch qismdan tashkil topgan bo'lishi kerak:

— kirish qismiga tashqi ko'rinishni kuzatish va mashg'ulot joyi — saf platsiga chiqish, mavzuni, mash-g'ulot maqsadini va o'quv savollarini e'lon qilish kiradi;

— yangi usullarni bo'lib-bo'lib va butunligicha o'r-ganishni o'z ichiga oluvchi asosiy qismdan. O'rganish komandir komandasi yoki baraban zarbi ostida, mus-taqil, juftlikda va seksiya (guruh, vzvod) tarkibida amalga oshiriladi;

— yakuniy qismida mashg'ulotni tahlil qilish va o'rganuvchilarga olgan baholarini e'lon qilish, yaxshi-larni ko'rsatib o'tish va mustaqil tayyorgarlikka vazi-fa berish tavsiya etiladi.

### **Saf ko'nikmalarini oshirishning asosiy shakllari.**

Saf ta'limining asosi qilib pedagogikaning rahbarlik prinsipi olingan bo'lishi kerak: o'rganuvchilarning ongliligi va faolligi, ketma-ketlik, sod-dalik va tizimlilik. O'rgatish usullariga o'rganuvchi lar tarkibi va ularning tayyorgarligi ham ancha ta'sir ko'rsatadi. Saf usullarini o'rganish barcha holatlarda mashq qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu erda na gapirib berish, na suhbat, na boshqa usul to'g'ri keladi. O'rganiladigan savollarni egallash darajasi bo'yicha o'rganuvchilar tarkibining qandayligiga ko'ra (muddatli harbiy xizmatchilar, shartnoma bo'yicha xiz-matchilar, oddiy askarlar tarkibi, serjantlar yoki ofitserlar) shu o'rganish usuli tarkibiga kiruvchi alo-hida usullar o'zgarishi mumkin. Ma'lumki, istalgan fan bo'yicha mashg'ulotda o'quv jarayonining uchta asosiy bo'lagiga javob beradigan uchta asosiy didaktik maqsad qo'yilgan bo'lishi mumkin:

— bilimlarni etkazish, qabul qilish va fikrlash;

— ko'nikmalar va mahorat hosil qilish;

— bilimlar, mahorat va ko'nikmalarni mustahkam-lash va mukammallashtirish.

Birinchi maqsadga erishishda ogʻzaki gapirib berish, namoyish va suhbat usuli ustun tursa, ikkinchi-sida — mashklar va tushuntirishlar, uchinchisida — nizomlarni, darsliklarni va boshqa nashriy manba-larni mustaqil oʻqish, mustaqil mashkdar.

Asosiy uslubiy talablar hisobi — oʻquv mavzusi-ni va savollarini oʻrganish ketma-ketligiga rioya qilish, oddiydan murakkabga, maʼlumdan nomaʼlumga oʻtish qoʻyilgan vazifalarni bajarilishini taʼmin-laydi.

Taʼlim jarayonining mazmunini mashgʻulot rahbari va oʻrganuvchining faoliyati shu oʻrganuvchining maʼlum bilimlar, mahorat va koʻnikmalarga ega boʻlishiga qaratilganligi tashkil qiladi.

**Bilim** — bu oʻrganilayotgan materialning mazmunini yodda saklash, uning maʼnosini tushunish, shular asosida oʻrganuvchi oʻrgangan usul va harakat boʻyicha umumlashtirish va amaliy xulosa chiqarishdir. Bilimlar asosida oʻrganuvchilarda maxsus mashkdar jarayoni-da kerakli mahorat va koʻnikmalar rivojlanadi.

**Mahorat** — bu bilimlarni amalda qoʻllash, yaʼni ongli ravishda u yoki bu harakatlarni, shularga moe bilimlarni qoʻllab bajarish.

**Koʻnikma** — bu shunday avtomatik tarzga, shunday mukammallikka etkazilgan harakatki, bunda u toʻgʻri, tez va oson bajariladi. Koʻnikmalar barcha mashgʻulot-larda tizimli oʻtkaziladigan, saflanishlarda va hara-katlarda, kundalik hayotda va normativlar bajarishda koʻp martalab takrorlash natijasida ishlab chiqiladi.

Saf taʼlimining asosiy tashkilotchilari boʻlib boʻlinmalar va qismlar komandirlari hisoblanadilar. Ular oʻz qoʻl ostidagilarning haqiqiy saf koʻnik-malari holatini har tomonlama bilishga va ularni yaxshilashning kerakli chora-tadbirlarini koʻrishga majburdirlar. Bu maqsadda ular shaxsan ofitserlar uchun boʻlinmalar bilan koʻrgazmali mashgʻulotlar va ofitser hamda serjantlar bilan yoʻriq — uslubiy mashgʻulotlar oʻtadilarki, ularda mashgʻulotni tashkillashtirish va oʻtkazish usullarini koʻrsatadilar.

Mashgʻulotni quyidagi ketma-ketlikda oʻtkazish maqsadga muvofiqdir:

—oʻtilgan mashgʻulotlarda oʻrgatilgan usullar va harakatlarni tekshirish va ularni mashq qilish;

—yangi saf usullari va harakatlari bilan tani-shish;

—usul va harakatni oʻrganish; agar usul yoki hara-kat qiyin boʻlsa, ularni elementlarga boʻlib oʻrganish, keyin biriktirib sekin surʼatda, soʻngra nizomdagi surʼatga etkazib borish. Agar usul yoki harakat qiyin boʻlmasa, boshida u sekin surʼatda oʻrganiladi, keyin-roq esa sekin-asta taʼlim jarayonida nizomda koʻrsa-tilgan surʼatga etkaziladi;

—bir tomonlama yoki ikki tomonlama yakka hodda yoki juftlik taʼlim usulini qoʻllash;

—oʻrganuvchilarga usullar va harakatlarni namuna-li bajarishni mashq qildirish;

—usul yoki harakatni eng yaxshi bajarish muso-baqasini tashkillashtirish;

—taxlil qilish.

### **3 – oʻquv savoli. Qurolsiz saf usullari va harakatlari. Safda harakatlanish usullarini oʻrganishning ketma-ketligi.**

Saf usullariga oʻrgatishni quyidagi ketma-ketlikda olib borish kerak:

—usul bilan tanishish;

—usulni oʻrganish;

—mashq qilish.

Usul bilan tanishtirish uchun komandir:

—usul nomini, kaerda va qanday maqsadda qoʻlla-nishini aytib utishi;

—usul bajariladigan komandani berishi;

—Nizom boʻyicha usul butunligicha qanday baja-rilishini, keyin esa sekin surʼatda boʻlib-boʻlib qisqa tushuntirishlar bilan bajarilish tartibini aytadi.

Usul bilan tanishishga eng kam vaqt sarflanishi kerak.

Usulning murakkabligiga bog'liq holda uni o'rga-nish:

—butunligicha, agar usul murakkab bo'lmasa;

—bo'lib-bo'lib, agar usul murakkab bo'lsa;

tayyorlov mashklari yordamida, agar usul murak kab va uning alohida elementlari kiyin o'zlashti-rilsa.

Usul bilan tanishtirish uchun mashg'ulot rahbari o'rganuvchilarga namunaviy qilib, yo'l-yo'lakay hara-katlarni tushuntirib, uni avval to'liq keyin esa ele-mentlar bilan (bo'lib-bo'lib) bajarilishini ko'rsata-di.

Usul yoki harakatning har bir elementini o'rganish (agar usul bajarilishi bo'yicha murakkab bo'lsa) ham ko'rsatish va qisqacha tushuntirishdan boshlanadi.

Ko'rsatishda o'rganuvchida saf usuli yoki harakati (uning elementlari) to'g'risida ko'rish tasavvuri hosil bo'ladi, shuning uchun ko'rsatish benuqson bo'lishi kerak.

Aniq, to'g'ri va chiroyli namoyish eya'ilgan usul hamda harakatlar o'rganuvchilarda katta taassurot tug'diradi. Ularda xuddi shunday bajarishga istak uyg'otadi.

Namoyish har doim qisqacha tushuntirish bilan olib boriladi. O'rganilayotgan usul va harakatlarda ko'rish tasavvuriga ega bo'lish etarli bo'lmay, u haqsa to'liq va to'g'ri tasavvurga ega bo'lish uchun o'rganilayot-gan usul va harakatni tushunmoq kerak. Tushuntirish o'rganilayotgan usul va harakatlarni namoyishda o'z-lashtirish qiyin bo'lgan tomonlarini ochadi. U o'rga-nuvchilarni nima namoyish qilinishiga yoki saf usuli yohud harakatni to'g'ri bajarish nimaga bog'liqligiga yo'naltiradi.

Saf usuli yoki harakat tanishtirilgandan keyin ko'nikmani shakllantirish jarayoni bir butun harakat bo'lib, o'ziga uchta o'zaro bog'liq asosiy bosqichlarni kiritadi.

Birinchi bosqich o'z ichiga usul yoki (murakkab) hara-katni elementlarga bo'lish va usul yoki xarakatni ele-mentlar bilan bajarishni oladi.

Ikkinchi bosqich elementlarni ketma-ket guruhlar-ga, keyin esa bir butun qilib biriktiradi.

Uchinchi bosqichga usul yoki harakatni ko'nikmaga aylantirish kiradi. Bajarish harakatlarni ko'p maro-taba takrorlash yo'li bilan avtomatik tarzda bajari lishgacha etkaziladi. Barcha usullar to'g'ri, tez, chiroy-li va aniq bajarilishiga erishish kerak.

Mashq boshida sekin, so'ngra odatiy sur'atda juft yoki yakka, komandir komandasi bo'yicha, o'rganuvchilar hisobi bo'yicha yoki baraban zarbi ostida o'tkaziladi. Alohida harbiy xizmatchilar yo'l qo'ygan xatolar yo'l-yo'lakay mashq vaqtida to'g'rilanishi kerak.

Qurolsiz saf usullari va harakatlari.

Harbiy xizmatchilarning mustaqil tayyorgarlik so-atlarini Saf nizomining 25- va 26-moddalari talablarini o'rgatishdan boshlash lozimdir. Birinchi mash-g'ulotda saf elementlarini ko'rsatish kerak, nizomiy ta'riflar berilishi, saf elementlarining qo'llani-shi va safni boshqarishning asosiy komandalari ha-kida gapirib berish kerak.

Saf elementlarini ko'rsatish ko'rgazmali bo'li-shi uchun vzvodni, guruxni (seksiyani) saflab, unda safning barcha elementlarini ko'rsatish maqsadga muvofikdir.

Mashg'ulotni boshlab, komandir harbiy xizmatchilarni safda turish elementlarining namunali namoyishi bilan tanishtiradi.



Rasm. Safda turish.

Bunda harbiy xizmatchilar komandirni old taraf-dan va yondan ko'rishlari kerak. Keyin seksiya (guruh) komandiri (guruh komandiri o'rinbosari) turish qan-day hollarda qo'llanishini aytadi va ko'rsatadi hamda buyruq olishda va berishda safda to'g'ri turishga, har-biy xizmatchilar bir-biriga murojaat qilishiga max-sus e'tibor karatadiki, bunda bir vaqtda qo'l bosh kiyimiga olib borilishiga urg'u berib o'tadi.

Ko'rsatib bo'lib, komandir seksiyani yoyadi va har-biy xizmatchilarga safda turish holatlarini qabul qilishga imkon beradi, o'zi esa har bir o'rganuvchini tekshirib, ular yo'l qo'ygan xatolarni bartaraf kila-di. Undan keyin komandir safda turishni elementlar bo'yicha o'rgatishga kirishadi.

Agar seksiyaning ko'pchilik harbiy xizmatchilari xatoga yo'l qo'ysalar, komandir usulni amaliy o'rga-nishga tayyorlanish mashklari yordamida kirishadi. Bu-ning uchun seksiya harbiy xizmatchilari yoyiq bir she-rengali safda to'g'riburchak chizig'iga, poyafzal uchini chizikda tekkizib turadilar. Seksiya (guruh) komandiri birinchi tayyorgarlik mashqini — «Oyoq uchini front chizig'i bo'yicha oyoq kengligida yoyish»ni ko'rsa-tadi. Ularga bu tayyorgarlik mashqini 2—3 daqiqa ba-jarishga imkon beradi, o'zi esa botinka uchlari holat-larini kuzatib turadi. SHundan keyin komandir mashq kilishga kirishadi.

Bu tayyorlov mashqini bajarish **«Oyoq uchlari bir-lashtirilsin, bajar — BIR, oyoq uchlari ayrilsin, ba-jar — IKKI, oyoq uchlari birlashtirilsin, bajar — BIR»** va hokazo.

Komanda berish bilan seksiya (guruh) komandiri oyoq uchlari ayrilish kengligini kuzatib boradi va yo'l-yo'lakay o'rganuvchilar yo'l qo'ygan xatolarni to'g'rilaydi.

Avvalida mashq bir necha bor umumiy komanda bilan bajariladi, keyin seksiya (guruh) komandiri har bir askarning mashq bajarishini tekshirib ko'radi.

Undan keyin yana bir marta mustaqil o'rganishga kirishishga buyruq beradi. Mashqni besh-etti marta bajarish kerak va faqat undan keyin oyoq uchlari chiziqdan chiqqan-chiqmaganligi tekshiriladi.

**Mustaqil** mashq paytida seksiya (guruh) komandiri va guruh komandiri navbatma-navbat har bir o'rganuvchini tekshiradi va xatolarini to'g'rilaydi.

Y Akka tartibdagi mashqdan keyin seksiya (guruh) komandiri juft bo'lib mashq qilishni qo'llashi mum-kin, buning uchun seksiyada bir-ikki hisobini amalga oshiradi va **«Birinchi raqamlar chapga, ikkinchilar esa o'ng-GA»**, keyin: **«Birinchi raqamlar tekshiradilar, ikkinchilari bajaradilar — juft-juft mashqqa — KIRISHILSIN»** komandasini beradi, o'zi esa mashkni ko'zdan kechirib boradi, kamchiliklarni to'g'rilaydi va vaqti-vaqti bilan mashq qiluvchilarni almashtiradi va nazorat qiladi.

Keyin seksiya (guruh) komandiri ikkinchi tayyor-lov mashqini — ko'krakni ko'tarish bilan tanani bir oz oldga yuborish, qorinni o'ziga tortish, elkani yoyish va qo'llarni son o'rtasiga tushirishni ko'rsatadi. Bu mashq ham avvalgisiga o'xshash ketma-ketlikda olib boriladi.

Komandir harbiy xizmatchilarga tushuntiradiki, bu mashqni boshlab, chuqur nafas olish va shu holatda ko'krak qafasini ushlab turish kerak, nafas chiqarish va nafas olishni ko'tarilgan ko'krak qafasi bilan davom ettirish kerak.


Ko'krakni ko'garib, tana bir oz oldinga yuborilib, qorin ichga tortiladi, elkalar esa yoyiladi. Bunda qo'llar shunday tushuriladiki, kaftlar ichkariga qaratilgan, yonga va son o'rtasiga tushurilgan bo'lishi, barmoklar esa yarim bukilgan va songa tegib turishi kerak.

Tanani bir oz oldga to'g'ri berilganligini tekshi-rib ko'rish uchun oyoq uchida ko'tarilish, keyin esa tana nishabligini o'zgartirmasdan to'liq oyoqqa tushish kerak.

Bu tayyorlov mashqini o'rganish **«Ko'krak ko'taril-sin, qorin tortilsin, elkalar yoyilsin, tana oldga be-rilsin, bajar — BIR, boshlang'ich holat qabul qilin-sin, bajar — IKKI»** komandasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Mashq qachonki seksiyaning (raschyot, ekipaj) barcha urganuvchilari tananing safda to'g'ri turishi erkin holatdagidan farq qilishini sezmaguncha davom ettiriladi.

SHu holatlardagi farqni ko'rsatish uchun oynadan foydalanish zarur yoki bir sherengani ikkinchisining qarshisiga qo'yish kerak, keyin **«Birinci raqamlar erkin turadilar, ikkinchilari kukragini ko'taradilar»** komandasi beriladi. Xuddi shu komanda birinchi raqamlar uchun ham beriladi, ikkinchilari «erkin» holatda turadilar. Bu mashkni bir necha bor bajarib, harbiy xizmatchilar saf turishi holatini «erkin» holatdan farqini ko'rib, bunga ishonch hosil qiladilar.



Rasm. Safda turishni elementlar bo'yicha o'rganish:  
a) tana holati to'g'riligini tekshirish;  
b) safda turishda tana holati.

### Joyda burilishlarga o'rgatish

Seksiya (guruh) komandiri joyda burilishlar yakka tartibdagi harbiy xizmatchilar bilan saf mashg'ulot-larida, boshliqqa borish va undan qaytishda, hamda safga turishda va bo'linmalar bilan mashg'ulotlarda ham saflanish paytida va harakatlanishlarda qo'lla-nilishini tushuntiradi.

Joyda burilishlarga o'rgatish safda turish usuli o'zlashtirilgandan keyingina boshlanadi, faqat uning asosida bu usullarni to'g'ri o'zlashtira olish mumkin. Bunda boshida o'ngga, chapga (1/4 aylanaga) va aylanaga (1/2 aylanaga), keyin burilishlar yarimburi-lish o'ngga va yarimburi-lish chapga (1/8 aylana) bajariladi.

Joyda burilishlarga o'rgatish uchun komandir sek-siyani (guruhni) ikki qadam interval bilan bir she-rengaga saflaydi va o'ngga burilishni butunligicha normal sur'atda ko'rsatadi. Bundan keyin esa, komandir usulni sekin sur'atda oldindan beriladigan va bajariladigan komandada harakatlanish tartibini yo'l-yo'lakay tushuntirib ko'rsatadi.

O'ngga burilish ikki hisobga bo'linib o'rganiladi.


Usulni bo'lib ko'rsatib, seksiya (guruh) komandiri **«O'ngga, bo'lib: bajar — BIR, bajar — IKKI»** deb komanda beradi.

Seksiya (guruh) komandiri o'rganuvchilarni birin-chi hisobda o'ng poshnada va chap oyoq uchida o'ng qo'l to-monga birdan burilishlarida tana holatini safda turgandagidek saqlashini va tizzalarni bukmasligi-ni, tana og'irligini oldinda turgan oyoqqa tushishini kuzatib turadi (3-a raem).

Orqada turgan oyoq poshnasi va oldda turgan oyoq uchi shunday yoyilgan bo'lishi kerakki, burilish oxirida oyoq uchlari oyoq kengligida yoyilgan holatda bo'lishi kerak (Z-b raem). Qo'llar holati safda turish holati-day bo'lishi kerak.

«Bir» hisobi berilganda element noto'g'ri yoki no-aniiq bajarilsa **«QAYTARILSIN»** komandasi beriladi.

**«Bajar — IKKI»** hisobida chap oyoq tizzasi bukilmasdan qisqa yo'l bilan qo'yiladi.



R a s m. Burilishlarda (o'ngga, chapga) oyoq holati.

### **SHaxdam qadam bilan yurishga o'rgatish**

SHaxdam qadam o'zlashtirilishi bo'yicha eng murak-kab va qiyinlardan hisoblanib, uni bajarish o'rga-nuvchidan fikrjamlikni, batartiblikni, aniklikni, qo'l va oyoklar harakati kelishilganligini talab qila-di.

SHaxdam qadamni nima uchun qo'llanilishini gapi-rib berib, komandir seksiya bilan uni o'rganishga ki-rishadi. SHaxdam qadam bilan yurishga o'rgatish ham har bir yangi usulni o'rganishday namunali ko'rsatish va tushuntirishdan boshlanadi.

SHaxdam qadam bilan harakatlanishni butunligicha ko'rsatib, seksiya (guruh) komandiri birinchi tayyorlov mashqi qo'l xarakatini bo'lib-bo'lib ko'rsatadi (4-rasm), keyin esa komanda beradi: **«Qo'l harakati, ba-jar - BIR, bajar — IKKI»**.

**«Bajar — BIR»** hisobi bo'yicha harbiy xizmatchilar o'ng qo'llarini tirsakda bukadilar, u bilan elkadan tana atrofida shunday harakatni amalga oshiradilar-ki, qo'l panjasi bel kamar to'qasidan bir kaft keng-ligida yuqorida va tanadan bir kaft masofasida bo'lsin; bir paytda chap qo'l elka bo'g'inida oxirigacha yuborilsin.

Qo'l panjalari yarim bukilgan, o'ng qo'l tirsagi bir oz ko'tarilgan bo'lishi kerak.

«**Bajar — IKKI**» xisobida ular chap qo'lni oldga harakatlantirishni amalga oshirishlari, o'ng qo'lni esa elkadan boshlab oxirigacha harakatlantirishlari kerak.

Komandir shaxdam qadam bilan harakatanganda har bir hisobdan keyin o'rganuvchilarning qo'llar holatini ushlab qoladi va xatolarini to'g'rilaydi.

Ko'pchilik harbiy xizmatchilar usulni noto'g'ri ba-jarishganda u «Qaytarilsin» komandasini beradi, agar xatoga faqat bir harbiy xizmatchi yo'l qo'ysa, ma-salan, «**Oddiy askar Rahimov — QAYTARILSIN**» komandasini beradi.

Qo'llar uchun tayyorlov mashqini bo'lib-bo'lib o'rga-nib bo'lgandan keyin komandir komandasi bilan har biy xizmatchilarning o'zlari hisobi yoki baraban zar-bi ostida o'rganishga o'tish mumkin.

SHu mashqni murakkablashtirish uchun keyinchalik unga joyda qadam bosishni bildirish qo'shiladi.

### **Harakatda burilishlarga o'rgatish**

Seksiyani burilishlarni harakatda o'rganishi ko'mandirning ko'rsatishidan boshlanadi.

Harakatda o'ngga burilishni butunligicha seksiya (guruh) komandiri ko'rsatgandan keyin burilish ikki hisobga bo'lib-bo'lib o'rganiladi. Komandir «**Harakat-da o'ngga burilish, bo'lib-bo'lib: bajar — BIR, bajar — IKKI**» komandasini beradi. «Bajar — BIR» hisobi-da chap oyoq bilan olg'a shaxdam qadam qo'yiladi, bunda qo'l ham qadam taktiga moslab harakatlantiriladi va qo'llar tushirilgan holatda to'xtaladi; «bajar — IKKI» hisobida chap oyoq uchida o'ngga birdan buriladi, burilish bilan birgalikda o'ng oyoq oldga chiqariladi va yangi yo'nalishda qadam qo'yiladi.

Keyingi hisob «bajar — BIR», «bajar — IKKI»-da usul boshidan takrorlanadi va hokazo.

Mashg'ulot uchun komandir seksiyani birinchi va ik-kinchi deb sanataadi, harbiy xizmatchilarni sakkiz qadamda 4 qadam interval bilan bir-biriga qaratib joylashtiradiki, ularning har biri to'g'riburchakning ichki chiziqlaridagi kichik kvadratlar qarshisida bo'l-sin.

Mashq to'rt hisobga uch qadam olg'a harakati bilan «**To'rt hisobga harakatda o'ngga burilish, qadam — BOS**» komandasi bo'yicha o'tkaziladi va «bir, ikki, uch, TO'RT» deb sanaydi. «Bir, ikki, uch» hisobida harbiy xizmatchilar kvadrat chizig'i bo'ylab olg'a uchta shaxdam qadam tashlashni, qattiq aytilgan «TO'RT» hisobida esa o'ngga burilishni bajaradilar. Keyingi «bir, ikki, uch, TO'RT» sanog'ida mashq qaytariladi. Harbiy xizmatchilar kvadrat bo'yicha 4x4 qadamda harakatla-nishni bajaradilar. Boshlanishida harakat sur'ati dakiqasiga 60 qadam, keyin esa baraban zarbi ostida daqiqasiga 110—120 qadamga etkaziladi.

CHapga burilishni o'rgatishdan oldin seksiya (guruh) komandiri u ham xuddi harakatda o'ngga burilish kabi bajarilishini ta'kidlab o'tadi. Faqat bir farqi bilan, chapga burilish to'rt qadam harakatdan keyin va navbatdagi «bir» hisobi bilan burilish o'ng oyoq uchida bajariladi. Bajaruvchi komanda chap oyoq erga qo'yi-lishi bilan bir vaqtda beriladi. Mashqni o'tkazish uchun komandir seksiyani bir qadam orqaga yurgizib, to'g'riburchakning tashqi chizig'i bo'ylab joylashtiradi.

Burilishni bajarish «**To'rt hisobga harakatda chapga burilish, qadam — BOS**» komandasi bo'yicha bajariladi keyin «BIR, ikki, uch, to'rt» sanog'i bilan olib boriladi, keyingi qattiq aytilgan «BIR» hisobida buriladilar va qadam qo'yadilar. «Ikki, uch, to'rt» hiso-bida esa harakat davom ettiriladi.

Mashq o'rganuvchilarning hisobi yoki baraban zarbi ostida tugallanishi mumkin. YAnada yaxshiroq o'zlashti-rish uchun mashqda o'ngga va chapga burilishni umumiy qilib o'tish tavsiya etiladi, buning uchun seksiya harbiy xizmatchilari orasidagi masofa 2—4 qadam bilan harakatlanadi. Harakatda ortga burilishni o'rganishdan oldin seksiya komandiri mashg'ulot arafasida shaxsiy tarkib bilan Saf nizomining 40-moddasini o'rganadi. Komandir harbiy xizmatchilar diqqatini harakatda ortga burilish chapga, o'ngga burilishlardan o'zgacha ikki oyoq uchida va burilimdan keyin harakat chap oyoqsan, oyoklar hali oyoq uchida turganligiga qaratadi. Burilimdan keyin oyoqni tovonga qo'yishga ruxsat etilmay-di. Komandir

harakatda aylanib burilish uchun baja-riluvchi komanda «**Bos**» erga o'ng oyoqni qo'yishda bir paytda berilishini, keyin esa uch hisobda burilish bajarilishini tushuntiradi.

Harakatda aylanib burilishga o'rgatish bo'lib-bo'lib to'rt hisobga quyidagi komanda bo'yicha «**Harakatda aylanib burilish, bo'lib-bo'lib: bajar — BIR, bajar - IKKI, bajar - UCH, bajar - TO'RT**» bajariladi.

«Bajar — BIR» hisobi bo'yicha aylanib burilish uchun harbiy xizmatchilar chap oyoq bilan olg'a qadam qo'yadilar va shu holatda qoladilar (7-a raem), «bajar — IKKI» hisobida o'ng oyokdarini yarim qadamga oldga va bir oz chapga (7-6 rasm) chiqaradilar va ikka-la oyoqning uchida chap qo'l tomonga birdan buriladi- lar, shunday holatda qoladilar. «Bajar — UCH» hisobi-da chap oyoq bilan olg'a qadam bosadi, «bajar — TO'RT» hisobida esa o'ng oyoqni qo'yadilar.

Mashq shu ketma-ketlikda yangi yo'nalish bo'yi-cha komandir sanog'i ostida takrorlanadi, keyin esa mustaqil ravishda o'rganuvchilar hisobi yoki baraban zarbi ostida davom ettiriladi.

Aylanib burilishni bajarishda asosiy diqqat burilishning bir vaqtdaligiga, hamda qo'llarning qadam taktiga mosligiga qaratiladi. YA'ni «bajar — IKKI» xisobi bo'yicha boshida o'ng oyoq yarim qadamga chiqariladi, u bilan birga chap qo'lni oldga, o'nggini esa ortga yuborish kerak. O'ng oyoq oyoq uchiga tushishi bilan qo'llar tushgan bo'lishi lozim. Ikki oyoq uchi bilan aylanish boshlanganda qo'llar qadam taktiga moslanib harakatlanib pastda bo'ladi. «Bajar — UCH» xisobi bo'yicha o'ng qo'l yana oldga qarab, chapi esa orqaga harakatlanadi.

**MAVZU № 28. «TIBBIY BILIM ASOSLARI» BO'LIMI BO'YICHA**  
**MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA OLIB BORISH USLUBIYOTI.**  
**MASHG'ULOT №1. BAXTSIZ XODISA YUZ BERGANDA BIRINCHI**  
**TIBBIY YORDAM.**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1.Talabalarga baxtsiz xodisalar yuz berganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish.

2.O'rash va o'rab qo'yish materiallarini talabalarga tushintirish.

3.YAkka o'rab qo'yish tartibini talabalarga tushintirish.

4.Talabalarda vatanga bo'lgan tuyg'ularni yanada oshirish.

O'quv savollari:

1.Baxtsiz xodisa yuz berganda, yarador bo'lganda, jaraxot olganda birinchi tibbiy yordam.

2.O'rash va o'rab qo'yish materiallari.

3.YAkka o'rab qo'yish paketini ishlatish qoidalari savollari bo'yicha amaliy dars o'tish uslubi.

Vaqti: 2 soat.

Joyi: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

O'quv moddiy ta'minot: Tematik reja, o'quv jurnali, kalendar reja, mavzuga tegishli adabiyotlar, ishchi dastur.

**1- o'quv savoli. Baxtsiz xodisa yuz berganda, yarador bo'lganda jaraxot olganda birinchi tibbiy yordam.**

Organizmning barcha travmatik shikastlanishi tashqi qoplamning (terining) butunligini buzilishi yoki buzulmasligidan qat'iy nazar ikkita katta guruhga - ochiq va yopiq shikastlanishga bo'linadi.

**Jarohat** deb organizm to'qimalarning shunday shikastlanishiga aytiladiki, bunda tananing tashqi qoplami (teri shilliq pardasi)ning butunligi shikastlanishning butun chuqurligida albatta buziladi. Teri qoplami buzilganda tirlanish yuzaga keladi. SHikastlanishning ochiq va yopiq turlarga bo'linishining prinsipial ahamiyati shundaki teri qoplami shikastlanmagan qoplami organizmga mikroblarning tushishiga haqiqiy to'siq bo'ladi.

Jarohat etkazgan buyumning ko'rinishiga qarab jarohatlar kesilgan, chopilgan, yirtilgan, sanchilgan va o'q tekkan bo'lishi mumkin.

Kesilgan va chopilgan jarohatlar tekis qirralarga ega bo'lib, ularning to'qimalari unchalik shikastlanmagan, qon oqadi, lekin tez bitib ketadi, o'zidan ingichka chandiq qoldiradi.

Sanchilgan jarohatlar uzun va torgina jarohat kanalining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu kanal ko'p xollarda tana bo'shlig'igacha, hatto tana bo'shlig'idagi ichki organlarga etib borishi mumkin.

Yirtilgan va urilgan jarohatlar kam qon oqishi, katta diapazonda to'qimalarning buzilishi bilan xarakterlanadi. Bu to'qimalar so'ngra o'lib ketadilar va infeksiyaning ko'payishi va yiringlash jarayonining rivojlanishiga sharoit paydo bo'ladi.

### **2-o'quv savoli. O'rash va o'rab qo'yish materiallari.**

Bog'lamlar - bu tana qismini zarur holatda ushlashga yordam beradigan yoki unda bog'lovchi materialni mustahkamlashga yordam beradigan vositadir.

O'zining vazifasiga ko'ra bog'lamlar bog'lovchi materialni to'xtatib turadigan, immobilizatsiyalovchi va cho'zilishni paydo qiluvchi bog'lamlarga bo'linadi.

Qo'llaniladigan materialga qarab esa yumshoq va qattiq bog'lamlarga bo'linadi.

YUMshoq bog'lamlar to'xtatuvchi va ezuvchi sifatida ishlatiladi. Bunda bog'lovchi material sifatida dokadan foydalaniladi. Doka jarohatga qo'yilgandan so'ng oq paxta to'shaladi (alohida holatlarda qopchalarga solingan va sterillangan mox va torf ishlatiladi). Jarohatni barcha qismiga bosim teng taqsimlanishi uchun paralon qatlami qo'yiladi. Bularning barchasi bint yoki durra, plastir yordamida va boshqa materiallar yordamida mustahkamlanadi. Keyingi vaqtlarda shu maqsadda engcha ko'rinishdagi to'rsimon "Retemet" tibbiy bintlaridan foydalanilmoqda.

Qattiq bog'lamlarga shinali, kraxmalli, gipsli, elimli, plastmassali bog'lamlar kiradi. Bu bog'lamlar odatda immobilizatsiya qilish va tortib turish maqsadida ishlatiladi.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda individual bog'lov paketidan foydalaniladi. Uning asosiy maqsadi - jarohatlangan odamni tibbiy punktga olib ketayotganda jarohatga mikroblar tushib qolishdan himoya qilish.

### **3-o'quv savoli. YAKka o'rab qo'yish paketini ishlatish qoidalari savollari bo'yicha amaliy dars o'tish uslubi.**

Birinchi tibbiy yordam odatda bevosita hodisa yuz bergan joyda, tabiiy ofat o'chog'ida o'ziga va o'zaro yordam tartibida ko'rsatiladi. Bunda quyidagi muhim shartlarga amal qilish zarur:

a) birinchi navbatda qon ketish vaqtinchalik to'xtatiladi;

b) so'ngra iloji boricha tezroq jarohat aseptik bog'lam bilan yopiladi, bu bog'lam jarohatga mikroblar tushishidan saqlaydi, kapilyar qon ketishni to'xtatishga yordam beradi va maolul darajada og'riqni pasaytiradi.

Agar bog'lam qo'yishga kiyim xalaqit bersa u echib tashlanadi yoki qirqib olinadi.

Bog'lam qo'yishda quyidagi qoidalarga qat'iy amal qilish zarur:

- jarohatni hech narsa bilan yuvmaslik, begona narsalarni undan olmaslik va qo'llar bilan jarohatga tegmaslik kerak;

- yaraga steril bo'lmagan bog'lovchi materialni qo'ymaslik, jarohatga tegib turgan materialga qo'llarni tekkizmaslik kerak;

- jarohatni o'rab turgan terini yod eritmasi bilan artilgach jarohat aseptik bog'lam bilan yopiladi.

Jarohatni bog'lashda individual bog'lov paketidan foydalanish juda qulaydir. Agar standart aseptik bog'lamlar bo'lmasa, avvaldan tayyorlangan qo'l osti materiallardan (kiyim, choyshab, yostiq jildi va boshqa) lardan foydalanish mumkin.

Jarohatni davolashda tananing jarohatlangan qismi uchun mumkin bo'lgan maksimal tinchlikni yaratish (immobilizatsiya) muhim omil hisoblanadi.

Boshga, ko'krakka, qoringa va xokazo joylarga tozalangan bintni qo'yish qoidalari.

Boshning sochli qismi jarohatiga "chepets" deb ataladigan bog'lam qo'yiladi, bunday bog'lam bint bilan pastga jag'ga bog'lab mustahkamlanadi. Bintdan 1m. cha keladigan qilib qirqib olinib, o'rtasi jarohatni yopib turgan steril salfetka ustiga, bosh tepasi sohasiga qo'yiladi, uning uchlari quloqlar oldidan tik pastga tushirilib, tarang qilib tortib turiladi. Bundan gir aylantirib ushlab turadigan bint o'tkaziladi (1), so'ngra tugiladigan joyga etgandan keyin bintni shu joydan qaytarib, qiyshiq holda ensaga qarab olib boriladi(2). Bint ikkinchi tamonda ham tugiladigan joy atrofidan qaytarilib, qiyshiq holda peshonaga qarab yurgiziladi (3). SHu tariqa bintni bir safar ensadan, bir safar peshonadan o'tkazib (1-10) va har safar tikroq yurgizib borib, boshning butun sochli qismi berkitib chiqiladi.



Rasm. Boshni «chepets» ko'rinishida bog'lash.

Katta jarohat bo'lganda yuz sohasi jarohatlanganda "yugancha" ko'rinishda bog'lam qo'ygan ma'qul. SHundan keyin bintni 2-3 marta gir aylantirib o'rab, bog'lam mahkamlab qo'yiladi. Tugunning uchlari engak tagidan kapalak nusxa qilib bog'lanadi. Odamning bo'yni, tomog'i yoki ensasi jarohatlangan bo'lsa butsimon bog'lov qo'yiladi.

Boshda kata; burun, peshona va ensaga sopqonsimon bog'lam qo'yish mumkin.

Bog'lam tagidan jarohat yuzasi steril salfetka yoki bint qo'yib qo'yiladi.

#### **Qonni vaqtinchalik to'xtatish usullari.**


Jarohatlangan odamga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda quyidagi usullarda vaqtinchalik qon to'xtatiladi:

1. Tananing jarohatlangan qismi tanaga nisbatan balandroq qilib qo'yiladi;
2. Jarohatni bosib turuvchi bog'lam qo'yiladi;
3. Arteriyalarni barmoq bilan bosib turiladi;
4. Bo'g'imlarni maksimal tarzda bukib bog'lanadi;
5. Bo'g'imlarni jgut bilan bosib turiladi (jgut bo'lmasa burama solinadi).




Rasm. Bilak, elkadan va bo'yin arteriyasidan qon ketganda arteriyani barmoq bilan bosib turish usullari.

Qo'l osti materiallardan tayyorlangan jgut burama deyiladi. Jgut va burama solish kiyimning ustidan amalga oshiriladi, agar kiyim bo'lmasa yumshoqroq material to'shab olinadi.



Rasm. Burma solib arterial qon ketishni to'xtatish



Rasm. Qo'l va oyoqlarni maksimal darajada bukib qonni to'htatish.

Jgut (burama) faqat kuchli arterial qon ketishda ishlatiladi. Jgut yozda 1,5-2 soatda, qishda 1-1,5 soatda bo'shatib turilishi kerak, bolalarda esa 1 soatda.

## **MAVZU № 29. NAZORAT DARSINI TASHKILLASHTIRISH VA O'TKAZISH** **USLUBIYOTI. MASHG'ULOT №1. NAZORAT ISHLARINI O'TKAZISH.**

### **Reja**

O'quv va tarbiyaviy maqsadlar:

1. Nazorat ishlarining o'tkazilish vaqtlarini talabalarga tushintirish.
2. Talabalarga nazorat darsida yakka baho, yillik baho va umumiy baholarning qo'yilish tartiblarini tushintirish.
3. CHQBT fanida boshlang'ich va jami bahosi qanday holatda qo'yilishini talabalarga tushintirish.
4. Talabalarda harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishlarni yanada oshirish.

O'quv savollari:

1. Nazorat ishlarining o'tkazilish vaqtlari.
2. Nazorat darsida yakka baho, yillik baho va umumiy baholarning qo'yilish tartiblari.
3. CHQBT fanida boshlang'ich va yakuniy baho qo'yilish tartibi.

Vaqt: 2 soat.

Joy: O'quv xonasi.

Uslubi: Tushuntirish, aytib berish, ko'rsatish.

SHakli: Ma'ruza.

O'quv moddiy ta'minot: Tematik reja, o'quv jurnali, kalendar reja, mavzuga tegishli adabiyotlar, ishchi dastur.

### **1-o'quv savoli. Nazorat ishlarining o'tkazilish vaqtlari.**

O'zbekiston Respublikasida CHQBT fani bo'yicha o'quv dasturi o'quvchilarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligini va vatanparvarlik tarbiyasi holatini tekshiruvdan o'tkazish davlatning hamkorlikda ishlaydigan qator tashkilotlari bilan birgalikda amalga oshiriladi:

-Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, MK «Vatanparvar» tashkiloti markaziy kengashi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati;

-Mudofaa ishlari bo'yicha boshqarmalar, ta'lim muassasasi tasarrufida bo'lgan Vazirliklar, shuningdek ular tarkibiga kirgan organlar chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha nazoratlarni o'z rejalari asosida amalga oshiradilar.

CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish ta'lim jarayonining tarkibiy qismi xisoblanadi. Ta'lim jarayonini tashkil etilishida pedagogik to'g'ri yo'l tutilishi, uning borishini va ta'lim natijalarini nazorat qilib borilishini amalga oshirish uchun imkon beradi.

O'quvchilar bilimini tekshirish, baholash, katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Nazorat mashg'ulotlari ta'lim muassasasidagi CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni yakuniy bosqichi. Buning uchun O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini ob'ektiv baholash va dastur xajmida ularda harbiy ish asoslarini yanada chuqurroq egallashlariga ma'suliyatni oshirish maqsadida nazorat mashg'ulotlarini ta'lim muassasasi direktori yoki uning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari xamda mudofaa ishlari bo'limi xodimi ishtirokida o'tkazish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasalari (akademik litsey, kasb-xunar kollejlari)da xamda oliy ta'lim muassasalari amaliyotida nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha xozirgi kunda katta tajribasi yig'ilgan. Ta'lim muassasalarida nazoratlarning quyidagi turlari mavjud: *joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar*.

**Joriy nazorat** – O'quvchilarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi jarayonida xar bir darsda muntazam ravishda olib boriladi. U harbiy rahbar (CHTO')ga o'quvchilarning faoliyatini kuzatib borishga va o'quvchilarning o'z ishini o'z vaqtida nazorat qilishga, shuningdek, dars natijalarini darhol ko'rish imkonini beradi. Oliy Ta'lim muassasalarida joriy nazoratlar, amaliy mashg'ulotlarni ko'zda tutuvchi dastur bo'limlarini ishlab chiqilgandan keyin olib boriladi.

**Oraliq nazorat** – Oliy ta'lim muassasalarida ma'ruzalarni o'z ichiga olgan dastur bo'limlarini o'rganish yakunida, o'rta maxsus va kasb-xunar ta'lim muassasalarida esa xar bir chorak yoki semestr yakunida olib boriladi.

**Yakuniy nazorat** – O'quvchilar (talabalar)ning o'quv yili yoki semestr davomida o'zlashtirishning yakuniy bosqichi xisoblanadi. yakuniy nazorat mashg'ulotlari chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning barcha mavzulari bo'yicha amalga oshiriladi. Ularda o'quvchilarning nazorat va amaliy bilim darajalari aniqlanadi.

Nazorat, bilimlarni tekshirish, dasturning turli bo'limlari bo'yicha ishlab chiqilgan bilimlar bo'yicha savollar yoki test majmualaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Amaliy malakalarni qurollar, asbob-anjomlar, individual himoya vositalari bilan ishlash jarayonida tekshiriladi va baholanadi.

Bundan tashqari yoshlarni safdagi qurolsiz yakka tartibda bajariladigan usullarni bajara olish, qizlarni esa birinchi tibbiy yordam ko'rsata olish ko'nikma va qobiliyati albatta tekshiriladi.

## **2-o'quv savoli. Nazorat darsida yakka baho, yillik baho va umumiy baholarning qo'yilish tartiblari.**

Nazorat mashg'ulotlari YOCHQBT dasturi yakunlanishi xamda uch kunlik dala-o'quv mashg'ulot(yig'inl)lari paytida o'tkaziladi va o'quvchi yoshlar chaqiruvga qadar boshlang'ich va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ularni O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlar xizmatiga tayyorlik darajasini tekshirish uchun yakuniy mashg'ulot bo'lib xisoblanadi. Nazorat

mashg'ulotlari dasturning «Harbiy ish asoslari» «Otish tayyorgarligi» va «Amaliy jismoniy tayyorgarlik» bo'limlari bo'yicha faqat o'g'il bolalar uchun dala o'quv mashg'ulotlari (yig'ini) yakunida o'tkaziladi.

Ta'lim muassasalarining o'zida esa «Harbiy xizmat asoslari» bo'limi bo'yicha o'g'il bolalar bilan, «Fuqaro muhofazasi» bo'limi bo'yicha esa o'g'il va qiz bolalar bilan birga nazorat mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Nazorat mashg'ulotlarida o'quvchilar mashqlar(usul va harakatlar)ni bajarish va nazorat me'yorlari shartlari bo'yicha talablarni bajarishlari orqali tekshiriladi. Nazorat mashg'ulotlari uchun mashq, usul, harakat va masalalar turlarini harbiy rahbar (CHTO') chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturining xar bir bo'limi uchun belgilangan normativlar ro'yxatidan kelib chiqqan xolda belgilaydi.

Nazorat mashg'ulotlarida o'quvchilar dasturda ko'rsatilgan me'yorlarni (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) bajarishadi. O'quvchilarning **yakka tartibdagi bahosi** dasturdagi bo'limlar bo'yicha nazorat mashg'ulotlarida uning har bir me'yori bajarilganligi uchun olgan baholari yig'indisidan kelib chiqib quyidagicha aniqlanadi:

a'lo» – agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning (mashq usul, amaliy harakat, vazifalar) 50 % dan ortig'i «a'lo» bahoga, qolganlari esa «yaxshi» bahoga bajarilgan bo'lsa;

«yaxshi» - agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning 50 % dan ortig'i «a'lo» va «yaxshi» baholarga bajarilsa, qolganlari esa qoniqarlidan pastga baholanmagan bo'lsa;

«qoniqarli» - agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning bajarilishiga qo'yilgan «qoniqarsiz» baho bittadan ko'p bo'lmasa;

«qoniqarsiz» - me'yorlar bo'yicha ikkita va undan ko'p qoniqarsiz baho bo'lsa;

Ta'lim muassasalarida bitiruvchi kurs o'quvchilari bilan o'qitishining yakuniy bosqichda YOCHQBTdan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va yuqorida dastur bo'limlarida ko'rsatilgani bo'yicha nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish uchun, YOCHQBT ga ajratilgan vaqt hisobidan **uch kunlik dala o'quv mashg'ulot (yig'in)lari** o'tkaziladi. Bu mashg'ulot (yig'in)lar quyidagicha o'tkaziladi:

- umumta'lim maktab internatlarida 11-sinf o'quv bilan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o'quvchilari bilan mart va may oylarida;

- kasb-hunar kollejlarida 3-kurs o'quvchilari bilan o'qitishning oxirgi davrida o'tkaziladi;

- tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o'quv punktlaridagi o'quvchi o'g'il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

### **3-o'quv savoli. CHQBT fanida boshlang'ich va yakuniy baho qo'yish tartibi.**

Uch kunlik dala o'quv mashg'uloti (yig'ini) - (DO'M) quyidagi tartibda olib boriladi:

- bir vaqtning o'zida barcha yoki bir nechta ta'lim muassasalari tuman (shahar) o'quv punktlarining o'quvchi bolalarini mudofaa sport sog'lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqda bo'lgan harbiy qismlarga yig'ish yo'li bilan;

- bitta ta'lim muassasasining (TM) o'quvchi bolalarini MSSL bazasidagi o'quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig'ish yo'li bilan;

- har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg'ulot maydonlariga, otish, joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig'ish yo'li bilan;

DO'M o'tkazish vaqti va tartibini Mudofaa ishlari bo'limlari tuman (shahar) xalq ta'limi organlari, viloyat (shahar) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda garnizon boshlig'i bilan kelishilgan holda belgilanadi va YOCHQBT ni rejalashtirishga qadar ta'lim muassasalari rahbarlariga ma'lum qilinadi.

DO'M nazorat mashg'ulotlarida Nazorat me'yorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) o'quv dasturidagi 2-ilova shartlari bo'yicha bajariladi.

## **MAVZU № 30. DALA O'QUV MASHG'ULOTLAR (YIG'IN)LARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH USLUBIYOTI.**

### **Reja**

O'quv - tarbiyaviy maqsad:

1. Talabalarga uch kunlik dala o'quv mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari, o'tkazish joyi va o'quv-moddiy bazasi haqida ma'lumot berish.

2. Talabalarga dala-o'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va mashg'ulotlar o'tkazish uslubiyotini o'rgatish.

O'quv savollari:

1. Uch kunlik dala o'quv mashg'ulotlarining maqsad va vazifalari, o'tkazish joyi va o'quv-moddiy bazasi.

2. Dala-o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va mashg'ulotlar o'tkazish uslubiyoti.

SHakl: Ma'ruza

Uslub: Tushuntirish, ko'rsatish, munozara yuritish.

Vaqt: 80 daqiqa.

Joy: o'quv xonasi.

O'MT: plakatlari, slaydlar, qaydnomalar, nazorat meyyorlari.

### **1 – o'quv savoli. Uch kunlik dala o'quv mashg'ulot (yig'in)larining maqsad va vazifalari, o'tkazish joyi va o'quv-moddiy bazasi.**

O'zbekiston Respublikasi YOCHQBT dasturida akademik litseylar, kasb - xunar ta'lim muassasalari va o'rta umumta'lim maktab internatlari uch kun davomida dala-o'quv mashg'ulotlar (yig'inlar)ini o'tkazish ko'zda tutilgan. Dala-o'quv mashg'ulotlar (yig'inlar)i ta'lim muassasalarida bitiruvchi kurs o'quvchilari bilan o'qitishining yakuniy bosqichda YOCHQBTdan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va yuqorida dastur bo'limlarida ko'rsatilgani bo'yicha nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish uchun, YOCHQBT ga ajratilgan vaqt hisobidan uch kunliklik dala o'quv mashg'ulot (yig'in)lari o'tkaziladi. Bu mashg'ulot (yig'in)lar quyidagicha o'tkaziladi:

- umumta'lim maktablarida 11-sinf o'quv bilan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 3-kurs o'quvchilari bilan mart va may oylarida;

- kasb-hunar kollejlari 3-kurs o'quvchilari bilan o'qitishning oxirgi davrida o'tkaziladi;

- tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tashkil topgan o'quv punktlaridagi o'quvchi o'g'il bolalar bilan tuman (shahar) hokimligining rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

Uch kunlik dala o'quv mashg'uloti (yig'ini) - (DO'M) quyidagi tartibda olib boriladi:

- bir vaqtning o'zida barcha yoki bir nechta ta'lim muassasalari tuman (shahar) o'quv punktlarining o'quvchi bolalarini mudofaa sport sog'lomlashtirish lagerlariga (MSSL) yoki otaliqda bo'lgan harbiy qismlarga yig'ish yo'li bilan;

- bitta ta'lim muassasasining (TM) o'quvchi bolalarini MSSL bazasidagi o'quv punktlariga yoki otaliqdagi harbiy qismga yig'ish yo'li bilan;

- har bir guruh (sinf) bolalarini har kuni mashg'ulot maydonlariga, otish, joylari (tir)ga olib chiqish yoki yig'ish yo'li bilan;

DO'M o'tkazish vaqti va tartibini Mudofaa ishlari bo'limlari tuman (shahar) xokimligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda garnizon boshlig'i bilan kelishilgan holda belgilanadi va YOCHQBT ni rejalashtirishga qadar ta'lim muassasalari rahbarlariga ma'lum qilinadi.

DO'M nazorat mashg'ulotlarida Nazorat me'yorlari (mashq, usul, amaliy harakat, vazifalar) ushbu dasturdagi 2-ilova shartlari bo'yicha bajariladi. Dala o'quv mashg'ulotlar

(yig'in)larini tashkillash va o'tkazish uchun YOCHQBT o'quv dasturi bo'yicha jami 18 soat vaqt ajratilgan. SHulardan:

"Harbiy ish asoslari" bo'limidagi mashg'ulotlar uchun sakkiz soat,

"Otish tayyorgarligi" bo'limidagi mashg'ulotlar uchun to'rt soat,

"Amaliy jismoniy tayyorgarlik" bo'limidagi mashg'ulotlar uchun olti soat vaqt ajratilgan.

Bunda o'quvchilar **«Harbiy ish asoslari" bo'limi bo'yicha:**

- nishonni ilg'ash, ularning joy atrofidagi narsalarga hamda belgilarga nisbatan joylashgan o'rnini aniqlash va kuzatuv natijalari to'g'risida axborot berishni;

- o't ochish joyini tanlash, yotib otish uchun **joy** (okop) tayyorlashni;

- jang maydonida avtomatdan o't ochgan holda ildam qadam va qisqa yugurib, emaklab harakatlanish (yaxlit bajarish)ni;

**"Otish tayyorgarligi" bo'limi bo'yicha** (4-mavzu, 13 – 14-mashg'ulotlarda o'tkaziladi):

- avtomatni qismlarga ajratish, tozalash va stvol ichini moylashni;

- avtomatdan otish bo'yicha dastlabki mashqni bajarish (kichik kalibrli miltiqdan otish mashqini bajarish)ni;

- o'qdonga xonaki o'qlarni joylashni;

- portlovchi qo'l granatalarini (tankka qarshi) uloqtirish bo'yicha 1(2)-mashqlarni bajarishni.

**"Amaliy jismoniy tayyorgarlik" bo'limi bo'yicha:**

- turnikda tortilishni;

- 1000 yoki 3000 metrga yugurishni;

- to'siqli yo'lakdan oshib o'tish, umumnazorat mashqini bajarishni;

- qo'l kurashi (jangi) amallarini bajarilishlarini mashq qiladilar va me'yor talablarini bajaradilar.

DO'M nazorat mashg'ulotlarini tuman (shahar) hokimligining qarori bilan tuzilgan kommissiya tarkibi o'tkazadi. O'quvchi bolalarga nazorat mashg'ulotlarida qo'yilgan baholar qaydnomasi komissiya tarkibining imzosi va hokimiyat muhri bilan tasdiqlanib ta'lim muassasasi direktoriga jo'natiladi. DO'M ga qo'yilgan umumiy baho sinf jurnaliga DO'M belgisi bilan yozib qo'yiladi.

Viloyat (tuman, shahar) xokimligi tomonidan tashkil etilgan o'quv punktlarida YOCHQBT dan o'tgan chaqiriq yoshidagi bolalar dasturidagi barcha bo'limlar bo'yicha MSSLning yakuniy bosqichiga o'tkaziladi, ularning nazorat mashg'ulotlarida olgan yakka tartibdagi baholari yakuniy baho hisoblanadi.

MSSL nazorat me'yorlarini qabul qilish uchun tuman (shahar) hokimligi qarori bilan tarkibida MIB, FV bo'yicha boshqarma, Madaniyat va sport vazirligi, MK «Vatanparvar» tashkiloti vakillari bo'lgan komissiya tuziladi. YOCHQBT bo'yicha **yillik (kurs) baho** o'quvchilarning chorak (semestr) baholariga asoslanib qo'yiladi.

YOQCHBT bo'yicha **yakuniy baho** DO'Mning umumiy bahosiga va yillik (kurs) bahoga asoslanib qo'yiladi.

Tajribalarni ko'rsatiishicha, dala-o'quv mashg'ulotlar(yig'inlar)ini samarali olib borish uchun tayyorgarlik jarayonini aniq, ravshan rejalashtirish, shuningdek xar tomonlama ta'minlash zarur bo'ladi.

DO'Mning har bir mashg'uloti uchun zarur bo'lgan o'quv-moddiy bazaga ega bo'lish shart. Har bir bir DO'Mga jalb qilingan o'quvchining ekipirovkasi o'z ichiga

quydagilarni olishi shart: Kalashnikov avtomatining maketi, protivogaz, ikkita o'quv qo'l granata (yoki granataning maketi)haltasi bilan, suv idish(flyaga),bosh kiyim, bel tasmasi, piyodachilar kichik kurakchasi niqobi (chexoli) bilan, tumanda (ta'lim muassasasida) belgilanib o'rnatilgan bir xil turdagi kiyim bosh, yuvinish,taranish uchun ashyolar va yuk haltasi.

Ekipirovkaning hamma buyumlari, tabel buyumlaridan tashqari barchasi ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi yoki ta'minlanadi.

DO'Mni harbiy qism bazasida o'tkazish uchun harbiy qism komandiri o'quv maydonini, o'q-dori va otish joyini hozirlaydi. O'quvchilar tarbiyaviy va sport ishlarini olib borish uchun ofitser va serjantlar ajratib beradi.

O'quvchilar bilan DO'Mning mashg'ulotlari o'quv qurollaridan, individual himoya vositalaridan va boshqa maxsus anjomlardan shartli ravishda foydalanish bilan maxsus ishlab chiqilgan uslubda olib boriladi.

O'quvchilar bilan kalashnikov avtomatidan jangovor o'q-dorilardan otishni tartibga ko'ra harbiy qismning yoki mudofaa ishlari bo'limining tajribali ofitserlari raxbarligida mashg'ulotning bunday turi uchun belgilangan barcha hafsizlik chora tadbirlariga qat'iiy amal qilgan holda o'tkaziladi.

Ma'rifiy va ma'naviy ishlarga ajratilgan vaqtlarda urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi, vatanparvarlik mavzusida kiniofilimlar ko'rsatiladi va so'ngi ma'lumotlar eshittiriladi. Qachonki o'tkazilayotgan tadbirlarni O'zbek xalqining hayoti va mehnati, armiyamizning jangovor va ma'rifiy, ma'naviy ishlarining amaliyoti, shuningdek, harbiy qo'shinlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqa vazifalar bilan o'rinli bog'lansagina bu tadbirlarning tarbiyaviy natijasiga erishsa bo'ladi.

Bulardan tashqari ma'rifiy va ma'naviy ishlarga ajratilgan vaqtlarda «Vatanparvar» harbiy-sport musobaqalari tashkil etiladi. Guruxlar va seksiyalar o'rtasida granata uloqtirish, to'siqlar qatoridan o'tish va boshqa harbiy yo'nalishli musobaqalar tashkil etiladi. O'quvchilar DO'M davrida deyarli harbiy qismlarning kun tartibidagidek tartibda yashaydilar.

DO'Mda mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mashg'ulot joyiga har kunlik qatnov bu – ilojisizlik tadbiridir, shuningdek, unumsizroq tadbiridir. Mashg'ulot joyiga har kuni qatnash bu - mashg'ulot joyi uchun xudud tanlash va jihozlash ishlarini noqulay rejalashtirish va moddiy ta'minlanishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liqdir. Masalan: o'quvchilarni manzilga tashish, ovqatlanishni va tibbiy yordamni tashkil etish va hakoza. DO'M o'tkazish bilan bog'liq ishlarni avvaldan boshlash to'g'ri bo'ladi. Anjomlarni tayyorlash, otish qurollarini maketlarini, nishonlarni, xar xil to'siqlarni ko'rsatuvchi belgilarni, zarur o'quv texnika va imitatsiya vositalarini, ko'rgazmali qo'llanmalarni avvaldan hozirlab qo'yish tajribali harbiy rahbar (CHTO')ning ishi bo'ladi.

O'quvchilar bilan DO'Mni xar kuni borib kelish bilan o'tkazishda bitta guruhdan ortiq guruxlar bilan chiqish maqsadga muvofiq emas.

Agarda DO'M ga ikki guruxdan ortiq guruxlar bilan chiqilsa harbiy rahbar (CHTO')ga o'qituvchilardan bittasini, tartibga ko'ra jismoniy tarbiya yoki mehnat o'qituvchilaridan birini yordamchi sifatida biriktiriladi.

DO'M qanday tashkil etish va o'tkazish masalasini tuman (shaxar) hokimligi, shuningdek, mudofaa ishlar bo'limlari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda hal qiladilar.

Tajribalarga ko'ra DO'M tashkil etish bo'yicha ishlarni ma'lum bir ketma-ketlikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

DO'M ga tayyorgarlik ishlari taxminan bir, bir yarim oy ilgari boshlanadi.Tuman (shaxar) hokimligi MIB, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari birgalikda ta'lim muassasalarining harbiy rahbar (CHTO')i bilan DO'Mga tayyorgarlik ishlari bo'yicha reja-

tadbirlar loyixasini ishlab chiqish va ularni o'tkazish muddatlarini kelishib olish maqsadida yig'ilish o'tkazadi.

Rejaga quyidagi masalalar kiritilishi shart:

o'quvchilarni joylashuv joyini tayyorlash va ovqatlanish tartibini;

o'quv maydonlarini tanlash va ta'lim muassasalari o'rtasida taqsimlash;

mashg'ulotlar uchun imitatsiya vositalarini qabul qilib olish;

mashg'ulotlar uchun reja-konspektlar tuzish va ularni o'tkazish bo'yicha zarur ko'rsatmalarni olish.

harbiy rahbar (CHTO')i, MIB va harbiy qism ofitserlari bilan ko'rsatmali-uslubiy mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha dala mashg'ulotlari dasturi;

mashg'ulotlar jadvali va kun tartibini tuzib chiqish;

sutkalik naryadning xujjatlarini ishlab chiqish;

vatanparvarlik va ommaviy sport ishlar rejasini ishlab chiqish.

Rejalarning har bir bo'limlariga tadbirlarni bajarilish muddatlari qo'yiladi va ma'sul shaxslar belgilanib qo'yiladi.

Agarda DO'Mri harbiy qismda bazasida o'tkaziladigan bo'lsa, harbiy qism komandiri bilan kelishiladi.

Zarur buyruq yoki rejalardan ko'chirmalar ta'lim muassasalariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga etkaziladi. Ta'lim muassasalarida DO'Mrini o'tkazish bo'yicha o'z buyruqlari bo'ladi.

Yig'ilishning yakuniga ko'ra o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalarining boshliqlari DO'Mriga jalb qilingan o'quvchilar, tarkibini, o'tkazish joyi va muddatlarini aniqlaydigan buyriq chiqaradi. Xarajatlar hisobi (smeta) si tasdiqlanadi.

DO'Mrini tashkil etish va o'tkazishni yanada yaxshilash maqsadida quyidagi lavozim egalarini tayinlash lozim:

Oromgohda barcha ishlarga raxbarlik qiladigan va shaxsiy tarkibning intizomiga, o'quv jarayonini tashkil etishga javob beradigan yig'in boshlig'i;

DO'M o'quv dasturini sifatli bajarilishiga yo'naltirilgan, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etadigan, yuqori intizomni ta'minlashga va shaxsiy tarkibni ma'naviy va ma'rifiy ahvoliga javob beradigan ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha yig'in boshlig'ining o'rinbosari;

mashg'ulotlarni rejalashtirish, o'quv maydonlarni maqsadga muvofiq, samarali foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish, mashg'ulotlarni sifatli olib borishni nazoratga olish, yig'indagi ichki xizmatni tashkil etish va uni olib borish, buyurtmalar, arizalar va hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etish majburiyati yuklatilgan o'quv ishlari bo'yicha yig'in boshlig'ining o'rinbosari;

majburiyatiga oromgohga zarur bo'lgan barcha narsalar bilan, birinchi navbatda yuqori sifatli oziq-ovqat va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash kiradigan xo'jalik ishlari bo'yicha yig'in boshlig'ining o'rinbosari. U shuningdek, DO'Mga ajratilgan avtoulavlarning texnik xolatiga va undan to'g'ri foydalanishga ham ma'suldir;

DO'Mdagi o'quvchilarga tibbiy xizmat ko'rsatadigan va oromgohni sanitar-gigienik ahvolini nazoratini amalga oshiradigan vrach tayinlanadi.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan lavozim egalari tuman (shaxar) xakimligining qarori bilan o'qituvchilar tarkibidan yoki o'smirlar bilan ishlash bo'yicha yaxshi tajribaga ega va maxsus zarur ma'lumotga faollar hisobidan tayinlanadi.

DO'Mda qatnashayotganlar hisobidan kelib chiqib vzvodlar, guruxlar va seksiyalar shakllantiriladi. Har bir ta'lim muassasalaridan kelgan o'quvchilardan guruxlar tashkil etiladi, har bir sinfdan esa seksiya tashkil etiladi.

Qaerda DO'Mni o'tkazish uchun harbiy qism jalb qilingan bo'lsa gurux komandirlari serjantlardan, seksiya komandirlari esa o'quvchilardan tayinlanadi. Serjantlar tarkibini jalb

qilish imkoni bo'lmagan taqdirda gurux komandirlari etib irodali, intizomli va chaqiruvga qadar tayyorgarlik fanidan yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilardan tayinlanadi.

O'quvchilar DO'Mga ta'lim muassasalarida belgilangan kiyim-bosh bilan kelishga majbur.(belgilangan kiyim-boshga va farqlovchi belgilarga o'xshash, shuningdek Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini farqlovchi belgilarini kiyib, taqib yurish ta'qiqlanadi).

DO'Mning boshlanishida o'quvchilar bilan oldinda turgan o'quv davri masalalarini tahlil qilish yuzasidan umumiy yig'ilish o'tkaziladi. Yig'ilishda ta'limni yuqori sifatli bo'lishiga erishish uchun qo'shimcha chora tadbirlar ham belgilanishi yanada yaxshi Samara berishini unutmazlik lozim.

SHundan keyin o'quvchilarning individual majburiyatlarining yig'indisidan kelib chiqib o'zaro musobaqalar o'tkazish masalalarini hal qilish bo'yicha guruxlar yig'ilishi o'tkaziladi. Odatga ko'ra musobaqalarni o'tkazishni tashkil etish ta'lim sifatini yuqori darajada bo'lishini, o'quvchilarni o'quv dasturining barcha me'yorlarini muvofaqiyatli topshirishiga va harbiycha odob-axloqni o'quvchilarda mujassalashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Musobaqalarni oshkora va nitijalarni taqqoslab o'tkazilishini ta'minlash shart. G'oliblar uchun ko'chma taqdirlash sovg'alari(kubok va h.k) bilan mukofatlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Musobaqa ko'rsatkichlarini kechki yo'qlama yoki ertalabki mashg'ulotlarga tarqatuv safida, shuningdek, mashg'ulotlar yakunidagi tarqatuv safida e'lon qilinadi va devoriy gazetalarda ham yoritiladi. Ko'chma mukofatlarni taqdimotini tantanali ravishda o'tkazish lozim. Bularning tadbirlarni maromiga etkazib o'tkazilishi musobaqalarni samarali bo'lishida katta rol o'ynaydi.

Ayrim tuman (shaxar)larning ta'lim muassasalari ma'lum bir sabablarga ko'ra yuqori bosqich o'quvchilari bilan DO'Mni har kuni o'quv maydonlariga borib kelib o'tkazishlarida yuqorida keltirilgan yig'in o'tkazish uslubiyoti talablariga amal qilishlari to'g'ri bo'ladi.

DO'Mni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tadbirlar rejalarini ta'lim muassasasi direktorining burug' bilan tasdiqlanadi.

DO'Mni muvofaqiyatli o'tkazishning yana bir muhim jixati ta'lim sohasining rahbarlari tomonidan DO'Mni tantanali ochilishi bo'lib hisoblanadi. Bunda ta'lim muassasalarining direktorlari, harbiy qism, MIB vakillari, urush qatnashchilari va tuman(shaxar) jamoatchilik vakillari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati vakillari, shuningdek, ota-onalar taklif etiladi.

DO'Mni yuqori saviyada o'tkazilishi shaxsiy tarkibni ko'tarinki ruh bilan ish boshlashlariga turtki bo'ladi. Kun tartibida mashg'ulotlar olib borish, mustaqil tayyorgarlik, ma'naviy va ma'rifiy, ommaviy-sport ishlarni olib borish, jismoniy mashq, asbob-anjomlar va protivogazlarni tartibga keltirish uchun, shuningdek, o'quvchilarning ovqatlanishi, dam olishi va kechki yo'qlama (agar oromgohda tunalsa) o'tkazish uchun ham vaqt ajratiladi.

DO'Mda ommaviy-sport ishlari asosan har-hil turdagi sport musobaqalarini, marsh yurish(brasok)larni, har-xil g'ovlardan oshib o'tishlarni va harbiylashtirilgan o'yinlarni o'tkazilishiga qaratiladi.

Bunday mashg'ulotlarni o'tkazishda MK «Vatanparvar» tashkiloti, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Fuqoro shtablari, trener murabbiylar va boshqa ayrim ishchilar jalb qilinadi.

DO'Mrining yakuni mashg'ulot rahbarlari va qatnashchilarni barcha-barchasini saf tortkizib tantanali yopiladi. DO'Mrining yopilishiga ta'lim sohasini vakillarini, harbiy qism, MIB vakillarini va urush va mehnat faxriylarini, MK «Vatanparvar» tashkiloti, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, shuningdek «Fuqoro himoyasi» shtablari vakillarini ham taklif etish lozim.

Bunda yig'in boshlig'i mashg'ulotlarga yasab yig'inda faol qatnashganlarni nomlarini atab o'tadi, yig'in qatnashchilariga minnatdorchiliklar va boshqa rag'batlantirishlarni e'lon

qiladi ularga kelajakda O'R QK safida xizmat burchini a'lo darajada o'tashlari uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatib muvofaqiyatlar tilaydi.

DO'Mri yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligining eng muhim yakuniy bosqichi bo'lib hisoblanadi. YOshlarni Vatanni himoya qilishga tayyorgarligini shakllanib borishiga va O'R QKdagi harbiy xizmat vazifalarini puxta bajarishlariga, shuningdek, harbiy o'quv yurtlariga kirishga qaror qilgan yoshlarni kirish imtihonlaridan muvofaqiyatli o'tishlariga ko'p hollarda DO'Mrining yaxshi tashkil qilinib, samarali o'tkazilishiga ham bog'liq bo'lib qoladi.

Xuddi shuning uchun ham yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha qo'yiladigan yakuniy bahoga o'quvchilarning DO'Mrida olgan baholari shartli ravishda inobatga olinadi.

Mazkur kursatmalar joylardagi boshqa bir imkoniyatlarni inkor qilmaydi. Ta'lim muassasalari va boshqarmalar DO'Mrini o'tkazilishiga ijodiy ruhda yondashishlari va uning mazmunini yanada boyitish uchun oqilona tashabbus ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

Bir qarashda uch kunlik qisqa fursatda yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatmalarni amalda o'tkazish katta qiyinchiliklarga duch kelinishi mumkin deyilishi. Biroq bu ishga ma'sul rahbarlarning o'z ma'suliyatlarini his qilib, DO'Mrini o'tkazish uchun sidqidildan yondashilsa, ayniqsa bu ishni boshida turadigan va sifatli o'tkazilishida asosiy rol o'ynaydigan harbiy rahbar (CHTO')larining bu ishga o'z vaqtida bel bog'lashlari DO'Mrini samarali o'tkazish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi va bunday ishlar fidokor kishilar tomonidan imkon qadar amalga oshirilib kelinmoqda.

## **2 – o'quv savoli. Dala-o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va mashg'ulotlar o'tkazish uslubi.**

DO'M ni muvofaqiyatli o'tkazish, uni o'z vaqtida o'tkazish va moddiy ta'minlanishiga bog'liq. SHu qatorda mashg'ulotlarni sifatli o'tkazish majburiyati yuklatilgan harbiy rahbar (CHTO') larning mashg'ulotlarni o'tkazish uchun uslubiy tayyorgarligiga katta ahamiyat beriladi.

### **Tayyorgarlik jarayonida harbiy rahbar quyidagi ishlarni bajarishi shart:**

o'quv dasturini va muvofiq adabiyotlarni o'rgani chiqishlari; barcha mavzular bo'yicha mashg'ulot o'tkazish tartibini va uslubini aniqlashlari; mashg'ulot o'tkazish joyini ko'zdan kechirib chiqishlari; mashg'ulotni moddiy ta'minlanishini tashkil etishlari; har bir mashg'ulot uchun konspekt-rejasi, ko'rsatmali yozuvlar tuzishlari; o'quvchilarga shaxsan o'zi namuna bo'lib ko'rsatishi kerak bo'lgan o'sul va harakatlarni mashq qilib olishlari; O'quv joylarida o'z yordamchilariga ko'rsatmalar berishlari (o'qituvchi, gurux va seksiya komandirlari).

DO'Mrini o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rishga uzoq vaqt talab qilinishini hisobga olib, tajribali harbiy rahbar tayyorgarlikni o'quv joyiga chiqishdan bir muncha ilgari boshlab yuboradi.

O'quv yilining boshlanishidan oldin harbiy rahbar haftalik rejani tuzishda ichki fanlar bog'liqligini e'tiborga olib, mavzularni o'tish tartibini shunday belgilashi kerakki, DO'Mrini boshlanishiga qadar o'quvchilar mustahkamlanishi va takomillashuvi zarur bo'lgan ma'lum bir bilim va malakalarni egallagan bo'lishlari kerak.

Harbiy tayyorgarlikning tamoyillariga amal qilgan holda harbiy rahbar o'quvchi yoshlarga QK tarkibidagi xizmat jarayonida juda qo'l keladigan usul va harakatlarga o'rgatishi, ularda malaka va ko'nikmalarni hosil qilish lozim.

Harbiy rahbar uchun DO'M da dasturning «Harbiy ish asoslari» bo'limidagi mashg'ulotlarni o'tkazish boshqa bo'limlarga nisbatan qiyinroq kechadi. Mashg'ulotlarni o'quv savollariga muvofiq keladigan, avvaldan tayyorlanib qo'yilgan o'quv joyida o'tkazish zarur.

«Harbiy ish asoslari» bo'limidagi mashg'ulotlarni yuqori sifatini ta'minlash uchun gurux tayanch punktiga(yoki seksiyani egallaydigan pozitsiyasiga), tikanli sim tortilgan devorlarga (bir qatorli, uch qatorli), devor stenkasiga, uy maketiga, ag'nab yotgan dov-daraxtlarga, chuqurliklarga (varonki), xar xil to'siqlarga, to'sin va nishonlarga, zaxarlangan xududdan belgi beruvchi ko'rsatgichlar va jang maydonida bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa elementlarga ega bo'lish kerak.

«Harbiy ish asoslari» bo'limidagi mashg'ulotlar Quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar nizomining talablariga muvofiq o'tkazilishi shart.

Bu mashg'ulotlarning asosiy vazifasi o'quvchilarni askarning xujumdagi, mudofadagi, razvedkadagi harakatlarini va dushmanning tanklariga qarshi kurashishni, samalyot va vertalyotlarga qarshi avtomatdan o't ochish usullarini o'rgatishdan iborat. Bunda ta'lim berishning asosiy uslubi bo'lib qisqacha tushuntirish bilan ko'rsatish va xar o'quvchini mashq qildirish hisoblanadi. Mashg'ulotning o'quv savollari elementlar bo'yicha o'rganiladi. Elementlarning xar biri o'quvchilar tomonidan to'g'ri, aniq va tez bajarilishiga qadar mashq qilinadi. Undan keyin o'quv savoliga ta'luqli qolgan harakatlar to'liq bajariladi.

Qarama-qarshi (dushman) tomonni bildiruvchi kam va zarur miqdordagi nishonlar, maketlar, ko'rsatuvchi belgilar, agar imkoni bo'lsa, unda imitatsiya vositalari bilan belgilanadi. Har bir o'quv savoli mashq qilingandan keyin tahlil o'tkaziladi.

Mashg'ulot rahbarining mashg'ulot rejasi o'z ichiga mavzudagi harakat sxemalarini ham oladi.

O'quv maydoniga chiqishdan oldin o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarligi va moddiy vositalarning yaxlitligi tekshiriladi.

Mashg'ulotni oromgohdan chiqilishi bilan boshlash tavsiya etiladi. Mashg'ulot joyiga harakatlanish uchun ketadigan vaqtdan mavzu mazmuniga doir mashq, usul va harakatlarni o'rganish uchun foydalaniladi. Mashg'ulot joyida mashg'ulot rahbari mavzu va uning maqsadini, birinchi o'quv savolini e'lon qilib uni mashq qilish tartibini tushuntiradi, keyin taktik vaziyatni yuzaga keltirib, qisqacha qilib jangovar vazifa qo'yadi, ana shundan keyin birinchi o'quv savolini elementlari bo'yicha mashq qilishga kirishadi. Manna shunday ketma-ketlik tartibida qolgan barcha nazarda tutilgan o'quv savollari mashq qilib o'rganiladi.

Harbiy rahbar (CHTO')ni DO'M o'tkazishda MIB va harbiy qismlar bilan o'zaro hamkoliklari to'g'risida to'xtalib o'tish zarur. YOCHQBT nizomiga (1994 y.) asosan okrug, garnizon boshliqlari, MIB bilan birgalikda ta'lim muassasalariga yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi, ommaviy-sport ishlarni va boshqa vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishda otaliq tashkilot sifatida harbiy qismlarni buyruq bilan biriktirib beradi.

Harbiy qismlar komandirlari va shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha komandirning o'rinbosarlariga, oliy im muassasalarining harbiy kafedrası boshliqlariga, shuningdek, fuqaro himoyasi kurslariga ta'lim muassasalaridagi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tashkil etiladigan va o'tkaziladiga ishlarga otaliq tashkilot yordamini ko'rsatish majburiyati yuklatilgan.

Ular yig'in qatnashchilari bilan jangovar va siyosiy tayyorgarlik a'lochilari o'rtasida uchrashuvlar o'tkazadilar, o'quvchilarga shaxsiy tarkibni hayoti va faoliyati, turmush tarzi, jangovar texnika va qurol-yarog'i bilan tanishtiradilar. Otish maydonlarini, tirlarni, o'quv maydonlarini, imitatsion vositalarni, o'q-dori va qurol-yarog'larni hozirlaydilar, otaliq yordami tartibida avtomatdan jangovar o'q-dorilardan otish mashg'ulotlarini o'tkazish uchun ofitser va serjantlardan ajratadilar.

Harbiy rahbar DO'Mni tashkil etish va o'tkazishda MIB, shu qatorda, ta'lim muassasasiga otaliq tashkilot sifatida biriktirilgan harbiy qismlar bilan hamkorlik a'loqasini juda yaqindan o'rnatishi lozim bo'ladi. DO'Mga jalb qilingan o'qituvchi, harbiy qismning

ofitser va serjantlari bilan yig'in mavzulari bo'yicha uslubiy-yo'riqli mashg'ulotlarni MIB ofitserlari rahbarligida o'tkaziladi.

Bunday mashg'ulotlarda o'z navbatida harbiy qism ofitserlari harbiy rahbar bilan birgalikda mashg'ulotlarni olib borish uslublarini ishlab chiqadilar. Bu o'z-o'zidan mashg'ulotni o'tkazish jarayonida ayrim o'z-aro tushunmovchiliklarga barham beradi.

Harbiy rahbar harbiy qism ofitserlari bilan hamkorligini otish tayyorgarligi bo'yicha «Avtomatdan o't ochish» mavzusi misolida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki avtomatdan o'q otish faqat maxsus jihozlangan harbiy qismlarning otish joylarida yoki tirlarda o'tkaziladi. O'quvchilar otish joyiga chiqqunlariga qadar harbiy rahbar ular bilan otish joyidagi tartib qoidalarini, shuningdek, hafsizlik choralari bo'yicha otish kursi qoidalarini bir-bir o'rgatib chiqishi shart. Otishni boshqarish uchun zarur bo'lgan naryad va tajribali ofitser tayinlanadi. Har bir o'quvchining o'q otishga tayyorgarligini harbiy qism ofitserlari tomonidan harbiy rahbar ishtirokida tekshiruvdan o'tkaziladi. O'q otishga faqat avtomat bilan ishlash malakasini egallagan, otish mashqini o'zlashtirgan va otish qirg'og'idaga tartib, qoidalarini bilgan o'quvchilargagina ruxsat etiladi.

Otish vaqtida otish joyining orqa tomonidagi hafsiz xududlarda ofitser yoki tajribali serjant rahbarligida o'quv dasturi bo'yicha o'quvchilar bilan otish tayyorgarligidan mashg'ulotlar o'tish uchun o'quv joylari tashkil etiladi. O'q otishda asosiy e'tiborni hafsizlikni ta'minlanishiga qaratiladi. Jangovar qurol-yarog' va o'q-dorilarni bevosita tir yoki otish joyining o'ziga, jangovar o'q-dorilar bilan ta'minlash joyiga (punktı boepitaniya) etkazilib beriladi.

Jangovar qurol-yarog'lar o'q-dorilar bilan ta'minlash joyidan (punktı boepitaniya) o'q otish rahbarining yordamchisi tomonidan beriladi, o'q otish yakuniga etgandan keyin qurol-yarog' va o'q-dorilar yana unga qaytarilib topshiriladi.

O'quvchilarga jangovar o'qlarni berilishi, o'q va gilzalarni hisob-kitobi qat'iy ravishda otish kursi talablariga muvofiq olib boriladi. SHu bilan birga o'q tarqatuvchini serjant yoki yaxshi tayyorgarlikka ega askardan tayinlanadi. O'q otish harbiy qism bazasida, MK «Vatanparvar» va sport tashkilotlarining tirlarida o'tkazilgan taqdirda o'quvchilar bilan jangovar quroldan otish mo'ljallangan qurol-yarog' va o'q-dorilar otish vaqtida MIB tomonidan etkazib beriladi, yoki harbiy qism komandiri bilan kelishilgan holda harbiy qism ixtiyorida bo'lgan qurol-yarog' va o'q-dorilardan foydalaniladi.

Bunday sharoitlarda o'q otishga bevosita rahbarlikni MIBning eng tajribali ofitserlari harbiy rahbar ishtirokida amalga oshiradilar. Ularga yordamchi tariqasida o'q otishni tashkil etish va o'tkazishda MK «Vatanparvar» instruktorlari tayinlaniladi.

Harbiy rahbarga DO'Mni tashkil etishda va o'tkazishda, shuningdek, kundalik nazoratini amalga oshirishda uchraydigan muammolarni hal qilish, o'z vaqtida amaliy yordam ko'rsatish uchun tuman (shahar) MIB tomonidan vakil tayinlanadi. Harbiy rahbar (CHTO')lar bunday imkoniyatdan unumli foydalanishni payidan bo'lishlari kerak bo'ladi.

Yig'in yakunlangandan keyin harbiy rahbar MIBga yig'in o'tkazilganligini o'quvchilarni sonini va avtomatdan otishning boshlang'ich mashqini bajarilish natijalarini aks ettiruvchi hisobot berishi shart.

Hulosa o'rnida aytish mumkinki keyingi vaqtlarda harbiy rahbar DO'Mni o'tkazish imkoniyatini topa olmayabdilar. Kuzatuvlar natijasiga ko'ra bunday muammoga deyarli ko'pchilik ta'lim muassasalari duch kelgan. Buning albatta muayyan sabablari mavjud. Ushbu sabablar quyidagicha bo'lishi mumkin: *Birinchidan* bunga manfaatdor tashkilotlarning e'tiborsizliklari va moddiy jihatdan ta'minlamasliklari; *Ikkinchidan* harbiy rahbar (CHTO')larni bu sohada mutaxassis emasliklari va o'z majburiyatlarini bilmasliklari, shuningdek, ularning o'zlarida bunday ishlarga hohish istakning yo'qligi. *Uchinchidan* ta'lim muassasalarining rahbarlari harbiy rahbar (CHTO')larni DO'Mni o'tkazish bo'yicha faoliyatlarini nazoratga olib qo'llab-quvvatlamasliklari va eng asosiysi yuqori turuvchi

barcha manfaatdor tashkilotlar rahbarlarning bu tadbirni nazoratdan chetda qoldirishlari. SHunga qaramay hozirgi kunlarda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligini o'qitilish sifati taboro yaxshilanib bormoqda.

YAngi o'quv dasturini ishlab chiqilishi, o'quv qo'llanmalarni chop etilishi, harbiy sport yo'nalishidagi «SHunqorlar» o'yinini Respublika miqyosida sovrinli o'rinlar bilan o'tkazilishi bunga misol bo'ladi. Ayniqsa bu sohada mutaxasis kadrlarni etarli va sifatli darajada tayyorlashni yo'lga qo'yilishi tahsinga sazovor ishlardandir.

## TEST SAVOLLARI

### **1. CHHTTU fanining maqsadi?**

A. YOshlarni qorovul xizmatini o'tashga tayyorlash. V. YOshlarni ichki xizmatni o'tashga tayyorlash. S. \*YOshlarni O'R QK safida xizmat qilishga tayyorlash. D. YOshlarni vatanparvarlikka tarbiyalash.

### **2. CHHTTU fanining vazifasi?**

A. YOshlarni mudofaaning konstitutsiyada ko'rsatilgan o'rni bilan tanishtirish. V. YOshlarga O'R Harbiy doktrinasini o'rgatish Vatanga muxabbat o'yg'otish. S. O'R QK nima maqsadda tashkil etilganligini o'rgatish

D. \*YOshlar O'R Konstitutsiyasi, qonunlari, harbiy doktrina va harbiy nizom talablarini o'rganishlari.

### **3. Harbiy talim nimani tashkil etadi ?**

A. YOshlarni saf amallarini o'zlashtirishlarini. YOshlar harbiy texnikada xarakatlanishni amaliy o'rgatish. V. YOshlar qurol bilan ishlash usullarini o'zlashtirishlarini. S. \*Dastur bo'yicha mashq, usul va xarakatlarni mumkin qadar qo'shinlarning jangovar harakatlariga yaqinlashtirib o'rgatish. D. Vatan himoyasiga doimo shay turish qurol bilan ishlash usullarini o'zlashtirishlarini.

### **4. CHHTTU fanining bo'limlari?**

A. Kirish qismi, tibbiy tayyorgarlik, fuqaro muxofazasi, harbiy xizmat asoslari, tibbiy bilim asoslari. V. Kirish qismi, otish tayyorgarligi harbiy ish asoslari, amaliy jismoniy tayyorgarlik. S. Harbiy ish asoslari, harbiy xizmat asoslari, tibbiy bilim asoslari. D. \*Kirish qismi, otish tayyorgarligi harbiy ish asoslari, amaliy jismoniy tayyorgarlik, fuqaro muxofazasi, harbiy xizmat asoslari, tibbiy bilim asoslari, nazorat bo'limi.

### **5. Ta'lim muassasalarida CHHTTU faniga necha soat ajratilgan ?**

A. \* 140. V. 160. S. 120. D. 100

### **6. Harbiy ish asoslari bo'limiga necha soat ajratilgan?**

A. 24. V. 25. S. \*26. D. 20.

### **7. Harbiy xizmat asoslari bo'limiga necha soat ajratilgan?**

A. \*24. V. 25. S. 21. D. 26.

### **8. Fuqaro himoyasi bo'limiga necha soat ajratilgan?**

A. 28. V. \* 24. S. 23. D. 27

### **9. Amaliy jismoniy tayyorgarlik bo'limiga necha soat ajratilgan?**

A. 23. V. 25. S. 22. D. \*28

### **10. Nazorat mashg'ulotlariga necha soat ajratilgan?**

A. 10. V. 12. S. \*10. D. 14

### **11. O'R Konstitutsiyasining qaysi bobida Vatan himoyasi O'R Fuqarolarining burchi ekanligi ko'rsatilgan?**

A. 26. V. 35. S. \* 52. D. 58.

### **12. O'R Konstitutsiyasining qaysi bobida O'R. QK. vazifalari belgilangan?**

A. 119. V. \*125. S. 52. D. 118.

### **13. O'R Konstitutsiyasining qaysi bobida QK tarkibi belgilangan?**

A. \*126. V. 120. S. 118. D. 125

### **14. O'R «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunning qaysi bobida harbiy majburiyat to'g'risida tushuncha berilgan.?**

A. \*3. V. 5. S. 1. D. 8.

### **15. O'R «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunning qaysi bobida chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik to'g'risida ko'rsatilgan?**

A. 8. V. 9. S. \*13. D. 10

### **16. O'R «Mudofa to'g'risida»gi qonunning qaysi bobida mudofaa xaqida tushuncha berilgan?**

A. 1. V. \*2. S. 3. D. 4.

**17. Alternativ xizmat kanday xizmat?**

A. \* Muxim davlat xizmati. V. Zaxiradagi xizmat. S. MV qisimlardagi xizmat. D. Zaxiradagi xizmat.

**18. Muddatli harbiy xizmat muddati qancha.?**

A. \* 12 oy. V. 18 oy. S. 20 oy. D. 24 oy.

**19. O‘R Harbiy doktrinasida nechta asosiy holat bor?**

A. 5. V. \*3. S. 4 D. 2.

**20. CHHTTU fanini qaysi xujjat belgilaydi?**

A. «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonun. V. O‘R harbiy doktrinasida. S. \* O‘R «CHHTTU to‘g‘risida»gi nizomi. D. Qurolli Kuchlar nizomi.

**21. CHHTTU fani mashg‘ulotlarini o‘tkazishda qanday xujjatga asoslanadi?**

A. \*CHHTTUdasturi. V. Ta‘lim muassasasining «CHHTTUfanidan mashg‘ulotlar boshlanishi to‘g‘risidagi buyrug‘i. S. CHHTTU mashg‘ulotlarini o‘tish bo‘yicha reja. D. Qurolli Kuchlar nizomi.

**22. CHHTTU dasturi bo‘yicha ketma-ketlik tartibini qaysi xujjat belgilab beradi?**

A. CHHTTUfani bo‘yicha mashg‘ulotlar boshlanganligi to‘g‘risidagi buyruq.

V. \*Xaftalik reja. S. Reja-konspekt. D. Yillik reja.

**23. CHHTTU o‘qituvchi etib kimlar tayinlanishi mumkin?**

A. Armiyada muddatli xizmatni tugatgan jangovor harbiy qismlarda xizmat burchini a‘lo darajada o‘tab kelgan zaxiradagi harbiy xizmatchilar. V. Oliy malumotli serjantlar. S. Harbiy kafedrani tamomlagan zaxiradagi zobitlar. D. \*Pedagogik oliygoxlarda shu mutaxassislik bo‘yicha harbiy kafedrani bitirganlar, pedagogik ma‘lumotga ega bo‘lgan zaxiradagi zobitlar, ayrim xollarda oliy malumotli serjant va askarlar.

**24. CHHTTU o‘qtuvchisining asosiy vazifalari?**

A. O‘quv xonasiga raxbarlik qilish. Direktorning aytganlarini bajarish. V. \*CHHTTUbo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkillash va o‘tkazish, to‘garaklarga raxbarlik qilish. S. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyaviy ishlarni olib borish. D. Vatanga muxabbat o‘yg‘otish, MIB bo‘yruqlarini bajarish.

**25. CHHTTU o‘qituvchisining ishi qanday belgilanadi?**

A. Tasdiqlangan mashg‘ulotlar o‘tish rejasi bo‘yicha. V. Harbiy xona rejasi bo‘yicha. S.\* Dars jadvali, shaxsiy reja va direktor tomonidan tasdiqlangan metodik. D. komissiya ish rejasi.

**26. CHHTTU o‘qituvchisining sinfdan va maktabdan tashqari ishlari?**

A. Harbiy-vatanparvarlik bo‘yicha tarbiyaviy ishlar olib borish. V. Musobaqalar tashkillash va o‘tkazishda qatnashish. O‘quv-moddiy bazani tiklash. S. Mudofaa ishlar bo‘limiga yordam berish. Vatanga sodiqlik, tarixga xurmat o‘yg‘otish. D. \*Harbiy vatanparvarlik tarbiyaviy ishlarni olib borish, to‘garaklarga raxbarlik qilish, Vatanga sodiqlik, tarixga xurmat o‘yg‘otish.

**27. O‘R QK safini to‘ldirilishi?**

A. \*Umumiy harbiy majburiyat bo‘yicha chaqiriluvchi fuqarolar xisobiga.

V. SHartnoma bo‘yicha xizmatga chaqiriluvchilar xisobiga. S. Umumiy harbiy majburiyat va shartnoma asosida chaqirilganlar xisobiga. D. To‘g‘ri javob yo‘q.

**28. CHHTTU fanini tashkil qilish bo‘yicha ta‘lim muassasasi direktorining asosiy vazifalari?**

A. CHHTTU bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tashni ta‘minlash. V. Harbiy xona bilan taminlash, o‘tilgan mashg‘ulot uchun nazorat. S. O‘quv moddiy baza bilan taminlash. D. \*CHHTTUdasturi bo‘yicha o‘quv jarayonini o‘z vaqtida to‘liq va sifatli tashkil etishni ta‘minlash.

**29. CHHTTU o‘qituvchisi kimga bo‘ysunadi?**

A. O'quv ishlari bo'yicha direktor muovini. V. Ma'naviy-Ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor muovini. S. Tuman xalq ta'limi metodistiga (CHHTTU mutaxassisi). D. \*Ta'lim muassasasi direktoriga.

**30. CHHTTU o'qituvchisi kimlar bilan xamkorlikda ishlaydi?**

A. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan. V. Direktorning tarbiyaviy va sinfdan tashkari ishlari bo'yicha muovini bilan. S. Ishlab chiqarish o'qituvchisi bilan. D. \*Barcha pedagogik jamoa bilan.

**31. Ta'lim muassasasida CHHTTU o'qituvchisiga qanday vazifalar yuklanishi mumkin?**

A. \*Ta'lim muassasasi bo'yicha navbatchilik. V. Mudofaa ishlari bo'limi bilan ish tashkillash va ko'maklashish. S. CHHTTU bo'yicha shaxsan o'zi dars tashkillash va o'tkazish. D. To'g'ri javob V,D

**32. CHHTTU o'qituvchisining mehnat maoshi?**

A. Lavozimiga binoan. V. \*YUklamaga binoan. S. Tarbiyaviy ishlari bo'yicha direktor muovini o'xshab. D. Barcha javoblar to'g'ri.

**33. CHHTTU fanini tashkillash va o'tkazishdagi asosiy talablar?**

A. Kerakli adabiyotlarni tanlash. Mashq qilish. V. Texnik vositalarni tayyorlash. Direktordan maslahat olish. S. \*Adabiyotlarni o'rganish, texnik vositalarni tayyorlash va reja-konspekt yozish. D. Reja-konspekt yozish.

**34. CHHTTU bo'yicha xabarlikni davlatning qaysi organi bajaradi?**

A. \*O'R Vazirlar Maxkamasi, tuman va viloyat xokimiyatlari. V. Xalq ta'limi vazirligi. S. Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi. D. O'rta-maxsus ta'lim boshqarmasi.

**35. CHHTTU tashkil etilishini kim nazorat qiladi?**

A. Xalq ta'limi bosh boshqarmasi. Ta'lim muassasasi direktori. V. Mudofaa ishlari bo'limlari. O'quv yurtiga ta'lukli bo'lgan Vazirlik. S. \*O'R MV, shuningdek Vazirliklar, Davlat ko'mitalari, ta'lim muassasalari. D. Ta'lim muassasasi direktori.

**36. CHHTTU dasturi kim tomonidan ishlab chiqiladi?**

A. Akademik litsey, kasb-xunar maktablari, kolejlar boshqarmasi. V. Mudofaa ishlari bo'limlari. S. \*O'R MV. D. CHHTTU o'qituvchisi

**37. Talabalarga «a'lo» individual baxo qo'yish tartibi?**

A. «a'lo», agar o'quvchi mustaxkam bilim ko'rsatsa. V. \*«a'lo»,— agarda barcha tekshirilgan me'yorlarning (mashq usul, amaliy harakat, vazifalar) 50 % dan ortig'i «a'lo» bahoga, qolganlari esa «yaxshi» bahoga bajarilgan bo'lsa; S. «a'lo», agar Talabalar qurol bilan ishlash bo'yicha chuqur va mustaxkam bilim namoyish etsa. D. «a'lo», agar o'quvchi dastur materiali bo'yicha chuqur bilim namoyish etsa.

**38. CHHTTU bo'yicha ta'lim muassasasiga quyidagicha baxolar quyiladi?**

A. agar-95% Talabalar ijobiy baxo olsa. V. agar-70% Talabalar a'lo va yaxshi baxo olsa. S. \*agar-90% Talabalar ijobiy baxo olsa, bundan 50% a'lo. D. agar-75% Talabalar ijobiy baxo olsa, ulardan 60% a'lo.

**39. Ta'lim muassasasining YOCHQBT bo'yicha umumiy holatini «a'lo» bahoga baholanishi?**

A. «a'lo» - agar Talabalarining dasturni o'zlashtirish sifati «a'lo». O'MB holati ham «a'lo»dan kam emas, bundan tashqari o'quv punktlari uchun yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holati bekami-ko'st bo'lsa; V. \*«a'lo» - agar Talabalarining dasturni o'zlashtirish sifati «a'lo» O'MB holati «yaxshi»dan kam emas, bundan tashqari o'quv punktlari uchun yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holati «yaxshi» dan kam bo'lmasa; S. «a'lo» - agar Talabalarining dasturni o'zlashtirish sifati «a'lo» O'MB holati bekami-ko'st, bundan tashqari o'quv punktlari uchun yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holati «yaxshi» dan ham yaxshiroq bo'lsa; D. «a'lo» - agar 100 % yoshlar nazorat tekshiruvda «Alpomish va Barchinoy» me'yorlarini bajarsa;

**40. O'quv punktlarida yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holatini «a'lo» bahoga baholanishi?**

A. «a'lo» - agar 100 % yoshlar nazorat tekshiruvda «Alpomish va Barchinoy» me'yorlarini bajarsa; V. «a'lo» - agar 95 % va undan ko'proq yoshlar nazorat tekshiruvda «Alpomish va Barchinoy» me'yorlarini bajarsa; S. \*«a'lo» - agar 90% va undan ko'proq yoshlar nazorat tekshiruvda «Alpomish va Barchinoy» me'yorlarini bajarsa; D. «a'lo» - agar Talabalarining dasturni o'zlashtirish sifati «a'lo» O'MB holati bekam-ko'st bo'lsa.

**41. Harbiy rahbar, CHTO'larini malakasini oshirish o'z ichiga : ...?**

A. Davomiyligi bir oy bo'lgan tayanch yig'inlari (MO va QT kursi) va yiliga o'tkaziladigan besh kunlik o'quv metodik mashg'ulotlarni; V. Ta'til vaqtida o'tkaziladigan uch kunlik seminarlar va oyiga bir marta bo'ladigan bir kunlik o'slubiy mashg'ulotlarni; S. Malaka oshirish institutlarida, shuningdek, ta'lim muassasasidagi fanlararo komissiya ishlarida qatnashish va harbiy rahbar, CHTO' larni mustaqil ishlarini. D. \*Barcha javoblar to'g'ri.

**42. Harbiy kafedrada o'qish muddati?**

A. 3 yil. V. 5 yil. S. \*4 yil. D. 4,5 yil.

**43. CHHTTUbo'yicha ta'lim muassasasi O'MB xolatiga kuyiladigan umumiy baxo?**

A. «a'lo», agar o'quv moddiy baza a'lo bo'lsa. o'quv punktlari uchun yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holati «yaxshi» dan kam bo'lmasa; V. «a'lo», agar Talabalarining bilimi, a'loga baxolansa. o'quv punktlari uchun yoshlarni jismoniy tayyorgarlik holati «yaxshi» dan kam bo'lmasa; S. «a'lo», agar harbiy-vatanparvarlik ishlari «a'lo» baxolansa. D. \*«a'lo» - agar Talabalarining dasturni o'zlashtirish sifati «a'lo» O'MB holati «yaxshi»dan kam emas, vatanparvarlik ishlari «o'rta» baxolansa, bundan tashqari

**44. Oralik nazorat o'tkazish tartibi?**

A. amaliy mashg'ulotlar o'tish vaqtida. V. mustaqil tayyorgarlik vaqtida.

S. ma'ruzadan keyin mustaqil tayyorgarlik yoki seminar mashg'ulotlarida. D. \*buning uchun ajratilgan vaqtda.

**45. Joriy nazorat o'tkazish tartibi?**

A. ma'ruzadan keyin. V. amaliy mashg'ulotdan keyin. S. \*amaliy va seminar mashg'ulotlaridan keyin. D. laboratoriya ishlaridan keyin.

**46. Nazorat mashg'ulotlarini o'tkazish?**

A. \*Bir mavzuni tamomlagandan so'ng. V. Mavzuning bir bo'limi o'rganilganidan so'ng. S. CHHTTUfani bo'yicha biron bir bo'limni o'rganilganidan so'ng. D. O'quv rejasi bo'yicha berilgan o'quv materiallarini o'rganib, o'zlashtirib bo'lgandan so'ng.

**47. Bir kunlik o'quv metodik yig'inlar qachon o'tkaziladi?**

A. \*To'g'ri javob yo'k. V. avgust oyida o'quv yili boshlanishi oldidan.

S. kuzgi ta'til vaqtida. D. qishqi ta'til vaqtida.

**48. O'zbekiston Respublikasi mudofaa doktrinasining mohiyati nimalardan iborat?**

A. Boshqa davlatlarga xavf solish. V. Boshqa davlatlarning hududlarining bosib olish hoxishi. S. \*O'zbekiston respublikasi hech qaysi davlatga xavf solmaydi va xududiy e'tiroz bildirmaydi. D. O'zbekiston respublikasi yaxshi qo'shni bo'lish tarafdoridir.

**49. CHHTTU o'qituvchisi malaka oshirish kursiga necha yilda yuboriladi?**

A. 2 yilda bir marta. V. \*3 yilda bir marta. S. 4 yilda bir marta. D. 5 yilda bir marta.

**50. CHHTTU o'qituvchilari uchun 5 kunlik o'quv uslubiy yig'inlar qachon o'tkaziladi?**

A. \*O'quv yili boshlanishidan oldin avgust oyida. V. Kuzgi kanikul vaqtida. S. Qishki kanikul vaqtida. CHHTTU dasturi bo'yicha mashg'ulotlar tugagandan so'ng.

**51. CHHTTU o'qituvchilari bilan uch kunlik seminar mashg'ulotlar qachon o'tkaziladi?**

A. Kuzgi kanikul vaqtida. V. Bahorgi kanikul vaqtida. S. \*Qishki yoki kuzgi kanikul vaqtida. D. To'g'ri javob yo'q.

**52. CHHTTU o'qituvchilari bilan bir kunlik metodik mashg'ulotlar bir oyda necha marotaba o'tkaziladi?**

A. 2 oyda ikki marta. V. \*Bir oyda bir marta. S. 15 kunda 1 marta. D. Haftada 1 marta.

**53. CHHTTU o'qituvchilari bilan bir kunlik uslubiy mashg'ulotlarni kim o'tkazadi?**

A. Tuman mudofaa ishlari bo'limi. V. SHahar mudofaa ishlari bo'limi. S. Kollej, litsey boshqarmasi bo'limlari. D. \*Mudofaa ishlari bo'limi kollej, litsey boshqarmasi bo'limlari bilan hamkorlikda.

**54. CHHTTU o'qituvchilari uchun haftada uslubiy tayyorgarlik uchun necha kun ajratiladi?**

A. Haftada 2 kun. V. O'quv muassasa direktori ixtiyorida. S. \*Haftada bir kun. D. Ajratilmaydi.

**55. CHHTTU o'qituvchilari uchun malaka oshirishni kim tashkillaydi?**

A. Litsey, kollej boshqarmasi va xalq ta'limi bo'limlari bilan hamkorlikda. V. \*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi malaka oshirish institutlari va MO va QT fakultetlari xalq ta'limi bo'limlari bilan hamkorlikda. S. Mudofaa vazirligi. MO va QT fakultetlari. D. SHahar va tuman mudofaa ishlari bo'limi. Vatanparvar MKT.

**56. CHHTTU o'qituvchilari malaka oshirish kurslarida shug'ullanish joylari?**

A. Litsey, kollej boshqarmalari bilan tuzilgan shartnomaga asosan. V. Xalq talimi ta'lim muassasalarida. Mudofaa ishlari bo'limida. S. \*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'quv muassasalari va xalq ta'limi organlari bilan tuzilgan shartnomaga asosan. D. O'zbekiston Respublikasi harbiy bilim yurtlarida. Mudofaa ishlari bo'limida.

**57. CHHTTUfani bo'yicha o'quv jarayonini tashkillash nimalardan iborat?**

A. Harbiy xonani ish rejasini tuzishdan. V. Harbiy vatanparvar tarbiyasi rejasini tuzishdan. S.\* CHHTTU dasturi va nizomi talablariga asosan rejalashtirish va olib borish. D.O'zbekiston Respublikasi MV buyrug'i va uslubiy hujjatlarini bajarish maqsadida.

**58. Haftalik reja nima maqsadda tuziladi?**

A.CHHTTUmavzularini hafta ichida o'rganish uchun. V.CHHTTUmavzularini semestr ichida o'rganish uchun. S. \*CHHTTU mavzularini o'tkazishda ketma-ketlik tartibini taminlash uchun. D.T o'g'ri javob A.B.

**59. O'quv dala mashg'ulotlariga necha soat ajratiladi?**

A. 12 soat. V. \*18 soat. S. 15soat. D. 16 soat.

**60. Mashg'ulot o'tish rejasi nimalardan iborat?**

A. O'quv savollariga ajratilgan vaqtni ko'rsatish. O'quv savollarining mazmunini. V. Adabiyotlarni ko'rsatish. O'quv savollarini ko'rsatib o'tish. S. \*Mashg'ulot rejasida ko'rsatilishi shart bo'lgan elementlarni. O'quv savollarining mazmunini. D. To'g'ri javob yo'q.

**61. O'quv muassasa o'quv moddiy bazasini yaratish rejasi nimalardan iborat?**

A. Harbiy xonani jihozlash. To'siqlar maydonini qurish. V. Qurol saqlash xonasini jihozlash. S. \*CHHTTU dasturi bo'yicha mashg'ulot o'tish o'quv joylarini jihozlash. D. Otish tirlarini qurish.

**62. O'quv muassasa va harbiy qismlarning birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar rejasi nimalardan iborat?**

A. Hamkorlikda mashg'ulotlar o'tkazish. Harbiy qismlarga sayohatlarni uyushtirish. V. Harbiy texnika va qurollarni o'rgatish. S. Harbiy texnika va qurollarni o'rgatish. Ularni qiziqtirish. D. \*Harbiy xizmatchilarning yashash sharoitlari va harbiy texnika va qurollar bilan tanishtirish. Ayrim amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish.

**63. CHHTTU kursini o'qitishni boshlash to'g'risidagi buyruqda nimalar ko'rsatiladi?**

A. Bitiruv oldi kurs Talabalarini mashg'ulotlarni boshlashi haqida. V. \*Ta'lim muassasada CHHTTU bo'yicha mashg'ulotlar boshlash bilan bog'liq narsalarni. S. Bitiruv guruhlarida mashg'ulotlar o'tkazish haqida. D. 2 kurs (10-sinflar) bilan mashg'ulotlar o'tkazish to'g'risida.

**64. Guruh va seksiya komandirlarini saylash to'g'risidagi buyruqda nimalar ko'rsatiladi?**

A. Bitiruv oldi kurs guruhlarida guruh va seksiya komandalarini saylash haqida. V. Bitiruv kursi guruhlarida guruh va seksiya komandirlarini saylash to'g'risida. S. \*2- kurs guruhlarida guruh va seksiya komandirlarini, 3- kurs guruhlarida avvlgilari tayinlash. D. to'g'ri javob yo'q.

**65. Guruhlarni raqamlash tartibi?**

A. 10-«A» sinf (2-kurs)-1 guruh. 11 «A»-sinf (3-kurs)-2 guruh. V. 11 «A»-sinf (3-kurs)-2 guruh. «A» sinf (2-kurs)-1 guruh. S. \*10.«A» sinf – (2-kurs «A» gr.) 1-guruh. 10. «B» sinf -(2-kurs «B» gr.) D. 2-guruh, 11-sinf (3- kurs) avvalgisini qoldirish.

**66. SHunqorlar harbiy sport musoboqalarini o'tkazish bo'yicha chiqarilgan buyruqda nimalar ko'rsatiladi ?**

A. Musobaqa ha'yati tayinlanishi. V. Musobaqa hay'ati raisi tayinlanishi. S. Musobaqada qatnashadigan Talabalarni tayinlanishi. D. \*Harbiy sport musobaqa maqsadini ko'rsatish va tashkiliy qo'mita tuzish.

**67. O'q otishni tashkillash bo'yicha buyruqda nimalar ko'rsatiladi?**

A. O'q otish bo'yicha musobaqa o'tkazish haqida. V. Havfsizlik choralari rioya qilish haqida. S. \*O'quv joylarini tashkillash haqida, havfsizlik choralari rioya qilish. D. Qurollarning chiqarilish tartib raqamini belgilaydi.

**68. Uch kunlik o'quv dala mashg'ulotlari buyrug'ida nimalar ko'rsatiladi?**

A. Uch kunlik o'quv dala mashg'ulotlari o'tkazilish muddati. Qurolning turi. V. Uch kunlik o'quv dala mashg'ulotlari qaysi sinflarda o'tkazilishi. Qachon boshlanishi. S. Uch kunlik o'quv dala mashg'ulotlari o'tkazilish joyi. Rahbarning kimligi. D. \*Uch kunlik o'quv dala mashg'ulotlari o'tkazilish joyi va qaysi guruhlar bilan o'tkazish.

**69. CHHTTU mashg'ulotlarini yakunlanishi to'g'risidagi buyruqda nimalar ko'rsatiladi?**

A. Ikkinchi guruhning eng yaxshi ko'rsatgichlariga erishishi. V. O'quv moddiy bazalarini tashkil etish. S. \*CHHTTUdasturini bajarilishi haqida. D. CHHTTU mashg'ulotlarini o'tkazish sifatlarini.

**70. Harbiy xonaning ish rejasida nimalar ko'rsatiladi?**

A. Uslubiy komissiyaning kengashish vaqti. V. Alpomish me'yorlarini topshirish. S. \*Uslubiy komissiyaning kengashi, Talabalar bilan suhbat va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha tadbirlar o'tkazish. D. To'g'ri javob yo'q.

**71. CHHTTU o'qituvchisining yillik ish rejasida nimalar aks ettiriladi?**

A. Dars jadvali. V. CHHTTU bo'yicha o'quv muassasasi buyrug'ini ishlab chiqish. S. \*Rejalashtirilayotgan hujjatlarni ishlab chiqish, shaxsiy tayorgarlik va o'quv moddiy ba'zani takomillashtirish. D. O'quv moddiy ba'zani takomillashtirish.

**72. CHHTTU o'qituvchisining vatanparvarlik ishlarini tashkil etish bo'yicha takliflarida nimalar ko'rsatiladi?**

A. \*O'taliqda bo'lgan harbiy qismga bilan hamkorlik. V. Amir Temurga bag'ishlangan ma'ruzalar. S. Ogoh bo'lish bo'yicha seminar o'tkazish. D. Jangovar va mehnat faollari bilan tadbirlar, suhbatlar o'tkazish.

**73. Uch kunlik o'quv dala mashg'ulotlarini o'tkazish rejasida nimalar ko'rsatiladi?**

A. O'quv dala mashg'ulotlarini mart oyida o'tkazish. CHHTTU o'qituvchisiga texnika havsizligi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish. V. O'quv dala mashg'ulotlarini aprel oyida o'tkazish. CHHTTU o'qituvchisiga texnika havsizligi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish. S.

\*O'quv dala mashg'ulotlarini CHHTTU dasturi tugashidan so'ng asosiy mashg'ulotlardan ajralgan holda h/q, oromgoh yoki ta'lim muassasasi bazasida o'tkazish. D. O'quv dala mashg'ulotlarini may oyida o'tkazish.

**74. CHHTTU dasturi tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan harbiy sport bayramini o'tkazish rejasida nimalar ko'rsatiladi?**

A. Musobaqa qatnashchilari va pedagogik jamoani saflash. V. Qatnashuvchilarning ko'rgazmali chiqishlari. S. Vatanparvar me'yorlarini bajarish bo'yicha musobaqa. D. \*Musobaqa qatnashchilari va pedagogik jamoalarini saflash va musobaqani boshlash.

**75. Harbiy to'garaklar ish rejasida nimalar ko'rsatiladi?**

A. To'garaklarda qatnashishni hohlovchilarning ro'yxati. V. Pnevmatik multiqlarning taktik texnik tasniflarini o'rganish. S. \*Pnevmatik multiqdan o'q otish tayyorgarligini o'tkazish tadbirlari. D. Bir xilda mo'ljalga olish bo'yicha mashq qildirish.

**76. O'zbekiston respublikasi harbiy bilim yurtlariga kirish uchun yoshlarni tayyorlash bo'yicha ish rejasida nimalar ko'rsatiladi?**

A. O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari markaziy muzeyiga sayohatlar uyushtirish. V. THOQB YUrti muzeyiga sayohatlar tashkil etish. S. Otaliqqa olgan harbiy qismga sayohat uyushtirish. D. \*Ofitserlik- qahramonlik kasbidir mavzusida targ'ibot o'tkazish.

**77. MK «Vatanparvar» tashkiloti kengashi ishlariga nimalar kiradi?**

A. «Vatanparvar» MKT kengashini yig'ilishlarini o'tkazish. O'q otish bo'yicha musobaqa o'tkazish. V. To'garak rahbarlarini yig'ilishlarini o'tkazish. To'garak rahbarlarini yig'ilishlarini o'tkazish. S. O'q otish bo'yicha musobaqa o'tkazish. To'garak rahbarlarini yig'ilish- larini o'tkazish. D. \*MK «Vatanparvar» tashkiloti kengashida ish rejalarini muhokama qilish bo'yicha yig'ilish o'tkazish.

**78. «Vatan ximoyachilari kuni»ga bag'ishlangan ommoviy mudofaa oyli rejasida kimlar ko'rsatilgan?**

A. O'R QK muzeyiga borish. V. Amir Temur muzeyiga borish. S. \*Urush qatnashchilari bilan uchrashuv tashkillash va muzeylarga tashrif buyurish. D. Jangchi baynalmilalchilar bilan uchrashuv tashkillash.

**79. CHHTTU va vatanparvarlik ishlari xolati bo'yicha yillik xisobotda nimalar ko'rsatilgan?**

A. CHHTTU kursi bo'yicha nechta talaba tugatgan. SHulardan nechitasi o'qishga kirdi. V. Harbiy raxbarlar tamoniida nechta mashg'ulot tekshirildi va o'tkazildi. S. Nechta sport ustalari sportchilar va harbiy oliygoxlarga kirish uchun nomzodlar tayinlandi. D. \*O'quv darsturni o'zlashtirilganligi, o'quv –moddiy bazaning holati va harbiy – vatanparvar tarbiyasini sifati

**80. Harbiy xonani vazifasi?**

A. Vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini o'tkazish uchun. Veteranlar bilan uchrashuvga. V. Harbiy xona – CHHTTU o'quv – moddiy bazasini asosiy qismi bo'lib amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun. S. \*Nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish, vatanparvarlik tarbiyasi ishlari va sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish ayrim amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun. D. Sinf mebellarini jihozlashga, o'quv va qo'rgazmali qurollarni ko'rsatish uchun.

**81. Harbiy xonaga mebellar nima uchun kerak?**

A. O'quv joylarini jixozlash va komissiya ko'rishi uchun. V. CHHTTUdasturi bo'yicha ko'rgazmalarni ko'rsatish uchun. S. \* Harbiy raxbarlarni, Talabalarni va ko'rgazmali anjomlarni joylashtirish uchun. D. O'quv jixozlani joylashtirish va saqlash uchun.

**82. Harbiy xonani o'quv – uslubiy jixozlanish asosini nima belgilaydi?**

A. Turniketlar. V. \*Mavzular bo'yicha stendlar. S. O'R QK ni vatan ximoyasi hikoya qiluvchi stendlar. D. Sxemalar.

**83. Harbiy tayyorgarlikni ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi nimada?**

A. O'quv-moddiy bazasi va pedagogik jamoa bilan. V. \*Vatan himoyachisi uchun muhim bo'lgan ma'naviy - siyosiy xislatlarni shakllantirishning asosi bo'lgan tarbiya

tizimi bilan. S. O'quv binolari shart-sharoitlar bilan. D. O'quvchi yoshlarni aynan ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olishlari bilan.

**84. O'quv texnikaviy vositalariga nimalar kiradi?**

A. Stendlar va plakatlar. Sxemalar. Kompyuter. V. Kodoskoplar. Sxemalar. Diaproektorlar. Televizorlar, videomagnitafon va magnitafonlar. S. Epidioskoplar. Fotoaparatlar. D. \*Proektsion vositalarni turli modifikatsiyasi. Kompyuter majmuasi.

**85. O'tish joylari (strelkovy tir) bu-?**

A. Ov miltiqlardan nishonlarga qarata o'tishga mo'ljallangan maxsus jixozlangan qurilma yoki joy qismidir. V. \*Kichik kalibrli miltiqlardan nishonlarga qarata o'tishga mo'ljallangan maxsus jixozlangan qurilma yoki joy qismidir. S. Avtomatlardan nishonlarga qarata o'tishga mo'ljallangan maxsus jixozlangan qurilma yoki joy qismidir. D. Pnevmatik miltiqlardan nishonlarga qarata o'tishga mo'ljallangan maxsus jixozlangan qurilma yoki joy qismidir.

**86. Haftalik reja nechanchi kurs (sinf)lar uchun tuziladi?**

A. 1-kurslar uchun. V. \*2-3-kurslar uchun. S. 1-kurslar uchun. D 3-kurslar uchun.

**87. YOCHQBT xonasi qanday ctendlar bilan jixozlanadi?**

A. Topgan-tutgan stendlar bilan. V. \*YOCHQBT xonasi dasturning bo'limlarini o'z ichiga olgan ctendlar bilan jixozlanadi. S. Boshqarma yoki MIB tomonidan berilgan stendlar bilan. D. MK «Vatanparvar» tashkilorti tomonidan berilgan stendlar bilan.

**88. Saf tayyorgarlik mashg'o'lotini o'tkazish uchun maydonchani razmerlari kancha bo'lishi kerak?**

A. 9x20 m. V. 10x20 m. S. \* 8x16 m. D. 20x20 m

**89. O'tish joylari (strelkovy tir)ning tuzilishi?**

A. YUkori tomondan o'tish chizig'i, oldindan o'qni tutib qoluvchi qatlam va val bilan, yon tomonlardan esa o'qning tashqariga uchib chiqib ketishini to'sib turuvchi taxta devorlar bilan to'silgan bo'ladi. V. \*Orqa tomondan o'tish chizig'i, oldindan o'qni tutib qoluvchi qatlam va val bilan, yon tomonlardan esa o'qning tashqariga uchib chiqib ketishini to'sib turuvchi devorlar bilan to'silgan bo'ladi. S. YOnbosh tomondan o'tish chizig'i, oldindan o'qni tutib qoluvchi qatlam va val bilan, yon tomonlardan esa o'qning tashqariga uchib chiqib ketishini to'sib turuvchi orqa tomondan o'tish chizig'i, oldindan o'qni tutib qoluvchi qatlam va val bilan, yon tomonlardan esa o'qning tashqariga uchib chiqib ketishini to'sib turuvchi devorlar bilan to'silgan bo'ladi paxsa devorlar bilan to'silgan bo'ladi. D. Ro'paradan o'tish chizig'i, oldindan o'qni tutib qoluvchi qatlam va val bilan, yon tomonlardan esa o'qning tashqariga uchib chiqib ketishini to'sib turuvchi tunuka devorlar bilan to'silgan bo'ladi

**90. Vzvod bo'yicha posbon vazifasini amaliy o'rganish joyga?**

A. Vzvod posboni majburiyatlari bo'yicha yo'riqnoma. V. Vzvod navbachisi va posboni majburiatlari bo'yicha yo'riqnoma. S. Posboninig yong'in chikkandagi xarakati bo'yicha yo'riqnoma. D. \*Ichki xizmat nizomi talablariga muvofik jixozlangan xujjatlar taxtasi.

**91. O'quv – ko'rgazmali ko'llanma va adabiyotlarga nimalar kiradi?**

A. O'q o'tish bo'yicha plakatlar. V. O'R QK nizomlari bo'yicha stendlar. S.Vzvod posboni majbo'riyatlarini o'rganish joyi. D. \*O'rganilayotgan mavzu bo'yicha stendlar va O'R QK nizomlari.

**92. Moddiy – o'quv bazasini rivojlantirish yillik rejasi o'z ichiga nimalarni oladi?**

A. Sport shaxarchasi qurilishini. Umumqo'shin to'siqlar yo'lkasi qurilishini. V. Umumqo'shin to'siqlar yo'lkasi qurilishini.) Sport zalini jixozlashni. S. Sport zalini jixozlashni. Sport shaxarchasi qurilishini. D. \*Mavjud bo'lgan o'quv – moddiy bazani rivojlantirish va tokomillashtirish tadbirlarini.

**93. Ta'lim muassasasini o'quv qurollari bilan ta'minlash tartibi?**

A. Tuman xalq ta'limi bo'limi naryadi bo'yicha. V. Mudofa ishlari bo'limi talabnomasi bo'yicha. S. \* Yo'riqnoma bo'yicha. D. Vazirliklar talabiga ko'ra.

**94. O'quv qurol-slahalar kaerda saklanadi?**

A. Mudofaa ishlari bo'limidi. V. Tuman xalq xo'jaligi bo'limida. S. \* Qurol saqlash xonasida. D. Litsey va kollejlarda boshqarmasida.

**95. O'quv qurolarini kabul qilish, saqlash va xisobini yuritish kimning zimmasiga yuklatiladi?**

A. \*CHHTTU raxbariga. V. Direktorga. S. Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor muoviniga. D. Eng ishonchli odamga.

**96. O'quv qurollarining xisobini yuritish, saqlash va foydalanish uchun bevosita javobgarlik kimning zimmasiga yuklatiladi?**

A. Ta'lim muassasasining ombor mudiri. V. Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor muovini. S. \*CHHTTU o'qituvchisi. D. Ta'lim muassasasi direktori.

**97. YAkka ximoya visitalari qaerda saklanadi?**

A. Ta'lim muassasasining omborida. V. Harbiy xonada. S. \*Qurol saqlash xonasining maxsus joylarida. D. Qurol saqlash xonasida piramidalarda.

**98. O'quv qurollarini qabul qilish va etkazib berish amalga oshirilishi; ?**

A. Tuman sport tashkilotlari tamonida. V. \*Mudofaa ishlari bo'limi vakillari tamonida. S. MK «Vatanparvar» tashkilot tamonida. D. Otalik harbiy qism tamonidan.

**99. O'quv qurolari va o'q-dorilarni raxmatdan chikarish qanday amalga oshiriladi?**

A. \*Ta'lim muassasasining aktlari bo'yicha. V. Mudofaa ishlari bo'limi orkali. S. «Vatanparvar» MK tashkiloti orkali. D. Tuman ichki ishlar bo'limi orkali.

**100. CHHTTU mashg'uloti necha qismdan iborat?**

A. \*Uch qismdan. V. To'rt qismdan. S. Ikki qismdan. D. Besh qismdan.

**101. Ta'lim muassasasining CHHTTU mashg'ulotlarining o'tkazilish davriyligi kanday?**

A. \*Xaftasiga 2 soatdan. V. Oyiga bir marta 7-8 soatdan. S. O'quv yurti sharoitiga ko'ra. D. Xaftasiga 4 soat.

**102. Ta'lim muassasasining CHHTTU mashg'ulotlarining kanday kurinishlari mavjud?**

A. Nazariy, amaliy va nazorat mashg'ulotlari. Ma'ruza, seminar. V. Amaliy, o'q otish mashqlari, Guruh mashqlari. S. \*Nazariy, amaliy, taktik, taktik-saf, ko'rgazmali, nazorat. D. Ma'ruza, bilim va ko'nikmalarni egalash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar.

**103. Xikoya, ko'rgazma, tushuntirish va suxbat usullarining qo'llanilishini CHHTTU darslarining qaysi shakliga muvofiq keladi?**

A. Amaliy mashg'ulotlar. V. \*Nazariy mashg'ulotlar. S. Nazorat mashg'ulotlari. D. Ma'ruza, seminar.

**104. Darsning reja – kanspekti qachon tasdiqlanadi?**

A. 2-3 kun oldin. V. Mashg'ulot arafasida. S. Bir kun oldin. D. \*Bir hafta oldin.

**105. CHHTTU amaliy mashg'ulotlarida qanday o'qitish usullari qo'llaniladi?**

A. Xikoya, ko'rgazma, tushuntirish. V. Maktab ma'ruzasi, mashq. S. Suxbat, mustaqil ish. D. \*Tushuntirish, ko'rgazma, mashq.

**106. CHHTTU xonasidagi o'quv stollari devol chetidan qancha masofada bo'lish kerak?**

A. 35 sm. V. 40 sm. S. \*60 sm. D. 50 sm.

**107. Dars reja kanspektini kim tasdiklaydi va CHHTTU o'qituvchisi darslarini kim nazorat qiladi?**

A. Ilmiy mudir. V. Xalq ta'limi bo'limi inspektori. S. Direktor muovini. D. \*Direktor.

**108. Saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar uchun maydoniga talablar?**

A. \*Ta'lim muassasasi xududida jixozlanadi va asfalt yoki beton bilan koplangan, tekis bo'lishi shart. V. YAqinroqda joylangan ta'lim muassasasi xududida jixozlanadi va asfalt yoki beton bilan qoplangan, tekis bo'lishi shart. S. Ta'lim muassasasi xududida jixozlanadi va asfalt

yoki beton bilan koplanmasa ham tekis bo'lishi shart. D. Ta'lim muassasasi xududida jixozlanadi va asfalt yoki beton bilan koplanib usti yopilishi shart.

**109. Saf maydonidagi kataklar o'lchami qancha bo'ladi?**

A. 75 sm. V. \*80 sm. S. 85 sm. D. 90 sm.

**110. Saf maydonidagi kataklar nima uchun mo'ljallangan?**

A. Qadam tashlashda adashib ketmasligi uchun. V. \*shaxdam qadam bilan yurishni mashq qilishga mo'ljallangan va u qadamning kengligiga mos keladi. S. Juft oyoqlab sakrash uchun. D. To'g'ri chiziq bo'ylab yurish uchun.

**111. Saf maydonidagi perimetr bo'yicha chizilgan aylanalar;..?**

A. \*Qad rost xolatida to'g'ri turishni va joyda turib burilishlarni mashq qilish uchun. V. Ikki qator bo'lib saflanish uchun. S. Uch qator bo'lib saflanish uchun. D. CHopib turib burilishlarni mashq qilish uchun.

**112. Saf maydonidagi perimetr bo'yicha chizilgan aylanalarni to'rt qismga bo'linishi?**

A. O'z joylarini tez topishlari uchun. Boshliq harakatlarini kuzatish uchun. V. \*Mashg'ulot rahbariga Talabalar joyda turib burish mashqlarini bajarayotganlarida oyoqni to'g'ri qo'yishlarini nazorat qilish uchun. S. Harakatlanishga tayyorgarlik ko'rish uchun. D. Tizzalar bukimasligi va Talabalarni boshi pastga engashib ketmasligi uchun.

**113. To'siqlar qatori majmuasi nechta elementdan iborat?**

A. 15 ta. V. 10 ta. S. \*11 ta. D. 16 ta

**114. Dasturning harbiy ish asoslari va fuqarolar himoyasi bo'limlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish joyi (o'quv shaxarcha) nechta elementdan iborat?**

A. 15 ta. V. \*10 ta. S. 11 ta. D. 16 ta

**115. Vzvod bo'yicha posbonning majburiyatlarini amaliy o'rgatish joyi nechta elementdan iborat?**

A. 5 ta. V. 3 ta. S. 4 ta. D. \*6 ta

**116. Gimnastik shaxarchaning mashq elementlari nechtadan iborat?**

A. 15 ta. V. 10 ta. S. \*17ta. D. 16ta

**117. Ko'chma (yig'ma) jihozlarning ilovalari qaysi xujjatda keltirilgan?**

A. YOCHQBT nizomida. V. YOCHQBT o'quv qo'llanmasida. S. \*YOCHQBT daturida D. YOCHQBT konsepsiyasida.

**118. «YOCHQBT» fani qanday qonunga muvofiq tashkillanadi va o'tkaziladi?**

A. «Mudofaa to'g'risida»gi qonunga. V. Vazirlar mahkamasining qaroriga. S. \*O'R «Umum harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunga. D. Quyi va yuqori palataning qaroriga

**119. «YOCHQBT» fani ta'lim muassasalari uchun qanday fan hisoblanadi?**

A. Faqat qizlar uchun o'tiladigan. V. Faqat o'g'il bolalar uchun o'tiladigan. S. Armiya safiga chaqiriluvchilar uchun. D. \*Ta'lim muassasalari uchun majburiy o'quv fani hisoblanadi.

**120. Ta'lim muassasalarida faqat «YOCHQBT» fani uchun necha soat ajratilgan?**

A. \*140s. V. 120s. S. 100s. D. 70s.

**121. Mudofaa sport sog'lomlashtirish lagerlari kimlarning qaroriga ko'ra tashkil etiladi?**

A. Ta'lim muassasalari direktorining. V. AL va KXK boshqarmalarining yoki xalq ta'limi bo'limi mudirlarining. S. \*Viloyat hokimining. D. Tuman(shaxar) hokimining.

**122. «YOCHQBT» faniga faqat o'g'il bolalar uchun necha soat ajratilgan?**

A. 100s. V. 120s. S. \*140s. D. 80s.

**123. Ta'lim muassasalarida «YOCHQBT» mashg'ulotlarini o'tkazish shakllari?**

A. \*Nazariy, amaliy, ko'rgazmali, taktik, taktik-stroevoiy, nazorat. V. Saf maydonlarida, jamoaviy, guruhli, yakka tartibda. S. O'quv va jangovor qurollarda. DO'M. D. Ko'rsatma va yo'riqnomalar asosida.

**124. «YOCHQBT» fanidan faqat qiz bolalar uchun necha soat ajratilgan?**

A. 24s. V. 28s. S. 35s. D. \*70s.

**125. DO‘M dagi nazorat mashg‘ulotlari dasturdagi qaysi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi?**

A. Amaliy jismoniy tayyorgarlik, fuqorlar himoyasi. V. Harbiy xizmat asoslari, otish tayyorgarligi, Amaliy jis. tayyor. S. \*Harbiy ish asoslari, otish tayyor. Amaliy jis.tayyor. D. Fuqorlar himoyasi, kirish, nazorat mashg‘ulotlari.

**126. Mudofaa sport sog‘lomlashtirish lagerlari uchun necha soat ajratilgan?**

A. 200s. V. 180s. S. \*160s. D. 140s.

**127. Talabalarining yakka tartibdagi «a’lo» bahosini qo‘yish tartibi?**

A. \*«a’lo»-agarda barcha tekshirilgan me‘yorlarning 50%dan ortig‘i «a’lo» qolganlari esa «yaxshi»bahoga bajarilgan bo‘lsa. V. «a’lo» «a’lo»-agarda barcha tekshirilgan me‘yorlarning 100% «a’lo» bahoga bajarilgan bo‘lsa. S. «a’lo» «a’lo»-agarda barcha tekshirilgan me‘yorlarning 60%dan ortig‘i «a’lo»qolganlari esa «yaxshi»bahodan kam bo‘lmasa. D. «a’lo» «a’lo»-agarda barcha tekshirilgan me‘yorlarning 50%dan ortig‘i «a’lo»qolganlari esa talab darajasida bo‘lsa.

**128. Uch kunlik dala-o‘quv mashg‘ulotlari qachon o‘tkaziladi?**

A. Direktorning buyrug‘idan keyin. V. MIB, hokimyat bilan kelishilgandan keyin. S. O‘R MV buyrug‘idan keyin. D. \*O‘qitishning yakuniy bosqichida.

**129. Uch kunlik dala-o‘quv mashg‘ulotlari kimning rejasiga muvofiq o‘tkaziladi?**

A. Harbiy rahbarning. V. \*SHaxar (tuman) hokimligining rejasiga. S. O‘R MV va IIV rejasiga. D. Soha mutaxasislarining rejasiga.

**130. Uch kunlik dala-o‘quv mashg‘ulotlari qaerda o‘tkaziladi?**

A. Barhavo va jihozlangan joylarda. V. \*MSSL da, otaliqda bo‘lgan h/q da. Ta’lim muassasalarida. S. Ta’lim muassasalariga yaqin bo‘lgan joylarda. D. Ta’lim muassasalarida.

**131. DO‘M da «otish tayyorgarligi » bo‘yicha nechanchi mavzu va mashg‘ulotlar o‘tkaziladi?**

A. 1-mavzu 11-15 mashg‘ulotlar. V. 2-mavzu 14-15 mashg‘ulotlar. S. 3-mavzu 13-15 mashg‘ulotlar. D. \*4-mavzu 13-14 mashg‘ulotlar.

**132. DO‘M uchun umumiy baho qo‘yishda «a’lo»baho qo‘yish tartibi?**

A. \*«a’lo»-agarda dasturning «HIA»va«OT» bo‘limlaridan «a’lo» «AJT»dan «yaxshi» bahodan kam bo‘lmasa, shuningdek «namunali», «yaxshi»odob-axloqqa ega bo‘lsa. V. «a’lo»-agarda dasturning «HIA» va «HXA» bo‘limlaridan «a’lo» «AJT»dan «yaxshi» bahodan yuqori bo‘lmasa, shuningdek «namunali», «yaxshi»odob-axloqqa ega bo‘lsa. S. «a’lo»-agarda dasturning «HIA» va «AJT» bo‘limlaridan «a’lo» «OT»dan «yaxshi» bahodan kam bo‘lmasa, shuningdek «namunali», odob-axloqqa ega bo‘lsa. D. «a’lo»-agarda dasturning «HIA» va bo‘limlaridan «a’lo» «AJT»dan «yaxshi» bahodan kam bo‘lsa, shuningdek, «yaxshi»odob-axloqqa ega bo‘lsa.

**133. «YOCHQBT» bo‘yicha yakuniy bahoning «a’lo» bahosini qo‘yish tartibi?**

A. «a’lo» - agarda. DO‘M uchun. «a’lo», shuningdek «YOchqbt» bo‘yicha yillik bahosi «yaxshi»bahodan yuqori bo‘lsa. V. «a’lo» - agarda. DO‘M uchun. «a’lo», shuningdek «YOchqbt» bo‘yicha yillik(kurs) ahosi talabga javob bersa. S. \*«a’lo» - agarda. DO‘M uchun «a’lo», shuningdek «YOCHQBT» bo‘yicha yillik (kurs) bahosi «yaxshi» bahodan past bo‘lmasa. D. «a’lo» - agarda. DO‘M uchun . «a’lo», «YOCHQBT» bo‘yicha yillik (kurs) bahosi 50% dan yuqori bo‘lsa.

**134. Haftalik reja qancha muddatga tuziladi?**

A. bir haftaga. V. O‘n haftaga. S. Bir oyga. D. \*Bir yilga.

**135. Kalendar reja qancha muddatda qayta ishlanadi?**

A. eskirib qolganda. V. direktor aytganda. S. har oyda. D. \*Yiliga.

**136. Kalendar reja nimaga asoslanib o‘zgartiriladi?**

A. Pedagogik kengashining qaroriga. V. \*O‘R MV va boshqaruvchi xujjatlarning talablari va CHHT fakutetlari (kafedralari) OTM hamda harbiy qo‘shinlarning ilg‘or tajribasidan kelib chiqib. S. O‘R MV va boshqaruvchi xujjatlarning talablaridan kelib chiqib. D. O‘R MV harbiy qo‘shinlarning ilg‘or tajribasidan kelib chiqib.

**137. «YOCHQBT»dasturi bo‘yicha FH mashg‘ulotlarini ta‘minlash uchun tabel vositalarining umumiy ro‘yhati qancha?**

A. 21ta. V. \*14ta. S. 18ta. D. 16ta.

**138. «YOCHQBT»dasturi bo‘yicha TBA mashg‘ulotlarini ta‘minlash uchun tabel buyumlarining umumiy ro‘yhati qancha?**

A. \*20ta. V. 18ta. S. 16ta. D. 14ta.

**139. YOCHQBT»dasturi bo‘yicha o‘quv adabiyotlarning tabel ta‘minoti ro‘yhati qancha?**

A. 9ta. V. 10ta. S. \*12ta. D. 14ta.

**140. Dastur davlatning qaysi organi tomonidan ishlab chiqariladi?**

A. \*O‘R MV tomonidan. V. O‘R SSV, SMV tomonidan. S. To‘rtadan kam bo‘lmagan vazirliklar tomonidan. D. O‘R OO‘MTV va HT vazirliklari tomonidan.

**141. Ta‘lim muassasalaridagi nazorat mashg‘ulotlari dasturdagi qaysi bo‘limlarni bo‘limlarni o‘z ichiga oladi?**

A. Amaliy jismoniy tayyorgarlik, fuqorlar himoyasi. V. Harbiy xizmat asoslari, otish tayyorgarligi, Amaliy jis. tayyor. S. Harbiy ish asoslari, otish tayyor. Amaliy jis.tayyor. D. \*Fuqorlar himoyasi, harbiy xizmat asoslari, nazorat mashg‘ulotlari.

**142. O‘qituvchi mashg‘ulot o‘tishdan qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?**

A. \*O‘quv, tarbiyaviy. V. O‘quv, tarbiyaviy, kelajakni. S. Ta‘lim, istiqbolini. D. Istiqbolli, ta‘lim va tarbiyani

**143. Muammoli o‘qitishning mohiyati;**

A. \*Talabalarni muammoli o‘qitish jarayonida faolligini oshirish. V.Talabalar oldiga belgilangan muammoni qo‘yish. S Qulay vaziyat yaratish va to‘g‘ri qaror qabul qilish. D. Mustaqil fikrlashga o‘rgatish

**144. Dasturlashtirilgan o‘qitish uslubini qo‘llashdagi texnika vositalari...?**

A.Dioproektor, kinoproektor, plakatlari, avtomat maketlari, murakkab elektrik va elektron qurilma, kompyuter texnikasi. V. Sodda mexanik va elektrik qurilmalar, joy maketi. S. \*Elektr va elektron qurilmalar, kompyuter texnikasi, muzokara, (kodli) jadvallar, kodli bloknotalar, tarqatma material. D. O‘quv qurollari, o‘quv o‘q dorilari, dozimetrik asboblari

**145. «Didaktika» bu-...?**

A. Hayot faoliyati jarayonini o‘rgatadi, tamoyillarini shakllantiriladi. V. Bu pedagogik tarbiyalash roliga o‘qitish soxasi. S. \*Pedagogika tarmog‘i bo‘lib ta‘lim berish va o‘qitishning ishlab chiqilgan nazariyasi. D. «Didaktika»- bu ta‘lim-tarbiya borasida pedagogik izlanishdir.

**146. «Harbiy didaktika» bu-...?**

A. Harbiy ta‘lim jarayonini o‘rganadi, uning tamoyillarini shakllantiradi. V. \*Ta‘lim va o‘qitish nazariyasining ishlab chiquvchi harbiy pedagogika tarmog‘i. S. Fikr yuritishni o‘rgatuvchi qonuniyat, uning tamoyillarini shakllantiradi. D. O‘qitishda tarbiyalashning rol va usullarini ilmiy ishlab chiqadi va belgilaydi.

**147. «Ta‘lim» bu --...?**

A. \*Tizimlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni va natijasi. V. Bilim va mahoratlarni o‘zlashtirish jarayoni. S. Tizimlashtirilgan bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va natijasi. D. O‘zlashtirilgan bilim va malakalarni amalda qo‘llash imkoniyati.

**148. «O‘qitish» bu -- ...?**

A. Bilim berish va o‘zlashtirish shakli. V. \*Anglash faoliyatida bilim mahoratini berish va o‘zlashtirish jarayoni. S. Er yuzidagi odamlarning hayot faoliyatlari haqida. D. Talabalarning siqidildan o‘qishni hoxlash jarayoni.

**149. «Aralash dars» bu -- ...?**

A. Nazariy. Amaliy darslarni o'z ichiga oladigan mashg'ulotlar. V. Boshqa tur darslarga ta'luqli barcha elementlarning kattaqismini tashkil etadigan. S. \*Ancha keng yoyilgan dars turi bo'lib boshqa turdagi darslarga hos bo'lgan elementlarni barchasini yoki katta qismini o'ziga jamlaydi, yangi bilimlarni etkazadi, ularni tekshiradi va mustahkamlaydi. D. G'ayri oddiy uslublar bilan o'qitiladigan darslar.

**150. Oldingi o'rganilgan materiallar nima maqsadda tekshiriladi?**

A. \*Takrorlash va nazorat qilish maqsadida shuningdek Talabalarning Yangi materillarni o'zlashtirishga tayyorlash. V. Bu odatiy hol bo'lib Talabalarning oldida o'qituvchini obro'sini oshiradi hamda Talabalarning xushyorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. S. Bilim darajasini aniqlash maqsadida. D. Amaliy darslarni o'z ichiga olish maqsadida.

**151. Mashg'ulotning borishida doimiy e'tiborga qanday erishiladi?**

A. Mashg'ulot boshidan oxirigacha tik to'rgan holda sinf xonasini kuzatgan holda o'tkaziladi. V. \*Materialni aniq ifoda etish, xarakterning o'ziga hos tomonlari, tashqi qiyofa, turish-turmish, hatti-harakat va nutq bilan. S. Talabalarni o'quv materiallariga uzluksiz qiziqtirish bu amalda mumkin emas. D. Turli tuman harakatlar bilan.

**152. O'qituvchi ko'p so'zli va umumiy tasavvurlardan e'tiborni olib qochish uchun nimalar qilish kerak?**

A. Tushintirishnida oddiydan murakkabga qarab bajarish kerak. V. Qismandan umumiylikka yoki aksincha. S. Induksiya usulidan foydalanib boshqachasi esa deduktiv usulini qo'llab. D. \*Kirish so'zlari bilan uzundan – uzun jumalarga yo'l qo'ymaslik zaruriyati bo'lmaganda talaffuz qilish qiyin bo'lgan so'zlardan foydalanmaslik.

## **ADABIYOTLAR**

1. Sotvoldiev A.YU “CHaqiruvga qadar harbiy ta’limni tashkil etish va uning metodikasi” O‘quv qo‘llanma I qism. Toshkent – 2007 y.
2. Sotvoldiev A.YU “CHaqiruvga qadar harbiy ta’limni tashkil etish va uning metodikasi” O‘quv qo‘llanma II qism. Toshkent – 2007 y.
3. O.Ortikov, SH. Ubaydullaev, I. Tuxtashev, B. Gafurov “CHaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” I qism. Toshkent – “ILM ZIYO” – 2005 y.
4. B.B. GAFUROV ”Boshlang‘ich umumqo‘shin harbiy tayyorgarlik bo‘yicha” O‘quv qo‘llanma. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. “SHarq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririylati Toshkent-2005 y.
- 5.”O‘zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlarining umxarbiy nizomlari” «SHarq» nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririylati toshkent – 2007 y.
- 6.podpolkovnik J.S.Sayjalolov va kapitan O.M. Qodirov ”Qo‘shinlarning kundalik faoliyatini boshqarish” G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – 2005 y.
- 7.Qurolli Kuchlari akademiyasi ”Umumiy taktika” Mudofaa vazirligi – “SHarq” Toshkent–2004 y.
- 8.”O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi”. O‘zbekiston nashriyoti 2002 yil.
9. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonun 2002 yil 12 dekabr.
10. «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonun 2001 yil 11 may.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar.**

1. CHaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi. Andijon nashriyoti 2003 yil.
- 2.”Harbiy rahbar yo‘riqnomasi”. Nizomi pedagogika universiteti muallif Ikromov I. G. Karimova
3. «CHaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikni tashkil qilish va uning uslubiyoti» dasturi. Toshkent 1993 y
4. «Vatan himoyasi muqaddas burch» O‘zbekiston 2001 yil.
5. “Vatan tuyg‘usi”. O‘zbekiston 1996 yil.